

Nilufar RASULOVA

ONA TILIDAN MA'RUZALAR

Repetitorlar va oliy ta'lif muassasalariga
mustaqil tayyorlanuvchilar uchun

FONETIKA

GRAFIKA

ORFOEPIYA

ORFOGRAFIYA

LEKSIKOLOGIYA

LUG'ATLAR



Nilufar RASULOVA

ONA TILIDAN MA'RUZALAR

I KITOB

To'ldirilgan qayta nashr

(*Repetitorlar va oliy ta'lif muassasalariga
mustaqil tayyorlanuvchilar uchun*)



Toshkent
«Nurafshon ziyo yog'dusi»
2017

UO'K 811.512.133(075)

KBK 81.2 O'zb

R 25

Rasulova, Nilufar.

Ona tilidan ma'ruzalar [Matn] K.I: o'quv qo'llanma / N.Rasulova. – Toshkent: «Nurafshon ziyo yog'dusi, 2017. – 528 b.

UO'K 811.512.133(075)

KBK 81.2 O'zb

«Ona tili fanidan ma'ruzalar» qo'llanmasini tuzishda amaidagi «Ona tili» va «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani darsliklariga tayanildi. Ushbu qo'llanma 3 ta kitobdan iborat.

Birinchi qism grammatika haqida boshlang'ich ma'lumot, fonetika, orfografiya, orfoepiya, grafika, leksikologiya, leksikografiya mavzularini o'z ichiga oladi.

Ikkinci qismda morfemika (asos va qo'shimchalar), morfologiya (so'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, undov so'zlar, taqlid so'zlar, inkor va tasdiq so'zlar) haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Uchinchi qismda sintaksis mavzusi yoritilgan.

Birinchi kitobdan omonimlar lug'ati (1000 ga yaqin so'z), morfem lug'at (400 ga yaqin qo'shimcha), omonim qo'shimchalar lug'ati (100 ga yaqin omonim qo'shimcha) kabilar o'rinni olgan.

Har bir mavzuni mustahkamlash uchun test savollari kiritilgan.

«Ona tili fanidan ma'ruzalar» qo'llanmasi, avvalo, oliv o'quv yurtiga mustaqil tayyorgarlik ko'rvuchilar uchun, shuningdek, soha bilan qiziqqan barcha o'quvchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

A.Sobirov, filologiya fanlari doktori, professor,

T.Enazarov, filologiya fanlari doktori, professor,

D.Shodiyeva, filologiya fanlari nomzodi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining 2015-yil 26-dekabrdagi ilmiy metodik kengashi 7-son bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

© «Nurafshon ziyo yog'dusi», 2017

ISBN 978-9943-5028-3-3

© Nilufar Rasulova, 2017

20/20/17
A 180

Alisher Navoly
nomidagi
O'zbekiston MK

1046535
2101

1-MAVZU. KIRISH

GRAMMATIKA HAQIDA BOSHLANG'ICH MA'LUMOT

1-§. MORFOLOGIYA

Ona tili fani bir necha bo'limlardan iborat. Shulardan biri – grammatika.

Grammatika ikkiga bo'linadi: morfologiya va sintaksis. Morfologiyada so'z turkumlari o'rganiladi. Sintaksida so'z birikmasi, gap va uning turlari o'rganiladi.

So'z turkumlari

T/r	Mustaqil so'zlar	T/r	Yordamchi so'zlar	T/r	Alovida so'zlar
1	Ot	1	Ko'makchi	1	Undov so'zlar
2	Sifat	2	Bog'lovchi	2	Taqlid so'zlar
3	Son	3	Yuklama	3	Modal so'zlar
4	Olmosh			4	Tasdiq va inkor so'zlar
5	Ravish				
6	Fe'l				

Biror so'roqqa javob bo'lib, ko'pincha atash ma'noni bildiruvchi, gapda ma'lum bir gap bo'lagi yoki undalma vazifasida keladigan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi.

So'roqqa javob bo'lmaydigan, atash ma'nosini bildirmaydigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi.

So'zning ikki xil ma'nosи mavjud: atash ma'no (lug'aviy ma'no), grammatik ma'no.

Mustaqil so'z turkumlari atash ma'nosiga ega (olmosh bundan mustasno).

Barcha so'z turkumlari grammatik ma'noga ega.

Eslatma: atamalar (terminlar) ikki xil yo'l bilan hosil bo'лади: umumxalq tilidagi so'zlardan va boshqa xalq tillaridagi so'zlardan olinadi.

Sinus, kosinus, omonim, sinonim, antonim kabi so'zlar o'zlashma so'zlardir.

Ot, sifat, olmosh kabi so'zlar umumxalq tilidan olingan.

Ko'zimizga ko'ringan va ko'rinnagan predmetlarning nom(ot)ini ifodalovchi so'zlar ot so'z turkumiga kiradi. Predmetlarning sifatini (*chiroyli* – *xunuk*, *yaxshi* – *yomon*) ifodalovchi so'zlar sifat so'z turkumi hisoblanadi. Predmetlarning sonini bildiruvchi so'zlar son so'z turkumi hisoblanadi. «Olmosh» so'zi xalq tilida ishlataladigan «*almash*» so'zidan olingan. Hozir ham ayrim shevalarda *olmoshtirib bering* (*almashtirib bering*) birikmasi qo'llaniladi. Olmosh boshqa so'z turkumlari, so'z birikmasi, hatto gap o'rnidagi ham **almashib qo'llanadi**. O'rinsiz takrorlardan qutqaradi, fikrni ixcham, sodda qilib ifodalashga yordam beradi.

So'zlarning atash (lug'aviy ma'nno – leksik ma'nno) va grammatik ma'nolari

T/r	So'zlar	Atash ma'nosi (So'zning atash ma'nosi leksikologiyada o'rganiladi)	Grammatik ma'nosi (So'zning grammatik ma'nosi morfologiya o'rorganiladi)
1.	kitob	o'quv quroli	ot so'z turkumi, nima? so'-rog'iga javob bo'ladi, turdosh ot, narsa oti, bosh kelishik, birlikda, aniq ot, sodda tub ot.
2.	chaqaloq	yangi tug'ilgan inson farzandi	ot so'z turkumi, kim? so'-rog'iga javob bo'ladi, turdosh ot, shaxs oti, bosh kelishik, birlikda, aniq ot, sodda ot.
3.	maysa	o'simlik	ot so'z turkumi, nima? so'-rog'iga javob bo'ladi, turdosh ot, narsa oti, bosh kelishik, birlikda, aniq ot, sodda tub ot.
4.	kutubxona	kitob, jurnal va shu kabi-larni to'plash, saqlash, ularni tashviqot qilish, o'quvchilarga	ot so'z turkumi, qayer? so'-rog'iga javob bo'ladi, o'rining oti, bosh kelishik, birlikda, aniq ot, qo'shma ot

		foydalaniш uchun berish bilan shug'ul- lanuvchi muas- sasa (joy)	
5.	qizil	rang	sifat so'z turkumi, qanday? so'rog'iga javob bo'ladi, asliy sifat, oddiy daraja, tub sifat
6.	juda nordon	ta'm	sifat so'z turkumi, qanday? so'rog'iga javob bo'ladi, asliy sifat, ortirma daraja, tub sifat
7.	yetti	miqdor	son so'z turkumi, necha? so'rog'iga javob bo'ladi, sanoq son, tub son
8.	yettinchi	tartib	son so'z turkumi, nechan-chi? so'rog'iga javob bo'ladi, tartib son, tub son
9.	tez	holat	ravish so'z turkumi, qanday? so'rog'iga javob bo'ladi, holat ravishi, oddiy daraja, tub ravish
10.	yurdi	harakat	fe'l so'z turkumi, nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladi, bo'lishli, o'timsiz, sodda tub fe'l, o'tgan zamon, III shaxs, xabar mayli
11.	Beruniy Xorazmning qadimiy poytaxti Kot (Kat) shahrida tug'ilgan. <u>Uning</u> ismi Muhammad, otasining ismi Ahmad-dir.	<u>luq'aviy</u> <u>ma'noga ega emas</u>	Bu gapda Beruniy atoqli oti o'mida uning so'zi almashib, atoqli ot ifodalagan ma'noni anglatadi. <i>Uning</i> so'zi – olmosh so'z turkumiga mansub, kimning? so'rog'iga javob bo'ladi, qaratqich kelishigida, sodda olmosh

12.	va	<u>lug'aviy ma'noga ega emas</u>	teng bog'lovchi, biriktiruv bog'lovchi, so'z (uyushiq bo'laklar) va gaplarni bir biriga teng bog'laydi
13.	kabi	<u>lug'aviy ma'noga ega emas</u>	sof ko'makchi, ikki so'zni bir-biriga tobelantirib bog'laydi
14.	hatto	<u>lug'aviy ma'noga ega emas</u>	so'z yuklama – kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi

So'zning lug'aviy ma'nosi **leksikologiyada**, grammatik ma'nosi **morfologiyada** o'rganiladi.

**So'zlar atash ma'nosiga ko'ra
quyidagi turlarga bo'linadi:**

Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar	Atash ma'nosiga ega bo'lmasagan so'zlar
ot, sifat, son, ravish, fe'l, taqlid so'zlar	olmosh, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama, modal so'zlar, undov so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar

Mustaqil so'zlar so'roqqa javob bo'ladi, atash ma'nosiga ega, gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Yordamchi so'zlar so'roqqa javob bo'lmaydi, atash ma'nosiga ega emas, yakka o'zi gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi.

Mustaqil so'z turkumlari

So'z turkum- lari	So'roqlari	Gapda asosan quyidagi vazifalarda keladi	Lug'aviy ma'nolari
ot	kim? nima? qayer?	ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol	shaxs, narsa, joy, faoliyat- jarayon, mavhumlik

sifat	qanday? qanaqa? qaysi?	aniqlovchi va kesim	xil-xususiyat, maza-ta'm, rang-tus, shakl-hajm, hid, makon-zamon
son	qancha? nechta? nechanchi?..	aniqlovchi, hol, kesim	miqdor, tartib
olmosh	Qaysi so'z turkumi o'rnila kelsa, shu so'zlarning so'rog'iga javob bo'ladi	ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol	olmosh lug'aviy ma'noga ega emas, qaysi so'z turkumi o'rnila kelsa, unga ishora qiladi
ravish	qanday? qancha? qay holatda? qay tarzda? qachon? qayerda? qayerga? qayerdan? nega?	hol	holat, daraja- miqdor, payt, o'rin, maqsad, sabab
fe'l	nima qilmoq? nima bo'lmoq?..	kesim	harakat, holat

Yordamchi so'z tarkumlari

Yordamchi so'z tarkumlari	Yordamchi so'z tarkumlariga misollar	Grammatik vazifasi
ko'makchi	sof ko'makchilar: bilan, uchun, kabi, sari, singari sayin, uzra, qadar, yanglig', haqida, to'g'risida, tufayli, birga, holda...	Ikki so'zni (so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni) bir-biriga tobelantirib bog'laydi
bog'lovchi	va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq...	So'zlarni (uyushiq bo'laklarni) va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi
yuklama	-mi, -chi, -a, -ya, -u, -yu, -da, -gina, -oq, -yoq, -dir, axir, hatto, hattoki, hech, aslo, sira	So'zlarga va gaplarga qo'shimcha ma'nno yuklaydi

Mustaqil so'z tarkumlari va yordamchi so'z tarkumlarining o'zaro farqlari

So'z tarkum-lari	Lug'aviy ma'noga egaligi	Grammatik ma'noga egaligi	So'roqqa javob bo'lishi	Gapda bajaradigan vazifasi
Mustaqil so'zlar	Lug'aviy ma'noga ega	Grammatik ma'noga ega	So'roqqa javob bo'ladi	Yakka o'zi gap bo'lagi (ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bo'lib kela oladi
Yordam-chi so'zlar	Lug'aviy ma'noga ega emas	Grammatik ma'noga ega	So'roqqa javob bo'lmaydi	Yakka o'zi gap bo'lagi bo'lib kela olmaydi

Alovida so'zlar

So'z turkumlari	Quyidagi so'z turkumlariga mansub so'zlar	Lug'aviy ma'noga egaligi	Grammatik ma'noga egaligi
Undov so'zlar	His-hayajon undovlari: <i>eh, oh, uh</i> kabi; buyruq-xitob undovlari: <i>ey, hey, allo; ma, tss, jim, marsh; assalomu alaykum, rahmat, marhamat, barakalla, ofarin, tasadduq; tu-tu, kisht-kisht; drr</i>	Lug'aviy ma'noga ega emas	Grammatik ma'noga ega
Taqlid so'zlar	Tovushga taqlidni bildiruvchi so'zlar: <i>gumbur-gumbur, qasir-qusur</i> kabi; holatga taqlidni bildiruvchi so'zlar: <i>yalt-yult, yarq-yurq</i> kabi	Lug'aviy ma'noga ega	Grammatik ma'noga ega
Modal so'zlar	<i>albatta, jumladan, shuningdek, avvalo, birinchidan, xullas</i> kabi	Lug'aviy ma'noga ega emas	Grammatik ma'noga ega
Tasdiq va inkor so'zlar	Tasdiq so'zlar: <i>ha, xo'p, mayli; inkor</i> so'zlar: <i>yo'q, mutlaqo</i> kabi	Lug'aviy ma'noga ega emas	Grammatik ma'noga ega

Ot

Shaxs, narsa-buyum, joy nomlarini bildirib, kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'luvchi mustaqil so'zlarga **ot** deyiladi.

Otlar son, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi. Gapda otlar bosh va ikkinchi darajali bo'lak, shuningdek, undalma vazifasida keladi.

Otlar birlik va ko'plik sonda qo'llanadi. Ko'plik -*lar* qo'shimchasi qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Masalan, *bola* – birlik son, *bolalar* – ko'plik son.

Otning doimiy xususiyati – kelishik va sonda kelishi.

Egalik qo'shimchasi otning doimiy xususiyati emas. Masalan, *kitob* so'zi bosh kelishikda va birlikda, egalik qo'shimchasi esa yo'q.

Turdosh va atoqli otlar

Bir turdag'i narsa-buyumning nomini bildirgan otlar **turdosh ot** deyiladi. Masalan, *qishloq*, *choynak*, *aka*, *daraxt*.

Ayrim shaxs yoki narsa-buyumga atab qo'yilgan nomlar **atoqli ot** deyiladi. Kishilarning ismi, familiyasi, joy hamda hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, gazeta, kitob, jurnal, tarixiy voqealarning nomlari atoqli otlardir. Masalan, *Toshloq tuman*, «*Gulxan*» *jurnali*, *Mustaqillik kuni*, *Olapar*.

Atoqli otlar doimo **bosh harf bilan** yoziladi.

Kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, binolar hamda tashkilotlarga atab qo'yilgan nomlar qo'shtirnoq ichiga olinadi. Ammo shahar, kinoteatr, jamoa xo'jaligi kishilar nomiga qo'yilgan bo'lsa, qo'shtirnoq ishlatilmaydi. Ularda *nomidagi*, *nomli* so'zlari qo'llanadi.

Kelishik qo'shimchalari

Otlarga qo'shilib, ularni o'zidan keyin kelgan boshqa so'zlarga tobelantririb bog'lab keladigan qo'shimchalarga **kelishik qo'shimchalari** deyiladi.

Tilimizda 6 ta kelishik mavjud bo'lib, ulardan beshtasining qo'shimchasi bor:

- 1) bosh kelishik (-);
- 2) qaratqich kelishigi (-ning);
- 3) tushum kelishigi (-ni);
- 4) jo'nalish kelishigi (-ga, -ka, -qa);
- 5) o'r'in-payt kelishigi (-da);
- 6) chiqish kelishigi (-dan).

Kelishik qo'shimchalar bilan bog'liq tovush o'zgarishlari

Kelishiklar	Qo'shim-chalari	Tovush o'zga-rishlari	Misollar
Bosh kelishik	-	-	-
Qaratqich kelishigi	-ning	tovush tushadi	men+ning – mening
Tushum kelishigi	-ni	tovush tushadi	men+ni – meni
Jo'nalish kelishigi	-ga	tovush almashadi, tovush ortadi	yurak+ga – yurakka, qishloq+ga – qishloqqa; u+ga – unga
O'r'in-payt kelishigi	-da	tovush ortadi	u+da – unda
Chiqish kelishigi	-dan	tovush ortadi	u+dan – undan

Egalik qo'shimchaları

Otlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildirgan qo'shimchalarga **egalik qo'shimchaları** deyiladi.

Egalik qo'shimchalari: -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -i; -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -i.

Egalik qo'shimchasi qo'shilgan ot, albatta, o'zidan oldingi otning **qaratqich kelishigida** kelishini talab qiladi.

K va **q** undoshlari bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, qanday eshitilsa, shunday yoziladi, ya'ni ba'zan **k** undoshi **g** tovushiga, **q** undoshi **g'** tovushiga o'zgaradi. Masalan, *tuproq* – *tuprog'i*, *terak* – *teragi*. Ayrim so'zlarda bunday o'zgarish yuz bermaydi. Masalan, *huquq* – *huquqi*, *idrok* – *idroki*.

O'g'il, burun kabi otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi i yoki u unlisi tushib qoladi va o'g'li, burni kabi yoziladi.

Egalik qo'shimchalari bilan bog'liq tovush o'zgarishlari

Tovush tushadi	Tovush almashadi	Tovush ortadi
shahar+i – shahri	tilak+i – tilagi	parvo+im – parvoyim
zahar+i – zahri	qaymoq+i – qaymog'i	obro'+im – obro'yim
o'g'il+i – o'g'li	tuproq+i – tuprog'i	mavqe+im – mavqeyim
singil+i – singli	terak+i – teragi	mavzu+im – mavzuyim
burun+i – burni	yaproq+i – yaprog'i	avzo+im – avzoyim

Sifat

Qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'lib, narsa-buyumning belgisini bildirgan so'zlarga **sifat** deyiladi.

Belgi deganda rang-tus, maza-ta'm, shakl-hajm, xil-xususiyat kabilar tushuniladi.

Sifat gapda asosan **aniqlovchi** yoki **kesim** bo'lib keladi.

Sifat gapda otga bog'lansa aniqlovchi, gapning oxirida kelsa kesim vazifasini bajaradi. Masalan, *Bu ko'rkan bino – kasb-hunar kolleji*. *Bu gullar xushbo'y*.

Sifat darajalari

Bir belgining narsa-buyumlar orasida ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi **sifat darajasi** deyiladi.

Sifatlarda to'rtta daraja bor: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, ozaytirma daraja.

Narsa-buyumlar orasidagi belgi o'zaro taqqoslanmasa, oddiy daraja deyiladi. Masalan, yuksak, *uzun, hushyor, kalta*.

Bir narsa-buyumdag'i belgining boshqalariga nisbatan ortiq yoki kamlig'i giyosiy daraja deyiladi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga *-roq* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi. Masalan, yuksakroq, *uzunroq, hushyorroq, kaltaroq*.

Belgining bir narsa-buyumda boshqalariga nisbatan eng ko'p ekanlig'i orttirma daraja deyiladi. Orttirma daraja eng, *juda, nihoyat* kabi so'zlar bilan hosil bo'ladi. Masalan, eng yuksak, *juda uzun...*

Belgining bir narsa-buyumda boshqalariga nisbatan eng kam ekanlig'i ozaytirma daraja deyiladi: *och sariq, oqish, ko'kimtir*.

Son

Qancha? necha? nechanchi? so'roqlariga javob bo'lib, narsalarning son-sanog'i va tartibini bildirgan so'zlarga son deyiladi.

Sonlar ikkiga bo'linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar.

Qancha? necha? so'roqlariga javob bo'lgan sonlar miqdor sonlar, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan sonlar tartib sonlar hisoblanadi.

Son gapda otga bog'lansa aniglovchi, fe'lga bog'lansa hol, gapning oxirida kelsa kesim vazifasini bajaradi. Masalan, *Sinfimizda yigirma besh o'quvchi bor. U olmadan beshta oldi. O'nning yarmi – besh.*

Sonlarning yozilishi

Ikki, olti, yetti sonlari jamlikni bildiruvchi *-ov, -ala, -ovlon* qo'shimchalari qo'shilganda, o'zak oxiridagi *i* unlisi tushib qoladi: *ikkala, oltov, yettov*.

Tartib sonlar raqam bilan yozilganda *-nchi, -inchi* qo'shimchalari o'rniqa chiziqcha qo'yiladi: *2002-yil, 22-dekabr, 5-sinf, 3-qavat*.

Tartib sonlar rim raqamlari bilan yozilganda bu qo'shimchalari o'rniqa chiziqcha qo'yilmaydi: *IX sinf, XXI asr*

Bir so'ziga **-ta** qo'shimchasi qo'shilsa, **bitta** deb aytildi va shunday yoziladi.

Olmosh

Ot, sifat, son va boshqa so'zlar o'rnila qo'llanib ularga ishora qiluvchi so'zlar **olmosh** hisoblanadi.

Olmoshlar qaysi so'z o'rnila qo'llansa, o'sha so'zning so'rog'iga javob bo'ladi.

Men, sen kishilik olmoshlariga qaratqich va tushum kelishi-gi qo'shimchalari hamda **-niki** qo'shimchasi qo'shilsa, bir **n** undoshi tushib qoladi: **Men+ning – mening, sen+niki – seniki.**

U, bu, shu, o'sha olmoshlariga jo'nalish, o'r'in-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari: **-ga, -da, dan** hamda **-dek, -day -aqa, -cha** qo'shimchalari qo'shilsa, **n** undoshi orttiladi: **unga, shunda, bunda, shunday, bunaqa, shuncha** kabi.

Fe'l

Nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lib, harakat-holatni bildiruvchi so'zlarga **fe'l** deyiladi.

Fe'llar zamon, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi qo'shimchalarga ega bo'ladi. Masalan, *yozmadim* so'zida **-ma** qo'shimchasi (bo'lishsizlik), **-di** qo'shimchasi (zamon), **-m** qo'shimchasi esa shaxs-son ma'nolarini bildiradi.

Fe'l zamonlari

Fe'lidan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabati **fe'l zamonlari**, shunday ma'no-ni ifodalovchi qo'shimchalar esa **zamon qo'shimchalari** deyiladi.

Fe'llarda uchta zamon bor: 1) o'tgan zamon; 2) hozirgi zamon; 3) kelasi zamon. Bu uch xil ma'no maxsus qo'shimchalar yordamida ifodalanadi va ular zamon qo'shimchalari hisoblanadi.

O'tgan zamon

-di, -ibdi (fe'l unli bilan tugasa **-bdi**), **-gan edi, -gan ekan** qo'shimchalari bilan kelib, ish-harakat va holatning nutq jarayonidan oldin bo'lganini yoki bo'lmasligini bildirgan fe'llarga **o'tgan zamon fe'lli** deyiladi.

O'tgan zamon fe'llari uchala shaxsda tuslanadi.

Masalan, *bordim, boarding, bordi; bordik, boardingiz, bordi(lar)*.

Hozirgi zamon

-yapti, -yotir, -moqda qo'shimchalari bilan kelib, ish-harakat va holatning nutq jarayonida yuz berayotgani yoki bermayotganini bildirgan fe'llarga **hozirgi zamon fe'llari** deyiladi.

Kelasi zamon

-adi, -ui, -a'ak, -moqchi qo'shimchalari bilan kelib, ish-harakat va holatning nutq jarayonidan keyin yuz berishi yoki bermasligini bildirgan fe'llarga **kelasi zamon fe'llari** deyiladi.

Shaxs-son qo'shimchalari

Fe'lidan anglashilgan ish-harakat va holatning so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zgaga tegishli ekanligini bildiruvchi qo'shimchalarga **shaxs-son qo'shimchalari** deyiladi.

So'zlovchi 1-shaxs, tinglovchi 2-shaxs, o'zga 3-shaxs hisoblanadi.

Yozdim, yozding, yozdik, yozdingiz, yozdilar, o'qiymen, o'qiysan, o'qiymiz, o'qiysiz, o'qiydilar.

Ravish

Qanday? qancha? qachon? singari so'roqlarga javob bo'lib, harakatning holati, daraja-miqdorini bildirgan so'zlar **ravish** sanaladi.

Ravish asosan fe'lga bog'lanadi va gapda ko'proq hol vazifasida keladi.

Masalan, ***Avval o'yla, keyin so'yla.***

Yordamchi so'zlar

Biror so'roqqa javob bo'lmay, gap yoki gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlarga **yordamchi so'zlar** deyiladi.

Bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalar yordamchi so'zlardir.

Bog'lovchilar

Uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar **bog'lovchi** sanaladi.

Bog'lovchi gap bo'lagi vazifasida kelmaydi.

Ko'makchilar

Otlarning boshqa so'zlarga tobe bog'lanishi uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlarga **ko'makchilar** deyiladi.

Ko'makchilar ko'pincha otlarni fe'lga bog'lab keladi.
Masalan, Shahar **tomon** ketdi. Daryo **bo'ylab** yurdi kabi.
Ba'zan otni ot, sifat va ravishdoshlarga tobelantirib bog'laydi.
Masalan, Ona **kabi** mehribon. Halimdan **ko'ra** katta.

Yuklama

Ayrim gap bo'lagi yoki butun gapning mazmuniga qo'shimcha ma'nno yuklash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlariga **yuklama** deyiladi.

Yuklamalar so'z-yuklamalar va qo'shimcha-yuklamalarga bo'linadi. So'z maqomidagi yuklamalar o'zi qo'shilayotgan so'zdan doimo ajratib yoziladi. Qo'shimcha maqomidagi yuklamalar esa o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoki undan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. **-mi, -oq (-yoq), -gina, -dir** yuklamalari o'zi qo'shilayotgan so'z bilan **qo'shib yozila-**

di. Masalan, *Keldimi? Senmi?* Keliboq, kelsayooq kabi. **-chi**, **-u (-yu)**, **-a (-ya)**, **-da**, **-ku** yuklamalari o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Masalan, *Sen-chi?* Ayt-**chi?** *Keldi-yu ketdi.* *Borgin-a?*

Undov va taqlid so'zlar

So'zlovchining his-hayajonini, shuningdek, hayvon-parandalarni biror harakatga undashni ifodalovchi so'zlarga **undov so'zlar** deyiladi.

Inson, hayvon va narsalarning tovushlariga taqlidni ifodalovchi so'zlara **taqlid so'zlar** hisoblanadi.

So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari

So'zlar tuzilishiga ko'ra **sodda**, **qo'shma**, **juft** va **takroriy** so'zlarga bo'linadi.

Sodda so'zlar

Bir asosdan iborat bo'lgan so'zlar **sodda so'zlar** hisoblanadi. Sodda so'zlar ikki turli bo'ladi: sodda tub so'zlar, sodda yasama so'zlar. So'z yasovchi qo'shimchasi bo'limgan so'zlar **sodda tub so'zlar** hisoblanadi.

Sodda tub so'zlar: *kitob, bola, maktab...*

Sodda yasama so'zlar: *kitobxon, guld'on, ishla...*


Qo'shma so'zlar

Ikki yoki undan ortiq o'zaklardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'lgan so'zlar **qo'shma so'zlar** deyiladi.

Qo'shma so'zlar imlosi

Qo'shma fe'l va qo'shma sonlar ajratib yoziladi.

Qo'shma so'zlar yozilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar; 2) ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.



Birinchi so'zi ***bir, har, hech*** olmoshlari bo'lgan qo'shma so'zlar, qo'shma sonlar doimo ajratib yoziladi.

Qolgan barcha qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi. ***Birpas, bиро'ла*** kabi ayrim so'zlar bundan mustasno.

Juft so'zlar va ularning imlosi

Ma'nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli ikki o'zakning qo'shiluvidan tashkil topgan so'zlarga **juft so'zlar** deyiladi. Juft so'z qismlari ***chiziqcha bilan ajratib yoziladi***.

Agar juft so'zlar -u, -yu yuklamalari bilan bog'lansa, birinchi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Masalan, *kecha-yu kunduz, past-u baland, osh-u non*.

Takroriy so'zlar imlosi

Bir o'zakning ikki marta takrorlanishidan hosil bo'lgan so'zlarga **takroriy so'zlar** deyiladi. Juft va takroriy so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.

2-§. SINTAKSIS

Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun so'zlarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bir-biriga bog'lab, gap tuzamiz.

So'zlarning bir-biriga bog'lanishi, gap va uning turlarini o'rgatadigan tilshunoslik bo'limiga **sintaksis** deyiladi.

Tinish belgilari va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llash yo'l-yo'riqlarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limiga **puntuatsiya** deyiladi.

Gap

Ohang va fikr tugalligiga ega bo'lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi so'z va so'zlar qo'shilmasiga **gap** deyiladi. Masalan, *Vohid o'rnidan turdi. Yurtimiz qanday chiroyli!* Yozuvda gap oxiriga nuqta, so'roq yoki undov belgilardan biri qo'yiladi va har bir gap bosh harf bilan boshlanadi.

Gapning belgilari:

- a) muomala vositasining eng kichik birligi;
- b) grammatik jihatdan shakllangan bo'ladi;
- c) ohang va fikr tugalligiga ega;
- d) gap tugagandan so'ng tinish belgisi qo'yiladi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi

So'zlarning bog'lanishi ikki xil bo'ladi: teng bog'lanish va tobe bog'lanish.

Olma va o'rik shaklidagi bog'lanish teng bog'lanish, olmani yemoq shaklidagi bog'lanish esa tobe bog'lanish sanaladi.

So'z birikmasi

Ikki so'zning biri tobe, ikkinchisi hokim tarzidagi bog'lanishiga **tobe bog'lanish** deyiladi. Tobe bog'lanishda doim ikkita qism: **tobe va hokim** so'z bo'ladi. Tobe so'z hokim so'zga bog'lanadi. **So'roq hokim so'zga qarab beriladi.** Soroqqa javob bo'lувчи so'z **tobe qism** sanaladi.

Bog'lovchining ham, ko'makchining ham vazifasi – so'zlarni bog'lash. Bog'lovchi so'zlarni teng bog'laydi, ko'makchi tobe bog'laydi. Bog'lovchi uyushiq bo'laklarni teng bog'laydi, ko'makchi so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni tobelantirib bog'laydi.

Demak, gapda so'zlar ikki xil yo'l bilan bog'lanadi: teng bog'lanish, tobe bog'lanish.

Tobe bog'lanish

So'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni quyidagi vositalar bog'laydi:

1. Ko'makchi: qalam bilan yozmoq
2. Kelishik: qalamda yozmoq
3. Ohang: qora qalam

Teng bog'lanish

Uyushiq bo'laklarni quyidagi vositalar bog'laydi:

1. Bog'lovchi: olma va o'rik
2. Sanash ohangi: olma, o'rik, shaftoli

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra to'rt xil bo'ladi:

- 1) darak gap; 2) so'roq gap; 3) buyruq gap; 4) istak gap.

Darak, xabar ma'nosini bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi. Darak gaplar oxiriga yozuvda doimo nuqta qo'yiladi.

So'roq ma'nosini bildirgan gaplar so'roq gaplar hisoblanadi.

So'roq gaplar so'roq olmoshlari (kim? nima? qayer? qancha? kabi); so'roq yuklamalari (-mi, -chi, -a (-ya); so'roq ohangi yordamida ifodalananadi.

So'roq gaplar quyidagicha hosil bo'ladi:

1. So'roq olmoshlari (kim? nima? qachon? qayerda?) yordamida hosil bo'ladi:

– *Kim bo'limoqchisan?*

– *Shifokor.*

2. So'roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya) yordamida hosil bo'ladi:

– *Bugun muzeyga borasanmi?*

– *Ha.*

3. So'roq ohangi yordamida hosil bo'ladi:

– *Bugun tunda yo'lga chiqamiz.*

– *Tunda?*

Yozuvda so'roq gap oxiriga so'roq (?) belgisi qo'yiladi.

So'roq olmoshlari yordamida ifodalangan so'roq gaplar so'roqqa javob bo'lувчи so'zni talab qiladi.

Masalan,

– *Ko'chatlarga kim suv quydi?*

– *Salim.*

So'roq yuklamalari orqali ifodalangan so'roq gaplar *ha* yoki *yo'q* javoblarini talab qiladi.

Yozuvda *-mi* yuklamasi kesimga qo'shib yoziladi. *-chi* va *-a* (*-ya*) yuklamalari esa o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Buyurish, da'vat qilish ma'nolarini bildirgan gaplar buyruq gap sanaladi.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq shaklidagi fe'llar orqali ifodalanadi. Buyruq gap oxiriga nuqta qo'yiladi.

Kesimi *-sa* shaklidagi fe'llar orqali ifodalangan gaplar istak gap hisoblanadi. Masalan, *Xorijiy tillarni yaxshi o'rganib, chet ellarga o'qishga borsam.*

Istak gaplar oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.

His-hayajon gap

Gaplar so'zlovchining his-hayajoni qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga ko'ra his-hayajonsiz gaplar va his-hayajon gaplarga bo'linadi.

His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so'roq, buyruq, istak shaklidagi gaplar his-hayajon gaplar sanaladi. Masalan, *Ey, Vatan! Polvonlaring bor bo'lsin! Uyg'oq bo'lsin!*

His-hayajon gaplarda ko'pincha ***qancha, naqadar, shunchalar, qanday*** kabi so'zlar hamda undov ***so'zlar*** ishtirok etadi yoki **kesim gapning oldida keladi**. Masalan, *Oh, naqadar go'zal ona tabiat!*

Yozuvda his-hayajon gaplar oxiriga undov (!) belgisi qo'yildi. Agar so'roq gap his-hayajon bilan aytilsa, oldin so'roq belgisi, undan so'ng undov belgisi ishlataladi. Masalan, ***Chiqmay-sizmi?!***

Gap bo'laklari

Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi mustaqil so'z yoki so'zlar birikmasi **gap bo'laklari** hisoblanadi.

Kesim

Shaxs-son ma'nolarini ifodalab, ***nima qil (-di, -yapti va boshqalar)? nima bo'l (-di, -yapti va boshqalar)? kimdir? nimadir? qayerdir?*** so'roqlariga javob bo'luvchi mustaqil so'zlar gapda kesim vazifasini bajaradi.

Kesim gapning mazmuniy markazidir. U boshqa bo'laklar-siz ham gap bo'la oladi. Masalan, ***Yaxshimisiz? Keldi.***

Kesim qanday mustaqil so'zlar orqali ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **fe'l kesim** va **ot kesim**.

Fe'l orqali ifodalanib, ***nima qilmoq? nima bo'lmoq?*** so'roqlariga javob bo'luvchi kesimlar **fe'l kesim** hisoblanadi.

Fe'lidan boshqa so'zlar orqali (ot, sifat, son, ravish, olmosh bilan) ifodalanib, ***kim? nima? qanday?*** so'roqlariga javob bo'luvchi kesimlar ot kesim sanaladi. Masalan, ***Osmonimiz musaffo.***

Ega

Kesim bilan bog'lanib, ***kim? nima? qayer?*** singari so'roqlarga javob bo'ladigan bo'lak **ega** deyiladi.

Tahlilda eganing ostiga bir to'g'ri chiziq, kesimning ostiga esa ikki to'g'ri chiziq chiziladi. Ot kesim tarkibida shaxs-son qo'shimchalari qo'llanilmasa, yozuvda egadan keyin tire qo'yiladi. Masalan, **Toshkent – go'zal shahar**

Hol

Fe'lga bog'lanib, *qachon?* qayer? (-da, -ga, -dan)? qanday? *nima uchun?* *nima maqsadda?* singari so'roqlarga javob bo'luvchi gap bo'lagiga **hol** deyiladi.

Hol fe'ldan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini, o'mnini, sababini, maqsadini bildiradi. Tahlil jarayonida hol ostiga nuqtalardan iborat chiziq (.....) chiziladi. **Maktabga** ketdi.

To'Idiruvchi

Fe'lga bog'lanib, **kimga?** **nimaga?** **kimda?** **nimada?** **kim-dan?** **nimadan?** **kimni?** **nimanij?** kim bilan? nima bilan? singari so'roqlarga javob bo'luvchi bo'laklarga **to'Idiruvchi** deyiladi.

Tahlilda to'Idiruvchi ostiga uzuq chiziqchalar (- - - - -) chiziladi. Bu **so'zdan** Hamid ajablandi.

To'Idiruvchi hokim bo'lakka kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanadi.

Aniqlovchi

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning qandayligi, kim-ga yoki nimaga qarashli ekanligini bildirib, *qanday?* *qanaqa?* *qaysi?* *qancha?* *nechta?* **kimning?** **nimaning?** kabi so'roqlarga javob bo'luvchi gap bo'lagiga **aniqlovchi** deyiladi.

Aniqlovchilar ma'nosiga ko'ra **ikki xil** bo'ladi.

1. Sifatlovchi aniqlovchi. 2. Qaratqich aniqlovchi. Tahlilda aniqlovchilar ostiga to'lqinli chiziq chiziladi.

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning belgisini bildirib, *qanday?* *qanaqa?* *qaysi?* *qancha?* so'roqlariga javob bo'lgan aniqlovchiga **sifatlovchi aniqlovchi** deyiladi.

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning uchta shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildirib, **kimning?** **nimaning?** **qa-yerning?** so'roqlariga javob bo'lgan aniqlovchiga **qaratqich aniqlovchi** deyiladi.

Qaratqich aniqlovchi doimo aniqlanmishga bog'lanadi. Ana shu belgi bilan tushum kelishigini olgan to'ldiruvchidan farq qiladi. Tushum kelishigidagi to'ldiruvchi doimo fe'l orqali ifoda-langan kesimga bog'lanadi.

Solishtiring: Olmaning bargi – olmangi yedim.

Gap bo'laklari ikki turga bo'linadi. Bosh bo'laklar: ega, kesim; ikkinchi darajali bo'laklar: to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.

KESIM

Kesim – gapning mazmuniy markazi.

Fe'l kesim:	Ot kesim:
Qushlar <u>sayradi</u> .	Onam – <u>shifokor</u> (ot). Shahrimiz <u>go'zal</u> (sifat). Ro'yxatda <u>birinchiman</u> (son). Maqsadimiz – <u>shu</u> (olmosh). Ishlarim <u>ko'p</u> (ravish).

Gap bo'laklarini aniqlashda kelishiklar muhim ahamiyatga ega.

Kelishiklar	Qo'shim-chalari	Kelishik qo'shimchasi-sini olgan so'zning vazifasi	Gap bo'laklarining so'roqlari
Bosh kelishik	–	ega	kim? nima? qayer?
Qaratqich kelishigi	-ning	aniqlovchi	kimning? nimaning? (sifatlovchi aniqlovchi so'roqlari: qanday? qanaqa?)
Tushum kelishigi	.ni	to'ldiruvchi	kimni? nimani?
Jo'nalish kelishigi	-ga	to'ldiruvchi	kimga? nimaga?

O'rin-payt kelishigi	-da	to'ldiruvchi	kimda? nimada?
Chiqish kelishigi	-dan	to'ldiruvchi	kimdan? nimadan? (shuningdek, kim bilan? nima haqida?)
Jo'nalish kelishigi	-ga	hol	qayerga?
O'rin-payt kelishigi	-da	hol	qayerda?
Chiqish kelishigi	-dan	hol	qayerdan? (qachon? nega? qanday?)

Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar

Faqat kesimdan yoki ega va kesimdan iborat bo'lgan gap **yig'iq gap** hisoblanadi. Masalan, **Kuz. Qara. Men keldim.**

Kesimning boshqa bo'laklar bilan kengayishidan hosil bo'lgan gap **yoyiq gap** deyiladi. Masalan, **Men uni ko'rdim.**

Uyushiq bo'lakli gaplar

Bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil vazifada keladigan so'zlarga **uyushiq bo'laklar** deyiladi.

Masalan, *Dadam, oyim va men (kim?) hayvonot bog'iga bordik.*

Sanash ohangi yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar bir-biridan **yer gul bilan** ajratiladi.

Sanalayotgan bo'laklar ma'nosini jamlab ifodalagan so'zga **umumlashtiruvchi so'z** deyiladi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'lakkordan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so'z bilan uyushiq bo'laklar o'tasiga **ikki nuqta (:) qo'yiladi.**

Masalan, *Bog'imizda mevalar: olma, o'rik, shaftolilar bor.*

Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'lakdan keyin kelsa, uyushiq bo'lak va umumlashtiruvchi so'z o'tasiga **tire** qo'yiladi.

Masalan, *Kutubxonamizda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Usmon Azimov – barcha tanigli shoirlarning asarlari bor.*

Undalmali gaplar

So'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsalarni bildiruvchi so'z va so'zlar birikmasiga **undalma** deyiladi.

Masalan, ***Yurtim***, senga she'r bitdim bugun.

Undalmalar bitta yoki bir nechta so'zdan iborat bo'ladi.

Masalan, ***Qizim***, yalpiz terib kelsang-chi? Qadri ***bolalar***, kelajak siznikidir.

Undalmalar gapning boshida, o'rtasida va oxirida ishlataladi.

Masalan, ***Navbahorim***, o'zing ayt...

O'zing, ***navbahorim***, ayt... O'zing ayt, ***navbahorim***.

Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.

So'zla, ***ko'zgujon***, haqiqatni et bayon.

Gullarga suv quy, ***Oybek***.

Undalmalar gapning qayerida kelishidan qat'i nazar boshqa bo'laklardan **vergul** bilan ajratiladi. Tahlilda uning ostiga ikkita to'lqinli chiziq chiziladi.

Masalan, Hoy ***Murod***, nega indamaysan?

Undalmalar his-hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng ***undov belgisi*** qo'yiladi. Masalan, Men sizni quyosh deb atayman, ***oyijon!***.. ***Oyijon!*** Men sizni quyosh deb atayman.

Kirish so'zlar

So'zlovchining fikriga ishonch, guman, taxmin singari ma'nolarni qo'shadigan so'zlarga **kirish so'zlar** deyiladi.

Kirish so'zlar yozuvda gapning boshqa bo'laklaridan **doi-mo vergul bilan** ajratiladi.

Tahlilda kirish so'zlar to'g'ri chiziq ostiga to'lqinli chiziq chizish bilan ifodalanadi.

Kirish so'zlar gapning turli o'rinalarda qo'llana oladi. Yozuvda gap boshida kelganda kirish so'zdan so'ng, o'rtasida kelganda kirish so'zning har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa kirish so'zdan oldin vergul qo'yiladi.

Albatta, sen buyuk olim bo'lursan! Sen, ***albatta***, buyuk olim bo'lursan! Buyuk olim bo'lursan sen, ***albatta***!

Undalma va kirish so'zlar ega, kesim, to'ldiruvchi, aniq-lovchi, hol vazifalarida kelmaydi.

Qo'shma gap

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lgan gap qo'shma gap hisoblanadi. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar bir-biri bilan **va, ammo, lekin, chunki, shuning uchun, shu sababli** kabi bog'lovchilar hamda **ohang** yordamida bog'lanadi.

Yozuvda **ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, shu sababli** bog'lovchilaridan oldin vergul go'yiladi: Biz baxtiyormiz, chunki yurtimiz ozod. Ohang yordamida bog'langan sodda gaplar ham yozuvda bir-biridan **vergul, tire, nuqtali vergul** yoki ikki nuqta bilan ajratiladi. Masalan, *Pazandasি yopadi shirmon, qarilari kutadi mehmon. Yurt tinch – sen tinch. Bildi ota: foydasizdir barchasi. Bir joyda turganimda deyarli fikr qilolmayman; tanam hamma vaqt harakatda bo'lishi kerak, ana o'shanda aqlim ham harakatga keladi.* (J.J.Russo)

Ko'chirma gaplar

Birovning aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap deyiladi. Ko'chirma gap doimo so'zlovchi gapi bilan birga keladi. So'zlovching gapi muallif gapi hisoblanadi. Ko'chirma gap bilan muallif gapi birikib, ko'chirma gapli qo'shma gapni hosil qiladi. Yozuvda ko'chirma gap qo'shtirnoq ichiga olinadi.

Ko'chirma gap muallif gapidan oldin, uning o'tasida, oxi-rida, ikki chekkasida kelishi mumkin. Shunga ko'ra yozuvda ular orasida turlicha tinish belgilari ishlatiladi.

Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi, ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinib, bosh harf bilan yoziladi.

Masalan, *Xalqimiz shunday deydi: «Hunar – zar, hunarsiz – xor».*

Ko'chirma gap so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, qo'shtirnoq yopilishidan oldin so'roq yoki undov belgisi qo'yiladi.

Masalan, *Men undan so'radim*: «*Mehringni qo'yib, bunchalar saralab gul terding kimga?*» *Bulbul* der: «*Ochil, g'uncha!..*»

Ko'chirma gap darak gap bo'lsa, qo'shtirnoqdan so'ng nuqta qo'yiladi.

Masalan, *Donolar* deydi: «*Aql boylik bilan o'lchanmas*».

Muallif gapi ko'chirma gapdan keyin, uning o'tasida yoki ko'chirma gap muallif gapining o'tasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha ishlataladi.

Misollar: 1. «*Aqli kishi sabr etar har nafas*», – deydi *Sa'diy Sheroziy*. 2. «*Jaholat o'lim, – deb aytadi Nosir Xisrav, – bilim esa tiriklikdir*». 3. *Alisher Navoiy*: «*Oz-oz o'r ganib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur*», – deb aytgan edi.

Ko'chirma gapli qo'shma gap tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

- | | |
|--------------|-------------------|
| 1. M: «K». | 7. «K, – m, – k». |
| 2. M: «K?» | 8. «K, – m, – k?» |
| 3. M: «K!» | 9. «K, – m, – k!» |
| 4. «K», – m. | 10. M: «K», – m. |
| 5. «K?» – m. | 11. M: «K?» – m. |
| 6. «K!» – m. | 12. M: «K!» – m. |

Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishi

Bo'ri dedi: «*Men seni yeyman*».

M: «K».

Bo'ri dedi: «*Men seni yeyman!*»

M: «K!»

«*Men seni yeyman*», – dedi bo'ri.

«K», – m.

«*Men seni yeyman!*» – dedi bo'ri.

«K!» – m.

Bo'ri: «*Men seni yeyman*», – dedi.

M: «K», – m.

Bo'ri: «*Men seni yeyman!*» – dedi.

M: «K!» – m.

«*Men, – dedi bo'ri, – seni yeyman*».

«K, – m, – k».

«*Men, – dedi bo'ri, – seni yeyman!*»

«K, – m, – k!»

M, m belgilari muallif gapini, *K k* belgilari ko'chirma gapni ifodalash uchun qo'llanilgan.

Dialog

Ikki kishi o'rtasidagi suhbat dialog sanaladi.

Dialogdagi har bir gap xat boshidan tire bilan boshlanadi.
Bir kishining nutqi monolog sanaladi.

3-§. MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS MAVZUSI YUZASIDAN BOSHLANG'ICH TESTLAR

1-variant

1. Til nima uchun ijtimoiy hodisa deyiladi?

1) til jamiyatga xizmat qilgani uchun;

2) til odamlarning o'zaro munosabatga kirishuviga, aloqa qilishiga xizmat qilgani uchun;

3) tilni bir shaxs yaratgani uchun ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

A) 2 va 3 B) 2

C) 1 va 3 D) 1 va 2

2. Tinish belgilari va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llash yo'l-yo'riqlarini o'rnatuvchi tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?

A) sintaksis
B) punktuatsiya
C) fonetika
D) grafika

3. Gapda so'zlarning bog'lanishi necha xil bo'ladi?

A) 5 B) 4

C) 3 D) 2

4. So'z birikmasi tarkibida so'roq qaysi qismga beriladi?

A) hokim so'zga

B) tobe so'zga

C) hokim yoki tobe so'zga

D) ergash so'zga

5. *Chiroyli bino*. Ushbu so'z birikmasidagi hokim so'z qaysi qatorda berilgan?

A) chiroyli

B) bino

C) chiroyli bino

D) to'g'ri javob yo'q

6. Qanday vosita orqali ifodalangan so'roq gaplar ha yoki yo'q javoblarini tabab qiladi?

1) so'roq olmoshlari yordamida;

2) so'roq yuklamalari yordamida;

3) so'roq ohangi yordamida;

4) undov so'z yordamida.

A) 1, 4 B) 2, 3

C) 1,3 D) 2, 4

7. Qaysi gapda egadan keyin tire qo'yilmagan?

- A) Duo olgan omondir.
- B) Qarg'ish olgan yomon dir.
- C) Ota-onal ulug'dir.
- D) Aqlli qariya oqib turgan daryo.

8. So'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsalarni bildiruvchi so'z yoki so'zlar qanday nomlanadi?

- A) qo'shma gap
- B) kirish so'z
- C) undalma
- D) uyushiq bo'lak

9. Qaysi javobda istak gap mavjud?

- A) Do'sting quvonsa, quvon, qayg'ursa, qayg'ur.
- B) Kerak bo'lsa, do'stingni himoya qil.
- C) Do'sting gapirganda diqqat bilan qulqoq tut.
- D) Onajonim doimo sog' bo'lalar.

10. Gaplar so'zlovchining his-hayajoni qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga ko'ra necha turga bo'linadi?

- A) 4 B) 3

C) 2

D) to'g'ri javob yo'q

11. Boshqa bo'laklarsiz gap bo'la oladigan bo'lak...

A) kesim

B) to'ldiruvchi

C) aniqlovchi

D) ega

12. Qaysi qatorda holning so'roqlari mavjud?

- A) kim? nima?
- B) kimga? nimaga?
- C) kimning? nimaning?
- D) qayerda? qachon?

13. Kimni? niman? kimga? nimaga? kimda? nima? kimdan? nimadan? kim bilan? nima haqida? so'roqlariga javob bo'luvchi gap bo'laklari qanday nomlanadi?

- A) ega** B) hol
- C) to'ldiruvchi D) aniqlovchi

14. Qaysi qatorda aniqlovchining so'roqlari berilgan?

- A) kimning? nimaning? qanday?
- B) kimga? nimaga? kimda? nimada?
- C) qayerga? qayerda? qachon?
- D) kim? nima? qayer?

15. Saqlay desang o'zingni, yomondan yum ko'zingni. Gapdagi to'ldiruvchilarni aniqlang.

- A) o'zingni, ko'zingni
- B) saqlay desang
- C) yomondan yum
- D) yomondan, o'zingni, ko'zingni

16. 1. Shaharda baland va hashamatli binolar ko'p.

2. Rang-barang xushbo'y gullar bog'imizda ochilgan.

3. Biz mehmonlarni yaxshi kutib oldik.

4.O'rtog'im kecha Samarqanddan Toshkentga keldi.

a) ega, hol, hol, hol, kesim;

b) ega, to'ldiruvchi, hol, kesim;

c) aniqlovchi, aniqlovchi, ega, hol, kesim;

d) hol, aniqlovchi, aniqlovchi, ega, kesim.

Bir-biriga mos javoblarni belgilang.

A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

B) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c

C) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d

D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

17.Qaysi javobda quyidagi gapdagi sifatlovchi aniqlovchilar berilgan?

O'lkamizning beg'uber havosi, musaffo suvlari bulg'andi.

A) o'lkamizning, beg'ubor

B) beg'ubor, musaffo

C) havosi, suvlari

D) musaffo suvlari

18. Mahmud Koshg'ariy: «Botir jangda, dono majlisda sinaladi», – deb aytgandi. Ushbu gap qaysi qatordagi belgilarga mos tushadi?

A) «K, – m, – k».

B) M: «K».

C) M: «K», – m.

D) «K», – m.

19. Alisher Navoiy: «Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur», – deb aytgan. Ushbu gap qaysi qatordagi belgilarga mos tushadi?

A) «K, – m, – k».

B) M: «K».

C) M: «K», – m.

D) «K», – m.

20. Qaysi qatorda ko'chirma gap berilgan?

A) Men «Gulxan» jurnalini o'qidim.

B) «Til – bilim va aql-idrok tarjimoni», – degan Yusuf Xos Hojib.

C) Rustam, devorga nima chizayotganligini aytди.

D) To'g'ri javob yo'q.

21. Bog'lovchilar berilgan qatorni belgilang.

A) hatto, faqatgina

B) aloqa, tarmoq, ulamoq

C) uchun, bilan, sayin

D) hamda, chunki, biroq

22. Bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil vazifada keldigan so'zlar...

A) qo'shma gap

B) kirish so'z

C) undalma

D) uyushiq bo'lak

23. So'zlovchingning fikriga ishonch, gumon, taxmin sinqari ma'nolarni qo'-

shadigan so'zlar qanday nomlanadi?

- A) qo'shma gap
- B) kirish so'z
- C) undalma
- D) uyushiq bo'lak

24. Ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil bo'lgan gap...

- A) qo'shma gap
- B) kirish so'z
- C) undalma
- D) uyushiq bo'lak

25. Ko'chatlarga kim suv quydi?

Ushbu gapda so'roq manosi qaysi so'z yordamida hosil qilingan?

- A) so'roq olmoshi yordamida
- B) so'roq yuklamasi yordamida
- C) sifat so'z turkumi yordamida
- D) son so'z turkumi yordamida

2-variant

1. Sintaksis nimani o'rnatadi?

- 1) so'zlarning bir-biriga bog'lanishini;
- 2) gap va uning turlarini;
- 3) nutq tovushlarini.

- A) 1 B) 3
- C) 1 va 2 D) 2

2. Ohang va fikr tugal-

ligiga ega bo'lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi so'z va so'zlar qo'shilmasi qanday nomlanadi?

- A) gap
- B) so'z
- C) so'z birikmasi
- D) nutq

3. Ikki so'zning biri tobe, ikkinchisi hokim tarzida bog'lanishi qanday nomlanadi?

- A) teng bog'lanish
- B) tobe bog'lanish
- C) so'z qo'shilmasi
- D) uyushiq bo'lak

4. Teng bog'lanishli birikma qaysi qatorda berilgan?

- A) kitob bilan daftar
- B) kitobni o'qimoq
- C) suvni ichmoq
- D) shirin xotira

5. So'roq gaplar qanday hosil bo'ladi?

- 1) so'roq olmoshlari bilan;
- 2) so'roq yuklamalari vositasida;
- 3) so'roq ohangi yordamida

- A) 1 B) 2
- C) 3 D) 1, 2, 3

6. Undalma ishtirok etgan quyidagi gaplarning qaysi birida tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan?

- A) Xush kelibsizlar, mehnmonlar, poyqadamizingizga hasanot.

B) Xush kelibsizlar mehmonlar, poyqadamingizga ha-sanot.

C) Xush kelibsizlar, mehmonlar poyqadamingizga ha-sanot.

D) Xush kelibsizlar mehmonlar poyqadamingizga, ha-sanot.

7. Qaysi qatordagi so'roq yuklamasi kesimga qo'shib yoziladi?

- A) -chi B) -a
C) -ya D) -mi

8. Kesimi -sa shaklida-gi fe'llilar orqali ifodalangan gaplar...

- A) darak gap
B) so'roq gap
C) buyruq gap
D) istak gap

9. Istak gapning oxiriga qanday tinish belgisi qo'-yiladi?

- A) nuqta (.)
B) vergul (,)
C) undov (!)
D) so'roq (?)

10. Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi mustaqil so'z yoki so'zlar birikmasi qanday nomlanadi?

- A) gap
B) gap bo'laklari
C) nutq
D) matn

11. Qaysi javobda ot-ke-simli gap mavjud?

- A) Ko'z qo'rqoq, qo'l botir.
B) Do'st achitib gapiradi.
C) Elidan ayrilgan o'lgun-cha yig'lar.

D) Qushlar sayraydi.

12. Yer yuzida nechta til mavjud?

- A) 7000 dan ortiq
B) 3000 ta
C) 7000 ga yaqin
D) 220 xil

13. Qaysi qatorda sodda yig'iq gap berilgan?

- A) Men onamga yordam-chi.
B) O'lkamiz tarixini bilasiz-mi?
C) Dada, albatta, o'qiyman!
D) Mening oyim – shifokor.

14. Tushum kelishigidagi to'ldiruvchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan kesimga bog'lanadi?

- A) ot bilan ifodalangan kesimga
B) sifat bilan ifodalangan kesimga
C) son bilan ifodalangan kesimga
D) fe'l bilan ifodalangan kesimga

15. _____

Yuqoridaagi ko'rinishga mos gapni belgilang.

- A) Bahor juda go'zal fas!

B) Afzal kutubxonaga uksini olib bordi.

C) Men nechun sevaman O'zbekistonni?

D) Alisher she'rini bizga o'qib berdi.

16. 1. Kecha akam va singlim bilan uyingizga borgan edik.

2. Alisher she'rni bizga ifodali o'qib berdi.

3. Sayroqi qushlarni boqish menga yoqadi.

4. Bolalarning qiyqirig'i, itlarning vovullashi eshitildi.

a) aniqlovchi, to'ldiruvchi, ega, to'ldiruvchi, kesim;

b) aniqlovchi, ega, aniqlovchi, ega, kesim;

c) hol, to'ldiruvchi, to'ldiruvchi, hol, kesim;

d) ega, to'ldiruvchi, to'ldiruvchi, hol, kesim.

Bir-biriga mos javoblarni belgilang.

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

B) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a

C) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

D) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c

17. Qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchi berilgan?

A) Dangasaning vaji ko'p.

B) Oq oltin hosili mo'l bo'ldi.

C) Anvarjon xorijga o'qishta ketdi.

D) Iste'dodli o'quvchilar taqdirlandi.

18. Mahmud Koshg'ariy: «*Botir jangda, dono majlisa sinaladi*», – deb aytgandi. Ushbu gapda qo'shtirnoqdan keyin nima uchun vergul va tire qo'yilgan?

A) ko'chirma gap darak gap bo'lganligi uchun

B) ko'chirma gap so'roq gap bo'lganligi uchun

C) ko'chirma gap buyruq gap bo'lganligi uchun

D) ko'chirma gap istak gap bo'lganligi uchun

19. «Aqli kishi sabr etar har nafas», – deydi Sa'diy Sheroziy. Ushbu gap qaysi qatordagi belgilarga mos tushadi?

A) «K, – m, – k».

B) M: «K».

C) M: «K», – m.

D) «K», – m.

20. Undalmalar gapning qaysi o'rnida kelishi mumkin?

A) gap boshida

B) gap o'tasida

C) gapning turli joylarida

D) gap oxirida

21. Qaysi qatorda uyuishiq bo'lakli gap berilgan?

A) Baxting kaliti o'z qo'lingda

B) Keng, shinam xonalarda o'qiymiz.

C) Maktabimiz binosi yangi qurilgan.

D) Saxiy quyosh yerga beminnat o'z nurini to'kmoqda

22. Kutubxonamizda A.Oripov, E.Vohidov, U.Azim barcha taniqli shoirlarning asarlari bor.

Bu gapdagi umumlashtiruvchi so'zdan oldin qanday tinish belgisi tushirilgan?

- A) : B) « »
C) , D) –

23. Bu ariqning suvlari allaqachon, aniqrog'i, bundan to'rt yillarcha oldin qurib qolgandi. Gapdagi kirish so'zni aniqlang.

- A) allaqachon
B) oldin
C) suvlari
D) aniqrog'i

24. Tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan gapni aniqlang.

A) Dunyoda mamlakat ko'p, lekin ona yurt yagona.

B) Dunyoda mamlakat ko'p lekin, ona yurt yagona.

C) Dunyoda mamlakat ko'p, lekin, ona yurt yagona.

D) Dunyoda mamlakat ko'p lekin ona yurt yagona.

25. Vergulni tushirib qoldirish orqali gaplar manosni o'zgaradigan javobni aniqlang.

1. Bu gaping yomon, bo'l-madi.

2. Sen katta, bola emasan.

3. Ona aziz, farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi.

4. To'g'ri, yo'llarda ham mashaqqat bor.

(Ushbu gaplar 5-sinf kitobi 56-mashqdan olingan)

- A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3
C) 1, 4 D) 1, 3, 4

3-variant

1. Biror so'roqqa javob bo'lib, ko'pincha atash manosini bildiruvchi, gapda ma'lum bir gap bo'lagi yoki undalma vazifasida keladigan so'zlar...

- A) mustaqil so'zlar
B) yordamchi so'zlar
C) undalma
D) uyushiq bo'lak

2. Otlar qanday gap bo'laklari vazifasida keladi?

- A) ega
B) kesim
C) to'ldiruvchi
D) bosh va ikkinchi darajali bo'laklar

3. Qaysi qatordagi so'z-larga egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush tushgan?

- A) choki, ishtiroki
B) o'g'li, burni
C) koptogi, elagi

D) to'garagi, pichog'i
4. Ko'plik sondagi otni aniqlang.

- A) boshlarim
- B) yuraklarim
- C) oyimlar
- D) bolalar

5. Qanday qo'shimchalar otlarga qo'shilib, ularni o'zidan keyin kelgan boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lab keladi?

- A) egalik qo'shimchalari
- B) kelishik qo'shimchalari
- C) shaxs-son qo'shimchalari
- D) so'z yasovchi qo'shimchalari

6. Ot, sifat, son va boshqa so'zlar o'rnila qo'llanib, ularga ishora qiluvchi so'zlar qanday nomlanadi?

- A) olmosh
- B) fe'l
- C) ravish
- D) to'g'ri javob yo'q

7. Harakat-holatni bildiruvchi so'z turkumini aniqlang.

- A) olmosh
- B) fe'l
- C) ravish
- D) to'g'ri javob yo'q

8. Egalik qo'shimchalarni aniqlang.

- 1) -ning, -ni, -ga;
- 2) -im, -ing, -i;

3) -imiz, -ingiz, -i.

- A) 3
- B) 1
- C) 2
- D) 2 va 3

9. Sifat gapda asosan qaysi gap bo'lagi vazifasi-da keladi?

- 1) hol;
- 2) kesim;
- 3) aniqlovchi.

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 2 va 3

10. Narsa-buyumlar orasidagi belgi o'zaro taqqoslanmasa qanday daraja hisoblanadi?

- A) oddiy daraja
- B) qiyosiy daraja
- C) ortirma daraja
- D) ozaytirma daraja

11. Qaysi so'z turkumi otga bog'lansa aniqlovchi, fe'lga bog'lansa hol, gapning oxirida kelsa kesim vazifasini bajaradi?

- A) ot
- B) sifat
- C) son
- D) fe'l

12. To'g'ri yozilgan birikmalar qatorini aniqlang.

- A) XXI asr, 2012-yil, 3-avgust
- B) V-sinf, X-asr, 2000 yil
- C) uchchala bola, to'rttala qiz
- D) 2 nchi sinf, 5 inchi o'rin

13. U, bu, shu, o'sha olmoshlariga -ga, -da, -dan, -dek, -day qo'shimchalari

qo'silsa, qanday tovush o'zgarishlari ro'y beradi?

- A) tovush tushadi
- B) tovush almashadi
- C) tovush ortadi
- D) tovush o'zgarishi kuza-tilmaydi

14. To'g'ri yozilgan birik-mani aniqlang.

- A) 5-“B” sinf
- B) 5-“b” sinf
- C) 5 “B”-sinf
- D) 5 b-sinf

15. Quyidagi qo'shimcha-lar fe'llarning qaysi zamon shakllari ekanligini aniqlang.

- 1) -di, -ibdi, -gan edi, -gan ekan;
- 2) -yapti, -yotir, -moqda;
- 3) -adi, -ur, -ajak, -moq-chi, -y, -a, -r, -ar.

- a) hozirgi zamon;
 - b) o'tgan zamon;
 - d) kelasi zamon.
- A) 1-b, 2-a, 3-d
 - B) 1-a, 2-b, 3-d
 - C) 1-d, 2-a, 3-b
 - D) 1-a, 2-d, 3-b

16. Shaxs-son qo'shimcha-lari berilgan qatorni belgilang.

- A) -gach, -kach, -qach
- B) -yotir, -yapti, -moqda
- C) -di, -gan, -gan edi
- D) shaxs-son qo'shimcha-lari berilmagan

17. Biror so'roqqa javob

bo'lmay, gap yoki gap bo'-laklarini bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlar qanday nomlanadi?

- A) mustaqil so'zlar
- B) yordamchi so'zlar
- C) undalma
- D) uyushiq bo'lak

18. Qaysi qatorda bog'-lovchi berilgan?

- A) hatto, hattoki
- B) bilan, uchun, sayin
- C) yilt-yilt, taq-taq
- D) ammo, lekin, biroq

19. Qaysi hukm noto'g'ri?

- A) yuklamalar so'z-yuklamalar va qo'shimcha-yuklamalarga bo'linadi

B) so'z-yuklamalar o'zi qo'shilayotgan so'zdan doimo ajratib yoziladi

C) qo'shimcha-yuklamalar o'zi qo'shilayotgan so'zdan doimo chiziqcha bilan ajratib yoziladi

D) qo'shimcha-yuklamalar o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoki undan chiziqcha bilan ajratib yoziladi

20. Ayrim gap bo'lagi yoki butun gapning mazmuniga qo'shimcha ma'no yuklash uchun xizmat qiluvchi yordamchilar qanday nomlanadi?

- A) bog'lovchi
- B) ko'makchi
- C) yuklama

D) undov va taqlid so'zlar
21. Ma'nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli ikki o'zakning qo'shiluvidan tashkil topgan so'zlar...

- A) qo'shma so'zlar
- B) juft so'zlar
- C) takroriy so'zlar
- D) sodda so'zlar

22. Bir o'zakning ikki marta takrorlanishidan hosil bo'l-gan so'zlar...

- A) qo'shma so'zlar
- B) juft so'zlar
- C) takroriy so'zlar
- D) sodda so'zlar

23. So'zlovchining his-hayajoni, shuningdek, hay-von-parrandalarni biror harakatga undashni ifoda-lovchi so'zlar turkumi qanday nomlanadi?

- A) bog'lovchi
- B) ko'makchi
- C) taqlid so'zlar
- D) undov so'zlar

24. Ikki yoki undan ortiq o'zaklardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'lgan so'zlar...

- A) qo'shma so'zlar
- B) juft so'zlar
- C) takroriy so'zlar
- D) sodda so'zlar

25. Qaysi qatordagi so'z imlo qoidalariga mos yozilgan?

- A) oshu-non
- B) pastu-balad
- C) kecha-yu kunduz
- D) bordiyu-keldi

4-variant

1. So'roqqa javob bo'l-maydigan, atash ma'nosini bildirmaydigan so'zlarning nomlanishi qaysi qatorda berilgan?

- A) mustaqil so'zlar
- B) yordamchi so'zlar
- C) undalma
- D) uyushiq bo'lak

2. Qaysi qatordagi so'z-larga egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush almashgan?

- A) huquqi, idroki.
- B) shahri, bag'ri.
- C) tuprog'i, teragi.
- D) parvoym, obro'yim.

3. So'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, tovush o'zgarishlarining qaysi turi hosil bo'ladi?

1) tovush tushadi; 2) tovush ortadi; 3) tovush almashadi.

- A) 1, 3
- B) 1, 2, 3
- C) 2
- D) 2, 3

4. Bir turdag'i narsa-bu-yunning nomini bildirgan so'zlar turkumi qanday nomlanadi?

- A) atoqli ot B) turdosh ot
C) tub ot D) yasama ot

5. Qanday qo'shimchalar otlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi?

- A) egalik qo'shimchalari
B) kelishik qo'shimchalari
C) shaxs-son qo'shimchalari
D) so'z yasovchi qo'shimchalari

6. O'tgan zamon fe'llarini hosil qiluvchi qo'shimchalar qatorini aniqlang.

- A) -gan ekan, -gan edi, -ibdi
B) -yapti, -yotir, -moqda
C) -adi, -ur, -ajak, -moqchi
D) -di, -ajak, -yapti

7. Fe'lidan anglashilgan ish-harakat va holatning so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zgaga tegishli ekanligini bildiruvchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?

- A) egalik qo'shimchalari
B) kelishik qo'shimchalari
C) shaxs-son qo'shimchalari
D) so'z yasovchi qo'shimchalari

8. Qaysi qatordagi so'zda imlo xato mavjud?

- A) huquqi B) idroki
C) tuproqi D) axloqi

9. Go'zal xulqili qiz oila

uchun ulug' boylik va saodatdir. Gapdag'i sifatni aniqlang.

1. Go'zal. 2. Ulug'. 3. Boylik.

- A) 3 B) 1
C) 2 D) 1 va 2

10. Bir narsa-buyumdag'i belgining boshqalariga nisbatan ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi qanday daraja hisoblanadi?

- A) oddiy daraja
B) qiyosiy daraja
C) ortirma daraja
D) ozaytirma daraja

11. Ikki olti, yetti sonlarga jamlikni bildiruvchi -ov, -ala, -ovlon qo'shimchalari qo'shilganda o'zakda qanday o'zgarish ro'y beradi?

- A) tovush tushadi
B) tovush almashadi
C) tovush ortadi
D) tovush o'zgarishi kuzatilmaydi

12. Mening, seniki olmoshlarida qanday tovush o'zgarishlari kuzatiladi?

- A) tovush tushadi
B) tovush almashadi
C) tovush ortadi
D) tovush o'zgarishi kuzatilmaydi

13. Qaysi qatorda tartib son mavjud?

- A) Ikkita B) Ikkovi

- C) ikki D) ikkinchi
- 14. Harakatning holati, daraja-miqdorini bildirgan so'z turkumini aniqlang.**
- A) olmosh
B) fe'l
C) ravish
D) to'g'ri javob yo'q
- 15. Fe'ldan anglashilgan ish-harakat va holatni qaysi paytda bajarilishini ifoda-lovchi qo'shimchalar qanday nomlanadi?**
- A) egalik qo'shimchalari
B) kelishik qo'shimchalari
C) shaxs-son qo'shimchalar
D) zamon qo'shimchalar
- 16. Ravish asosan qaysi so'z turkumiga bog'lanadi va gapda ko'proq qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?**
- A) fe'lga bog'lanadi, hol vazifasida keladi
B) otga bog'lanadi, aniqlovchi vazifasida keladi
C) sifatga bog'lanadi, to'l-diruvchi vazifasida keladi
D) olmoshga bog'lanadi, ega vazifasida keladi
- 17. Uyushiq bo'laklar va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchilar qanday nomlanadi?**
- A) bog'lovchi
B) ko'makchi
C) yuklama
D) undov va taqlid so'zlar
- 18. Otlarning boshqa so'z-larga tobe bog'lanishi uchun xizmat qiladigan yordamchilar qanday so'z turkumi hisoblanadi?**
- A) bog'lovchi
B) ko'makchi
C) yuklama
D) undov va taqlid so'zlar
- 19. Bir // pas, bir // yo'la so'zlarining imlosi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**
- A) qo'shib yoziladi: birpas, biryo'la
B) ajratib yoziladi: bir pas, bir yo'la
C) chiziqcha bilan yoziladi: bir-pas, bir-yo'la
D) tovush orttiriladi: birpast, birayo'la
- 20. Qaysi qatorda juft so'z berilgan?**
- A) qo'ziqorin
B) ota-on
C) yugur-yugur
D) gultojixo'roz
- 21. Qaysi qatorda kecha-kunduz so'zining tuzilishi ga ko'ra turi to'g'ri ko'rsa-tilgan?**
- A) qo'shma so'z
B) takroriy so'z
C) juft so'z

D) sodda so'z

22. So'zlarga qo'shib yoziladigan yuklamani aniqlang.

- A) -chi B) -a
C) -ya D) -mi

23. Qaysi qatorda holatga taqlidni bildirgan so'z berilgan?

- A) oh B) yalt-yult
C) taq-tuq D) eh

24. Qo'shma fe'l va qo'shma sonlar qanday yoziladi?

- A) qo'shib yoziladi
B) ajratib yoziladi
C) chiziqcha bilan
D) to'g'ri javob yo'q

25. Qaysi qatorda ravish mavjud?

- A) avval B) sariq
C) to'xta
D) mashina

2-MAVZU

TIL HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

1-§. TIL – IJTIMOIY HODISA

Til jamiyatda paydo bo'lgan, jamiyat mahsuli, ya'ni ijtimoiy hodisadir. Hozir dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud. (9-sinf ona tili darsligidagi ma'lumot). Ularning ayrimlarida bir necha yuz million kishi gaplashsa, ayrimlarida bir necha ming kishi gaplashadi. Xitoy tilida bir milliardga yaqin, chukot va vele tillarida esa bir necha ming kishi gaplashadi. Yangi Gvineyada esa deyarli har bir qishloq aholisi o'z tiliga ega. Kongo aholisi 500, Indoneziya 250, Sudanda 117 tilda gaplashadilar. Dunyoda oltita xalqaro til mavjud bo'lib, jahon miqyosidagi anjumanlar ana shu tillarda o'tkaziladi. Bular ingliz, fransuz, ispan, rus, xitoy va arab tillaridir. Angliya, AQSH, Kanada aholisi ingliz, Ispaniya, Kuba, Chili, Meksika aholisi asosan ispan tilida so'zlashadi.

Til jamiyatga, ya'ni odamlarning o'zaro munosabatga kirishuviga, aloqa qilishiga xizmat qiladi, shuning uchun u ijtimoiy hodisa sanaladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tilining ijtimoiy vazifalari yanada kengaydi.

2-§. DUNYO TILLARI TIZIMIDA O'ZBEK TILINING O'RNI

Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'lmagan tillar qarindosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, tatar, uyg'ur, boshqird, ozarbayjon, qorachoy-bolqor kabi tillar qarindosh tillar sanaladi. Qarindosh tillar bir bobo tildan kelib chiqqan. Dunyo tillari qarindoshligiga ko'ra til oilalariga bo'linadi.

Tillarning bir bobo tildan kelib chiqishi, fonetik, lug'aviy va grammatik jihatdan bir guruhni tashkil etishi tillar oilasi deyiladi. Hozir dunyoda 20 dan ortiq til oilasi mavjud. Masalan,

slavyan, german, roman, eroniy, hind-yevropa, xom-som, xi-toy-tibet, turkiy tillar oilasi va boshqalar.

Bu til oilalarining har qaysisi o'z ichida yana kichik guruhlarga bo'lindi. Xususan, turkiy tillar oilasi **qipchoq tillari** guruhi, **o'g'uz** tillari guruhi, **qorluq** tillari guruhiiga bo'lindi.

Oilasi	Guruhlari	Tillar
Turkiy tillar	Qorluq	o'zbek va uyg'ur
	Qipchoq	qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash...
	O'g'uz	ozarbavion , turkman , usmonli turk tillari

O'zbek tili dunyo tillari tizimida turkiy tillarning **qorluq guruhiiga** mansubdir.

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til bor. Bu tilda so'zlashuvchilar asosan Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avsraliya qit'alarida istiqomat qilishadi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: *o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorachoy-bolqor, qo'miq, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, solor, qoram, bolqon, sariq uyg'ur, dungan, xalaj, cho'lim, no'g'ay, tuva, yoqut, chuvash* va boshqalar.

Dunyo tillari **morfologik** jihatdan, ya'ni tarkibidagi so'zlarning tuzilishi jihatidan quyidagi guruhlarga bo'lindi:

T/r	Guruhlari	Xususiyatlari	Guruhga mansub tillar
1	Amorf tillar	Tarkibidagi so'zlar hech qanday sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarsiz, to'g'ridan to'g'ri birikib, bog'lanib keladi	xitoy, tibet, birma, vietnam va xitoy-tibet oilasiga mansub bo'lgan boshqa tillar

2	Agglutinativ tillar	Har bir grammatic ma'no ma'lum bir grammatic ko'satkich bilan ifodalanadi. Masalan, o'qimadim so'z shakli tarkibida -ma fe'lning bo'lishsizlik qo'shimchasi, -di fe'lning zamon shakli, -m affiksi fe'lning shaxs-son ko'satkichi hisoblanadi	turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek tili, fin-ugor tillari, dravid, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish yapon va koreys tillari
3	Flektiv tillar	Birdan ortiq grammatic ma'no birgina grammatic ko'satkich orqali ifodalanadi: rus tilidagi <i>kniga</i> so'zi tarkibidagi -a qo'shimchasi jinsni (jenskiy rod), bosh kelishikni, birlik sonni ifodalab <i>kelgan</i>	hind-yevropa, semit, xamit tillari
4	Polisintetik tillar	Ularda butun bir gap bir so'z holida yoziladi.	Polisintetik tillarga chukot tili, shuningdek, Amerikadagi ayrim hind tillari, Osiyodagi paleosiyo oilasiga kiruvchi ayrim tillar kiradi

Turkiy tillar **agglutinativ tillar** sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatic ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar asosan **asosdan keyin** qo'shiladi.

3-§. O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMINING BERILISHI

1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tili O'zbekistonning Davlat tili sifatida rasman e'lon qilindi. Buning natijasida o'zbek tili respublikamizda o'tkaziladigan oliy darajadagi davlat anjumanlarida ham qo'llaniladigan, davlatning rasmiy hujjatlari yuritiladigan, rivojlanish istiqboli qonun bilan belgilangan tilga aylandi. Ana shu nuqtayi nazardan bu qonunning tarixiy ahamiyati kattadir.

1995-yilning 21-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririni qabul qildi.

Qonunning 2-, 4-, 6-, 10-, 14-moddalarida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasining 4-moddasi-da** shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir».

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «DAVLAT TILI TO'G RISIDA»GI QONUNI (yangi tahrirda)

1-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

2-modda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomala-da hamda **diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni** ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O'zbekiston Respublikasida Davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlan-tirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'gitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlар zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioxoya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qildan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalami joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyyati va boshqaruvin organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruvin organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat va killari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruvin organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyyati va boshqaruvin organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zları tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjalari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda, boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarni yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagи bo'pchilik aholi tilida olib boriladi. Sud ishlari yuritilayotgan jarayonda ishda ishtirok etayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjalari, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjalari davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televidenie va radioseshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarning, shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasи berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'rignomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lisa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjaligiga muvofiq javobgar bo'ladiilar.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da hozirgi o'zbek adabiy tili ta'liming tutgan o'rni

1997-yil 29-avqustda Oliy Majlisning IX sessiyasida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da umumiy o'rta ta'limgandan so'ng akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'larning alohida, uzuksiz, jahon andozalariga mos keladigan zamnaviy bir bosqichi sifatida ajratildi.

Akademik litsey – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradigan, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi uchun chuqr, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim beruvchi o'rta maxsus o'quv dargohi.

Kasb-hunar kolleji – tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradigan, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini hisobga olgan holda ulardagi bilim va ko'nikmalar chuqr rivojlantiriladigan, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egalash imkonini beradigan o'rta maxsus o'quv yurti.

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Tafakkur bilan til, erkin fikrlash bilan erkin so'zlash o'zaro uzviy bog'liqdir, chunki fikrimizni shakllantiruvchi va ro'yobga chiqaruvchi qudratli vosita – bu tildir. O'z fikrini ravon, go'zal va aniq ifoda etadigan yoshlarni tarbiyalash «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning bosh maqsadidir.

4-§. TIRIK VA O'LIK TILLAR

Til oilalari ichida ayrim tillar tirik, ayrim tillar o'lik til hisoblanadi.

Bugungi kunda ma'lum bir xalq vakillari uchun muloqot vositasi bo'lib xizmat qilayotgan tillar tirik til, bizgacha yozma manbalari yetib kelgan, ammo hozirgi kunda hech bir xalq tomonidan ishlatalmaydigan tillar o'lik til sanaladi. Turkiy tillar tarmog'idagi *qadimgi turkiy til* o'lik tillar sirasidandir. Shuningdek, *lotin tili, qadimgi hind (sanskrit) tili, qadimgi slavyan, qadimgi pahlaviy tili* kabilar ham o'lik til qatoriga kiradi.

5-§. TAFAKKUR VA TIL

Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas holda bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Inson nutq, til vositalari bo'Imasa, fikrlash ham bo'lishi gumon. Tafakkur va til aynan bir xil hodisa emas. Tafakkur – zohiriyl olamning inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan in'ikosi. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni qayd etib boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasi. Boshqacha aytganda, til – tafakkurning borliqdagi shakli. Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi.

Tafakkur bilan til, erkin fikrlash bilan erkin so'zlash o'zaro uzviy bog'liqdir, chunki fikrimizni shakllantiruvchi va ro'yobga chiqaruvchi qudratli vosita – bu tildir.

Tafakkur faqat insonlarga xosdir. U kishining mehnat va nutq faoliyati bilan bog'liq holda mavjud. Inson tafakkuri nutq bilan yuzaga chiqadi va uning natijalari tilda qayd etiladi. Demak, tafakkur jarayonining natijasi hamisha biror-bir fikrdan iborat bo'lib, bu fikr tushuncha, hukm, xulosa tarzida til vositasida namoyon bo'ladi. Til fikrni reallashtiradi, kishilarning fikr almashishlariga imkon tug'diradi.

«Til fikrni yaratuvchi organdir. Aqliy faoliyat va til yaxlit butunlikni tashkil etadi» (V.Gumboldt).

Til milliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning mevalari va ma'naviy boyliklarini zamon va makonda abadiy-

lashtiradi. Ular doimo bir-birlarini taqozo qiladi, bir-birlarining yashashi va rivojlanishiga yordam beradi.

Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jamg'arilgan bilimlar nafaqat qayd etiladi va saqlanadi, balki avloddan avlodga ham yetkaziladi. Til millat ruhining ko'z-gusidir. Tilda millatning bor-yo'g'i, o'y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg'ulari aks etadi. Tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasi bo'llib, uning yordamida bu tafakkur va tuyg'ular orqali Vatan va xalq tarixi ifodalanadi.

Ona tiliga hurmat va uning bebaho so'z xazinasidan o'rinni foydalanish, til vositasida ravshan va ta'sirchan so'zlab, yoza olish, nutqiy savodxonlikka erishish shu til vakili bo'lgan har bir shaxsning burchidir.

6-§. TIL VA NUTQ

Til va nutqni farqlash lozim.

Til so'zlashish vositasi, ya'ni nutq sifatida namoyon bo'l-gandagina ma'lum vazifani bajaradi. Nutq til materialidan tuziladi va nutqiy faoliyat natijasida yuzaga chiqadi.

Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi – til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi – nutqdir.

Til bilan nutqni qiyoslash orqali ularning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

Tilga xos xususiyatlar	Nutqqa xos xususiyatlar
1. Umumiylit	Xususiylik
2. Imkoniyat	Vogelik
6. Mohiyat	Hodisa
4. Ijtimoiy	Ruhiy (individual)
5. Til aloqa materiali	Nutq aloqa shakli
6. Tilni xalq, millat yaratadi	Nutqni har bir shaxs yaratadi

7.	Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog'liq holda uzoq bo'ladi	Nutqning hayoti qisqa, xususan, og'zaki nutq so'zlangan paytdagina mavjuddir. Ammo yozma nutq nisbatan uzoq davr saqlanishi mumkin
8.	Til nisbatan turg'un, barqaror	Nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan hodisa sanaladi
9.	Tilning hajmi noaniq	Nutqning hajmi aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo'lishi mumkin

7-§. NUTQIY FAOLIYAT

Tilning ijtimoiy vazifasi **nutqiy faoliyatda**, ya'nii nutq sifatida kishilar o'tasida aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rindi. **Nutqiy faoliyat** kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: **og'zaki va yozma** tarzda.

Og'zaki nutqning ikki turi mavjud: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuv nutqining turli ko'rinishlaridan iborat. Adabiy so'zlashuv nutqi esa adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo etadi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan so'ng yozuv ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'y sunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismilari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki kabi kishilar o'tasidagi bevosita aloqa vositasi emas, u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz.

Nutqning bu shakllari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: monologik, dialogik va polilogik bo'lishi mumkin.

Nutq ko'rinishlari ifoda maqsadi, qurilishi, hissiy, ta'siriy vositalari bilan farqlanadi.

Nutq shakli	Xususiyatlari
Monolog	Ayrim shaxsga tegishli bo'ladi
Dialog	Ikki kishi o'tasidagi nutq
Polilog	Bir necha shaxslar orasida yuz beradigan nutq

Yozma nutq uslubiy turlari (so'zlashuv, ilmiy, badiiy, om-mabop, rasmiy-idoraviy) bilan o'ziga xos nutq ko'rinishlarini yaratadi.

Inson doimo o'zini qurshab turgan olamni bilishga intildi. Kishilarning barcha faoliyati markaziy asab sistemasi yordamida boshqariladi. Olamni bilish jarayoni markaziy asab sistemasiga turli sezgi a'zolarimiz (tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari) yordamida uzatilgan axborot orqali amalga oshiriladi.

Tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari orqali olamni bilish vositasi barcha jonzotlarga xos xususiyatdir. Inson jonzotlarning eng oliy shakli sifatida ularga nisbatan yana bir qo'shimcha bilish vositasiga – nutq orqali bilish qobiliyatiga ega. Birinchi bilish vositalarini mashhur ruhshunos P.Pavlov birinchi signal sistemasi, ikkinchisini esa ikkinchi signal sistemasi deb nomlagan.

Pavlov qonuniyati

Birinchi signal sistemasi	Tana, ta'm-maza, ko'rish, eshitish kabi sezgi a'zolari orqali olamni bilish vositasi
Ikkinchi signal sistemasi	Nutq orqali bilish qobiliyati

Ko'rinaldiki, inson ikkinchi signal sistemasiga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, shuning uchun ham hazrat Alisher Navoiy barcha maxluqotlarning zoti sharifi inson ekanligini ta'kidlaganlar.

Har bir shaxs ma'lum bir jamiyat vakili sanaladi. Jamiyat a'zolari o'zaro doimo aloqada bo'ladilar. Biri obyektiv olamda o'z sezgi a'zolari orqali his etgan ma'lum narsa va hodisa haqida boshqalariga tovush to'lqinlari (yozma nutqda esa harflar ketma-ketligi) yordamida axborotni yetkazadi. Axborot uzatuv-chi – **so'zlovchi**, eshituvchi esa **tinglovchi** sanaladi. Tinglovchi olamdag'i narsa va hodisaning umumlashgan obrazini so'zlovchi uzatgan tovush signallarini eshitish sezgi a'zosi yordamida markaziy asab sistemasida tiklaydi.

So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ana shunday axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyatini **nutqiy faoliyat** sanaladi.

Nutqiy faoliyat yozma ravishda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ham nutqiy jarayon qatnashchilari ikki guruhga bo'linadi. Xat yo'llovchi shartli ravishda so'zlovchi, uni qabul qiluvchi (o'quvchi) esa tinglovchi hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni e'tiborga olgan holda mashhur Shvetsariya olimi **Ferdinand de Sossyur** nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishini ta'kidlaydi va tilshunoslikda **til ya nutq tushunchalarini farqlaydi**. Nutq faollahshgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi.

8-§. ADABIY TIL

Adabiy til so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy tilda har bir so'z va qo'shimchaning taffuzi, imlosi, qo'llanishi, ma'nolari aniq me'yorlar bilan chegaralangan. Bu me'yorlarni buzish qo'pol xato sanaladi. Odatta, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish ishlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi. Adabiy nutq me'yorlarini buzish nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki o'z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisidir.

Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'y sunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'i nazar barchasi uchun umumiyl bo'lgan til **adabiy til** sanaladi.

Adabiy til har qanday tilning oliv shakli sanaladi va lug'at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat'iy me'yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aratashuvning eng asosiy vositasidir. U yozma va og'zaki nutq jarayonida o'z ijtimoiy vazifasini bajaradi.

Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til yozma adabiy til sanaladi. Masalan, gazeta-jurnallar tili, ish qog'ozlari tili va boshqalar.

Tovushlar vositasida og'zaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga og'zaki adabiy til deyiladi. Masalan, radio, televideniye orqali uzatiluvchi suxandon yoki jurnalist nutqi va hokazolar.

Adabiy tilning rivojlanishida badiiy asarlarning xizmati katta, chunki adabiy til me'yorlarining shakllanishida adabiyotning ta'siri kuchli bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan adabiy til bilan badiiy til bir narsa emas. Badiiy tilda adabiy til bilan birgalikda turli shevalarga yoki kasb-hunarga mansub personajlar nutqi ham ishtirok etadi.

Masalan,

*Odamlar aqlining chirog'i bilim,
Balodan saqlanish yarog'i bilim.
(Rudakiy)*

Badiiy til (badiiy nutq), adabiy tilning og'zaki so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, rasmiy uslub singari uslublardan biri, ya'ni badiiy uslub sanaladi. Ko'rinaridiki, **adabiy til badiiy tildan kengroq tushuncha bo'lib, badiiy tilni ham o'z ichiga oladi.**

Nutqning adabiy va shevalarga xos ko'rinishlari bor.

9-§. SHEVALAR

Shevalar faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli hisoblanadi. Ular shu xususiyatlari bilan boshqa hududga mansub shevalardan va ayni paytda adabiy tildan farq qiladi.

Adabiy til xalq shevalariga qarama-qarshi qo'yiladi. Adabiy til xalq shevalaridan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Demak, adabiy til xalq shevalaridan uzilgan til emas.

Adabiy til xalq shevalari negizida so'z ustalari tomonidan umumlashtirish, qat'iy me'yorlarni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi. Hozirgi o'zbek adabiy tili **ko'proq qarluq, qisman qipchoq va o'g'uz shevalari** negizida vujudga kelgan. Qarluq shevasi vakillari ko'proq **Farg'onan vodiysi**, **Toshkent**, **Samarqand**, **Qarshi** shaharlari va ularning atroflaridagi hududlarda istiqomat qilishadi. Shuningdek, bu sheva vakillarini Markaziy Osiyoning bir qancha joylarida, xorijiy mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Har bir ziyoli o'zi mansub bo'lgan hudud tili xususiyatlaridan qutulib, adabiy tilda gapirish ko'nikmasiga ega bo'lmos'i lozim.

Masalan, *ashi*, *kevotti*, *kelutti*, *kelopti*, *oka*, *aqa-baqa* singari shakllarni nutqda qo'llash so'zlovchida nutq madaniyatining shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Bobo til ma'lum bir guruhga mansub bo'lgan tillarning shakllanishida asos (ildiz) vazifasini o'tagan tildir. Turkiy tillar qadimgi turkiy tildan o'sib chiqqan. Har bir xalq uchun o'zaro so'zlashuv vositasi bo'lgan til xalq tili sanaladi. Xalq tili darajasiga ko'tarilgunga qadar tillar *urug' tili*, *qabila tili*, *elat tili* kabi bosqichlarni bosib o'tadi. Xalq tili turli shevalardan tashkil topadi va **faqat og'zaki shaklda** bo'ladi. Sheva tili ma'lum bir hududda yashovchi kishilar nutqida ishlatalib, ular uchun tushunarli bo'lgan tildir. Hozirgi o'zbek tili **92 sheva tilidan shakllangan bo'lib, uch lahja: qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga** bo'linadi. *Lahja* bir-biriga yaqin shevalar yig'inidisidir.

Turkiy tillar ichida *faqat o'zbek tili (o)lovchi* til sanaladi, ya'ni boshqa turkiy tillardagi *at*, *bala*, *ana*, *bash* kabi so'zlar o'zbek tilida *ot*, *bola*, *ona*, *bosh* tarzida aytildi.

O'zbek umumxalq tili lahjalari

Lahja	Guruhi	Shu lahja keng tarqalgan viloyatlar	Xususiyatlari
Qarluq lahjasi	Janubi-sharqiy guruh	Farg'ona, Andijon, Namangan, Toshkent, Samarqand, Qarshi	<p>Qarluq lahjasi asosan shahar shevasini o'z ichiga oladi. Bu lahja shevalarining muhim fonetik va grammatic belgilari quyidagilardan iborat:</p> <p>1) so'z oxiridagi k tovushi y tarzida aytildi: elak – elay, terak – teray kabi;</p> <p>2) "o" lashish yuz beradi: aka – oka, Akram – Akrom, bahor – bohor, boramiz – borovuz kabi;</p> <p>3) qaratqich kelishigi o'rnila tushum kelishigi ishlataladi: ukamning daftari – ukamni daftari</p>
Qipchoq lahjasi	Janubi-g'arbiy guruh	Samarqand, Jizzax, Qashqdaryo, Surxondaryo, Qoraqalpoq'iston, Shimoliy Xorazm, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari	<p>Qipchoq lahjasi shevasi O'zbekistonning barcha viloyatlarida mavjud. Asosan qishloqlarda keng tarqalgan. Belgilari:</p> <p>1) y o'rnila j ishlataladi: yo'l – jo'l, yo'q – jo'q kabi;</p> <p>2) g' o'rnila v ishlataladi: tog' – tov, sog' –sov kabi;</p> <p>3) k, q tushiriladi: tirik – tiri, sariq – sari (moy), quruq – quri kabi</p>

O'g'uz lahjasi	Shimoli-g'arbiy guruh	Janubiy Xorazmdagi Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot kabi tumanlar	O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari: 1) unli qisqa va cho'ziq aytiladi: ot – aad(ism) kabi; 2) t tovushi d tarzida, k tovushi esa g tarzida aytiladi: tog' – dog', keldi – galdi kabi; 3)-ning qaratqich kelishigi qo'shim-chasi -ng, -ing tarzida, -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi esa -a, -na tarzida aytiladi: akamning – akaming, yorimga – yorima, qo'liga – alina kabi
----------------	-----------------------	--	--

Xalq tili negizida adabiy til shakllanadi. Adabiy tilni shoirlar, yozuvchilar va olimlar yaratadi. Adabiy til xalq tilining sayqalangan, turli grammatik qonun-qoidalarga bo'y sundirilgan, barcha shevalarda so'zlovchilarga tushunarli bo'lgan eng olyi ko'rinishidir. Adabiy til ikki shaklda: **oq'zaki va yozma adabiy til** ko'rinishida bo'ladi.

10-§. O'ZBEK ADABIY TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

O'zbek tili turkiy tillarga kiruvchi yirik tillardan biridir. O'zbek tilining xalq tili sifatida shakllanishi juda qadim davrlarga borib taqaladi. **O'zbek (turkiy) tilida yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar VI – VII asrlarga tegishli bo'lib, umumturk adabiy tili sifatida shakllandi.** X – XII asrlarda bu tilda «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Devoni hikmat», «Muqaddimat ul-adab» kabi nodir asarlar yaratildi. XIII – XIV asrlarda yaratilgan «Qisasi Rabg'uziy», «Muhabbatnoma», «Me'rojnama»,

«Yusuf va Zulayho», «O'g'uznama» kabi o'nlab mashhur kitoblar eski o'zbek tilini mahalliy shevaning go'zal unsurlari bilan boyitdi.

XV asr, Alisher Navoiy davri, eski o'zbek adabiy tilining gullab-yashnash davri sanaladi. Bu paytga kelib eski o'zbek adabiy tili butun imkoniyatlarini namoyon etdi, shuning uchun Alisher Navoiy haqli ravishda o'zbek adabiy tilining asoschisi sanaladi.

O'zbek xalqi tilining takomillashuvida XIV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixiy davr muhim rol o'ynadi.

O'zbek adabiy tili turli davrlarda turkiy til, chig'atoy turkiysi, sart tili va nihoyat XX asr boshlaridan o'zbek tili atamalari bilan atalgan va fan sifatida o'rgatila boshlangan.

Qadimgi turkiy tildagi yozma yodgorliklar (V – VIII asrlar) barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak yodgorliklar sanaladi.

O'zbek (turkiy) tilshunoslik faniga Mahmud Kosh-q'ariy (XI asr) asos solgan. Uning «Devonu lug'otit turk» asari qiyosiy tilshunoslikning eng qadimiy namunalaridan biridir. Shuningdek, keyingi davrlarda Abdulqosim Zamashariy ("Muqaddimat ul-adab" asari orqali), Alisher Navoiy ("Muhokamat ul-lug'atayn" asari orqali) va boshqa yuzlab al-lomalar tilshunoslik fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari tilshunos olimlar tomonidan quyidagicha izohlangan:

Nomla-nishi	Davr	Yaratilgan asarlar
Qadimgi turkiy til	Eng qadimgi davrlardan milodning X asrigacha	«Avesto», O'rxun-enasoy yodgorliklari – tosh bitiklar (Kultegin, To'nyuquq, Bilga xoqonlar sharafiga qo'yilgan bitiktoshlar...)
Eski turkiy til	XI – XII asrlar	«Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Devoni hikmat», «Muqaddimat ul-adab»

Eski o'zbek adabiy tili	XII – XIII asrdañ XX asr boshlari-gacha	«O'g'uznama», «Tafsir» (Qur'onning so'zma-so'z tarjimasi, izohlar, sharhlar, tushuntirishlar), Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Guliston», Xorazmiyning «Muhabbatnama» asarlari eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalardir. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari o'nlab, yuzlab so'z ustalari xizmat qilgan bo'lsalar, Mavlono Alisher Navoiy uning obro'yini dunyoga tanitdi.
		Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiylarning eski o'zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta.
Hozirgi o'zbek adabiy tili	XX asrdañ bugungi kungacha	Behbudiy, Avloniy, Avaz O'tar, So'fizoda, Fitrat, Hamza, Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya, Shuhrat, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'lmas Umarbekov, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo... asarlari

Qadimgi turkiy til (Eng qadimgi davrlardan milodning X asrigacha)

O'zbek tili turkiy tillar guruhiiga kiruvchi yirik tillardan biridir. O'zbek (turkiy) tilida yozilgan **dastlabki yozma yodgorliklar**

VI – VII asrlarga tegishli bo'lib, umumturk adabiy tili sifatida shakllandi.

Jamiyat oilalardan tashkil topganidek, tillar ham turli-tuman oilalarga bo'linadi. Til oilalari shu oilaga asos bo'lgan til nomi bilan yuritiladi. O'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq kabi tillarning turkiy til deyilishiga sabab shuki, ularning hammasi **qadimgi turkiy tildan ajralib chiqqan**.

Hozirgi barcha turkiy tillar (o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, turkman, ozarbayjon, usmonli turk, tatar, xakas, yoqut va boshq.) uchun **qadimgi turkiy til umumiyligi (bobo til) sanaladi**.

Hozirgi turkiy tillarning shakllanish tarixini ko'pchilik olimlar bir necha davrlarga bo'ladilar.

1. Oltoy davri.
2. Eng qadimgi turk davri.
3. Qadimgi turk davri.
4. O'rta turk davri (hozirgi barcha turkiy xalqlar va ular tillarining shakllanishi hamda rivojlanishi davri) va boshqalar.

Mutaxassislarning fikricha, turkiy tillar qadimda mo'q'ul va tungus-manjur tillari bilan birgalikda bitta oilani tashkil etgan va bu til oltoy tili deb atalgan. Keyinchalik oltoy tili tarmoqlanib ketgan. Afsuski, bu davrdan xabar beruvchi yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan, lekin qadimgi turkiy til davriga oid bir qancha yozma manbalarga egamiz. O'rxun-enasoy, uyg'ur (qisman moniy), sug'd yozuvlari shular jumlasidandir. Mazkur yozuvlar hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiyligi sanaladi.

O'rxun-enasoy yozushi haqidagi dastlabki xabarlar N.K. Vidzen, S.U.Remezov, I.Tabbet-Stralenberg, D.G.Messershmidt, M.A.Kastren kabi tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan.

1889-yili N.M.Yadrinsev Mongoliyadagi Qoraqurum shahristoni xarobalaridan ikkita katta bitiktosh topib oldi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, bu toshlar Kultegin va Bilga xoqonlar sharafiga qo'yilgan bitiktoshlar ekan.

V.V.Radlov, V.Tomsen, P.M.Melioranskiy kabi olimlar bu sirli yozuvlarni o'qishga qattiq kirishganlar. 1893-yilning 25-noyabr kuni V.Tomsen birinchi bo'lib bitiktoshlar sirini och-

ganligini e'lon qildi. Bu vaqtida V.V.Radlov 10 ta harfni o'qib ulgurgan edi. Mazkur sirlı yozuvlar turk xalqiga tegishli ekan. O'rxun vodiysi hamda Enasoy daryolari havzalaridan topilganligi uchun ular o'rxun-enasoy yozuvlari deb atala boshlandi. Hozirda ularning 700 ga yaqin namunalari fanga ma'lum.

Qadimgi turkiy tilda yozilgan parcha:

*Biz qo'rqedimiz, sungusdimiz – Biz qo'rqedik,
jang qildik.*

Neke qorqurbiz – Nimadan qo'rqedamiz.

Turk budun yoq bolmazun! Bodun bolsun! – Turk xalqi yo'q bo'lmasin! Xalq bo'lsin!

Eski turkiy til (XI – XII asrlar)

Milodiy XI asrlardan boshlab qorluq qabila ittifoqi kuchaya boshladi va qoraxoniylar sulolasi hukmronligidagi o'zlarining davlatlarini tashkil etdi. Qoraxoniylar Sirdaryo havzalari hamda somoniylarga qarashli bo'lgan Buxoro va Samarcandlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Qoraxoniylar davlati mayda uyg'ur qabilalarini hamda Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi turkeron aholisi yashaydigan madaniy yerlarni o'ziga bo'yundirgan holda X asr oxirlarida islam dinini qabul qilib, Markaziy Osiyoning eng madaniy turk davlatiga aylandi.

X – XII asrlarda o'zbek (turkiy) tilida «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Devoni hikmat», «Muqaddimat ul-adab» kabi nodir asarlar yaratildi.

Qoraxoniylar tomonidan ikki rivojlangan madaniy markazning sharqda uyg'ur madaniyatining va g'arbda, Markaziy Osiyoda, turk-eron madaniyatining birlashtirilishi uning yozma madaniyatida ham o'z ifodasini topdi. Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning o'sha davrdagi fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to'la ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir. Shu bilan birga, turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi namunalarini aks ettirgan yirik badiiy asardir.

Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan holda **qiyosiy-tarixiy** tilshunoslik deb nomlanuvchi tilshunoslik yo'nalishiga **asos soldi**.

Qoraxoniylar davrining ikkinchi yirik yozma yodgorligi – bu Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asaridir. Bu asar yirik badiiy-tarbiyaviy asar bo'lib, turkiy adabiyot tarixida juda katta katta ahamiyatga ega. Shuningdek, Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarlari shu davrning eng buyuk adabiy durdonalaridir.

Qoraxoniylar davri adabiy tili hozirgi Markaziy Osiyodagi barcha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan til sanaladi va shuning uchun bu davr tili ko'pchilik turkiyshunoslardan **eski turkiy til** deb yuritiladi.

Mahmud Koshg'ariy Chindan tortib to Rumga qadar yashagan turkiy qabilalar haqida shunday deb yozadi:

– Turklar aslida **yigirma qabiladir**. Har bir qabilaning **sanoqsiz allaqancha urug'lari** bor. Men bulardan asosiylarini – ona urug'larini yozdim, shoxobchalarini tashladim.

«Devonu lug'otit turk»dagi ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrda bajanak, qipchoq, o'g'uz, boshqird, basmil, yabaqu, tatar, qirg'iz, chigel, tuxsi, yag'mo, ig'raq, uyg'ur kabi turkiy qabilalar tili **umumturkiy adabiy tilni** tashkil qilgan. Ulardan «eng yengili – **o'q'iz**, eng to'g'risi, yaxshisi – **yag'mo, tuxsi**, eng ochiq, ravon til – **haqoniy o'lkasida yashovchilarining tili**» ekanligi ta'kidlangan.

Eski turkiy til eski o'zbek tilining shakllanishi va rivojida muhim o'rinn tutgan.

«Devonu lug'otit turk» dan olingan maqollar

1. Erik erni yag'lig', ermagu bashi qanlig' – tirishqoqning labi yog'li, erinchoq, dangasaning boshi qonli.

2. Emgak ekinda qolmas – mehnat bekorga ketmaydi.

3. O'kuz azaqi bo'lgi'inka, buzag'u bashi bo'lsa yik – ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq.
4. Uma kelsa, qut kelur – mehmon kelsa, baraka keladi.
5. Erdamsizdan qut chertilur – dangasadan baxt ketadi.
6. Kichikda qatig'lansa, ulg'azu sevnur – yoshlikda ma-shaqqa cheksa, ulg'ayganda sevinadi.
7. Erdam boshi til – odobning boshi – til.

«Qutadg'u bilig»dan olingan tuyuq:

Qayu erda bo'lsa uqush birla o'g (aql),
 Ani er atag'il, necha o'gsa o'g (maqta).
 Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
 Yavuz ersa kaz te, kichik ersa – o'g (ulug'la).

Qaysi odamda zehn va aql bo'lsa,
 Uni er atab, qancha bo'lsa-da maqta.
 Kishida aql, zehn, bilim mukammal bo'lsa,
 Yomon bo'lsa ham odam, kichik bo'lsa ham katta, ulug' de.

«Hibat ul-haqoyiq»dan olingan parcha:

Aya do'st, biliklik yizin izlagil,
 Qali so'zlasang so'z, bilib so'zlagil.
 (Ey do'st, bilimli kishi izidan yur,
 Agar so'zlasang, o'ylab so'zlagin)
 Tiling bekta tutgil, tishing sinmasun,
 Qali chiqsa bekta, tishingni siyur.
 (Tilingni tiy, tishing sinmasin)
 Agar tiymasang, u tishingni sindiradi)
 Ko'ni bo'l, ko'ni qil, atin ko'ni,
 Ko'ni teyu bilsin xaloyiq seni.
 (To'g'ri bo'l, to'g'ri ish qil, to'g'ri deb atal,
 Odamlar seni to'g'ri deb bilsin)

X – XII asrda «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Devoni hikmat», «Muqaddimat ul-adab» kabi nodir asarlar yaratildi.

Eski o'zbek adabiy tili (XII – XIII asrdan XX asr boshlarigacha)

Qoraxoniylar davri adabiy tili o'zbek tilining shakllanishi uchun ham asos bo'ldi. Bu davrdagi ikki adabiy til an'anasi sharqiy (qorluq-uyg'ur) adabiy tili va g'arbiy (qipchoq-o'g'uz) adabiy tili o'zbek tilining shakllanishida xizmat qildi.

Sharqiy adabiy til	Qorluq-uyg'ur	Qui Alining «Qissayi Yusuf» dostoni (1293)
G'arbiy adabiy til	Qipchoq-o'g'uz	Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asari (1309 – 1310)

A.Borovkovning e'tirof etishicha, «Tafsir» (XIII asr) tili eski o'zbek tilining yorgin namunasidir.

«O'q'uznama», «Tafsir» (Qur'onning so'zma-so'z tarjimasи, izohlar, sharhlар, tushuntirishlar), Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Guliston», Xorazmiyning «Muhabbatnama» asarlari eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalardir.

Arab, fors-tojik tillariga xos bo'lган fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar eski o'zbek tiliga ko'plab o'zlashdi. Bu davrda o'zbek qabilalari boshqa qabilalarga nisbatan siyosiy hayotda yetakchilikni o'z qo'llariga ola boshladilar.

O'zbek atamasi tarixda ilk bor XII asrda Rashididdinning «Mo'g'ullar tarixi» asarida atoqli ot ma'nosida tilga olinadi. Jaloliddin Manguberdining qo'shin boshliqlaridan biri O'zbektoy deb atalgan.

O'zbek degan so'zning «o'ziga bek», «otliq qo'shin», «sodda», «to'g'ri», «insofli», «saxiy», «odamoxun», «diltortar», «suyukli» kabi ma'nolari ham mavjud. O'zbek atamasining unga qadar ishlatalgan turk, sart, chig'atoy singari atama-larga nisbatan tilimizda barqaror bo'lib qolishi Shayboniyxon boshchiligidagi o'zbek urug'larining Markaziy Osiyoda o'troqlashuvi, hokimiyatni o'z qo'llariga olishi bilan bog'liq.

O'zbek tilining takomillashuvida Atoiy, Sakkokiyl, Lutfiy singari o'nlab, yuzlab so'z ustalari xizmat qilgan bo'lsalar, Mavlono Alisher Navoiy uning obro'yini dunyoga tanitdi. Na-

voiy davri va Navoiygacha bo'lgan davrda o'zbek tili **turk lafzi**, **turkiy til** nomi bilan yuritilgan. XVI asrdan o'zbek urug'lari ning nomi butun xalqning nomiga aylanib ketdi. Shuningdek, o'zbek tili mo'g'ullar bosqinidan so'ng shu yerga egalik qilgan **Chiq'atoy** nomi bilan, rus bosqini davrida esa ruslar tomonidan **sart tili** nomi bilan ham yuritilgan.

Eski turkiy tildan ajralib to hozirgi o'zbek tilining shakllanishigacha (XX asr boshlarigacha) bo'lgan o'zbek tili **eski o'zbek tili** deb nomlanadi.

XIII – XIV asrlarda yaratilgan «Qisasi Rabg'uziy», «Muhabbatnama», «Me'rojnama», «Yusuf va Zulayho», «O'g'uznama» kabi o'nlab mashhur kitoblar eski o'zbek tilini mahalliy shevaning go'zal unsurlari bilan boyitdi.

Demak, eski o'zbek tili **XII – XIII asrdan to XX asrning boshlarigacha** bo'lgan o'zbek tili tarixini o'z ichiga oladi va juda katta yozma manbalarni o'zida mujassam etadi.

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Faroq'iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Muqimiylarning eski o'zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta. Ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy ulkan ishlar qildi. U o'zbek tilini xazina deb bildi. Bu xazinani ilonlar va tikanlar o'rab turganligini ta'kidladi. Navoiy eski o'zbek adabiy tilini ana shu «ilon»lardan va «tikan»lardan tozalab berdi.

Eski o'zbek adabiy tili hozirgi o'zbek adabiy tilining vujudga kelishida muhim bosqich sanaladi.

O'zbek xalqi tilining takomillashuvida **XIV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmiqacha** bo'lgan tarixiy davr muhim rol o'ynadi. **XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek adabiy tilining uslublari ham shakllana bordi**, o'zbek milliy tilida me'yorlashish jarayoni barqarorlashish bosqichiga kirdi.

O'zbek adabiy tilidagi dastlabki o'qish kitobları va amaliy grammatika qo'llanmalari XIX asrda yaratila boshlandi. XX asrning 20-yillarda Abdurauf Fitrat o'zbek tilining sarf-u nahvi (morphologiya va sintaksisi)ni tahlil qildi. Shundan keyin tilshunosligimizning turli sohalariga oid ilmiy izlanishlar keng tus oldi.

**Qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek
adabiy tilidagi ayrim so'zlar izohi:**

Qadimgi turkiy til namunalari		Eski turkiy til namunalari		Eski o'zbek tili namunalari	
So'zlar	Izohi	So'zlar	Izohi	So'zlar	Izohi
budun	xalq	ko'kramak	na'ra tortmoq	cherik	askar, qo'shin
bilig	bilim	qirg'ilach	qaldir- g'och	ev	uy
ingek	sigir	sandilach	sa'va	qopungda	eshicingda
yag'i	yov, dushman	sandu- g'ach	bulbul	ulus	el, xalq
batsiq	g'arb	elig	hukmdor	huvaydo	ayon, ravshan
ko'ch	urug', zot	al	qizil	pesha	kasb, hunar
o'kush	ko'p	bo'gu	dono	kilk	qamish qalam
o'z	jon, vujud	ko'ni	to'g'ri, rost, haqqoniy	butradi	tarqaldi, ketdi
art	tepa, dovon	bazram	bayram	bilmon	bilmayman
erik	mard, botir, erkin	barchin	ipak	behbud	sog'lomlik
qo'rqa- dimiz	qo'rqa- dik	o'g (omonim so'z)	aqi; maqta; ulug'la	g'ayrat	rashk
sungus- dimiz	jang qildik	erdam	odob	talim	bir qancha

**Hozirgi o'zbek adabiy tili
(XX asrdan bugungi kungacha)**

Hozirgi o'zbek adabiy tili rivojlangan, ijtimoiy mavqeyi
yuksalgan, sayqal topgan, fonetik va leksik-grammatik jihat-
dan me'yorlashgan milliy tildir.

11-§. TILSHUNOSLIK FANINING BO'LIMLARI

Tilshunoslik fani tilning barcha jihatlarini qamrab oladi va uning har bir bo'limi tilning ma'lum bir tomonini o'rganadi.

Tilshunoslik: *til tarixi, fonetika, leksikologiya (so'zshunoslik), dialektologiya (shevashunoslik), etimologiya, frazeologiya (iborashunoslik), so'z yasash, so'z tarkibi, orfografiya (imlo), orfoepiya (talaffuz), grammatika (morphologiya va sintaksis), punktuatsiya, grafika, uslubiyat kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.*

Tilshunoslik bo'limlari	O'rganish obyekti
Til tarixi	Fonetika, lug'at boyligi, grammaticada ro'y bergan o'zgarishlar tekshiriladi
Fonetika	Og'zaki nutqning tovushlar tizimi, ularga xos xususiyatlar, bo'g'in va urg'u masalalari o'rganiladi (tovush, bo'g'in urg'uni o'rganadi)
Orfografiya (imlo)	So'z qismalarining to'g'ri yozilishi o'rganiladi. Orfografik me'yorlar faqat yozma nutq shakli uchun xos
Orfoepiya	Tilshunoslikning to'g'ri talaffuz qoidalarini o'rganuvchi bo'limidir. Orfoepik me'yorlar faqat og'zaki nutq shakli uchun xos
Grafika (yozuv)	Tovushlami yozuvda ifodalovchi vositalar – harflar, yozuvlar, ularning tarixi, turi, xususiyatlari kabilar haqida ma'lumot beradi
Grammatika	Grammatika ikki tarkibiy qism – morphologiya va sintaksis haqida ma'lumot beradi
Sintaksis	So'z birikmasi, gap va uning qurilishi (gap turlari, bo'laklari) o'rganiladi
Morfologiya	So'z va uning grammatic shakllari, so'zlarining turkumlarga bo'linishi, har bir so'z turkumiga xos xususiyatlar o'rganiladi. Morfologiya so'z yasash ya morfemika (so'z tarkibi) kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi

Morfemika	So'zning eng kichik bo'linmas ma'noli qism-lari – morfemalar (asos va qo'shimchalar) o'rganiladi
So'z yasalishi	So'zlarning yasalish usullari, yasama so'z-larning turlari va ularga xos xususiyatlar o'rganiladi
Leksikologiya	Tilning lug'at tarkibi, so'z va uning atash (leksik) ma'nolari o'rganiladi
Leksikografiya	Lug'at va uning turlari, lug'at tuzish asoslari bilan bog'liq masalalar o'rganiladi
Onomastika	Nomlar, ularning turiari, nomianish sabablari o'rganiladi
Paremiologiya	Barqaror birikmalarni o'rganadigan fan (bar-qaror birikmalar: frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar
Dialektologiya (Shevashunoslik)	Xalq tili tarkibiga kiruvchi shevalar va ularga xos xususiyatlar o'rganiladi
Etimologiya	Tildagi so'zlarning kelib chiqish bilan shu-g'ullanuvchi soha
Frazeologiya	Ko'chma ma'noli turg'un birikmalar – iboralar va ularga xos xususiyatlar o'rganiladi
Punktuatsiya	Tinish belgilari va ularning ishlatalishi o'rgani-ladi. Punktuatsion me'yorlar faqat yozma nutq shakli uchun xos, og'zaki nutqda tinish belgilari vazifasi maxsus ohanglar yordami-da anglashiladi
Stilistika (Uslubiyat)	Nutq uslublarini o'rganadi. Til vositalari (tovushlar, qo'shimchalar, so'zlar va gaplar)dan nutqda to'g'ri foydalanish me'yorlari tushun-tiriladi

3-MAVZU FONETIKA

1-§. FONETIKA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Fonetika so'zi yunoncha *phone* – «tovush» so'zidan olingan.

Nutqimizni bo'laklarga ajratadigan bo'lsak, uning oxirgi bo'linish nuqtasi tovushlar bo'ladi. Masalan, *O'zbekiston – jannatmakon* o'lda jumlesi *O'zbekiston, jannatmakon*, o'lda so'zlariga, bu so'zlar, o'z navbatida, *O'z-be-kis-ton, jan-nat-ma-kon, o'l-ka bo'g'inlariga, bo'g'inlar esa O'-z-b-e-k-i-s-t-o-n j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n o'-l-k-a* singari tovushlarga bo'linadi. Bo'linishning oxirgi nuqtasi bo'lgan, boshqa mayda bo'laklarga bo'lish mumkin bo'laman nutq bo'lagi (akustik-artikulyatsion birlik) tovush hisoblanadi va u bilan bog'liq hodisalar tilshunoslikning fonetika bo'limida o'rganiladi.

Og'zaki nutqning tovush tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi fonetika, yozma nutqning harflar tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi esa grafika deyiladi.

Tilning fonologik (fonetik) sathining birligi fonema bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan ko'rinishi fon (allofon) yoki tovush hisoblanadi.

Til – fikr ifodalash vositasi.

Fikrimizni boshqalarga tovushlar vositasida so'zlash va harflar vositasida yozish orqali bayon qilamiz. So'zlash va yozish orqali ma'lum fikr bayon qilishimiz nutq hisoblanadi.

Nutq ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq og'zaki nutq, harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq esa yozma nutq sanaladi.

Og'zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan qismi nutq toyushi deyiladi. Tovushning yozuvdag'i ifodasi harf deyiladi.

Bir tovush bir harf bilan ham, ikki harf bilan ham ifodalaniishi mumkin. *Sh, ch, ng* singarlarda ikki harf bir tovushni ifodalaydi.

2-§. NUTQ TOVUSHLARI VA ULARNING HOSIL BO'LISHI

Biz gapirganimizda tovushlarni talaffuz qilamiz. Inson talaffuz qiladigan va boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan birliklar **nutq tovushlari** deb ataladi. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan inson a'zolariga **nutq a'zolari** deyiladi.

Nutq a'zolari

- | | | |
|-------------------|------------------------|-------------|
| 1. O'pka. | 4. Bo'g'iz bo'shlig'i. | 7. Til. |
| 2. Tog'aylar. | 5. Og'iz bo'shlig'i. | 8. Lab. |
| 3. Un paychalari. | 6. Burun bo'shlig'i. | 9. Tishlar. |

Unli tovushlarning hosil bo'lishida **tovush paychaları lablar va til** muhim ahamiyatga ega.

Undosh tovushlarning hosil bo'lishida **bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til** muhim ahamiyatga ega.

3-§. TOVUSH VA FONEMA

Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo'lgan xususiylik va umumiylilik munosabatini aks ettiradi.

Xuddi shuningdek, biz nutqiy jarayonda bevosita tovushlarni eshitamiz. Masalan, *i* tovushini olaylik. U, avvalo, har bir shaxs-ning o'ziga xos talaffuzini o'zida namoyon qiladi. Shu bilan birga, so'zlamning tarkibida yondosh tovushlar ta'siriga beriladi. Masalan, *tushib* so'zining ikkinchi bo'g'indagi *i* birinchi bo'gindagi *u* ning ta'sirida *u* tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. ***Bilan, tilim, sira*** so'zları tarkibida *i* tovushi bilinar-bilinmas aytiladi. ***Qiliq, qiziq*** kabi so'zlar tarkibida *i* tovushi til orqa tovush ta'sirida *u* ga yaqin talaffuz etiladi. Bundan tashqari, unga so'zlovchining qaysi shevaga mansublik belgisi qo'shiladi. Xul-las, nutq jarayonida xilma-xil ko'rinishga ega bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ularning hammasida takrorlanadigan umumiyl jihatlar bor. U ham bo'lsa, **torlik belgisi va lablanmaganlik** belgisi. Shu belgilari bilan a, o, e, u, o' ga zidlanadi. Ana

shu birlashtiruvchi belgilar ma'lum xususiylikni umumiylklarga birlashtirishga yordam beradi. Umumiylik so'zlovchi va tinglochilar xotirasida mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham bu umumiylik turlicha talaffuz qilinishiga qaramasdan, so'zlovchi va tinglochilar o'rtaida bir xil tushunishga olib keladi.

Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasi **tovush** sanaladi.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi **fonemadir**.

Masalan, *tosh-tom* so'zlarini *sh* va *m* farqlaydi. Demak, *sh* va *m* alohida-alohida fonemalardir. Yoki *tosh-tesh* zidligida *o* va *e*; *tosh-qosh* zidligida *t* va *q* ma'noni farqlash uchun xizmat qiladi, shuning uchun ular ham mustaqil fonemalar sanaladi.

Ko'rindaniki, bir fonema bir necha tovushlar orqali ro'yoga chiqadi. Fonemalarni sanash mumkin. Ular cheksiz ko'rinishlarga ega bo'ladi. Bu esa tovushlar miqdorining cheksiz ekanligini ko'rsatadi. **Fonemalar ikki va undan ortiq ma'noli birliklarni bir-biriqa zidlash orgali aniqlanadi.**

Fonemalar so'zlarning tarkibida muayyan tartibda kelib, ularni moddiy tomonidan shakllantiradi. Bunda so'z tarkibida gi fonemalarning joylashish tartibi katta rol o'ynaydi.

Fonemalar sanoqli, lekin uni xilma-xil tartibda joylashtirish orqali cheksiz so'zlar hosil qilinadi. *Sut*, *tus*, *ust* so'zlarining tovush tomoniga e'tibor bering. Ularning hammasi uchta bir xil tovushlarning turlicha ketma-ket joylashuvidan tashkil topgan. Garchi yuqorida so'zlarning tovush tarkibi bir xil bo'lsa ham, lekin ular turli tartibda joylashib uchta so'zning ifoda tomonini hosil qiladi. Quyidagi so'zlarga e'tibor bering: ***bob, bod, boj, bol, bop, bog, bor, bos, bot, boy, boz, bog', bosh, bong***. Oxirgi tovushga qarab so'zning ma'nosini o'zgar yapti. Demak, so'z ma'nolarini farqlaydigan tovush fonema hisoblanadi (fonema so'zi tovush atamasini bilan sinonimik holatda ham qo'llanadi).

Ko'rinadiki, so'zlarning moddiy tomoni uchun uning nechta fonemadan tashkil topganigina emas, balki ularning qanday tartibda joylashuvi ham katta ahamiyatga ega.

Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'zlarning ma'nolarini farglashdir.

Ta'rifni yana bir yodga olamiz.

Fonema – bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi.

4-§. UNLI VA UNDOSH FONEMALAR

Tovushlar o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shilg'ida to'siqqa uchrashi yoki uchramasligiga ko'ra ikki turga bo'linadi: unli tovushlar va undosh tovushlar.

O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shilg'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishi natijasida hosil bo'ladigan tovushlarga unli tovushlar deyiladi.

Tilimizda oltita unli tovush bor: *a, o, e, o', u, i.*

O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shilg'inining ma'lum bir joyida yoki bo'g'izda to'siqqa uchrashidan hosil bo'lган tovushlar undosh tovushlar sanaladi.

Unli va undosh fonemalar quyidagi belgilarga ko'ra o'zaro farqlanadi:

Unli tovushlar	Undosh tovushlar
O'pkadan chiqayotgan havo oqimi hech qanday to'siqqa uchramaydi	O'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shilg'ida to'siqqa uchraydi
Sof ovoz (un)dan iborat	Shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat
Unlilar bo'g'in hosil qiladi. So'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi	Undoshlar bo'g'in hosil qila olmaydi. Faqat unli bilan bo'g'in hosil qiladi

Unlilarni cho'zib talaffuz qilish mumkin	Undoshlarni cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi
Unlilararning talaffuzida tovush paychalari titraydi	Undoshlarning talaffuzida tovush paychalari titrashi ham, titramasligi ham mumkin
Unlilarga urg'u tushadi	Undoshlar urg'u olmaydi

Faqat un (ovoz)dan iborat bo'lgan va bo'g'in hosil qiladigan fonemalarga **unli fonemalar** deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli fonema mavjud: *i, u, e, o', o, a*.

Talaffuz qilinayotganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ma'lum to'siqqa uchraydigan, shovqin ishtirok etadigan va bo'gin hosil qilolmaydigan fonemalarga **undosh fonemalar** deyiladi.

Unlilar tasnifi

i, u, e, o', o, a unlilarini talaffuz qilib ko'ring. Ularning bir guruhini (*u, o', o*) talaffuz qilganingizda lab oldinga qarab cho'chchayadi, *a, e, i* unli tovushlarini talaffuz qilganingizda esa lab o'z holicha qoladi. Demak, unlilarning bir guruhiba lab ishtirok etadi, boshqalarida esa qatnashmaydi.

Bundan tashqari, *a* unlisini talaffuz etganingizda og'iz katta ochiladi. Til gorizontal holda pastki jag' ustida yotadi. *i, u* unlilarini talaffuz etganingizda esa, og'iz ozgina ochiladi, tilning o'rtasi esa yuqori tanglayga qarab ko'tariladi. Unlilar quyidagicha tasniflanadi:

- a) labning ishtiroki;**
- b) tilning ishtirokiga ko'ra;**
- d) og'izning ochilish darajasiga ko'ra** (tilning ko'tarilishi darajasi)

1. Unilar labning ishtirokiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) **lablangan unlilar** (*u, o'*);

2) **lablanmagan** unlilar (*e, a, i*).

Bu jihatdan o unlisi oraliq holatda qoladi.

2. Tilning ishtirokiga ko'ra:

- 1) til oldi unlilari: *i, e, a*;
 2) til orqa unlilari: *u, o, o'*
 3. Og'izning ochilish darajasi belgisiga ko'ra esa uch darajaga bo'linadi:

- a) tor unlilar (til o'rta sinining tanglayga tomon yugori ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi, Shuning uchun yugori ko'tarilish yoki yugori tor ham deyiladi): *u, i*;
 b) o'rta tor yoki o'rta keng unlilar: *e, o'*;
 c) keng unlilar (quyi ko'tarilish yoki quyi tor): *a, o*.
(Eslatma: tor unlilar: i, u; keng unlilar: e, o', a, o)

Unlilar tasnifi quyidagi jadvalda yaqqolroq ko'rindadi:

Tilning gorizontal harakatiga ko'ra	Tilning vertikal harakatiga ko'ra			Lablarning ishtirokiga ko'ra
	yuqori tor unlilar	o'rta keng unlilar	quyi keng unlilar	
til oldi unlilari	i	e	a	lablanmagan unlilar
til orqa unlilari	u	o'	o	lablangan unlilar oraliqadagi unli

Q unlisining lablangan holatiga misol: *tonna, noyabr*. Lablanmagan Q ishtirok etgan so'zlar: *ona, olma*

Og'izning ochilish darajasi belgisiga ko'ra (Tilning vertikal harakatiga ko'ra)

1	tor unlilar (yuqori ko'tarilish yoki yugori tor)	i, u
2	o'rta tor yoki o'rta keng	e, o'
3	keng unlilar (quyi ko'tarilish yoki quyi tor)	a, o

Unli tovushlarning hosil bo'lishida tovush paychalari, lablar va til muhim ahamiyatga ega

Undosh fonemalar

Undosh tovushlarning hosil bo'lishida **bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i ya til** muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqayotgan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi. Buning oqibatida esa undosh tovushlarning hosil bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi. Ba'zi hollarda unga jarang ham qo'shiladi.

Masalan, «b» undoshining talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo lablar to'sig'iga uchraydi. «P» undoshining hosil bo'lishida ham shunday holat bor, lekin uning «b» dan farqi talaffuzida jarang ishtirok qilmaydi.

O'zbek tilida undosh tovushlar 23 ta: *b, v, g, d, z, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng*.

Bu undosh tovushlardan bittasi – *ng* yozuvda maxsus belgilari bilan berilmaydi.

Undosh tovushlar uch tomondan tasnif qilinadi:

- 1) ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra (akustik tomoni);
- 2) hosil bo'lish o'rniغا ko'ra (talaffuz tomoni);
- 3) hosil bo'lish usuliga ko'ra (talaffuz tomoni).

I. Undoshlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra turlari

Sonorlar (ovozdorlar)	m	n	ng	l	r						
Shovqinllilar	b	d	g	j	p	t	k	ch	q		
	v	z	y	s	f	x	sh	g'	h		

Burun tovushlari	m	n	ng
Yon tovush	l		
Titroq tovush	r		

8 ta jarangli undoshning 8 ta jarangsiz jufti bor:

Jaranglilar	b	d	g	j	j	v	z	g'	y	m	n	ng	l	r
Jarangsizlar	p	t	k	ch	sh	f	s	q	x	h				

y, m, n, ng, l, r – jarangli undoshlar, jarangsiz jufti yo'q.
x, h – jarangsiz undoshlar, jarangli jufti yo'q.

II. Undoshlarning hosil bo'lish o'rniiga ko'ra turlari

Lab undoshlari

b, p, m,
v, f

Til undoshlari

11 ta
undosh

y

g, k, ng

Bo'g'iz undoshi

q, g', x

h

1. Lab undoshlari:

- a) lab-lab undoshlari: b, p, m;
- b) lab-tish undoshlari: v, f.

2. Til undoshlari:

- a) til oldi undoshlari: d, t, z, s, sh, j, ch, n, l, r, (sirg'aluvchi j);
- b) til o'rta undoshi: y;
- c) til orqa undoshlari: g, k, ng;
- d) chuqur til orqa undoshlari: q, g', x.

3. Bo'g'iz undoshi: h.

III. Undoshlarning hosil bo'lish usuliga ko'ra turlari

Portlovchilar	b	d	g	j	p	t	k	q	m	n	ng
Sirg'aluvchilar	v	f	z	j	s	y	sh	g'	x	h	l
Qorishiq-portlovchi	ch										

Shuningdek, undoshlar tarkibiga ko'ra sof (22 ta undosh) va qorishiq (ch) deb ham tasniflanadi. Qorishiq undosh bitta: ch. Sonorlar esa beshta: m, n, ng, l, r Bularning ichidan l yon tovush, r titroq tovush sanaladi.

Tilning tish va tanglayga tegishidan hosil bo'lgan tovushlarga til tovushlari deyiladi.

To'siqqa uchragan havoning burun orqali o'tishidan hosil bo'lgan tovushlar burun tovushlari deyiladi. Burun tovushlari: m, n, ng.

O'pkadan chiqayotgan havoning bo'g'izda qisilishidan hosil bo'lgan tovushga bo'g'iz tovushi deyiladi.

Unlilar *faqat un* (ovoz)dan hosil bo'ladi.

Sonorlarda ovoz kuchli, shovqin kam, jarangli undoshlarda (sonorlardan tashqari) shovqin kuchli ovoz kam, jarangsizlar faqat shovqindan iborat. Demak, undoshlar shovqindan yoki ovoz va shovqindan hosil bo'ladi.

5-§. TOVUSHLARNING FARQLOVCHI VA BIRLASHTIRUVCHI BELGILARI

Nutq tovushlari bir qancha akustik va artikulyatsion (talaf-fuz) belgilariiga ega bo'ladi. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim sanaladi, chunki bu belgilarni to'la hisobga olgandagina, u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi. Lekin fonologiya uchun yuqoridagi belgilarning ko'pchiligi muhim sanalmaydi.

Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslanganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilargina ahamiyatli bo'ladi.

Bizning bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash tashkil etadi. Bilish jarayonimizda yangi bilayotgan narsamizni oldin bilgan narsaga qiyoslasmiz, zidlaymiz va ular o'rtaсидаги о'xhash va farqli tomonlarni topishga harakat qilamiz. Shuning uchun bilish faoliyatida zidlashlarning ahamiyati katta.

Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar farqlovchi belgilar, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar birlashtiruvchi belgilar sanaladi.

Masalan, *t* va *d* tovushlarini olaylik. Birinchi tovush til oldilik, portlovchilik, jarangsizlik belgilariiga, ikkinchisi esa til oldilik, portlovchilik, jaranglilik belgilariiga ega. Bu ikki tovushning yuqoridagi belgilarini bir-biriga qiyoslasak, dastlabki ikki belgi (til oldilik, portlovchilik belgilari) har ikkisida takrorlandi. Uchinchi belgi (jarangli-jarangsizlik belgisi) bilan esa ular bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, birinchi va ikkinchi belgilar ular o'rtaсидаги birlashtiruvchi belgilar, uchinchi belgi esa farqlovchi belgi hisoblanadi.

Tovushlar	1	2	3	4
t tovushi	til oldi	portlovchi	jarangsiz	undosh
d tovushi	til oldi	portlovchi	jarangli	undosh
Umumiy va xususiy belgilari	birlash-tiruvchi	birlash-tiruvchi	farqlovchi	birlash-tiruvchi

Tovushlar	1	2	3	4
i tovush	lablan-magan	til oldi	yuqori tor	unli
o' tovushi	lablangan	til orqa	o'rta keng	unli
Umumiy va xususiy belgilari	farq-lovchi	farq-lovchi	farq-lovchi	birlash-tiruvchi

Fonemalarni belgilashda yaqin, o'zaro o'xshash tovushlarni bir-biriga zidlash va ular o'rtasidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega bo'ladi.

6-§. NUTQ TOVUSHLARINING UCH TOMONI

Kundalik hayotingizda har xil tovushlarni eshitasiz: mashinalar signali, hayvonlarning qichqirig'i, parrandalarning sayrashi, suvning shildirashi va boshqalar. Havo to'lqinlari orqali qulog'imiz bilan eshitiladigan barcha hodisalarga **tovush** deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar sirasiga kiradi.

Har qanday tovush ma'lum tashqi ta'sir yordamida havo oqimining tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, ip yoki simni tarang tortib, uni qo'lingiz bilan chertsangiz havoni tebratadi va tovush chiqadi.

Tovushlar **tabiiy** va **inson** tovushlariga bo'linadi. Tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo'lgan barcha tovushlar **tabiiy** (fizik va biologik) tovushlar sanaladi.

Tabiiy tovushlardan inson tovushlarining farqi shundaki, u inson nutq a'zolari harakati yordamida ma'lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadi. Bu esa har qanday nutq tovushining uch tomoni mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Nutq tovu-shining tomonlari	Xususiyatlari	Misollar	O'rganish obyekti
Akustik	Har qanday tovush havonning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ulaming hammasi ma'lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariga ega bo'ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomoni deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o'rganiladi	k tovushi-ning sof shovqin-dan iborat ekanligi, jarang-sizligi akustik belgisi	Ovozдорлар (sonorлар), shovqinлilar; jarangлilar, jarangsizлar
Talaffuz (fiziologik)	Nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida hosil bo'ladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Nutq apparati o'pka, bo'g'iz, tovush psychalari, og'iz bo'shlig'i, tanglay, til, lab, burun, tish kabi a'zolami o'z ichiga oladi	Masalan, k tovushi til o'rtasining yuqori tanglayga tegishi va o'pkadan chiqayotgan havoning bu to'siqdan portlab chiqishi natijasida hosil bo'ladi. Bu tovushning nutq a'zolarining qayerida va qanday yo'l bilan hosil bo'lishi talaffuz (fiziologik) tomoni sanaladi.	Hosil bo'lish usuliga ko'ra: portlovchilar, sirg'aluvchilar; hosil bo'lish o'miga ko'ra: bo'g'iz, til, lab

Vazifaviy	Nutq tovushlari ma'lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishidan ma'lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma'noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomonidan shakllantirish va ma'nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, <i>soli</i> bilan <i>sholi</i> so'zları birinchi tovushlari bilan, sot bilan <i>soch</i> so'zları oxirgi tovushlari bilan, sot bilan <i>sut</i> so'zları o'tasidagi tovushlari bilan farqlanadi. Tovushlarning bunday belgilari vazifaviy belgisi sanaladi va u faqat inson tovushlariga qagina xos belgi hisoblanadi.	k ning g dan va boshqa tovushlardan farqlanishi esa vazifaviy belgisi hisoblanadi	Bir tovushning boshqa tovushlardan farqli tomonlari
-----------	--	---	---

Demak, yuqorida sanalgan belgilardan **birinchisi** (akustik) tabiiy tovushlarga ham, inson tovushlariga ham xos belgi bo'lsa, **ikkinchi** (talaffuz) va **uchinchi** (vazifaviy) belgilar **faqat inson tovushlariga qagina xoşdir**.

Shunday qilib, nutq tovushlarining uch tomoni mavjud: a) akustik; b) talaffuz (fiziologik); d) vazifaviy tomonlari. Har qaysi nutq tovushini tavsif qilishda ana shu uch tomon e'tiborga olinadi. Tilshunoslik fani uchun vazifaviy tomoni muhim sanaladi. Shuning uchun vazifaviy belgi **lingvistik (tilshunoslik) belgi** deb ham yuritiladi.

7-§. TOVUSH O'ZGARISHLARI

1. Singarmonizm unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg'unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi. Bunga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inida qanday unli kelsa, keyingi bo'g'inida ham shunday unli kelishi kerak: *burun, quruq, uzun*.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati buzilgan. Masalan, *bola* so'zida birinchi unli til orqa bo'lsa, ikkinchisi til oldi unli.

2. Assimilatsiya qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib, o'ziga moslashtirishidir. Assimilatsiya ikki xil bo'ladi:

1) progressiv assimilatsiya oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatishidir: *aytdi* – *aytti* (faqt talaffuzda), *yurak+ga* – *yurakka* (talaffuz va imloda);

2) regressiv assimilatsiya keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga o'xshatishidir: *yigit+cha* – *yigichcha* (faqt talaffuzda), *tuz+siz* – *tussiz* (faqt talaffuzda).

3. Dissimilatsiya ikkita o'xshash tovushning noo'xshash bo'lib qolishidir. Dissimilatsiya ham ikki xil bo'ladi:

1) progressiv: *birorta* – *bironata* (talaffuzda va imloda), *zarur* – *zaril* (faqt talaffuzda);

2) regressiv: *ittifoq* – *intifoq* (faqt talaffuzda), *koridor* – *kolidor* (faqt talaffuzda).

4) Metateza undosh tovushlarning o'rin almashuvidir: *tuproq* – *turpoq* (faqt talaffuzda);

5) Tovush ottirilishi hodisasi so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida yuz berishi mumkin: *tabiat* – *tabiyat*, *doyim* – *doyim*, *ilm* – *ilim*, *doir* – *doyir* (ushbu so'zlar faqt talaffuzda o'zgaradi)

6. Tovush moyillashuvida quyidagi hodisa yuz beradi: talaffuz jarayonida ikkita jarangsiz tovushdan biri ikkinchisini o'ziga to'liq emas, qisman o'xshatib oladi: *maqtov* – *maxtov*, *to'qson* – *to'xson*, *taqsim* – *taxsim*, *maqsad* – *maxsad* (ushbu so'zlar faqt talaffuzda o'zgaradi)

8-§. BO'G'IN VA UNING TURLARI

Bir havo zarbi bilan aytildigan tovush yoki tovushlar birikmasiga **bo'g'in** deyiladi.

Bo'g'in **unli tovushlar** asosida hosil bo'ladi. Har bir bo'g'inda bitta unli qatnashadi, shuning uchun **so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi**.

Ayrim so'zlarda o'zak va qo'shimchalarga ajralishi bilan bo'g'lnlarga ajralishi **teng emas**. Ba'zi so'zlarning o'zak va qo'shimchalarga ajralishi bo'g'lnlarga ajralishiga teng.

So'zlar	Bo'g'inga ajratish	O'zak va qo'shimchaga ajratish	So'zning o'zak va qo'shimchalarga ajralishi bilan bo'g'inlarga ajralishi tengmi yoki teng emasmi?
go'shtni	go'sht-ni	go'sht-ni	teng
bargga	barg-ga	barg-ga	teng
go'shti	go'sh-ti	go'sht-i	teng emas
bargi	bar-gi	barg-i	teng emas
o'yna	o'y-na	o'yn-a	teng emas
o'yla	o y-la	o'y-la	teng
sabrsizlik	sabr-siz-lik	sabr-siz-lik	teng
ko'nglim	ko'ng-lim	ko'ngl-im	teng emas
tongga	tong-ga	tong-ga	teng
suvsizlik	suv-siz-lik	suv-siz-lik	teng

Bo'g'inlar ikki turli bo'ladi: ochiq bo'g'in va yopiq bo'g'in. Unli bilan tugagan bo'g'in ochiq, undosh bilan tugagan bo'g'in yopiq bo'g'in hisoblanadi. Masalan, *o-na*, *bo-la* so'zlaridagi har ikki bo'g'in ochiq, *tosh-lar* so'zidagi har ikki bo'g'in yopiq bo'g'indir.

Bo'g'inning amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) yozuvda bir satrga sig'may qolgan so'z keyingi qatorga bo'g'in asosida imlo qoidalari muvofiq ko'chiriladi;

- 2) birinchi sinf o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatish bo'g'in asosida amalga oshiriladi;

- 3) she'riy misralarda bo'g'inlar sonining tengligi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Bo'g'in ko'chirish qoidalari orfografiya bo'limida o'rganiladi.

Bo'g'in ko'chirish

Bo'g'in ko'chirish qoidalari	Misollar
Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi	<i>to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor</i>

Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi	<i>va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om</i>
So'z boshidagi bir harfdan iborat bo'gin yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi	<i>a-badiy emas, aba-diy; e-shikdan emas, eshik-dan</i>
So'zning oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi	<i>mudofa-a emas, mu-do-faa; matba-a emas, mat-baa</i>
O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi	<i>dia-gramma, monografiya</i>
O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi	<i>slin-drik, kon-trakt, transport, kon-gress, in-gliz</i>
Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi	<i>Pe-shayvon, pe-shana, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz</i>
Bosh harflardan iborat yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar satrdan satrga ko'chirilmaydi	<i>AQSH, BMT, ToshDU, O'zMU</i>
Ism va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi	<i>I.A.Karimov, Z.A.Hoshimova</i>
Harfiy qisqartmalar o'zidan oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi	<i>v.b (va boshqalar), sh.k (shu kabilar)</i>
Ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi	<i>24, 13, 1996, 2000, XX, XXI</i>
Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi	<i>5-«A» sinf, V «B» sinf, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm</i>

**Bo'g'in ko'chirish va
bo'g'inga ajratish orasida farq bor:**

Bo'g'in ko'chirish	Bo'g'inga ajratish
ona	o-na
mu-do-faa	mu-do-fa-a
mat-baa	mat-ba-a
mu-ro-jaat	mu-ro-ja-at
ta-aj-jub	ta-aj-jub
sao-dat	sa-o-dat
muo-ma-la	mu-o-ma-la
zoo-park	zo-o-park
pe-sha-na	pe-sha-na
oila-viy	o-i-la-viy

Izoh: ng tovushi fagat turkiy tillarga xos. Ingliz, kongress kabi o'zlashma so'zlarda **n** va **g** deb o'qiladi.

Ng tovushi ikki unli o'rtasida kelsa, o'zidan keyingi unli bilan bo'g'in hosil qiladi. Agar ng tovushi unli va undoshlar o'rtaSIDA kelsa, birinchi bo'g'indagi unliga qo'shiladi. Quyidagi jadvalga e'tibor bering:

So'zlar	Bo'g'inga ajratish	Birinchi bo'g'inning turi
singil	si-ngil	ochiq bo'g'in
singlisi	sing-lisi	yopiq bo'g'in
ko'ngil	ko'-ngil	ochiq bo'g'in
ko'ngli	ko'ng-li	yopiq bo'g'in
dengiz	de-ngiz	ochiq bo'g'in
yanga	ya-nga	ochiq bo'g'in
tanglay	tang-lay	yopiq bo'g'in
tungi (<i>ng emas, n va g</i>)	tun-gi	yopiq bo'g'in
menga (<i>ng emas, n va g</i>)	men-ga	yopiq bo'g'in
shtanga (<i>ng emas, n va g</i>)	shtan-ga	yopiq bo'g'in

9-§. URG'U VA UNING NUTQDAGI AHAMIYATI

So'z bo'g'inlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishiga urg'u deyiladi.

Urg'u ikki xil bo'ladi: 1) so'z urg'usi; 2) gap urg'usi (ma'no urg'u-si – frazaviy urg'u – mantiqiy urg'u).

So'z bo'g'inlaridan birining boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilinishi so'z urg'usi deyiladi. Tilimizda so'z urg'usi ko'pincha so'zlarning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zda bo'g'inlar ko'payishi bilan urg'u ham oxirgi bo'g'inga ko'chib boradi. Yozuvda urg'u tushgan bo'g'in yoki so'z tepasiga (') belgisi qo'yish bilan ifodalash mumkin.

Urg'u yordamida nutq ko'rkmashadi, eshituvchiga yo-qimli bo'ladi, uni zeriktirmaydi. Turkiy, jumladan, o'zbek tilida urg'u o'miga ko'ra ko'chib yuruvchi urg'u sanaladi. Masalan, o'nik o'rakzor – o'rikzorlar – o'rikzorlarga.

Urg'u juft so'zning ikkinchi qismiga tushadi: ota-onas, bola-chaga.

Ko'nnadiki, o'zbek tilida urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi va so'zni gap tarkibida boshqa so'zdan ariatish hamda so'z fonetik tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi.

O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda urg'u bargaror o'ringa ega. Bu urg'uning o'sha tillardagi ahamiyati bilan bog'liqdir.

Urg'u tushmaydigan so'z va qo'shimchalari:

Bo'lishsizlik qo'shimchasi	-ma
Bog'lamalar	-man, -san, -miz, -siz, dir
Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari	-man, -san, -miz, -siz, ay, -gin, -sin, -aylik, -ingiz, -sinlar kabi
Ravish yasovchi qo'shimchalar	-cha, -dekk, -day, -larcha kabi
Qo'shimcha yuklamalar	-gina, -dir, -mi, -chi, -a, -ya, -u, -yu, -oq, -yoq, -da, -ku kabi

Sonning ma'no turini hosil qiluvchi qo'shimchalar:	-ta, -tacha, -lar, -larcha, -lab, -nchi, -inchi, -tadan, -ov, -ala, ovlon
Ko'makchilar	bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig', haqida, to'g'risida, tufayli, birga, holda
Ota ismi va familiyaga qoshiluvchi shakllar	-ov, -ova, yev, -yeva, -yevich, -yevna, -ovna

Urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmaydigan holatlar

Olmoshlarda	b <u>a</u> rcha, h <u>a</u> mma, q <u>a</u> ysi, h <u>a</u> r bir, k <u>i</u> mdir, a <u>ll</u> akim, h <u>e</u> ch narsa
Modal so'zlarda	al <u>b</u> atta, a <u>f</u> suksi, z <u>e</u> ro, s <u>o</u> 'zsiz, ch <u>a</u> masi
Fe'lning buyruq shaklida	g <u>a</u> pir, o' <u>t</u> ir, b <u>o</u> shla, k <u>e</u> lsin
Ayrim yordamchi so'zlarda	le <u>k</u> in, a <u>m</u> mo, ch <u>u</u> nki, g <u>a</u> rchi
Arab-fors tillaridan o'zlashgan ravishlarda	as <u>l</u> o, y <u>a</u> ngi, h <u>o</u> zir, d <u>o</u> im
Tarkibli sonlarda	o' <u>n</u> ikki, o' <u>n</u> besh, y <u>ig</u> irma uch
Qo'shma fe'llar va ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida	s <u>o</u> tib oldi, y <u>oz</u> ib oldi, b <u>er</u> ib yubordi
Takror so'zlarda	k <u>at</u> ta-katt <u>a</u> , a <u>sta</u> -asta, qip-qizil, y <u>am</u> -yashil
Ayrim o'zlashma so'zlarda	astron <u>omi</u> ya, audit <u>ori</u> ya, a <u>t</u> om, direk <u>tor</u> , dots <u>ent</u> , gaz <u>eta</u> , konstitu <u>tsiya</u> , le <u>ksi</u> ya, matem <u>ati</u> ka, oblast, obr <u>az</u> , poyezd, r <u>adi</u> o, pespublik <u>a</u> , ruchka, sanato <u>ri</u> ya, tonna, trakt <u>or</u>

Urg'u so'zning oxiriga tushadigan holatlar

1. O'zbek tiliga xos so'zlarning aksariyatida: ishchi, ishchilar, ishchilarga
2. Juft so'zlarning ikkinchi qismida: ota-ona, bola-chaqa.
So'z urg'usi ma'no farqlash uchun ham xizmat qiladi.

Urg'u ma'no farqlaydigan omonim so'zlarga misollar:

Ot	Fe'l	Ot	Sifat, ravish	Sifat	Ravish, olmosh, fe'l
bog'lar	bog'lar	akademik (ot, ilmiy unvon)	akademik (akademik litsey)	yangi (sifat)	yangi (ravish)
gullar	gullar	etik (ot)	etik (sifat)	toza (sifat)	toza (ravish)
ishlar	ishlar	yigitcha (ot)	yigitcha (ravish)	hozir (tayyor) (sifat)	hozir (ravish)
moslamma	moslamma	qishloqcha (ot, -cha kichraytirish)	qishloqcha (ravish)	sizsiz (sifat)	sizsiz (olmosh, -siz bog'lama)

Urg'u ma'no farqlaydigan omonim so'zlar ot va sifat turkumiga mansub bo'lsa, urg'u ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: bog'lar, gullar, ishlar, moslamma, surma, suzma, ko'zlar, olma, qo'llar, tortma, changi, chog'lar, bosma (sifat), yangi, toza, hozir, qaynatma.

Urg'u ma'no farqlaydigan omonim so'zlar fe'l va ravish turkumiga mansub bo'lsa, urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmaydi: bog'lar, gullar, ishlar, moslamma, surma, suzma, ko'zlar, olma, qo'llar, tortma, changi, chog'lar, bosma, yangi, toza, hozir, qaynatma.

Gapda ishtirok etayotgan so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishiga gap urg'usi yoki man-

tigiy urg'u – frazaviy urg'u – deyiladi. Mantiqiy urg'u ko'pincha kesimdan oldingi so'zga tushadi.

Biz ertalab sayrga chiqdik.

Biz sayrga ertalab chiqdik.

Sayrga ertalab biz chiqdik.

Ajratilgan bo'lakka mantiqiy urg'u tushadi: O'g'lim, ao'zichog'im, orom olib uxlayapti

Ma'nio urg'usi gapdag'i ma'lum bir so'zning boshqalariga nisbatan ta'kidlab, ajratib aytishini ta'minlaydi. Masalan,

Samarqandda (*boshqa biron-bir shaharda emas*) afsonaviy obidalar ko'p.

To'liqsiz gapda gap urg'usi olmagan bo'lak tushiriladi.

Dialoglarda savol berilgan bo'lakka mantiqiy urg'u tushadi:

– Sen gachon Samarqanddan kelding?

– Men bugun Samarqanddan keldim.

– Sen kecha gayerdan kelding?

– Men kecha Samarqanddan keldim.

10-§. TALAFFUZ, OHANG VA ULARNING NUTQDAGI AHAMIYATI

Og'zaki nutq oqimi bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar ketma-ketligidan iborat. Bunday bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi. Lekin og'zaki nutqimiz faqat segment birliklardangina tashkil topmaydi. Bulardan tashqari, ketma-ket joylashgan va bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan tovushlar qatori ustiga qo'yilgan ustsegment birliklarga ham ega bo'ladi va bu birliklar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Ustsegment birliklar urg'u, to'xtam (pauza), nutqning emotsiyonal bo'yogi (darak, so'roq, buyruq, his-hayajon) kabillarni o'z ichiga oladi. Yuqorida ko'rsatilgan ustsegment birliklarning jami nutq ohangini tashkil etadi.

Og'zaki nutqimiz esa segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o'zaro munosabatidan iborat bo'ladi. Ko'pincha bunga imo-ishoralar, mimikalar qo'shilib, nutqimizni yana ham ta'sirli, bo'yoqdor qilishga xizmat qiladi.

Talaffuzda ohang muhim o'rın tutadi. Ohang vositasida so'z birikmalari, gap va uning bo'laklari farq qilinadi: *Ko'ksaroy* (ot, atoqli ot) – *ko'k saroy* (so'z birikmasi). Gap bo'laklari talaffuz qilinganda, ular orasida to'xtam (pauza) qilinadi. Ikkita qisqa to'xtam orasidagi nutqiy bo'lak **sintagma** deb yuritiladi. To'xtamning o'zgarishi gap mazmuniga ta'sir qiladi:

1. *O'lim yo'q, // shafqat! O'lim, // yo'q shafqat!*
2. *Mashinadan ikki // bolali ayol tushdi. Mashinadan ikki bolali // ayol tushdi.*

Yozuvda so'zlovchining maqsadi tinish belgilari orqali yuzaga chiqadi. Quyidagi gaplarga tinish belgilari qo'yilsa, ma'no o'zgaradi.

To'g'ri yo'llarda ham mashaqqat bor.	To'g'ri, yo'llarda ham mashaqqat bor.
Siz ahmoq odam emassiz.	Siz ahmoq, odam emassiz!
Bu gaping yomon bo'lindi.	Bu gaping yomon, bo'lindi.
Sen katta bola emassan.	Sen katta, bola emassan.
Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi.	Ona aziz, farzandiga yelni ham ravo ko'rmaydi.
Gullar chiroyli stolni bezatib turibdi.	Gullar chiroyli, stolni bezatib turibdi.

4-MAVZU GRAFIKA

1-\$. FONEMA VA HARF

Biz nutqimizni yozma ravishda ham bayon qilamiz. Bunda yozma nutq harflar ketma-ketligidan tashkil topadi.

Fonema (tovush)ning yozuvdagagi ifodasiga harf deviladi.

Harflar fonemalarning yozuvdagagi aksi, tasviridir. Shuning uchun har bir tilda harflar shu tilning fonemalariga qarab olinadi. Bir fonemaga bir harfni to'g'ri keltirishga harakat qilinadi.

Harflarni xotirada yaxshi saqlash va lug'at tuzishda ma'lum izchillikka amal qilish maqsadida harflar muayyan tartibda joylashtiriladi.

2-\$. O'ZBEK YOZUVI TARIXI

Yozuv nomlari	Qo'llangan davri	Yozuv haqida ma'lumotlar
Avesto yozuvi	Bundan 2700 yil muqaddam	«Avesto» asari haqida: «Podsho ibn Doro xazinasida «Avesto»ning qoramol terisiga tilla bilan bitilgan o'n ikki ming nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilami o'ldirgan vaqtida «Avesto»ni yondirib yuborgan. 30 nask edi, 12 nask (qism) chamasi qolgan, beshdan uch qismi yo'qolib ketgan». (Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridagi ma'lumot)
So'g'd yozuvi	Miloddan oldingi III asrdan milodiy VII asrgacha	Shu davrda yozilgan eroniylardagi matnlarda uchraydi. Bu yozuvda 18 ta belgi bo'lgan

O'rxun-enasoy yozuvi	V – VIII asrlarda	<u>O'rxun-enasoy yodgorliklari – tosh bitiklar (Kultegin, To'nyuquq, Bilga xoqonlar sharafiga qo'yilgan obidalari)</u> shu yozuvda bitilgan. Matn o'ngdan chapga qarab o'qilgan. Bu yozuvda jami 35 ta belgi bo'lgan. Shundan 4 tasi 8 ta unli tovushni, qolganlari (31) undosh tovushni ifodalagan
Uyg'ur yozuvi	VI – XV asrlar	Qadimgi budda yodgorligi « <u>Oltin vorug'</u> », turkiy tildagi « <u>Me'rojnama</u> », « <u>Qutadq'u biliq</u> », « <u>Hibat-ul haqoviq</u> », « <u>Muhabbatnama</u> » kabilar shu yozuvda bitilgan. Matn chapdan o'ngga qarab o'qilgan. Bu yozuvda 18 ta belgi bo'lib, shulardan uchtasi unli tovushlarni ifodalagan
Arab alif-bosi asosidagi eski o'zbek yozuvi tarixi	720-yildan (VIII asrdan) 1929-yilgacha	Bu yozuvda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari bitilgan. Matn chapdan o'ngga qarab o'qilgan. Bu alifbodagi 32 harf 109 shaklga (o'rniiga ko'ra 4 xil) ega.
Lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi tarixi	1930-yildan 1940-yilgacha (1929- yildan qo'llangan degan ma'lumot ham uchraydi)	Matn o'ngdan chapga qarab o'qilgan. Bu yozuvda jami 30 ta belgi bo'lgan. Shundan 6 tasi unli, 24 tasi undosh tovushlarni ifodalagan
Krill alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi	1940-yil 8-maydan bugungi kungacha	Bu yozuvda jami 35 ta harf bor, shundan 10 tasi unli tovush, 23 tasi undosh tovushdan iborat (yumshatish belgisi «ъ», ayirish belgisi «ъ» ishlataligan)

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi	1993-yil 2-sentabr	1993-yilning 2-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi <u>Oliy Kenqashi</u> tomonidan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. 31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat
	1995-yil 6-may	1995-yilning 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi <u>Oliy Majlisi</u> tomonidan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi Qonun e'lon qilindi. Yangi alifboda 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va bitta tutuq belgisi bor

Inson nutqi ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi: og'zaki va yozma. Yozma nutq og'zaki nutqni maxsus belgilar tizimi yordamida ifodalash demakdir. Og'zaki nutqda tovushlardan, yozma nutqda esa harflardan foydalanamiz. Yozma nutq yozuvning kelib chiqishi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Yozma nutqning harflar tizimini (yozuvni) o'rganadigan tilshunoslik bo'limi grafika deyiladi.

O'zbek xalqi 1930-yilga qadar bir necha yuz yillar davomida arab grafikasiga asoslangan turkiy yozuvdan foydalanib kelgan. Abu Ali ibn Sinoning tabobatga doir bebaho asarlari, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Ulug'bek, Forobiy singari buyuk olimlarimizning ilmiy mushohadalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Cho'lpion-u Fitratlarning aql bovar qilmas go'zal satrlari aynan ana shu yozuvda bitilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA»GI QONUNIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi: O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrida qabul qilin-gan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborot-nomasi, 1993-yil, 9-son, 331-modda) quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

1. 1-moddadagi «31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan» so'zleri «26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan» so'zleri bilan almashtirilsin.
2. C c, harflari mustaqil harf belgisi sifatida alifboden chiqarilsin.
3. Ö Ö harfi O'o' shaklida, G g harfi G'g' shaklida, Ş ş harfi Sh sh shaklida, Ç Ç harfi Ch ch shaklida, Ñ ñ harfi Ng ng shaklida, Q harf belgisi q shaklida ifodalansin.
4. A a, I i, G g, G' g', Q q, O' o', Z z harflari va Ch ch harflar binkmasining yozma shakli tegishlicha ... tarzida ifodalansin.

*O'zbekiston Respublikasining Prezidenti
ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV*

Toshkent shahri, 1995-yil 6-may.

Harflarning ma'lum bir tartibda joylashuviga alifbo deyiladi.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida har bir unli fonema alohida-alohida harflar orqali ifodalangan bo'ssa, undosh fonemalarni ikki harf orqali ifodalash hollari uchraydi: sh, ch, ng kabi.

Alifbo so'zi arab yozuvidagi harflar tartibining birinchi va ikkinchi harflari alif va bo(be) nomlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan.

Hozirgi o'zbek alifbosi lotin yozuviga asoslanganligi tufayli lotin yozuvi asosidaqi yangi o'zbek alifbosi deyiladi.

Yangi o'zbek alifbosi

Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh Ii Jj Kk Li Mm
Nn Oo Pp Qq Rr Ss Tt Uu Vv Xx Yy Zz
O'o' G'g' Shsh Chch Ngng

3-§. HOZIRGI ALIFBODA UNLI VA UNDOSHLARNING IFODALANISHI

Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetik jihatdan markaziy dialektlar(shevalar)ga asoslanadi. Mazkur dialektlarda oltita unli fonema mavjud.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga ham oltita unli harf kiritilgan. Bular quyidagilar: I i, U u, E e, O' o', A a, O o.

Kirill yozuvidagi е, ё, ю, я unli harflari yangi alifboda quyudagicha ifodalanadi:

е – ye; yetti, yelkan, yemish.

ё – yo; yolg'iz, yoqut, yomon.

ю –yu; yutuq, yumush, yupqa.

я – ya; yaxshi, yakka, yangi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 23 ta undosh tovush bor. Yangi alifboda ular 20 ta harf va 3 ta harflar birikmasi bilan ifodalanadi.

O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Bb, Dd, Ff, Gg, Hh, Jj, Kk, Li, Mm, Nn, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Vv, Xx, Yy, Zz, G'g' harflari uchun xalqaro andozadagi belgililar olingan.

Ш ш, Ч ч, Ір товушлари uchun quyidagi harflar birikmasi olingan: Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Ruscha baynalmilal so'zlardagi ң harfini ifodalash uchun S s harfi ishlataladi: Sirk, Sezor, siki.

Bunday so'zlarda ң unlidan keyin kelganda bitta қ orttiriladi: **litsey, militsiya** kabi.

5-MAVZU

ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA (IMLO)

1-§. ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Og'zaki nutqda bir necha xil talaffuz qilinuvchi tovush, qo'shimcha va so'zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yori sanaladi.

Yozma nutqda bir necha xil yoziluvchi tovush, qo'shimcha va so'zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi imlo me'yori hisoblanadi.

To'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga orfoevolya (yunoncha: orfo – «to'g'ri», epos – «so'zlamoq», «nutq») deyiladi.

To'g'ri yozish me'yorlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga ortografiya (yunoncha: orfo – «to'g'ri», grafo – «chizmoq») deyiladi.

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi.

So'zlarining yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yak-dillikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma'noda har bir xalq o'z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi.

2-Ş. IMLO QOIDALARI

Imlo qoidalari quyidagilarga asoslanadi:

Fonetik yozuv	So'z va qo'shimchalar qanday aytilsa, shunday yoziladi	yoz, o'qi, lug'at; senga, buloqqa; og'iz – og'zi, yosh – yasha, sana – sanoq kabi
Morfologik yozuv	So'z va qo'shimchalar talaffuziga qarab emas, qabul qilingan qoidalar asosida yoziladi	tussiz emas, tuzsiz; o'qipti emas, o'qibdi; ishka emas, ishga; go'sh emas, go'sht; uchchala, to'rttala emas, uchala, to'rtala
Shakliy yozuv	Boshqa tillardan kirgan so'zlar qanday yozilgan bo'lsa, shu shaki saqlanadi	prakror emas, prokuror; tiyatr emas, teatr, zo'o'lo'giya emas, zoologiya
Tarixiy-an'anaviy yozuv	So'z va qo'shimchalar tarixan, an'anaviy tarzda qanday yozib kelingan bo'lsa, hozir ham shunday yozilishi mumkin	borgin – borgil, borar – borur, schyot – cho't
Differensiatsiyalash (farqlash) yozuvi	So'zlarni urg'u bo'yicha yoki boshqa fonetik hodisalar (masalan, tutuq belgisi) yordamida farqlab yozish	olma – <u>olma</u> , sher – she'r

**Quyidagi jadvaldagi soʻzlar fonetik yozuv
qoidasiga muvofiq yozilgan**

Tovush oʻzgarishlari		
Tovush tushgan	Tovush almashgan	Tovush ortgan
sargʼay	sargʼay	obroʼym
yetolmadi	angla	obroʼying
ayrim	yasha	parvoym
yigʼla	ata	parvoying
oʼyna	sovug	buncha
ulgʼayib	boshlovchi	bunga
pasay	sana	shunga
qayrildi	sanogʼiga	oʼshanga
ayrildi	soʼroqlamas	unda
susay	shovulla	unga
burni	qaynoq	shunda
zahri	porloq	oʼshanda
oʼgʼli	boʼyoq	undan
bagʼri	borligʼi	bundan
boʼgʼzim	oʼquv	shundan
ogʼzaki	yoqqan	oʼshandan
oʼrnatmoq	ekkan	shunday
singlim	yoqqach	unday
ikkala	ekkach	bunday
oltovlon	aytmas	undoq
yettov	buloqqa	bundoq
mening	taroqqa	egalla
meni	soʼroqqa	bundagi
sening	ilikka	shundagi
seni	kurakka	ungacha
koʼngli	xabardorligi	bungacha
oʼrni	kelajagi	shungacha
kelardi	kerakligi	bunisi
borardi	yuragi	shunisi
kelarmish	teragi	shunaqa
ololmas	ololmas	achchiq
kelolmas	kelolmas	issiq

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari 1956-yilda tasdiq-langan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlari dayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi.

1956-yil 7-aprel	Kirill alifbosiga asoslangan «O'zbek orfografiya-sining asosiy qoidalari» qabul qilingan
1995-yil 24-avgust	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risida» qaror qabul qildi

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risida» qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

 - a) unlilar imlosi (1– 7-bandlar);
 - b) undoshlar imlosi (8– 32-bandlar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33– 37-bandlar).
3. Qo'shib yozish (38–50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51– 56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57– 65-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66– 74-bandlar).
7. Ko'chirish qoidalari (75– 82-bandlar).

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan.

3-§. UNLILARNING TALAFFUZI VA IMLOSI

A a	<p>A (a) harfi lablanmagan, til oldi, keng unli tovushni ifodalaydi</p> <p><i>Aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi</i></p> <p><i>Bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, vaqt, vahm kabi so'zlarda a aytiladi va yoziladi</i></p> <p><i>Savol, zamon, bahor, palov, tamom kabi so'zlarida ayrim shevalarda o kabi aytilsa ham har vaqt a yoziladi.</i></p> <p><i>A unli tovushi yumshoq o'zakdag'i til orqa k, g va boshqa til oldi undoshlari bilan yonma-yon kelganda old qator, ochiq tovush sifatida aytiladi: aka, man, olam, kalla, gala kabi</i></p> <p><i>A unli tovushi q, g', x undoshlaridan so'ng kelganda orqa qator unlidek aytiladi va asliga muvofiq yoziladi: qand, qarz, g'aliz, xamir, xat kabi</i></p> <p><i>A'lo, a'zo, ma'no, ta'na kabi so'zlarda tutuq belgisi ta'sirida cho'ziqroq aytilsa ham, bitta a yoziladi</i></p> <p><i>Mutolaa, mudofaa, manfaat, taalluqli, taaJJub kabi so'zlarda cho'ziq talaffuz qilinadi va ikkita a yoziladi</i></p> <p><i>Disk, bank, tank kabi rus tili orqali o'zlashgan so'zlarning oxiri qo'sh undosh bilan tugagani uchun o'zbek tilida bu so'zlarda a unli qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: diska, banka, tanka (A.Rafiyevning va b.ning kasb-hunar kollejlari uchun «Ona tili va adabiyot» darsligidagi ma'lumot)</i></p> <p><i>Xavf, gavda, navbat, vafo, varaq kabi so'zlarda v undoshi bilan yonma-yon kelganda o ga moyil aytilsa ham, asliga ko'ra a yoziladi</i></p> <p><i>Ayrim ruscha-o'zlashma so'zlardagi ya tovushlar birikmasi o'mida a aytiladi va yoziladi: sentabr, oktabr, flaga kabi</i></p>
O o	<p>O o harfi lablangan (ayrim so'zlarda lablanmagan holatda qo'llanadi, ya'ni oraliqdagi unli deb izohlangan) til orqa, keng unlini ifodalaydi</p> <p><i>Ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi</i></p>

	<i>Boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi</i>
O o	O o harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarda a singari talaffuz etiladi, biroq hamisha o yoziladi: <i>kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist</i> va h.k.
	O'zlashma so'zlarda u yoki o' kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir o yozilaveradi: <i>tonna, noyabr, boks, tort, opera, bolt, nota, rol, tok (elektr)</i> va h.k.
	Yondosh tovushlardan qat'i nazar, so'zlarning barcha bo'-g'inlarida kelib, cho'ziq unli sifatida talaffuz qilinadi va asliga ko'ra yoziladi: <i>ona, bobo, nom, havo, oq, qoramol</i> kabi
	O'zlashma so'zlarning urg'usiz bo'g'inlarida o unliси i kabi talaffuz qilinsa ham, o yoziladi: <i>traktor, direktor, ekspeditor, kartoshka</i> kabi
	<i>Parvo, avzo, obro', mavqe so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi, III shaxsda esa egalik qo'shimchasi -yi tarzida aytildi va yoziladi: parvoyim, parvoying, parvoyi, avzoyim, avzoying, avzoyi, obro'yim, obro'ying, obro'yi, mavqeyim, mavqeying, mavqeyi kabi. Izoh: xudo, mavzu, orzu so'zlariga, shuningdek, oxiri y undoshi bilan tugagan so'zlarga III shaxs egalik qo'shimchasi -si tarzida qo'shiladi: xudosi, mavzusi, orzusi, dohiysi, sanato riysi kabi (orzu so'zi 1-shaxsda orzum kabi yoziladi)</i>
	<i>Fe'l asosli so'zlardan ot yoki sifat yasovchi -v, -q, -qi qo'shimchalari a unliси bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda a tovushi o tarzida aytildi va shunday yoziladi: sina+v – sinov, sayla+v – saylov, tara+q – taroq, sayra+qi – sayroqi kabi</i>
I I	I (i) harfi lablanmagan, til oldi, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi
	<i>Ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi</i>
	<i>O'tin, o'rik, bo'lim kabi oldingi bo'g'inida o' unliси keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida i aytildi va yoziladi i harfi bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism, bir, tish, dil kabi so'zlarda qisqa aytildi va i yoziladi</i>

	<i>Badiiy, ommaviy, Lutfiy singari so'zlarda i cho'ziq aytildi, lekin doimo iy yoziladi</i>
	<i>Biroq, sira, bilan, kilogramm so'zlarining birinchi bo'g'inida r, l undoshlaridan oldin kelgan i unlisi bilinar-bilinmas talafuz qilinsa ham, yozuvda i harfi bilan yoziladi.</i>
11	<p>Ikki bo'g'inli so'zlamning birinchi bo'g'inida lablangan u unlisi ta'sirida ikkinchi bo'g'indagi i unlisi u holida talaffuz qilinsa ham, yozuvda i yoziladi. Shunday yozilishi bilan ikkinchi bo'g'inida u yoziladigan otlardan, ya'ni paronimlardan farqlanadi: <i>urish – urush, yumish – yumush, burish – burush</i></p> <p><i>Mohir, shoir, ilmiy, adabiy, lirika</i> kabi so'zlarning urg'uli bo'g'inida cho'ziq i o'mnda aytildi va yoziladi</p> <p><i>Qish, qir, g'ilof, xizmatchi, xil</i> kabi so'zlarda chuqur til orqa q, g', x tovushlari bilan yonma-yon keladigan qisqa va qattiq i unlisi ornida aytildi va yoziladi</p> <p>Rus tilidan o'tgan <i>vimpel, bilina, vishka, richag</i> kabi so'zlardagi ruscha ular unlisi ornida yoziladi</p> <p>So'z o'zagining ochiq bo'g'inida i, e, a unlilaridan birlashtirilishi, keyingi yopiq bo'g'inda i yoziladi: <i>bilim, iliq, etik, beshik, sariq, vakil</i> kabi</p> <p>Arab-fors va rus tilidan o'zlashgan bir bo'g'inli so'zlarning qo'sh undoshlari o'tasida qisqa i unlisi talaffuz etilsa-da, ammo yozilmaydi: <i>fikr, ilm, ufq, matn, litr</i> kabi</p>
U u	<p>U (u) harfi lablangan, til orqa, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi</p> <p><i>Uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; mafkura; ko'zgu, uyqu, aluminiy, yubiley</i> kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi</p> <p><i>Qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq</i> kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida o unlisi kelsa. keyingi yopiq bo'g'in boshidagi v undoshidan keyin u aytildi va yoziladi</p> <p>Oldingi bo'g'inlarida a, o, i unlilaridan biri bo'lgan va shundan so'nggi yopiq bo'g'in boshidagi v undoshidan keyin i tovushiga moyilroq aytilsa ham, u yoziladi: <i>qovun, sovuq, sovun, ovul, tovuq, tarvuz, quvur, chuvur-chuvur</i> kabi (A.Rafiyev... Kasb-hunar kollejlari uchun «Ona tili va adabiyot» darsligidagi ma'lumot)</p>

	Birinchi bo'g'inida <i>u</i> bo'lgan so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi <i>u</i> unlisi <i>i</i> tovushiga moyilroq aytilsa ham, <i>u</i> yoziladi: <i>uzun</i> , <i>uzum</i> , <i>chumchuq</i> , <i>tushuncha</i> , <i>yulduz</i> , <i>yutuq</i> , <i>yumush</i> kabi
	Birinchi bo'g'inida <i>u</i> bo'lgan so'zlarning keyingi ochiq bo'g'ini <i>q</i> yoki <i>g'</i> bilan boshlansa, <i>i</i> ga moyilroq aytilsa ham, <i>u</i> yoziladi: <i>bug'u</i> , <i>urg'u</i> , <i>uyqu</i> , <i>tuyg'u</i> , <i>yog'du</i> kabi
	Tarkibida <i>u</i> bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarning oxirgi ikki undoshi o'rtasida <i>u</i> aytilsa ham, yozilmaydi: <i>umr</i> , <i>uzr</i> , <i>rukni</i> , <i>hukm</i> kabi
O' o'	<p>O' (o') harfi lablangan, til orqa, o'rta keng unli tovushni ifodalaydi</p> <p>O' unlisi asosan so'zning birinchi bo'g'inida uchraydi: <i>o't</i>, <i>ko'l</i>, <i>ko'za</i>, <i>o'jar to'lqin</i> kabi</p> <p><i>O't</i>, <i>o'q</i>, <i>o'zbek</i>, <i>o'simlik</i>, <i>do'ppi</i>; <i>bo'tako'z</i>, <i>semizo't</i>, <i>gulko'rpa</i>, <i>noo'rin</i> kabi so'zlarda orqa qator o'rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi</p> <p><i>O'o'</i> harfi <i>o'zbek</i>, <i>o'ka</i>, <i>o'simlik</i> kabi so'zlarda old qator, o'rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi</p> <p>So'zning yopiq bo'g'inlarida torroq talaffuz qilinadi, ammo har vaqt bir xil shaklda yoziladi: <i>kol</i>, <i>o's</i>, <i>cho'l</i>, <i>to'plam</i>, <i>ko'krak</i> kabi</p> <p><i>Jo'ra</i>, <i>mo'tabar</i> kabi so'zlarda ham torroq talaffuz qilinadi</p> <p>So'zning ochiq bo'g'inlarida nisbatan kengroq eshitiladi, ammo har vaqt bir xil shaklda yoziladi: <i>bo'ri</i>, <i>qo'ni</i>, <i>xo'roz</i>, <i>ro'mol</i>, <i>qo'riq</i> kabi</p> <p>Ko'pgina so'zlarning birinchi bo'g'inida <i>o'</i> kelsa, ikkinchi bo'g'inida <i>i</i> unlisi yoziladi: <i>do'ppi</i>, <i>ko'priq</i>, <i>to'qimoq</i> kabi</p> <p><i>Mo'jiza</i>, <i>mo'tadil</i>, <i>mo'tabar</i> so'zlarida tutuq belgisi tushirib qoldiriladi, ammo <i>o'</i> cho'ziqroq talaffuz qilinadi</p>
E e	<p>E (e) harfi lablanmagan, til oldi, o'rta keng unli tovushni ifodalaydi</p> <p><i>Ekin</i>, <i>esla</i>, <i>evara</i>, <i>ekran</i>, <i>eksport</i>; <i>kel</i>, <i>zehn</i>; <i>kecha</i>, <i>behi</i>; <i>telefon</i>, <i>teatr</i>; <i>poyezd</i>, <i>atelye</i>; <i>e'lon</i>, <i>ne'mat</i>, <i>she'r</i>; <i>ehtirom</i>, <i>fe'l</i>, <i>bermoq</i>, <i>meros</i>, <i>mone</i>, <i>tole</i>, <i>kofe</i> kabi so'zlarda old qator o'rta keng lablanmagan unlini ifodalash uchun yoziladi</p>

Kecha, ekran, ne'mat kabi so'zlarda e tovushi to'liq talaf-fuz qilinadi
Telefon, teatr, okean, material kabi so'zlarda i ga monand aytildi, lekin e yoziladi
So'z boshida yopiq bo'g'inda i ga moyil aytilsa ham, e yoziladi: <i>ehtimol, eshik, ehson, ertak</i>
So'z boshida ochiq bo'g'inda va ikki undosh orasida qisqa aytildi va doim e yoziladi: <i>erta, meva, sezgir, tepki</i> kabi
So'z boshida tutuq belgisidan oldin cho'ziqroq va i ga moyil aytildi va e yoziladi: <i>e'zoz, e'tibor, e'lon, e'tiqod</i> kabi

4-§. YONMA-YON KELGAN UNLILAR IMLOSI

Unlilar	Yonma-yon kelgan unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydigan so'zlar
ia	<i>material, milliard, radiator, tabiat, shariat</i> kabi
io	<i>biologiya, million, stadion, radio</i> kabi
ai	<i>mozaika, ukrain, said, maishat</i> kabi
oi	<i>alkaloid, ellipsoid, doim, shoir, oila</i> kabi
ea	<i>teatr, okean, laureat</i> kabi
ae, oe	Bu unlilar so'z ichida kelganda, ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: <i>aerostat, poema</i> kabi

Qator kelgan unlili so'zlar boshqa tillardan kirib kelganligi tufayli bunday so'zlardagi qator unlilarni og'zaki nutqda yo bir cho'ziq unliga aylantirish (masalan, muallim – malim) yoki qator kelgan unlilar o'tasiga ayrim undoshlarni qo'shish yo'li bilan tilimizga moslashtirishga harakat qilinadi. Masalan, soat so'zi Farg'onada sohat, Toshkentda sog'at, tarzida talaffuz qilinadi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar, odatda, ayanan aytildi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioxva* va boshqalar.

«е», «ё», «ю», «я» harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi:
ye: *yetti, yetmish, yetim*;
yo: *yolg'iz, yomon, yong'oq*;
yu: *yulduz, yumshoq, yumuq*;
ya: *yakka, yangi, yaroqsiz*.

Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot kabi so'zlar o'tasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

5-§. UNDOSHLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI

Bb	B (b) harfi jarangli, portlovchi, lab-lab undoshi <i>Bobo, bahor, bir, majbur, zarb</i> kabi so'zlarda jarangli, portlovchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi <i>Kitob, yuzlab, kelib, borib, javob, hisob, bob, xitob, sabab, zarb</i> kabi so'zlar oxirida p tarzida aytilsa ham, b yoziladi So'z o'tasida p tarzida aytilsa ham, b yoziladi: <i>mubtalo, ibtido</i> <i>Qibla, tobla</i> kabi so'zlarda ba'zan v tarzida aytilsa ham, b yoziladi
Dd	D (d) harfi jarangli, portlovchi, til undoshi <i>Dala, odat, bunyod, modda, jiddiy</i> kabi so'zlarda til oldi, jarangli, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi <i>Obod, savod, marvarid, zavod, pud, sud, badqovoq, badxo'r, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot, band, xursand, avlod</i> kabi so'zlarda t tarzida aytilsa-da, har vaqt d yoziladi. So'zning oxirida d tovushidan oldin n keisa va bunday so'ziarga qo'shimchalar qo'shilsa, d talaffuz etilmaydi, ammo yoziladi: <i>payvanchi – payvandchi, balanroq – balandroq, xursanchilik – xursandchilik</i> kabi
Ff	F (f) harfi jarangsiz, sirg'aluvchi, lab undoshi <i>Fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft, insof</i> kabi so'zlarda jarangsiz, sirg'aluvchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi <i>Fasl, fayz, Fotima, fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, safar, futbol, latif, isrof, insof, ulfat</i> singari so'zlarda f tovushi p kabi aytildi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim f yoziladi

Gg	G (g) harfi jarangli, portlovchi, til undoshi <i>Gul, go'zal, ega, gugurt, teg, eg kabi so'zlarda til orqa, jarangli, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</i> <i>So'z oxirida jarangsiz k kabi eshitiladi, ammo yozuvda g tarzida yoziladi: <i>barg, tug, pedagog, eg</i></i> <i>Oxiri g bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlanuvchi -ga, -gacha, -gach, -gan, -gina kabi qo'shimcha qo'shilganda, k tarzida talaffuz qilinsa ham, g yoziladi: <i>bargga, egguncha, dialoggacha, tuggin</i></i>
Hh	H (h) harfi jarangsiz, sirg'aluvchi, bo'g'iz undoshi <i>Hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh kabi so'zlarda jarangsiz, sirg'aluvchi, bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi</i> <i>O'zbek tilida bu tovush <i>oh, eh, ha</i> kabi undov so'zlarda va asosan arab-fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarda uchraydi</i> <i>H harfi ifodalagan tovush x tovushiga nisbatan yumshoqroq, nafisroq talaffuz etiladi</i> <i>Jonli nutqda h tovushi ba'zan o'zidan keyingi undosh kabi aytildi yoki butunlay talaffuz etilmaydi: <i>makhkam – makkam, shahodatnoma – shaodatnoma</i> kabi</i> <i>Kundalik so'zlashuvda yumshoq bo'g'iz tovushi h undoshining ko'pincha qattiq, chuqur til orqa tovushi x tarzida aytiglihi adabiy talaffuz me'yoriga xos emas, chunki bu tovushlarning bir xilda talaffuz etilishi so'z ma'nosini butunlay o'zgartirishi mumkin: <i>shoh – shox, hol – xol, hil – xil</i></i>
Jj	J (j) harfi jarangli qorishiq-portlovchi yoki sirg'aluvchi, til oldi undoshi <i>J harfi <i>jon, jahon, juma, g'ijjak, vaj</i> so'zlarida til oldi, jarangli, qorishiq-portlovchi, <i>jurnal, ajdar, garaj, tiraj</i> so'zlarida esa til oldi, jarangli, sirg'aluvchi <i>dj</i> undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.</i> <i>Sof o'zbekcha so'zlarda qorishiq-portlovchi tarzida, fors-tojikcha va ruscha o'zlashma so'zlarda sirg'aluvchi tovush kabi talaffuz qilinadi</i> <i>Jonli nutqda ch yoki sh tovushlariga moyil aytildi, ammo asliga muvofiq j yoziladi. Masalan, <i>toj – toch, boj – boch, ijtimoiy – ishtimoiy, garaj – garach, massaj – massach</i> kabi</i>

Kk	K (k) harfi jarangsiz, portlovchi, til undoshi Ko'l, ko'yak; uka, moki; tok, bilak kabi so'zlarda til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi K bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, k jaranglashadi va g tarzida aytildi hamda shunday yoziladi: <i>yurak – yuragim, tilak – tilagim, bek – begim</i> kabi
Ll	L (l) harfi jarangli, sirg'aluvchi, sonor, til undoshi <i>Lola, loyiq, la'l, iloj, mahal</i> kabi so'zlarda sirg'aluvchi, ovozdor, yon tovushni ifodalash uchun yoziladi
Mm	M (m) jarangli, portlovchi, lab-lab undoshi <i>Moy, muborak, tomon, ilhom</i> kabi so'zlarda ovozdor, lab-lab, burun undoshini ifodalash uchun yoziladi E, i old qator unlilaridan oldin kelganda yumshoq (<i>meva, mehmon, miyos kabi</i>), orqa qator unlilar (<i>u, o', o</i>), chuqur til orqa undoshlari (<i>q, g', x</i>) bilan yonmayon kelganda esa qattiq (<i>somon, mol, muborak, mo'min kabi</i>) talaffuz qilinadi
Nn	N (n) harfi jarangli, portlovchi, sonor, til tovushi <i>Non, nomus; ona, tana; bilan, tomon</i> kabi so'zlarda til oldi, ovozdor, burun undoshini ifodalash uchun yoziladi Shanba, yonbosh, manba, tanbur, tinmay, ko'rmaslik, yo'llanma, minbar, manmanlik kabi so'zlarda n tovushi b, m undoshlari oldida kelganda m tarzida aytilsa ham, n yoziladi Jonli nutqda n tovushining ba'zan o'zidan oldingi undosh ta'siriga uchrab, o'sha tovush tarzida qo'shaloq aytishi adabiy talaffuz me'yoriga ziddir: <i>gapni – gappi, yo'lli – yo'lli, ko'zni – ko'zzi</i> kabi
Pp	P (p) harfi jarangsiz, portlovchi, lab-lab undoshi <i>Paxta, pichoq, opa, tepe, tup, yop</i> kabi so'zlarda jarangsiz, portlovchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi Bu tovush ko'pincha b va f undoshlari o'mida talaffuz qilinsa ham, asliga ko'ra p yoziladi: <i>kelib – kelip, g'arb – g'arp</i> kabi
Qq	Q (q) harfi jarangsiz, portlovchi, chuqur til orqa undoshi

	<p><i>Qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql</i> kabi so'zlarda chuqur til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</p>
	<p>Jonli nutqda so'z o'rtasi va oxirida q tovushi <i>g'</i> va x ga moyil aytilsa ham, imloda asliga ko'ra yoziladi: <i>botqoqlik</i> – <i>botqog'lik</i>, <i>baliq</i> – <i>balig'</i>, <i>shu yoqda</i> – <i>shu yog'da</i>, <i>to'qson</i> – <i>to'xson</i>, <i>vaqt</i> – <i>vaxt</i> kabi</p>
	<p>Q undoshi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda q jarangsizlashib <i>g'</i> ga o'tadi va bu hodisa imloda aks etadi: <i>taroq</i> – <i>tarog'i</i>, <i>qo'shiq</i> – <i>qo'shig'im</i>, <i>o'rtoq</i> – <i>o'rtog'ing</i> kabi</p>
	<p>Bir bo'g'inli ayrim so'zlarga, chetdan o'zlashgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, q undoshi aslicha aytildi va yoziladi: <i>haq</i> – <i>haqi</i>, <i>ishiyoq</i> – <i>ishtiyooqi</i>, <i>huquq</i> – <i>huquqi</i>, <i>ravnaq</i> – <i>ravnaqi</i> kabi</p>
Qq	<p>Q bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga yoki <i>g</i> bilan boshlanuvchi boshqa qo'shimchalar qo'shilganda, <i>g</i> undoshi q tarzida aytildi va bunday so'zlar qo'shaloq <i>q</i> bilan yoziladi: <i>soliqqa</i>, <i>yoqqach</i>, <i>chiqquncha</i>, <i>qo'rquudek</i>, <i>achchiqqina</i> kabi</p>
Rr	<p>R (r) harfi jarangli, sirg'aluvchi, sonor, til oldi undoshi</p> <p><i>Rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor</i> kabi so'zlarda til oldi, ovozdor, titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi</p>
Ss	<p>S (s) harfi jarangsiz, sirg'aluvchi, til oldi undoshi</p> <p><i>Sog'</i>, <i>somon</i>, <i>oson</i>, <i>asos</i>, <i>olmos</i> kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</p>
Tt	<p>T (t) harfi jarangsiz, portlovchi, til oldi undoshi</p> <p><i>Tong, tun; butun, o'tin, o't, kut</i> kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</p> <p>So'z oxiridagi <i>t</i> talaffuzda ko'pincha tushib qoladi, biroq asliga muvofiq yozilaveradi: <i>do'st</i> – <i>do's</i>, <i>daraxt</i> – <i>darax</i> kabi</p> <p>Asos oxiri <i>t</i> bilan yakunlangan so'zlarga <i>ch</i> undoshi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qo'shilganda, <i>t</i> ning ham <i>ch</i> ga aylanish hodisasi yuz beradi: <i>sutchi</i> – <i>suchchi</i>, <i>yigitcha</i> – <i>yigichcha</i>, <i>uyatchan</i> – <i>uyachchan</i> kabi, lekin <i>t</i> yoziladi</p>

Vv	<p>V (v) harfi jarangsiz, sirg'aluvchi, lab-tish undoshi</p> <p>Ov, suv, kuyov; ovoz, savol, volida, vatan kabi so'zlarda ovozdor, sirg'aluvchi, lab undoshini ifodalash uchun yoziladi</p> <p>V harfi sof o'zbekcha so'zlarda va so'z boshida kelmaydi, arab-fors tilidan o'zlashgan so'zlarda esa turli o'rinnlarda kela oladi: <i>vaqt, vafo, tavsif,sovun, qovurg'a</i> kabi</p> <p>Hozirda bu tovushning lab bilan tish orasida aytiladigan varianti keng qo'llanmoqda, shuning uchun so'z oxirida keluvchi v so'zlashuv nutqida p yoki f ga o'tadi, ammo qoidaga muvofiq v yoziladi, masalan, <i>Norqulov – Norqulip</i> (yoki <i>Norqulop</i>), <i>Olimov – Olimif</i> (yoki <i>Olimof</i>), <i>avtomat – aftomat</i> (yoki <i>aptomat</i>), <i>kooperativ – kooperatif</i> (yoki <i>kooperatip</i>) kabi</p> <p>Avtomat, avtobus, avtomobil kabi o'zlashma so'zlarda v tovushi ba'zan f tarzida tallafuz qilinsa-da, doimo v yoziladi.</p>
Xx	<p>X (x) harfi jarangsiz, sirg'aluvchi, chuqur til orqa undoshi</p> <p>Xabar, xo'roz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix kabi so'zlarda chuqur til orqa, jarangsiz, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</p> <p>So'z o'rtasi va oxirida ba'zan q tovushiga moyilroq aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi: <i>mix – miq, soxta – soqta</i></p> <p>O'zbek tilida asosan e dan boshqa unlilar bilan yonmaydon kelganda yoziladi va ularning qattiqroq talaffuz qilinishiga sababchi bo'ladi: <i>xalq, xabar, to'xta, axtar, xush, xamir</i> kabi</p>
Yy	<p>Y (y) harfi jarangli, sirg'aluvchi, til o'rta undoshi</p> <p>Yo'l, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy kabi so'zlarda til o'rta, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</p>
Zz	<p>Z (z) harfi jarangli, sirg'aluvchi, til oldi undoshi</p> <p>Zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz kabi so'zlarda til oldi, jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</p> <p>Iztirob, izquvar, tuzsiz, bo'zchi so'zlarida jarangsiz undoshdan oldin s kabi aytiladi, biroq hamisha asliga mos ravishda z yoziladi</p>

G'g'	<p>G' (g') harfi jarangli, sirg'aluvchi, chuqur til orqa undoshi</p> <p>G'oz, bag'ir, tog' kabi so'zlarda chuqur til orqa, jarangli, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi</p> <p>So'z oxirida g' tovushi ba'zan qo'shimchalar ta'sirida x tarzida aytilsa ham, g' yoziladi: <i>bog'cha – boxcha, belbog'cha – belboxcha, zog'cha – zoxcha</i> kabi</p> <p>Oxiri g' bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga va g bilan boshlanuvchi boshqa qo'shimchalar qo'shilganda, o'zakdagi g' va qo'shimchadagi g undoshlari q tarzida talaffuz etilishi mumkin, ammo yozuvda asliga ko'ra yoziladi: <i>tog'ga, tug'gan, tog'gacha, sig'guncha, sog'gan</i> kabi</p>
Shsh	<p>Sh (sh) harfiy birikma jarangsiz, sirg'aluvchi, til oldi undoshi</p> <p><i>Sh sh</i> harflar birikmasi <i>shahar, shisha, shodlik, shimol, shoshmoq, ishq, pishiq, tosh, osh, bosh</i> kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi</p> <p><i>Sh</i> belgisi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo'yiladi: <i>Is'hoq, as'hob</i> kabi</p> <p><i>Sh</i> til oldi undoshlari bilan kelganda yumshoq, orqa qator unlilar bilan yonma-yon kelganda esa qattiq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: <i>shirin, ishkak, shol, sho'x</i></p> <p>Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda yumshoq va cho-ziqroq aytildi va doim <i>sh</i> yoziladi: <i>plash, borsh, ob-shina</i> kabi</p>
Chch	<p>Ch (ch) harfiy birikma jarangsiz, qorishiq-portlovchi, til oldi undoshi</p> <p><i>Ch ch</i> harfi <i>chumoli, choy, chevar, chiroyli, chaman, ach-chiq, uchun, bichiqchi, kuch, kech, soch</i> kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi</p> <p><i>Ch</i> harfi bilan tugallanuvchi o'zakka qo'shimcha qo'shilganda hamda ayrim so'zlarda <i>ch</i> tovushi <i>sh</i> kabi aytildi, ammo asliga muvofiq yoziladi: <i>uchta – ushta, uchdi – ushdi, kichkina – kishkina, qarich – qarish</i> kabi</p>

Ngng	Ng harfi jarangli, portlovchi, til orqa undoshi
	Yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng kabi so'zlarda til orqa, ovoz dor, burun tovushini ifodalash uchun yoziladi
	Bu tovush so'z boshida uchramaydi, so'zning o'rtasi va oxirida keladi
	Yangi, ko'ngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng, jang, zang, so'ng, ko'ndalang, durang, ingramoq kabi so'zлarni bo'g'inlarga ajratganda <i>ng</i> harfiy b. "masi <i>n</i> va <i>g</i> harflariga ajratilmaydi va alohida tovushlar sifatida talaffuz qilinmaydi
	Kongress, tangens, bugungi, tungi, shtanga, ingliz kabi so'zlarda <i>ng</i> alohida tovushlar <i>n</i> va <i>g</i> ni ifodalaydi, shu sababli bo'g'in ko'chirishda ajratib yoziladi

6-§. QO'SH UNDOSH, QATOR UNDOSHLAR VA ULARNING IMLOSI

Tarkibida yonma-yon bir xil undoshlar kelgan so'zlar **go'sh undoshli so'zlardir**: *ikki, chaqqon, million, artilleriya, gramm, metall*.

Bir bo'g'inda yonma-yon ikki xil undosh kelgan so'zlar **qator undoshli so'zlardir**: *stol, do'st, daraxt*.

Go'sht, do'st, barg kabi so'z oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda ifodalanadi. **Paxta, nimcha, o'simlik** so'zlarida ham yonma-yon kelgan ikki undosh bor, lekin bu undoshlar bir bo'g'inda bo'l-maganligi uchun **qator kelgan undoshlar hisoblanmaydi**.

O'zbekcha so'zlarning fonetik tuzilishidagi o'ziga xoslik shundaki, **so'zning boshida ketma-ket ikki undosh bir joyda kelmaydi**. Shuningdek, so'zning oxirida ham *st* (*ost, ust*), *lt* (*yilt, milt*), *rt* (*to'rt, turt, qurt*) kabi qo'sh undoshlardan tashqari, boshqa undoshlar yonma-yon kelmaydi.

So'z boshidagi qator undoshlar o'rtasiga yoki oldiga bir qisqa unli qo'shib talaffuz qilinsa ham, bu qisqa unli yozilmaydi. **Traktor, stakan, stol** kabi so'z boshida qo'sh undosh kelgan so'zlar yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlardir. So'zlarning bunday tovush tuzilishi tilimizga xos bo'l-maganligi uchun ham,

qo'sh undoshlar orasida, ba'zan oldida bir unli qo'shilib ikki bo'g'inga ajratilgan holda talaffuz qilinadi (*tiraktir, istakan, istol kabi*), lekin ular asl holatida yoziladi (*traktor, stakan, stol kabi*).

So'z oxirida qo'sh undosh kelgan *go'sht, musht* (sht), *daraxt, baxt* (xt), *barg* (rg) kabi so'zlar esa asosan fors-tojik tilidan o'tgan.

Bunday so'zlarda yonma-yon kelgan undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldiriladi. Yozuvda yonma-yon kelgan undoshlar saqlanadi.

Talaffuzda:

go'sh
mush
farzan

Yozuvda:

go'sht
musht
farzand

7-§. YONMA-YON KELGAN UNDOSHLAR IMLOSI

Samarqand, baland, poyezd; do'st, past, artist, g'isht kabi so'zlarda *d, t* tovushi ba'zan aytilmasa ham, yoziladi

Qo'sh undoshlar, odatda, o'zbek tilida so'z o'rtasida keliadi: *malla, shovvoz, tizza, do'ppi* kabi

Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda so'z oxirida ham qo'llanadi: *gramm, metall, kilovatt* kabi

Gramm, metall kabi so'zlar oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldirilsa ham, yozuvda hamisha ifodalanadi

Metall, kilogramm, kilovatt, kongress kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar – metallar, kilogramm+mi (yuklama) – kilogrammi* kabi

Ikki, chaggon kabi so'zlarda qo'sh undosh qismlari aniq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi

Million, artilleriya kabi so'zlarda kelgan qo'sh undoshlar bir undoshdek talaffuz etiladi, lekin qo'sh undosh bilan yoziladi

Og'zaki nutqda so'z o'tasida qo'shaloq kelgan undoshlardan biri ba'zan talaffuz qilinmasa-da, yozuvda to'liq saqlanadi: *million – milyon, komissar – komisar, oddiy – odiy* kabi, lekin talaffuzda qo'sh undoshlardan birini aytmaslik adabiy talaffuz maromiga ziddir

Qo'sh undoshlardan biri tushirilsa, ma'no farqlashga xizmat qiladi: *sodda – soda, modda – moda, billur – bilur (bilar ma'nosida)* kabi

O'zbek tilida qo'sh undoshlar o'zak oxiridagi undoshdan keyin shunday undosh bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shish (*eshit+tir, gul+lar, es+siz* kabi), o'zak oxiri va qo'shimcha boshidagi tovushlarning o'zgarishi (*bir+ta – bitta, ek+gin, ek+kin, chiq+guncha – chiq+quncha* kabi), sifatning kuchaytirma shakli yasalishi (*oppoq, soppa-sog', chippa-chin* kabi) bilan hosil bo'ladi

8-§. TUTUQ BELGISINING ISHLATILISHI

1. Tutuq belgisi *a'llo, ra'no* kabi so'zlarda unlidan keyin keilib, uning cho'ziqroq aytishini ifodalaydi.
2. *San'at, in'om* kabi so'zlarda tutuq belgisi unlidan oldin qo'yiladi va unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi.
3. *Is'hoq, as'hob* so'zlarida tutuq belgisi ikki undoshni bir-biridan ajratish uchun qo'yiladi.

Mo'jiza, mo'tadil kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziq talaffuz qilinsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi.

Tutuq belgisi ma'no farqlaydigan so'zlarga misollar:
She'r – sher, san'at – sanat, da'vo – davo, nash'a – nasha kabi.

9-§. ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

Asos va qo'shimchalar imlosi	Misollar	Imloda fonetik hodisa
a unlisi bilan tugagan fe'llarga -v. -q. -ai qo'shimchalar qo'shilganda a unlisi o aytildi va shunday yoziladi	sayla – saylov, qayna – qaynoq, sayra – sayroqi, sina – sinov, aya – ayovsiz, so'ra – so'roq, bo'ya – bo'yoq, titra – titroq, sayra – sayroqi, o'yna – o'ynoqi	tovush almashadi
a unlisi bilan tugagan fe'llarga -vchi qo'shimchasi qo'shilsa, a unlisi o ga alamashadi	boshla – boshlovchi	tovush almashadi
i unlisi bilan tugagan fe'llarga -v. -q. -vchi qo'shimchasi qo'shilganda , bu unli i aytildi va shunday yoziladi	o'qi – o'quvchi, sovi – sovuq, to'qi – to'quvchi, qazi – qazuvchi,	tovush almashadi
isi, achi fe'llariga -q qo'shimchasi qo'shilsa, asosdagи undosh tovush ortadi	isi+q – issiq, achi+q – achchiq	tovush ortadi
i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda, bu unli i aytildi va shunday yoziladi	og'ri – og'riq, qavi – qaviq kabi	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
ayir so'ziga -im so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa, i tovushi tushadi	ayir+im – ayirim	tovush tushadi

undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi	<i>ol – oluv, yoz – yozuv kabi</i>	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
undosh bilan tugab takibida <i>u</i> unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi	<i>uz – uzuq, yut – yutuq</i>	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
birinchi va ikkinchi bo'g'inlarida <i>u</i> harfi kelgan so'zlarga -iq qo'shimchasi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi	<i>uvushiq, burushiq, uchuriq, bulduriq</i>	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
ayrim so'zlarga -ua qoshimchasi qo'shilsa, asosda <i>u</i> tovushi tushadi	<i>buyur+uq – buyruq</i>	tovush tushadi
-illa qo'shimchasi orqali taqlid so'zlardan fe'l yasalganda so'z tarkibida <i>v</i> yoki <i>u</i> tovushi bo'lsa, bu qo'shimcha -ulla tarzida aytiladi va shunday yoziadi	<i>gurulla, shovulla, lovulla kabi</i>	tovush almashadi
qizil so'ziga -ar qo'shimchasi qo'shilsa, <i>il</i> tushadi	<i>qizil+ar – qizar</i>	tovush tushadi
ayrim so'zlarga -ay fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa <i>t</i> tovushi tushadi	<i>past+ay – pasay, sust+ay – susay</i>	tovush tushadi
ayrim so'zlarga -la, -a fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa, asosdag'i o tovushi <i>a</i> ga almashadi	<i>ong+la – angla, son+a – sana</i>	tovush almashadi

-a qo'shimchasi o'yin, qiyin so'zlariga qo'shilsa, asosdagи bir i tushadi	o'yin+a — o'yna, qiyin+a — qinya	tovush tushadi
-boz, -bon qo'shimchalari -vos, -von kabi aytilsa- da, doimo asl shakli bo'yicha yoziladi	dorboz, bog'bon kabi	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
-aki qo'shimchasi og'iz so'ziga qo'shilsa, i tovushi tushadi	og'iz+aki – og'zaki	tovush tushadi
qizi so'ziga -g'in, quri so'ziga -g'oq qo'shimchasi qo'shilsa, i tovushi tushadi	qizi+g'in – qizg'in, quri+g'oq – qurg'oq	tovush tushadi
-dir nisbat yasovchi qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi (kel so'zi bundan mustasno)	yondir, bordir, quvdir	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
-dir nisbat yasovchi qo'shimchasi z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi	o'tkazdir, tomizdir kabi	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
-dir nisbat yasovchi qo'shimchasi qolgan barcha o'rnlarda -tir shaklida aytiladi va shunday yoziladi	ektir, quyultir, kestir kabi	tovush almashadi
jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga , chegara bildiruvchi -gacha , ravishdosh shaklini hosil qiluvchi -gach , -guncha , -gani ,	uyga, ertagacha, borgach, borguncha, borgani, borgudek, borgan, borgin, maydagina kabi	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi

<p>-gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi</p> <p>-gin, shuningdek,</p> <p>-gina qo'shimchalari uch xil aytiladi va yoziladi, so'zning oxiri k yoki q undoshi bilan tugamagan barcha hollarda -ga, -gacha,</p> <p>-gach, -guncha, -gani,</p> <p>-gudek, -gan, -gin,</p> <p>-gina kabi yoziladi</p>		
<p>-ga, -gacha, -gach,</p> <p>-guncha, -gani,</p> <p>-gudek, -gan, -gin,</p> <p>-gina qo'shimchalari k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi:</p> <p>-ka, -kacha, -kach,</p> <p>-kuncha, -kani, -kudek,</p> <p>-kan, -kin, -kina</p>	<p>tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin, kichikkina kabi</p>	<p>tovush almashadi</p>
<p>-ga, -gacha, -gach,</p> <p>-guncha, -gani,</p> <p>-gudek, -gan, -gin,</p> <p>-gina qo'shimchalari q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi:</p> <p>-qa, -qacha, -qach,</p> <p>-quncha, -qani,</p> <p>-qudek, -qan, -qin,</p> <p>-qina</p>	<p>chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiqqani, qo'rqqudek, achchiqqina</p>	<p>tovush almashadi</p>

<i>barg, pedagog, bug', tog', sog', og', sig' kabi so'zlarga -ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina</i> qo'shimchalari qo'shilsa, bu qo'shimchalarning bosh tovushi <i>k</i> yoki <i>q</i> aytilishidan <i>qat'i</i> nazar, g yoziladi	<i>bargga, pedagogga, bug'ga, tog'ga, sog'gan, og'gan, sig'guncha kabi</i>	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
<i>ayrim fe'llarga nisbat shaklini hosil qiluvchi -il</i> qo'shimchasi qo'shilganda asosdagil tovushi tushadi	<i>ayir – ayril, qayir – qayril</i>	tovush tushadi
<i>ikki, olti, yetti so'zlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimchalar (-ov, -ala, -ovlon)</i> qo'shilsa, asosda tovush tushishi hodisasi ro'y beradi	<i>ikki – ikkala, yetti – yettov, ikki – ikkov, olti – oltovlon, yetti – yettovlon</i>	tovush tushadi
<i>k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, bek, yo'q kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi</i> qo'shilganda, <i>k</i> undoshi <i>g</i> undoshiga, <i>q</i> undoshi <i>g'</i> undoshiga aylanadi va shunday yoziladi	<i>yurak – yuragi, bilak – bilagim, tilak – tilagim; buloq – bulog'im, quloq – qulog'ing, qishloq – qishlog'i, yoq – yog'i, bek – begi kabi</i>	tovush almashadi
<i>ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, <i>k, q</i> tovushi aslicha aytiladi va yoziladi</i>	<i>ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqi, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi kabi</i>	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi

ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi <u><i>(-im</i></u> <u><i>(-m)</i></u> , <u><i>-ing (-ng)</i></u> , <u><i>-i</i></u> <u><i>(-si)</i></u> , <u><i>-imiz</i></u> , <u><i>-inqiz</i></u>) qo'shilganda <i>a</i> , <i>i</i> yoki <i>u</i> tovushlari tushadi	<i>o'rın – o'rni, qorin</i> – <i>qorni, shahar</i> – <i>shahri, burun –</i> <i>burni</i>	tovush tushadi
<i>u, shu, o'sha</i> kabi olmoshlarga <u><i>egalik</i></u> <u><i>qo'shimchasi</i></u> qo'shilsa, bitta <i>n</i> ortadi	<i>buningiz, o'shanisi</i> kabi	tovush ortadi
<i>o, o', u, e</i> unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:		
ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari <i>-m, -ng, -si, -miz, -ngiz,</i> <i>-i</i> shaklida tovush orttirilmay qo'shiladi	<i>bobom, bobong,</i> <i>bobosi, bobomiz,</i> <i>bobongiz, bobolari;</i> <i>orzum, orzung,</i> <i>orzusi, orzumiz,</i> <i>orzungiz, orzulari</i>	tovush o'zgarishi kuzatilmaydi
<i>parvo, obro', mavqe</i> <i>mavzu, avzo</i> so'zlariga I, II shaxs <u><i>egalik</i></u> <u><i>qo'shimchalari</i></u> qo'shilsa, bitta <i>y</i> tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi	<i>parvoym,</i> <i>parvoying,</i> <i>parvoymiz,</i> <i>parvoyingiz;</i> <i>obro'yim, obro'ying,</i> <i>obro'yimiz,</i> <i>obro'yingiz kabi</i>	tovush ortadi
III shaxs egalik qo'shimchasi <i>parvo,</i> <i>avzo, obro', mavqe</i> so'zlariga <i>-yi</i> shaklida, <i>xudo, mavzu (dohiy</i> kabi <i>y undoshi</i> bilan tugagan) so'zlariga esa <i>-si</i> shaklida qo'shiladi	<i>parvoyi, avzoyi,</i> <i>obro'yi; xudosi,</i> <i>mavzusi; dohiysi,</i> <i>sanatoriysi kabi</i>	qo'shimchaning shakli o'zgaradi
<i>men, sen</i> olmoshlari <u><i>-ni, -ning, -niki</i></u> qo'shim- chalari qo'shilsa, bitta <i>n</i> tushirib qoldiriladi, u aytilmaydi va yozilmaydi	<i>mening, meni,</i> <i>sening, seni,</i> <i>meniki, seniki</i>	tovush tushadi

<p>k undoshi bilan tugaydigan so'zlarga <u>-qa</u> jo'nalish kelishigi qo'shilsa, -ka tarzida, q undoshi bilan tugaydigan so'zlarda esa -qa tarzida aytildi va shunday yoziladi</p>	<p>yurakka, qaymoqqa</p>	<p>tovush almashadi</p>
<p><u>u, shu, o'sha</u> kabi olmoshlarga <u>-da.</u> <u>-dan.</u> <u>-day.</u> <u>-dagı.</u> <u>-ga.</u> <u>-gacha.</u> <u>-cha.</u> <u>-aga.</u> <u>-dek.</u> <u>-day.</u> <u>-doq</u> qo'shimchalari qo'shilsa, bitta n orttiriladi</p>	<p>unda, bunday, shunda, o'shancha, unaqa, bundek, shunday, shundoq kabi</p>	<p>tovush ortadi</p>
<p>o'rin-payt va chiqish kelishigi qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilda ham, hamma vaqt d yoziladi</p>	<p>ishda, misdan, oshdan</p>	<p>tovush o'zgarishi kuzatilmaydi</p>
<p>o'tgan zamon hosil qiluvchi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan t aytilda ham, hamma vaqt d yoziladi</p>	<p>ketdi, kelmabdi, aytibdi</p>	<p>tovush o'zgarishi kuzatilmaydi</p>
<p>yeta olmadi, ayta oldi, yoza oldi, ola olmas kabi so'zlardagi yetakchi va ko'makchi fe'l qo'shib yozilsa, asosdagi a unlisi tushib qoladi</p>	<p>yeta+olmadi – yetolmadi</p>	<p>tovush tushadi</p>
<p>kela ber so'zidagi yetakchi va ko'makchi fe'l qo'shib yozilsa, b tovushi v ga o'zgaradi</p>	<p>kela+ber – kelaver</p>	<p>tovush almashadi</p>

10-§. QO'SHIB YOZISH

Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi	oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo'ymijoz, maymunsifat, kamhosil, umumdavlat, bug'doyrang, suvtalab va h.k.
-r, -ar, -s qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi	o'rribosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas, otboqar, cho'lquvar, qushqo'nmas kabi
Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi	pirpirak, hayhayla, gjigjila kabi
Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma <u>otlar</u> va <u>sifatlar</u> qo'shib yoziladi	karnaygul, qo'ziqorin, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z, toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sherdil, otquloq singari
Narsaning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosi ma'nolarini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi (bunday otlar bir tushunchani bildiradi va bir bosh urg'u bilan aytildi)	ko'ksulton, oqbosh, achchiqtosh, suvilon, olaqarg'a, qizilishton, mingoyoq kabi
Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligi kabi ma'nolarni bildiruvchi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi	kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak kabi
Narsani joyga nisbat berish asosida hosil bo'lgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi	tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul kabi
Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi	kiruyvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochילדasturxon kabi

<p>Qaratuvchi birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi</p>	<p><i>mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi kabi</i></p>
<p>Ikkinci qismi turdosh ot yoki obod so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo'shib yoziladi (lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: <i>Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, G'arbiy Yevropa, O'rta Chirchiq kabi</i>)</p>	<p><i>Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzacho'l, Sirdaryo, Kosonsoy, Oqtepa, Uchqo'rg'on, Yangiobod, Xalqobod, Davlatobod, Xo'jaobod kabi</i></p>
<p>Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zmaso'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi</p>	<p><i>kinoteatr, radiostansiya, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti, telestudiya, fotoapparat, radioto'lqin, elektrarra kabi</i></p>
<p>Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar har doim qo'shib yoziladi</p>	<p><i>O'zMU, ToshDPU, SamDU, ToshDUning, BMT, O'zXDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi</i></p>
<p>Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi</p>	<p><i>yo'o'q, nimaa, himm, ufff kabi</i></p>

11-§. AJRATIB YOZISH

Ikkinci qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi	Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, G'arbiy Yevropa, O'rta Chirchiq kabi
Qo'shma fe'l qismlari doimo ajratib yoziladi	sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib chiq, miq etma, kirib chiq, olib kel, oshkor et kabi
Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'dan ajratib yoziladi (lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: aytaver – ayta ber, boroladi – bora oladi, bilarkan – bilar ekan kabi)	aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi
<i>Har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha, hamma kabi so'zlar o'zidan oldingi yoki keyingi so'zdan ajratib yoziladi (lekin birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so'zлari qo'shib yoziladi. shuningdek, qay so'zi yoq, yer so'zлari bilan ishlatilganda, bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: gayoqqa, qayerda kabi)</i>	<i>har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa, hech narsa, bir zum, bu yerda. o'sha joyda, hamma vaqt kabi</i>
Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan ajratib yoziladi. (<i>Eslatma: bilan va uchun ko'makchilarining qisqargan -la va -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: onam-la, sen-chun singari</i>)	vatan uchun, siz bilan, shahar tomon
Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan <i>to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och</i> kabi so'zlar ajratib yoziladi	<i>to'q qizil, jiqqa ho'i, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq, och ko'k, to'q sariq kabi</i>

Qo'shma sonlar ajratib yoziladi	<i>o'n to'qqiz, bir yuz yigirma besh, ikki ming birinchi va hokazo</i>
Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi	<i>yildan yilga, tomdan tomga, kundan kunga</i>
Belgining ortiq darajasini bildiruvchi so'zlar ajratib yoziladi	<i>ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabi</i>
<i>Izofali birikmalar ajratib yoziladi, bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi (lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: gulbeor (gulibeor), dardisar kabi)</i>	<i>nuqtayi nazar, tarjimayi hol, dardi bedavo kabi</i>

12-§. CHIZIQCHA BILAN YOZISH

Juft yoki takror so'zlarning o'rtasida chiziqcha ishlatiladi	<i>ota-on'a, orzu-umid, kecha-kunduz, qing'ir-qiyshiq; tog'-tog', sekin-tez, o'n-o'n beshta (10-15 ta), mayda-chuyda, ikir-chikir, uy-uyiga, ich-ichidan kabi</i>
Juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi	<i>baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq</i>
Juft so'z qismlari orasida -u, -yu bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi	<i>erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa, do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi</i>

Yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi	<i>yozdi-oldi, borasan-qo'yasan, uxlabman-qolibman, ayt-qo'y kabi</i>
Takroriy kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi	<i>qop-qora, qip-qizil, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri, bab-baravar, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi kabi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi)</i>
So'zning -ma yoki -ba qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi	<i>ko'chama-ko'cha, uyma-uy, oyma-oy, rang-barang, dam-badam singari (lekin mustaqil ishlatalmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: ro'baro', darbadar kabi)</i>
Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi	<i>unter-ofitser, kilovatt-soat kabi</i>
-chi, -a (-ya), -u (-yu), -da, -ku, -ey (-yey) qo'shimcha yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi (-mi, -gina (-kina, -qina), -oq (-yoq), -dir qo'shimcha yuklamalar bundan mustasno)	<i>sen-chi, biz-a, keldi-da, ukasi-ku, qo'y-e, yashang-e, o'g'ilim-ey, keldi-yey kabi</i>
Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi (-inchi) qo'shimchasi o'rnida chiziqcha ishlataladi	<i>7-sinf, 5-«A» sinf, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 60-yillar, 26-uy, 6-xona, 1990-yil, 21-mart</i>
Eslatma Rim raqamlaridan so'ng chiziqcha ishlatalmaydi: <i>XXI asr, X bob</i>	

13-§. BOSH HARFLAR IMLOSI

Kishilarning ismi, ota-sining ismi, familiyasi, taxallusni, ramziy atoqli oti bosh harf bilan yoziladi	Navoiy, Abdurauf Fitrat, Rasulova Dilbar Ikromjonovna, Ashurova Diyora Tolibjon qizi, Otajon Azizovich, Salomjon Alikov kabi
Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharcha-lar, tumanlar, mahal-lalar, daryo, dengiz, kanal, tog', tepa, adir, dara, yaylov – joy nom-lari – bosh harf bilan yoziladi	Namangan, Uchqo'rg'on (shaharlar), Uychi, Norin (tumanlar), G'ayrat, Olmu-rut, Birlashgan (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy, Navro'z (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog', Pomir (tog'lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zaraf-shon, Sirdaryo, Norin (daryolar), Yoyima (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)
Joy nomlari tarki-bidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi	Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum
Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan bosh-lanadi	Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydag'i relief nomi). Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi. Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi
Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mah-sulotlariga, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi	«Tong» mehmonxonasi, «Malika» firmasi, «Navro'z» xayriya jamg'armasi, «Kamalak» matbaa birlashmasi, «Zebo» bog'chasi, «Botanika» sanatoriysi, «Bunyodkor» stadioni, «Qutlug' qon» romani, «Dilorom» operasi, «Tanovar» kuyi, «Ozodlik» haykali, «Jasorat» yodgorligi, «Qo'shaloq qutb» sovutgichi, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, «O'zqishloqxo'jmashxolding» kompaniyasi, «Damas» avtomobili, Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Qizilqum fosforit kombinati, «Amudaryo» jumali, «Shaytanat» asari va hokazo

Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi	<i>Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, Xotira kuni, Ramazon hayiti</i>
Davlatlar, oliy darajadagi davlat tashkilotlari va martabalarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi <u>har bir so'zi bosh harf bilan</u> yoziladi	<i>O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oly Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi Kengashi kabi</i>
Vazirlik va tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi	<i>Mudofaa vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Bosh vaziming o'rinnbosari, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, Davlat test markazi, «Umid» jamg'armasi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi</i>
Mukofotlar, faxriy unvonlar, orden va medallarning birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi	<i>«Sog'lom avlod uchun» ordeni, «Shuhrat» medali</i>
Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so'zlar har biri bosh harflar bilan yoziladi	<i>«O'zbekiston Qahramoni» unvoni, «Oltin Yulduz» medali</i>
Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'limgan ba'zi birikmalaming qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi	<i>AQSH (Amerika Qo'shma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi</i>

Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lса, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi	<i>ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti)</i>
Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi	<i>Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariiga xizmat qilsagina, u qadrtidir. (A.Oripov)</i>
Eslatma	
Ko'chirma gapdan keyin kelgan mualif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'lmasa) kichik harf bilan yoziladi	«Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi», – degan Tog'ay Murod.
Xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda, bunday qismlar oldidan tire qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi	<p><i>O'quvchi quyidagilarga qat'iy amal qilishi zarur:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> – dars qoldirmaslik; – dars qoldirishga uzrli sabab bo'lganda, o'qituvchini oldindan ogohlantirish; – dars jarayonida faol ishtirok etish; – mashg'ulotlarga kech qolmaslik; – vazifalarni o'z vaqtida puxta bajarish; – o'tilgan mavzularni doimiy takrorlab turish; – vaqtdan unumli foydalanish.
Gapning qismlari qavslı raqam yoki qavslı harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi	<p><i>Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1) umumturkiy so'zlar; 2) o'zbekcha so'zlar; 3) tojik tilidan kirgan so'zlar; 4) arab tilidan kirgan so'zlar; 5) rus tilidan kirgan so'zlar.

14-§. BO'G'IN KO'CHIRISH

Bo'g'in ko'chirish qoidalari	Misollar
Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi	<i>to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor</i>
Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi	<i>va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om, mas'-ul, mas'-ud, mas'-uliyat</i>
So'z boshidagi bir harfdan iborat bo'gin yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi	<i>a-badiy emas, aba-diy; e-shikdan emas, eshik-dan</i>
So'zning oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi	<i>mudofa-a emas, mudo-faa; matba-a emas, mat-baa</i>
O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi	<i>dia-gramma, mono-grafiya</i>
O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi	<i>Slin-drik, kon-trakt, tran-sport, kon-gress, in-gliz</i>
Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (<i>sh, ch, ng</i>) birgalikda ko'chiriladi	<i>Pe-shayvon, pe-shana, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, sing-lisi, de-nbiz, tang-lay</i>
Bosh harflardan iborat yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar satr dan satrga ko'chirilmaydi	<i>AQSH, BMT, ToshDU, O'zMU</i>
Ism va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi	<i>I.A.Karimov, Z.A.Hoshimova</i>
Harfiy qisqartmalar o'zidan oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi	<i>v.b (va boshqalar), sh.k (shu kabilar)</i>

Ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi	24, 13, 1996, 2000, XX, XXI
Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi	5-«A» sinf, V «B» sinf, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm
Atoqli otlar tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi	«Navro'z – 92» (festival), «O'qituvchi – 91» (ko'rik-tanlov), «Andijon – 9», «Termiz – 16» (g'o'za navlari), «Boing – 767» (samolyot), «Foton – 774» (televizor)

6-MAVZU LEKSIKOLOGIYA

1-§. LEKSIKOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Leksikologiya yunoncha *lexikos* – so'z, so'zga doir va *logos* – ta'lilot so'zlarining birikuvidan olingan bo'lib, leksika (so'z) haqidagi ta'lilot demakdir. Demak, so'z va uning ma'nolarini o'r ganuvchi tilshunoslik bo'limiga **leksikologiya** (ba'zan leksika) deyiladi.

Ma'lum bir tildagi so'zlarning yig'indisi shu tilning lug'at tarkibini tashkil qiladi.

Leksika atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

- a) **tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi;**
- b) **lug'at tarkibini o'r ganuvchi tilshunoslikning alohi-da bo'limi.**

Leksika atamasining ikkinchi ma'nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo'llaniladi.

2-§. SO'Z VA UNING MA'NOSI HAQIDA

Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi **so'z** sanaladi.

So'z shakl va mazmun yaxlitligiga ega bo'lib, ma'no va grammatic jihatdan shakllangan til birligidir. So'zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma'no tomoni mavjud. So'zning shakli, ya'ni **tashqi tomoni** tovush(harf)lardan iborat bo'lib, bu xususiyatlari fonetikada o'rganiladi. So'zning **ichki tomoni** esa unda ifodalangan ma'nolar bilan tavsiflanadi.

SO'ZNING ATASH MA'NOSI

So'zlarning borliqdagi **shaxs, narsa, belgi, faoliyat-jarayon, mavhumlik, harakat, miqdor, holat, payt, o'rin, sabab, maqsad** kabi tushunchalarning ifodalashi so'zning

atash (luq'aviy – leksik) ma'nosi deyiladi: *inson – shaxs, maysa – o'simlik, dehqonchilik – faoliyat-jarayon, sariq – rang, chiroyli – xususiyat, nordon – ta'm, xushbo'y – hid, yetti – miqdor, tez – holat, ataylab – maqsad, chorasizlikdan – sabab, ko'p – miqdor, oldinda – o'rin, yurdi – harakat.*

Faqat mustaqil so'zlarga atash ma'nosiga ega bo'la- di Olmoshlar atash ma'nosiga ega emas. Ular atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarga **ishora** qiladi.

Gul chiroyli. Uning ochilishi kishiga zavq bag'ishlaydi. Bu gapdagi uning olmoshi gul so'ziga ishora qilgan.

Demak, so'zning ikki tomoni: moddiy tomoni (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va ma'no tomoni mavjud.

So'zning ikki xil ma'noni bildirishini *opa so'zi* misolida ko'rib chiqamiz.

Opa so'zi aka, uka, singil singari so'zlar bilan qarindoshlik ma'nosi bilan bir guruhga birlashadi. Ayni paytda, bir guruhga mansub bo'lgan yuqoridagi so'zlar bir-biriga zidlanguanda, ma'ilum ma'nolari bilan o'zaro farqlanadi.

Xususan, *opa so'zi o'gay opaga* zidlanguanda, qon-qarindoshlik (*o'gay emaslik*) ma'nosini bildirishi bilan; *aka, uka* so'zlariga zidlanguanda, ayol jinsiga mansublik ma'nosi bilan; *singil so'ziga* zidlanguanda esa *opening* singildan kattalik, singilning esa kichiklik ma'nosiga egaligi bilan farq qiladi.

*Opa so'zining boshqa qarindoshlik bildiruvchi so'zlar bilan birlashtirib turadigan va ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydigan ma'nolarining jami uning **atash ma'nosi yoki leksik ma'nosi** deyiladi.*

*Opa so'zi yuqoridagi ma'nodan tashqari predmetlik, bosh kelishik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu ma'nolar uning **grammatik ma'nosi** sanaladi.*

Ko'rindaniki, nutq jarayonida har bir so'z leksik va grammatic ma'nolar uyg'unligidan tashkil topadi.

Tildagi barcha so'zlar grammatik ma'no anglatadi, lekin **luq'aviy ma'no anglatavermaydi**. Masalan, *va, ammo, yoki* so'zlari luq'aviy ma'noga ega emas, ular grammatic ma'no ifodalaydi.

Bir xil grammatic ma'noli so'zlar deganda, bir turkumga kiruvchi yoki bir xil sintaktik vazifani bajaruvchi va shu kabilar

tushuniladi: *Bog'imizda rangdor, sayroqi qushlar bor.* Gap-dagi sifatlarning grammatik ma'nosi: *rangdor, sayroqi so'zlar* – sifat, sodda yasama sifat, oddiy daraja, aniqlovchi vazifasi-da. Bu so'zlar bir xil grammatik ma'noli so'zlar hisoblanadi. So'zning **morfoloqik** va **sintaktik xususiyati** uning grammatik ma'nosini tashkil etadi.

Yuqorida berilgan gapdagi sifatlarning lug'aviy ma'nosi: *rang-dor* – *rangli*, ya'ni turli rangga ega ekanligini bildiradi, *sayroqi* – xususiyatni, ya'ni yoqimli sayray olishini ifodalaydi.

3-§. SO'Z VA LEKSEMA

Odatda, leksik va grammatik ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosa-batidan tashkil topgan butunlikka nisbatan **so'z** atamasi qo'llaniladi.

Grammatik ma'nosiz, faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligi uchun **leksema** atamasi qo'llaniladi.

Demak, leksemada lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar bo'lmaydi.

Bunday vaqtida **so'z morfologiya birligi** sifatida, leksema esa **leksikologiya birligi** sifatida bir-biridan farqlanadi.

Misol	So'z	Leksema
Ishchilarimizga	Ishchilarimizga	Ishchi

Demak, tahlil jarayonida gap tarkibidan so'zlarni ajratamiz. So'zlar esa **leksema** va **grammatik qo'shimchalarga** bo'linadi. Tilning lug'aviy (leksik) ma'no bildiruvchi birligi **leksema** sanaladi. Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi (lug'atlarda fe'llar aniq nisbatda va nisbat qo'shimchalari bilan beriladi)

4-§. SO'Z TANLASH VA QO'LLASH

Nutqda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash nutq madaniyati ning muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tu-shunarli va aniq yetkazishda so'zni to'g'ri tanlash lozim.

So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;
- tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;
- so'zning suhabatdoshlarga tushunarli bo'lishini hisobga olish;
- so'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maq-sadiga muvofiq tarzda tanlash.

Nutq madaniyati haqida

Nutq odobining asosiy talablari:

- so'zni qadrlash;
- yaxshi so'zlay olish;
- so'zlaganda o'ylab, tushunib gapirish;
- chin so'zlash;
- tilni tiyish;
- suhabat sirlarini saqlash;
- ezma va vaysaqi bo'llmaslik kabilarga amal qilish.

Nutq madaniyatini egallash uchun ijtimoly-ruhiy omillar:

- hozirgi o'zbek tili va uning mavjud ifoda vositalarini puxta o'zlashtirish;
- adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilish;
- so'zlashganda muayyan axloq-odob me'yorlariga riosa etish, o'z va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'lish, o'rinni so'zlash, tinglash, suhabatlashish, munozara madaniyatini bilish.

5-§. BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR

So'zlar bir ma'noli yoki ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Ko'p ma'noli so'zlar til taraqqiyoti natijasida paydo bo'ladi. So'zning biror tushunchani bildirishi uning lug'aviy (leksik) ma'nosi sanaladi. Ana shu lug'aviy ma'no asosida boshqa ma'nolar ham ifodalansa, u yasama (ko'chma) hisoblana-di, ya'ni ko'p ma'noli so'zlar vujudga keladi. Badiiy nutqda so'zning yasama ma'nolaridan keng foydalilaniladi.

Tilimizdagi so'zlarning juda katta qismi ko'p ma'nolilidir (tilimiz – boy til), chunki kishilar o'zining kundalik hayo-

tida yangi paydo bo'lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so'zlar qo'llayveradigan bo'lsa, so'zlarning soni o'ta ko'payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo'lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo'lardi.

Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliklarining turli xil ko'rinishlaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifoda-lashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda il-gari mayjud bo'lgan so'zlarga yangi-yangi ma'nolar yuklana-di. Natijada ko'p ma'noli so'zlar maydonga keladi. Masalan, *tosh* so'zi dastlab «qattiq», «sovuuq jism» ma'nosida qo'llangan: «*Yo'lda tosh yotibdi*». Keyinchalik «qattiqlik» ma'nosini faollashtirib, *toshbag'ir*, *bag'ritosh* birikmalarida bag'irning sifatlovchisi vazifasida ko'chma ma'noda qo'llanila boshlan-gan. Yoki ko'z so'zi dastlab faqat «tirik organizmning qavariq shaklga ega bo'lgan ko'rish a'zosi» ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik «qabariqlik» ma'nosini faollashtirish assosi-da «daraxtning ko'zi», «yorug'lik bilan ta'minlash» ma'nosini faollashtirish orqali «derazaning ko'zi» ma'nolarida qo'llanila boshlandi.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuchi so'zlarga ko'p ma'noli so'zlar yoki polisemiya deyiladi.

Polisemiya yunoncha *poli* – ko'p, *semia* – ma'no so'zlari dan olingan bo'lib, **ko'p ma'noli** demakdir. Polisemiya mono-semiya (yunoncha *mono* – bir, *semia* – ma'no)ga zidlanadi.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin **y bir so'z hisoblanaveradi**. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri to'g'ri ma'no (yoki o'z ma'no), qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to'g'ri ma'nosи asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «qattiq jism» ma'nosini anglatadi.

Tutmoq ko'p ma'noli so'z

O'z ma'nosi:

1) qochoqni tutmoq (ushlamoq).

Ko'chma ma'nolari:

- 1) parda tutmoq (ilmoq);
- 2) sir tutmoq (biror holat, vaziyatda saqlamoq);
- 3) suv tutmoq (uzatmoq);
- 4) o'zini tutmoq (o'zini biror tarzda ushlamoq);
- 5) ro'zg'or tutmoq (boshqarmoq);
- 6) bolani bo'sh tutmoq, xotinini qattiq tutmoq – (qandaydir munosabatda bo'lmoq);
- 7) idishni toza tutmoq – (ishlatmoq, foydalanmoq, qo'llamoq);
- 8) qurt tutmoq – (parvarish qilmoq, boqmoq);
- 9) zalni qarsak tutmoq – (ovoz tarqalmoq);
- 10) jazavasi tutmoq – (huruj qilmoq);
- 11) ko'chat tutmoq – (o'smoq, rivojlanmoq)...

Yuqoridagi *tutmoq* so'zi barcha ma'nolari bilan bir so'z hisoblanadi (ko'p ma'noli so'z), ya'ni ular bir so'zning turli ma'nolaridir. Birinchisi o'z ma'nosida, qolganlari ko'chma ma'noda.

Izohli lug'atdan bosh so'zining ko'chma ma'nolarda qo'ilanishini ko'rib chiqamiz: *bosh og'ritmoq, boshiga kelmoq, bosh bo'lmoq, bosh vrach, bosh harf, bosh vazifa, bosh maqola, bosh bola, bosh barmoq, bir bosh, jon boshiga, o'n bosh, daraxtning boshi, ko'chaning boshi, ish boshi, hasharchilar boshiga bormoq, bosh tomon, o'choq boshi, daryo boshi, boshi berk ko'cha, yilning boshi, bir boshdan, janjalning boshi, bir bosh uzum, xotin boshi bilan, bir yostiqqa bosh qo'ymoq, boshi buzuq, boshiga yetmoq, boshiga ko'tarmoq, boshiga suv quymoq, boshiga uradimi, boshiga chiqib olmoq, boshiga o'tqazib qo'ymoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshida kaltak sinmoq, boshi yostiqqa tegmoq, boshida qolmoq, boshi ketmoq, boshi ko'kka yetmoq, boshi toshdan bo'lsin, boshini aylantirmoq, boshini bog'lamoq, boshini bukmoq, boshiga yetmoq, boshini yemoq, boshini ikkita qilmoq, boshini silamoq,*

boshini tikmoq, boshini xam qilmoq, boshini qovushtirmoq, boshini qotrimoq, boshi chiqmaslik, boshi qorong'i, boshi shishmoq, bosh ko'tarib yurmoq, bosh ko'tarmoq, bosh olib ketmoq, boshi oqqan tomonga ketmoq, bosh og'rig'i, bosh suqmoq, bosh tortmoq, bosh to'lg'amoq, bosh urmoq, bosh qashimoq, bosh qo'shmoq, katta boshini kichik qilmoq...

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni. shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jayronida o'rinni foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

Atamalar, kasb-hunarga oid so'zlar faqat bir ma'no ni ifodalash uchun qo'llanadi. Bular bir ma'noli so'z-lardir. Masalan, piyola – *choy ichishga mo'ljallangan idish; leksikologiya – so'z ma'nolarini o'rganuvchi fan* ma'nosida qo'llanadi.

Bir ma'noni ifodalaydigan so'zlar

Atoqli otlar	<i>Maftuna, Jahona, Olovuddin, Sarvinoz, Diyora, Shirin, Akbar, Humoyun, Nigina, Zebo, Laylo, Namangan, Uychi, Norin</i>
Sanoqni bildiruvchi so'zlar	<i>o'n uch, o'n yetti, yigirma to'rt, yigirma to'qqiz</i>
Olmoshlar	<i>men, sen, u, shu, o'sha, hech kim, hamma, barcha, kimdir</i>
Ilmiy atamalar	<i>kesim, kimyo, fazo, orol</i>
Kasbiy atamalar	<i>jo'yak, pushta, o'qariq</i>
Neologizmlar	<i>saundtrek, vyorstkachi, virtual</i>

6-§. SO'ZNING O'Z MA'NOSI VA KO'CHMA MA'NOSI

So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'limgan atash ma'nosi o'z ma'nosi sanaladi. So'zning nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qiladigan yondosh ma'nosi ko'chma ma'nosi hisoblanadi. Masalan, Odamning qulog'i – o'z ma'noda, qozonning qulog'i – ko'chma ma'noda. O'z va ko'chma ma'no birikib ko'p ma'noli so'zni hosil qiladi.

Tilimizda mavjud so'zlar ma'nolarining o'sishi ma'no ko'chishi, ma'noning kengayishi va torayishi tarzida ro'y beradi.

Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaqtda bitta nom bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, *burun* so'zi «tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi» ma'nosini ifodalash bilan birgalikda «yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi» ma'nosini ham ifodaydi. Predmetlar o'tasidagi tashqi o'xshashlik (yuz qismidan bo'rtib chiqqan burun bilan yer qirg'og'inинг dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'tasidagi o'xshashlik) biring nomini ikkinchisi o'rnila qo'llashga asos bo'lgan.

7-§. MA'NO KO'CHISH USULLARI

O'zbek tilida ma'no ko'chishining quyidagi usullari mavjud:

1. Metafora.
2. Metonimiya.
3. Sinekdoxa.
4. Vazifadoshlik.
5. Kinoya.
6. Tagma'no.

1. Metafora

Metafora yunoncha so'zdan olingan bo'lib, bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'tasida-

gi ma'lum o'xhashlik asosida ko'chishidir, ya'ni biror predmet shaklining, belgisining, harakatining o'xhash tomonini boshqasiga ko'chirishdir.

Masalan, *tandirning og'zi* birikmasida *og'iz* so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xhashligi asosida vujudga kelgan. Nutqimizda eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir.

Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xhashlik turli asosda bo'lishi mumkin:

1. Ikki predmet o'rtasidagi shakliy o'xhashlik. Masalan, *odam qulog'i – qozon qulog'i* (*stolning oyog'i, arraning tishi, varrakning dumi, o'choq og'zi, ariqnning labi, egarning qoshi, yog'ochning beli, mактабнинг биқини (yonboshi), rubobning qorni, ko'chaning boshi, kemaning tumshug'i, daryoning yoqasi, tog'ning etagi*).

2. Ikki predmet qayerda joylashishi bo'yicha o'xhashlik. Masalan, *itning dumi – samolyot dumi* va boshqalar.

3. Ikki predmet o'rtasidagi belgining o'xhashligi. Masalan, *yengil yuk – o'z ma'nosida; yengil ta'zim – ko'chma ma'nda (issiq yuz,sovuq xabar, shirin so'z, achchiq haqiqat, oq (qora) ko'ngil, bemaza gap, yorug' yuz, ochiq ko'ngil...)*

4. Ikki predmet o'rtasidagi harakatning o'xhashligi. Masalan, *ipni uzmoq – qarzni uzmoq* (*gapni gapga ulamoq, ruhi ko'tarilmoq, yuragini teshib o'tmoq*)

Nutq jarayonida metaforalardan o'rinni foydalanish nutqimizni ta'sirchan, jozibali qiladi. So'zlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

Metafora qo'llangan gaplar:

1. Kumushning vujudida *yengil titroq yugurdi*.
2. Ko'k yuzida bulutlar og'ir suzib yurardi.
3. Korxona bir yilga yetmayoq sindi.
4. O'choq og'zida qora qumg'on qaynaydi.
5. Qiz yumshoq ovozda so'zladi.
6. Bo'ron tinimsiz o'kirardi.
7. *Daryo labida chol o'tin terardi.*

8. Yengil kuy eshitasiz.
9. Jangchi og'ir yarador bo'ldi.
10. Uning gapi yuragimni teshib o'tdi.
11. Hamidboy shu singanicha qayta o'nglanmadi.
12. Gapimni kesmang.
13. Xayolimni buzmang.
14. Aloqalarni uzmang.
15. Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.
16. *Tuzsiz she'rlarim* deb shirindan-shirin
Bolalarim yurar oyoq uchida. (M.Yusuf)
17. *Rahmi kelib bulutning Yig'lab to'kar yoshini.* Qushlar
qochar majnuntol *Ko'taradi boshini.* (E.Vohidov)
18. Bülutning orasidan Quyosh *kulib qaraydi,* Majnuntol-
ning *yuvilgan sochlarini taraydi.* (E.Vohidov)
19. Aziz imtihondan *yiqildi.*
20. Litsey *qaldirg'ochlarini* tabriklashdi.
21. *Qilichim tili* bilan so'zimni aytu oldim. (G'.G'ulom)
22. Lekin san'atimiz hozir o'smirlik *chog'idayoq quadratli*
qanot paydo qilayotibdi. (A.Qahhor)
23. Davlatimiz yetimlarning *boshini siladi.*
24. Mungli kuy yurakni *timar* edi.
25. Kuyov qo'lini ko'ksiga qo'yib: «...ishoning, dada, Karo-
matni *boshimga ko'taraman»*, – dedi. (S.Ahmad)
26. Bayram *arafasida turibmiz.*
27. Tarvuzning bitta *kosasini* oldi.

Kishi ismlarida metafora usuli bilan qo'yilgan nomlar ham
uchraydi: *Rayhon, Shabnam, Dilbar, Navro'za, Maftuna,*
Sarvinoz, Akbar, Zebo, Shirin, Jahona, Nilufar, Lochin, Arslon, Ozoda...

2. Metonimiya

Metonimiya yunoncha so'zdan olingan bo'lib, qayta
nomlash demakdir.

Narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi
o'zaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga

ko'chishi metonimiya hisoblanadi: *Navoiyni oldim qo'llimga. Bedilni o'qir edim. Samovarda osh yedik.*

Hojiboy Tojiboyevning «O'zbekning gapi qiziq» ruknidagi bunday ichakuzdi hangomalarini ko'p eshitgansiz va huzur qilib kulgansiz, lekin bu hangomalardan nima uchun kulisimiz sababini bilasizmi? Hojiboy Tojiboyevning mahorati shundaki, u so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini anglagan holda ko'chma ma'nolarda qo'llangan so'zlarning to'g'ri ma'nosini izohlab, undan odamlarni kuldira oldi.

Yuqorida keltirilgan gaplar tarkibida kulgi qo'zg'atish uchun asos bo'lgan so'zlarning barchasi ko'chma ma'noning bir turi – metonimiya asoslangan.

Yuqoridagi misollarda shoir bilan uning asarlari (chunki shoir va uning asari o'tasida ongimizda doimiy bog'lanish bor), choy ichiladigan joy bilan choy qaynatiladigan buyum o'tasidagi aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisi uchun ko'chgan:

Navoiyni qo'lga oldim deganda Navoiy asarlarini, *Bedilni o'qir edim* deganda ham uning asarlarini tushunamiz, yani Navoiy, Bedil shaxslarini emas, ularning kitoblarini anglaymiz. Tejash uchun *kitob* so'zi tushirib qoldirilgan.

Metafora – o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi. **Metonimiya – o'xshashsiz** ko'chim. Unda ikki predmet o'tasida hech qanday o'xshashlik bo'lmaydi. Ular orasidagi doimiy bog'lanish tufayli birini aytganda, ikkinchisi ham anglashiladi. **Metonimiya** – narsa va hodisalarning **o'zaro bog'liqliqi** (aloqadorligi) asosida bir predmet nomi bilan ikkinchisini ifoda etishdir.

Metonimiya asosida ko'chma ma'no hosil qilish fikrimizni ixcham, lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi.

Metonimiya san'ati qo'llangan gaplar:

1. Bir kosani simirdim.
2. *Navoiyni o'qidim.*
3. Bir stakan ichdim.
4. Qishloq uyquda.

5. Bir tarelka yedim.
6. O'n (yosh)ga kirdim.
7. Yarim yillik (imtihon) topshirildi.
8. Zal oyoqqa turdi.
9. Auditoriya sukutda.
10. Qishloq qo'zg'aldi.
11. «Rossiya»ga qanday borsam bo'ladi.
12. Ichak-chavog'im tugadi, endi kalla sotaman. (Qassobning gapidan)
13. Mabodo, «Besh bolali yigitcha» kelmadimi? (Kitobxoning sotuvchiga bergen savoldan)
14. Navbatim sumka ko'targan «jinsi»dan keyin. (Xaridorning javobi)
15. Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribman. (O'quvchi ning nutqidan)
16. «95» dan bormi? (Xaridorning so'rovi)
17. Yanvarning o'n beshlarida butun qishloq to'g'on qurishga otlandi. (Oybek)
18. Eshikka kiring, aka, choy-poy ichib keting.
19. Adabiyotdan so'ng, ona tili boshladik.
20. Bu tongda shahar guvullab turardi.
21. Navoiyni sevaman.
22. Matematikaga topshiraman.
23. Ingliz tilidan bo'shsan.
24. Dasturxonga qarang.
25. Kasalning oyog'iغا o'tirdi.
26. Samovarga chiqdik.
27. Butun Hirot yig'ladi.
28. Butun *sinf* jimjit.
29. «Navbahor» g'alaba qozondi.
30. Osmon fonarini yoqdi shu onda.

3. Sinekdoxa

Sinekdoxa yunoncha so'z bo'lib, birgalikda anglash ma'nosini anglatadi, bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi.

Sinekdoxa usuli butun va qism nisbatiga asoslanadi, biror predmetning bir qismini atash orqali uni butunicha tushunish mumkin yoki aksincha:

1. Butunning nomi qismga ko'chiriladi: *Besh qo'l barobar emas (qo'l – butun, barmoq – qism)*
2. Qismning nomi butunga ko'chadi: *Tirnoqqa zor (tirnoq – qism, farzandga muhtoj ma'nosida)*

Ma'no ko'chishning bu turi ham nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Sinekdoxa usulida ma'no ko'chishiga misollar:

1. *Besh qo'l barobar emas.*
2. Sajda aylar ul zohid mehrob aro, Men qilurman sajda egma qoshima. (Mashrab)
3. Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan tuyog'imiz... faqat shul Otabekdir. (A.Qodiri)
4. Sen yetim emassan, tinchlan, *jigarim*. (G'.G'ulom)
5. Haligacha *tirnoqqa zor*.
6. Eshitgan *qulog* nima deydi?
7. Evoh, netaman, *to'qqiz og'izni* qanday boqaman?
8. Yomon adashgansan, *jigar*.
9. Olma archayotib *qo'lini* kesib oldi.
10. Urush ko'plarning *yostig'ini* quritdi.
11. *Sher yuraklar* jangda chekinmaydilar.
12. *Sichqon tish* tirjayib javob berdi.
13. *Jingalak soch* burilib qaradi.
14. Guruhimizning birlashishi uchun unga *bir bosh* kerak bo'lib qoldi.
15. *Qoshiqaro qaro ko'z*, biz tomona qiyo boq. (Qo'shiqdan)

4. Vazifadoshlik

Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi deyiladi. Kamonning

o'qi – miltiqning o'qi, odamning oyog'i – uch oyoqli kursi, ko'ylik tugmasi – eshik tugmasi.

Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi.

Yuqoridagi ikki gapda qo'llangan *chiroq* so'zining ma'nosi-ga e'tibor bersangiz, u bir xil vazifa bajaruvchi ikkita bir-biriga o'xshamaydigan narsalami ifodalayotganining guvohi bo'la-siz. Birinchisida «elektr toki orqali yorituvchi noksimon (lam-pochka) yoki tayoqsimon asbob»ni, ikkinchisida esa «kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi, asos va shisha qismlardan tashkil topgan asbob»ni bildiradi.

Bu asboblar shakliga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo'q, lekin har ikkisi yoritish vazifasini bajaradi. Ana shu vazifaviy bir xillikka ko'ra ilgari yog'ga pilik tekkizish orqali yoritiladigan shishasiz, ochiq asbob nomi keyinchalik asos qismga shisha o'rnatilgan yorit-gich asbobni, keyinroq esa elektr tokidan foydalanishga o'til-gandan so'ng lampochkalarni ham ifodalash uchun qo'llanila-di. Natijada chiroq so'zi bir-biriga o'xshamaydigan xilma-xil yorituvchi vositalarga nisbatan qo'llanila boshlandi.

Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi.

Qanot, yurak, ovoq, ko'z, bosh so'zlari orqali **ham meta-fora, ham vazifadoshlik** asosida ma'no ko'chadi.

5. Kinoya

Kinoya – so'zlarning aks ma'noda qo'llanishidir.

Masalan, *Janoblari* kelibdilar-da.

Shu «matematik»ka ishonib, imtihondan o'ta olmadim. Bu holatda ko'chma ma'nodagi so'zlar ko'pincha qo'shtimoq ichiga olinadi.

6. Tagma'no

Butun boshli gapning, hatto kichik matnning ko'chma ma'noda qo'llanishi tagma'no hisoblanadi.

Xotin: «Sizga tegguncha, alvastiga tegsam bo'lmasmidi?!»
Er: «Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan».

Quyidagi askiyada tagma'noning ajoyib namunasi berilgan:

ASKIYA

QODIRJON AKA:

– Aminbuva, ho' anavi oshpazni ko'rdingizmi, QOVOQ OSHga kerak deyapti.

AMINBUVA:

– Mulla Qodirjon, avval meva-chevalardan olsangiz-chi, darrov OSH QOVOQSIZ bo'lsin demasdan.

QODIRJON AKA:

– Bo'lmasa, yozgi mevalardan to'yib yeb oling, QOVOQ OSHSIZ ketasiz.

AMINBUVA:

– Ho, Ikromiddin, uka ho! Qodirjonning gaplarini eshityapsizmi? Ataylab shahardan kelib QOVOQ OSHSIZ ketmaylik deydilar. OSHQOVOQDAN QOVOQ OSH qilib qo'yaqoling.

QODIRJON:

– Ikromiddin, bu yoqqa qarang, bizga pishirishingiz bitta OSh-ku, QOVOQ ham solasiz-a!

IKROMIDDIN:

– Qodirjon aka, sizlardaqa aziz mehmonlarga atab har xil ovqat qilganmiz, bu sho'r OSHQOVOQ-da.

AMINBUVA:

– Mulla Ikrom, Qodirjon akadan tashvish qilmang, bu kishiga OSH QOVOQDAN olinsa bo'ldi.

QODIRJON AKA:

– Aminbuva, ajoyib xushfe'l odamsiz-da, indamay olaverasiz: OSHGA QOVOQ SOLINMAYDI deb.

AMINBUVA:

– Tirikligimda yeb olay, bir qozonni tushirsangiz-a, OSH QOVOQDAN ketadi deb.

IKROMIDDIN:

– Qo'yinglar, qovun sayliga kelgansizlar, bunaqa sovuq gapirmanglar. Qayoqdan ham tansiq ovqat qilaman dedim. Qodirjon aka, biroz u yoq, bu yoqdan gaplashib o'tiringlar, boshqa ovqat qilaman! «QOVOQSIZ!»

8-§. SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, bir xillari esa talaffuzi jihatidan o'xhash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo'la di. Ana shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Omonimlar.
2. Sinonimlar.
3. Antonimlar.
4. Paronimlar.
5. Uyadoshlar.

Omonimlar (shakldoshlar)

Omonimlar (lotincha so'zdan olingan) aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlardir.

Shakldosh so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlar ga o'xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zning bittasi o'z ma'nosini, qolganlari ko'chma ma'noni ifodalaydi: Masalan, *odamning ko'zi* – o'z ma'nosida; *derazaning ko'zi*, *tizzanining ko'zi*, *uzukning ko'zi*, *buloqning ko'zi*, *daraxtning ko'zi*, *ishning ko'zi* – ko'chma ma'noda. Demak, ko'z so'zi – ko'p ma'noli so'z. Ko'p ma'noli so'z lar qancha ma'noga ega bo'lmasisin, bu ma'nolar o'zaro

bog'langan bo'ladi. Omonimlar boshqa-boshqa so'zlar bo'lgani uchun ularning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi.

Shakldosh so'zlar shakli o'xshash ikki va undan ortiq alohida so'zlardir. Masalan,

Yoshliging g'animat, bolam, o'sib, un.

Chiqarma behuda sado hamda un.

Ko'r, quyosh tig'ida va tegirmonda

Ezilib so'ng aziz bo'ldi bug'doy – un.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim,

Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Kelur sel, goho ko'kda bo'lsa chaqmoq.

Zarar qilgay danakni tishda chaqmoq.

Yomondir ikki do'st o'rtasida

Urishtirmoq uchun bir-birin chaqmoq.

Yuqoridagi un, ot, chaqmoq so'zlari omonim so'zlardir.

Ko'p ma'noli va shakldosh so'zlarning farqi

Ko'p ma'noli so'zlar	Shakldosh so'zlar
<p>Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zni o'z va ko'chma ma'noda qo'llashdan hosil bo'ladi, ya'ni ma'nolari qanchalik ko'p bo'lmasin <u>bir so'z hisoblanadi</u>; <i>tirk mavjudotning ko'zi, derazaning ko'zi, ishning ko'zi, tizzaning ko'zi, xurjunning ko'zi, uzukning ko'zi, yog'ochning ko'zi, aqlning ko'zi.</i> Bu ko'p ma'noli so'zlar qatorida <i>tirk mavjudotning ko'zi o'z ma'nosida, qolganlari ko'chma ma'noda.</i></p> <p><u>Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning turli ma'nolaridir.</u></p>	<p>Shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlar, ya'ni <u>nechta ma'nosi bo'lsa, shuncha so'z hisoblanadi</u>. Masalan, band – omonim so'z.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Narsa, qurol-asboblarning qo'il bilan ushlanadigan qismi; sop, tutqich; dasta. <i>Choynakning bandi.</i> 2. Rasmiy hujjatlar (qaror, bayonnomalar, qonun, shartnoma va sh.k.)ning raqam yoki harf bilan bo'lib ko'rsatiladigan kichik bir qismi; modda, paragraf. <i>Qarorning beshinchini bandi.</i> 3. Ip, arqon va shu kabilaming bog'langan, tugunlangan joyi. <i>Ipning bandi. Bandni bo'shatmoq. Bandni yechmoq.</i> 4. Egallangan, ishg'ol qilingan, bo'sh emas. <i>Uy odamlar bilan band. Telefon band.</i> <p><u>Yugoridagi band so'zi to'rtta so'z hisoblanadi.</u></p>
Ko'p ma'noli so'zlar o'rtasida aloqadorlik bo'ladi	Shakldosh so'zlarning ma'nosida bir-biriga bog'liq emas
Ko'p ma'noli so'zlarning nechta ma'nosini bo'lsa ham, barchasi bir ma'nodan o'sib chiqadi	Shakldosh so'zlar turli tillardan so'z kirib kelishi, bir tildagi turli shaklning aynan to'g'ri kelib qolishi natijasida yuzaga keladi

Bitmoq so'zining shakldoshlari va turli ko'chma ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

Bitmoq so'zi omonim so'z bo'lib, 3 ta shakldoshiga ega:

(har bir rim raqami bilan boshlangan so'z **o'z ma'nosiga** ega)

I. Bitmoq – so'ngiga, oxiriga, nihoyasiga yetmoq, tamom bo'lmoq, tugamoq; to'xtamoq: *Tilak bilan bitmagan, bilim bilan bitar. Gap bitdi. Erinchoqning ishi bitmas.* (Maqol) O'ychingning o'yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitadi. (Maqol)

II. Bitmoq – o'sib-unmoq, yetishmoq: *Omad kelsa, daraxt-dan ham non bitar. Ekin bitdi.*

III. Bitmoq – yozmoq: *Yurtim, senga she'r bitdim bu kun...* (A.Oripov) *Xat bitdi. Satrlarini bitdi.*

I bitmoq so'zining ko'p (turli) ma'nolari:

(arab raqami bilan boshlangan har bir qatordagi bitmoq so'zi **ko'chma ma'nolarga** ega)

1) ish, reja, maqsad amalga oshdi, murod hosil bo'ldi: *Xayriyat, bu ish ham xamirdan qil sug'urganday jo'ngina bitdi.* («Boy ila xizmatchi»). *Ishi bitdi. Kuni bitdi. Urush bitdi.*

2) tayyor bo'lmoq (qurilayotgan, yasalayotgan narsa haqidagi): *Qurilish bitdi. Ko'priq bitdi. Mana shu kanal ham bitay deb qoldi. Buyurdim, (tillo uzuk) erta-indin bitib qolar.* (A.Qodiriy)

3) barham topmoq, yo'q bo'lmoq, yo'qolmoq; bartaraf bo'lmoq, tugamoq: *Qachon bu yovuzlar, xoinlar bitadi?!* (Oybek) *Bitsin zolim podsho!* (Oybek) *Qipchoqning eski adovatlari bitdi.* (A.Qodiriy)

4) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida ko'makchi fe'l vazifasida kelib, ish-harakatning to'la bajarilishi, tugallanishini bildiradi: *Qishloq tamom yonib bitgan.* (A.Qahhor) *Qizim, dadang, enang hasratingda kuyib bitdi.* *Bechora qiz otaga muhtoj.* *Otasiz ezilib bitmasa yaxshi edi.* (I.Rahim)

II bitmoq so'zining ko'p (turli) ma'nolari:

1) et unib, birikib, tuzalmoq, to'lishmoq yoki bekilmox: *Jarohatlarim bitdi. Sal kunda A'zamga et bitib, rangiga qon yugurdi.* (Shuhrat) *Endi jir bitdi-da!* *Bitta ko'ylak ikkita bo'ldi!* (A.Qahhor) *Izzati bitdi* (Ko'rsatilgan izzat-hurmat qadriga yetmaslik). *Qulog'i bitdi.* *Shovqindan qulog'i bitdi.* *Qulog'i tom bitdi* (Eshitmaydigan bo'lib qoldi). *Haqi bitdi* (haqi qolmadi)

III bitmoq so'zining ko'p (turli) ma'nolari:

1) muyassar, ega bo'lmoq; paydo bo'lmoq: *Mana, Xudo xohlasa, boshingga do'ppi, oyog'ingga etik, egningga chonpon, ko'ylak-ishton bitadi.* (Parda Tursun, «O'qituvchi») Aql bitdi (Aql kirdi). *Boshiga bitgan balo (Qutilish qiyin bo'lgan tashvish).* Muguz (hayvonning shohi) bitdi. Peshonaga bitgan (Taqdirda bor, taqdirda belgilab qo'yilgan)

Ko'p ma'noli so'zlar ma'nolari o'tasida aloqa uzilsa, omonimlik vujudga keladi: *kun – quyosh* (o'z ma'no), *kun – sutkaning quyosh bilan yoritiladigan qismi* (ko'chma ma'no). Ota-bobolarimiz sutkaning quyosh bilan yoritiladigan paytini – *kun*, qorong'ini *tun* deyishgan. Hozirgi o'zbek tilida *bir sutka – kun*. Demak, omonimlik vujudga keldi: *Kun – quyosh, kun – bir sutka*.

Shuningdek, tilimizda qo'shimchalar o'tasida ham shakl-doshlik munosabatlari mavjud. Masalan, -chi qo'shimchasi so'z yasovchi qo'shimcha (*ishchi, suvchi*) hamda yuklama (*senchi, ayt-chi*) ma'nolarida ishlataladi. Shunga ko'ra, omonimlar lug'aviy (leksik) omonimlar hamda affiks omonimlarga bo'linadi, shuningdek, iboralarda ham omonimlik mavjud. Bu frazeologik omonim hisoblanadi. Ko'z yummoq – o'lmoq, ko'z yummoq – e'tibor bermaslik. *Boshiga ko'tarmoq – e'zozlamoq, boshiga ko'tarmoq – to'polon qilmoq.*

Lug'aviy (leksik) omonimlar

Lug'aviy (leksik) omonimlar nutq jarayonida so'z o'yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylik san'atida ulardan o'rinni foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi.

Masalan, Abdulhay Maxsum "Navbahor" payrovi bo'yicha askiyada: «Ikkovlaring ham o'ta dangasasizlar. Yakshanba kuni olma bog'ga kirib, daraxtlarni oqlaymiz», desam, «Bizni ish kam joyga yetaklang», deysizlar. Bu o'rinda *ish kam* «uzum ko'tarib taraladigan moslama» va «*ish kam*» ma'nolarini bildirish uchun qo'llangan yoki G'ulomjon Ro'ziboyev *cho'tir* so'zining tovush tomonining bir xillidan foydalanib, ikki so'z ornida ishlataladi:

«Bir gap eshitib qoldim. Saydullaxon choyxonada nasiyaga muomala qilib, idoraga pul topshirmagan ekan, hisobchilar o'zini o'tqazib olib, «cho'turyapti» deb eshitdim. Bu o'rinda *cho'tir so'zi*: 1) *bujur*; 2) *cho't ur ma'nolarida ishlatilgan*.

Shakldosh so'zlar so'z san'atining ta'sirchan vositasidir. Bunday so'zlarni o'rinli qo'llash orqali **so'z o'yinlari, askiya, payrovlar** yaratiladi. O'zbek tilida leksik omonimlar ko'p ishlatilganligi sababli, u maxsus she'riy janr – **tuyuqqa ham asos bo'lib xizmat qiladi**.

Tuyuq janriga misol:

Tig'i ishqing yorasidur butmagan, (tuzalmagan)

Dardini har kimga aytib butmagan. (tugatmagan)

Hajr sahrosidur ohim o'tidin,

Anda gul yoxud giyohe butmagan. (unmagan, o'smagan)

(Navoiy)

Barcha tuyuqlar tajnis san'ati asosida yoziladi. Tajnis – shakldosh so'z yoki birikmalardan foydalanib badiiy san'at yaratish.

Iyhom san'ati ham omonim so'zlarqa asoslanadi:

Chin so'yla, Xitoy xo'blarig'a (go'zallariga) kim bo'lursan?

(Lutfiy)

Chin so'zi shakldosh so'z. Chin so'yla – 1) rost gapir; 2) Xitoydan so'yla

Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,

Nechun holim yamon qildi, men andin bir so'roram bor.

(Bobur).

So'roram shakldosh so'z: 1) so'rashim; 2) bo'sa.

Omonimlar bir so'z turkumida (*sir – odamning siri, sir – idishning siri*), ikki xil so'z turkumida (*qaynatma – fe'l, qaynatma – sifat*), uch yoki to'rt xil so'z turkumida (*oshiq*

– *ot* (*o'yin turi*), *oshiq* – *fe'l*, *oshiq* – *ravish*, *oshiq* – *sifat*) ham bo'lishi mumkin. Bir turkum doirasida omonimlik asosan *ot* va *fe'l*larda mavjud. **Bunday omonim so'zlar qo'shimchalar qabul qilganda ham omonimligini saqlab qolaveradi.**

Soch, o't, ot, chagmoq, un kabi so'zlarga qo'shimcha qo'shilgach, shakldoshlik *qisman yo'qoladi*. *Soch* (odamning sochi), *soch* (qushning bir turi) so'zlariga qo'shimcha qo'shilsa, omonimlik saqlab qolinishi mumkin, lekin *soch* (*fe'l* – harakat) so'ziga qo'shimcha qo'shilsa omonim so'z hisoblanmaydi.

Affiks omonimlar

Shakli bir xil, mazmun-mohiyati, bajaradigan vazifasi har xil bo'lishi *go'shimchalarning omonimligi* hisoblanadi.

Otaxon – *onaxon* so'zlaridagi -*xon* qo'shimchasi *omonim go'shimcha hisoblanmaydi*. Chunki ikki so'zda ham -*xon* qo'shimchasi – otlardagi hurmat ma'nosini bildiruvchi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha.

Otaxon – *kitobxon* so'zidagi -*xon* qo'shimchasi *omonim go'shimcha hisoblanadi*.

Otaxon so'zidagi -*xon* qo'shimchasi – lug'aviy shakl yasovchi.

Kitobxon so'zidagi -*xon* qo'shimchasi – so'z yasovchi.

Demak, omonim qo'shimcha bo'lishi uchun shakli (ko'rinishi) bir xil, bajaradigan vazifasi har xil bo'lishi kerak.

Lug'aviy (leksik) omonimlar	Affiks (grammatik) omonimlar	Frazeologik omonimlar
Soch	-in qo'shimchasi	Boshiga ko'tarmoq
1. Odamning sochi. 2. Qushning bir xil turi. 3. Harakat, sochmoq	ekin (ot yasovchi). yashirin (sifat yasovchi). oldin (ravish yasovchi). berkin (fe'l yasovchi). yuvin (nisbat qo'shimchasi)	1. E'zozlamoq. 2. To'polon qilmoq.

Sinonimlar (ma'nodoshlar)

Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlar sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) hisoblanadi.

Tilimizda bir ma'noni bir necha so'zlar yoki affiksler (qo'shimchalar) yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz, uzor, ruxsor, tal'at, chehra, yuz, bet, aft, bashara, nusxa, turq* singari so'zlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, tilimizda *tilchi – tilshunos, dardchil – dardkash, o'rinsiz – noo'rin, behafsala – hafsalasiz* kabi qo'shimchalar yordamida bir ma'noni ikki xil shaklda yuzaga chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi.

Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi.

Sinonimik qatorda bitta so'z dominanta (asosiy so'z) bo'lib, barcha (so'zlashuv, kitobiy – ilmiy, badiiy, rasmiy, publitsistik) uslublarda qo'llana oladi. Masalan, *katta, ulug', buyuk, gigant* sinonimik qatoridagi *katta* so'zi dominanta (uslubiy betaraf, neytral) so'zdir.

So'z maqomidagi sinonimlar lug'aviy (leksik) sinonimlar, qo'shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi. Lug'aviy sinonimlar garchand bir umumiy ma'noni bildirsa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobjiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Yuqorida keltilirgan sinonimlar qatorida yuz so'zi dominanta so'zdir. *Oraz, uzor, ruxsor, chehra* so'zlarida ijobjiy baho, shuningdek, badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, *bet, aft, bashara, nusxa, turq* so'zlarida salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi: *betga nisbatan aftda* salbiy baho kuchliroq, turqda esa hammasidan kuchliroqdir. Demak, bu so'zlarda salbiy baho kuchayib boradi.

Chehra, jamol so'zları asosan badiiy uslubga xoslangan; *oraz, uzor, ruxsor* so'zları esa eskirgan va ko'proq kitobiy uslub doirasida qo'llanadi.

Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosi dominantana (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko'ra neytral) sanaladi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida **«yuz» – dominanta, uslubiy betaraf, neytral so'z** sanaladi.

Sinonimlar qatori a'zolaridan nutq jarayonida o'rini foydalanish so'zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, shaxs va predmetlarning eng nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, sinonimlar gapdag'i takrorlarga yo'l qo'yaydi. O'rinsiz takror nutqqa putur yetkazadi.

Lug'aviy sinonimlar **to'liq** va **ma'noviy** sinonimlarga bo'linadi.

To'liq sinonimlar birorta ma'no qirrasi bilan farqlanmaydi. Birining o'rniga ikkinchisini qo'llash mumkin: *kosmos, fazo; omonim, shakldosh; sinonim, ma'nodosh; antonim, zid ma'noli so'zlar; paronim, talaffuzdosh*.

Ma'noviy sinonimlar esa bir umumiyligi ma'noni anglatsa ham, xususiy ma'nolariga ko'ra farqlanadi. Bu holatni quyidagi misollarda ko'rish mumkin.

Umumiy ma'no	Xususiy ma'nolar		
	Ijobiy bahoga ega	Badiiy uslubga xos	Salbiy bahoga ega
Yuz (dominantna – neytral – uslubiy betaraf so'z)	oraz, uzor, ruxsor, chehra	oraz, uzor, ruxsor	Bet (salbiy baho), aft (salbiy baho kuchli), bashara, nusxa, turq (salbiy baho juda kuchli)
So'zlash	Shivirladi, gapirdi, baqirdi, bo'kirdi	Irod etdi, bayon etdi (kitobiy uslub)	Ming'illadi, to'ng'illadi, vaysadi, javradi (salbiylik)

So'z maqomidagi sinonimlar **lug'aviy (leksik)** sinonimlar, qo'shimcha ko'rinishidagi sinonimlar **affiks sinonimlar**, iboralardagi sinonimlik **frazeologik sinonimlar** hisoblanadi.

Lug'aviy (leksik) sinonimlar	Affiks (grammatik) sinonimlar	Frazeologik sinonimlar	Shartli sinonimlar
Katta, ulug', buyuk, gigant	Gulli, guldor, sergul so'zlaridagi -li, -dor, -ser qo'shimchalari	Do'ppisini osmonga otmoq, og'zi qulog'ida, og'zining tanobi qochgan	«Nega kerak edi shu chiroy, shu o't?» (H.Olimjon). Chiroy, o't so'zlari shartli sinonim

Sinonim so'zlar o'rtasidagi ma'no qirralarini hisobga olmaslik uslubiy (so'z qo'llash bilan bog'liq) xatoga olib keladi:

1. *Buldozer ko'chamizda yiqilgan va yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo'l ochar edi.* (Yiqilmoq asosan odam va jonli narsalarga nisbatan qo'llaniladi. Bu gapda yiqilmoq o'rniga qulamoq so'zini ishlatish kerak)

2. *Cho'ponlar ozg'in qo'ylarning parvarishiga alohida e'tibor bermayotirlar.* (Odama nisbatan ozg'in so'zi qo'llaniladi. Bu gapda oriq so'zi ishlatilganda gap mazmuniga mos bo'lar edi)

3. *Tunda tashna g'o'zalarni suvga qondirib sug'orishyapti.* (Odama nisbatan tashna, jonsiz narsalarning holatiga nisbatan chanqoq so'zi ishlatiladi)

Sinonimlarning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo'lishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroni, mo'ysafid* sinonimik qatoridagi *qari* so'zi ishlatilish doirasi keng, qolganlari esa chegaralangan: *qari odam, qari ot*.

Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalashda, so'z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

AYRIM SINONIM SO'ZLARNING IZOHI

(A.Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» kitobidan olingan)

Asil

Asil (sara, sarxil, xil, mumtoz, zupta, poshshaxon). *Asil* – qimmati, fazilati va boshqa xususiyati jihatidan eng yuqori darajali, eng yaxshi. *Asil, sara, xil* shaxs yoki narsa-predmetlarga nisbatan qo'llana oladi. Lekin juda oz uchraydi. *Sarxil* faqat narsa-predmetlarga nisbatan qo'llaniladi. *Sara, sarxil* donalab sanaladigan narsa-predmetlarga nisbatan qo'llanadi. *Sarxil* asosan saralab (xillab) ajratilishi mumkin bo'lgan narsalarga nisbatan qo'llanadi va unda saralash (xillash) ottenkasi sezilib turadi. *Mumtoz* kitobi uslubga xos, shaxsga nisbatan qo'llanadi. *Poshshaxon* oddiy so'zlashuv uslubiga xos (*poshsha qiz*). *Zupta* kam qo'llanadi.

Avaylamoq

Avaylamoq (ayamoq, ehtiyyotlamoq, ehtiyyot qilmoq, ardoqlamoq, e'zozlamoq, e'zoz qilmoq, papalamoq (po'palamoq). Ehtiyyot holda tutmoq, ehtiyyot bilan munosabatda bo'lmoq. *Avaylamoq* so'zida ehtiyyotlash darjasini ayamoq, ehtiyyot qilmoq so'zlaridagi nisbatan kuchliroq. *Ardoqlamoq* oddiy so'zlashuvda kamroq uchraydi. Bu so'zda g'amxo'rlik, hurmat munosabati ham aks etadi. *E'zozlamoq, e'zoz etmoq* kitobi uslubga xos, unda g'amxo'rlik munosabati yana ham kuchliroq bo'ladi. *Papalamoq* so'zlashuv nutqiga xos, suyish munosabati aks etadi.

Ayyor

Ayyor (mug'ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog'uli, mo'ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston). Ayyor – aldab, chalg'itib, har qanday ishni o'z foydasiga hal qiladigan makr-hiylaga usta.

Ayyor, quv, mug'ombir so'zlari odamga va ayrim jonivor-larga nisbatan ham qo'llana oladi. Qolganlari esa bu ma'noda faqat odamga nisbatan qo'llanadi. *Ustomon*, *hiylagar* so'zlarining ma'nosи uning o'zagidan anglashilib turadi. *Mug'ombir* so'zida belgi darajasi ayyor so'zidagiga nisbatan biroz kuch-siz. Quv so'zida belgi darajasi kuchliroq. *Makkor*, *dog'uli*, *mo'ltoni*, *qilvir(i)* so'zlarida ham belgi darajasi kuchli. Lekin bu so'zlar nisbatan kam qo'llanadi. *Shayton*, *tulki*, *tullak*, *qirriq*, *xirpa* so'zlari «ish ko'rghan ayyor» ma'nosida qo'llanadi. *Maston* so'zi folklor asarlarida va ayrim shevalarda uchraydi.

Azob

Azob (aziyat, jabr, jafo, ozor, zahmat, alam, iztirob, uqubat, sitam). Azob – ruhiy yoki jismoniy qynoq. Aziyat asosan yozma nutqda va o'qimishli, katta yoshdagi kishilar nutqida qo'llanadi. Jabr so'zida belgi darajasi azob so'zidagiga nisbatan kuchli va bu so'z asosan «inson tomonidan bo'ladijan azob» ma'nosida qo'llanadi. Jafo mustaqil so'z holida juda kam qo'llanadi. Ko'pincha jabr so'zi bilan juft so'z holida (*jabr-jafo*) yoki *qilmoq* fe'li bilan birga qo'llanadi. Ozor so'zida belgi darajasi azob, jabr so'zlariga nisbatan kuchsizroq. Bu so'z ham mustaqil holda juda kam qo'llanadi. Iztirob asosan «ruhiy azob» ma'nosida qo'llanadi va unda belgi darajasi azob so'zidagiga nisbatan kuchliroq. Oddiy so'zlashuvda deyarli qo'llanmaydi. Uqubat, sitam so'zlari yakka holda juda kam ishlatalidi. Uqubat so'zi ko'pincha azob so'zi bilan, sitam so'zi jabr so'zi bilan juft so'z holida qo'llanadi.

Bajarmoq

Bajarmoq (ado etmoq, bitirmoq, o'rinalatmoq, do'ndirmoq, o'tamoq, bajo qilmoq). *Bajarmoq* – ish-vazifa, topshiriqni amalga oshirmoq, bajo keltirmoq.

Ado etmoq ko'proq kitobiy uslubga xos. Bitirmoq, o'rinalatmoq, do'ndirmoq, bajo qilmoq asosan «ish-vazifani yakuniga yetkazish» ma'nosida ishlatalidi. O'rinalatmoq kam qo'llanadi.

Do'ndirmoq ko'proq oddiy so'zlashuvga xos va unda belgi darajasi kuchli. *Bajo qilmoq* nisbatan eskirgan, kam qo'llanadi. *O'tamoq* «burch-vazifani ado etish» ma'nosida qo'llanadi.

Balo

Balo (usta, ustamon, bilag'on, bilarmon, chechan, epchil, chaqqon, uddaburon). *Balo* – o'rinaltib bajaradigan, mahorat va chaqqonlikka ega. *Balo* oddiy so'zlashuvga xos. U «aqliy, jismoniy ish-harakat bajarishda yuqori mahoratga egalik»ni ifodalash uchun qo'llana oladi. *Usta* aql, malaka talab etadigan harakatlarga nisbatan qo'llanadi. *Ustamon* quvlik, ayyorlik ma'nosiga ega. *Bilag'on*, *bilarmon* so'zlarining xususiyati ularning o'zagidan anglashilib turadi. *Bilarmon* salbiy bo'yoqqa ega. *Chechan*, *chaqqon*, *epchil* «tez va oson bajarish mahoratiga egalik»ni bildiradi. *Uddaburon* asosan «ish-vazifani ijro etish mahoratiga egalik»ni ifodalash uchun qo'llanadi.

Boplamoq

Boplamoq (qoyil qilmoq, qoyillatmoq, o'xshatmoq, o'rinaltimoq, kelishtirmoq, qotirmoq, do'ndirmoq, qiymoq, eshmoq, mondalamoq, yasamoq). *Boplamoq* – ijrosini orniga qo'ymoq.

Boplamoq, *qoyil qilmoq*, *qoyillatmoq*, *o'xshatmoq*, *o'rinaltimoq*, *kelishtirmoq*, *do'ndirmoq* oddiy ish-harakatlarga nisbatan ham, shuningdek, bajarilishi ustalik, mahorat talab etadigan harakatlarga nisbatan qo'llanadi va bu so'zlarda belgi darajasi ancha yuqori bo'ladi. *Kelishtirmoq* nisbatan kam qo'llanadi. *Mondalamoq* shevaga xos.

Boshliq

Boshliq (rahbar, yo'lboschi, ishboshi, boshchi, katta, kattakon, ulug', rahnamo, sardor, peshvo, sarvar, sarkarda, xo'jayin, kallampo). *Boshliq* – guruh, jamoa, xo'jalik va shu kabilarning ish-harakatida bosh bo'luvchi, mas'ul shaxs.

Boshliq «katta jamoa, xo'jalikka rahbar shaxs» ma'nosida ham, shuningdek, «uch-to'rt kishidan iborat kichik guruhning juda qisqa muddatli ishiga boshchi shaxs» ma'nosida ham qo'llana oladi. Lekin «katta xo'jalik (muassasa) ish-faoliyatining rahbari» ma'nosida ko'proq oddiy so'zlashuvga xos bo'ladi. *Rahbar* asosan «davlat idoralarining boshchilari» ma'nosida qo'llanadi. *Yo'boshchi* so'zida «boshlovchilik, yetakchilik qilish» bo'yog'i bor. *Ishboshi* nisbatan eskirgan. *Boshchi* kam qo'llanadi. *Katta, kattakon, ulug'* oddiy so'zlashuvga xos. *Rahnamo* kitobiy uslubga xos, ma'no xususiyati jihatidan *yo'boshchi* so'ziga yaqin turadi. *Peshvo, sarvar* eskirgan, kitobiy. *Sardor, sarkarda* kam darajada asosan obrazli ifodalarda qo'llanadi. *Xo'jayin* oddiy so'zlashuvga xos, biroz salbiy bo'yoqqa ega. *Kallampo* oddiy so'zlashuvga xos, kam qo'llanadi, salbiy bo'yog'i kuchli.

Jilmaymoq

Jilmaymoq (kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq). *Jilmaymoq* – ovoz chiqarmay ko'z, lab harakati bilan kulgi ifoda qilmoq, miyig'ida kulmoq.

Jilmaymoq va *iljaymoq* so'zlari stilistik jihatdan neytral hisoblanadi. *Irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq* so'zlari salbiy bo'yoqqa ega. Bu salbiy bo'yoq *irjaymoq* so'ziga nisbatan *tirjaymoq* so'zida, *tirjaymoq* so'ziga nisbatan *ishshaymoq* so'zida, *ishshaymoq* so'ziga nisbatan *irshaymoq* so'zida kuchliroq.

Juda

Juda (g'oyat, g'oyatda, bag'oyat, nihoyatda, benihoya, ashaddiy, o'taketgan, toza, rosa, xo'p (ho'b), biram, chunon, beqiyos, mislsiz, obdan, o'bdan, chandon, zap, ko'p, o'ta, uvvalo, bisyor, yomon, kamoli, kiroyi, o'lgu(n)day, o'larday, o'larcha, qattiq).

Juda – yuqori darajada, ortiq darajada ma'nosini anglatuvchi so'z. *G'oyat, g'oyatda, nihoyatda, benihoya, rosa, toza*

ma'noni yana ham kuchli bo'yoqda ifodalaydi. *Benihoya(t)* nisbatan kam qo'llanadi. *Ashaddiy*, o'taketgan so'zlari sifatiy belgiga nisbatan qo'llanadi. Bularda belgi darajasi kuchli. *Obdan*, o'bdan, rosa, chunon so'zlari asosan harakatning belgisini bildiradi va bularda harakat darajasi juda so'zidagidan pastroq bo'lishi ham mumkin. *Xo'p*, rosa, biram, zap so'zlari bu ma'noda asosan so'zlashuv uslubiga xos. O'ta so'zida belgi darajasi yana ham kuchli. Bu so'z oddiy so'zlashuvda deyarli qo'llanmaydi. *Uvvalo* faqat harakatga nisbatan qo'llanadi. Bu so'zda belgi darajasi kuchli, lekin juda kam qo'llanadi. *Bisyor* eski, kitobiy. *Shunga* ko'ra hozir yozuvda juda kam qo'llanadi. *Yomon* oddiy, jonli nutqqa xos.

Kasal

Kasal (betob, notob, bemor, nosog', xasta, og'riq). **Kasal** – organizmnning normal faoliyati buzilgan holati, sog'ning aksi.

Kasal keng tushunchaga ega. U odamga, hayvonga yoki jonivorlarga hatto jonsiz narsalarga nisbatan ham qo'llanaveradi. Bu so'z «organizm faoliyatining vaqtincha buzilgan»-ligini ifodalash uchun ham, shuningdek, «sog'ning aksi» ma'nosida ham qo'llanaveradi. *Betob*, *notob*, *bemor*, *xasta* odamga nisbatangina qo'llanadi. *Betob*, *notob* so'zlari «vaqtincha deb tasavvur qilinadigan kasal» ma'nosini bildiradi. *Notob* kam qo'llanadi. *Bemor* so'zida ijobiy munosabat ifodalanadi. Bu so'z oddiy so'zlashuvga nisbatan yozuvda ko'p qo'llanadi. *Xasta* nisbatan eskirgan. *Nosog'* juda kam qo'llanadi. *Og'riq* so'zi ham bu ma'noda kam qo'llanadi.

Tovush

Tovush, un, sado, sas, nido, sazo. Ovoz eshitish sezgisini uyg'otuvchi, eshitish a'zolari orqali qabul qilinuvchi, eshitiluvchi narsa. Ovoz asosan odam va jonli narsalar tovushi ni ifodalash uchun qo'llanadi. Tovush odam va boshqa jonli narsalar ovozini, shuningdek, jonsiz predmetlarning urilishi, ishqalanishi va boshqa holatidan paydo bo'lgan ovozni ifoda-

lash uchun ham qo'llanadi. *Un* faqat odam ovozini bildiradi va ovoz so'ziga nisbatan juda kam qo'llanaveradi. *Sado* jonli va jonsiz narsalarning tovushini bildiradi, lekin tovush so'ziga nisbatan kam qo'llanadi. *Sas* shevaga oid so'z bo'lib, badiiy adabiyotda, ayniqsa, poeziyada kishi ovozi ma'nosida qo'llanadi. *Nido* – ovoz. Kitobiy uslubda qo'llanuvchi so'z.

Ovqat

Ovqat, taom, oziq, tomoq, xo'rak, yemish, ne'mat. Ovqat – odam, hayvon, umuman, jonivorlar iste'mol qiladigan suyuq yoki quyuq yegulik. *Taom* faqat odamlar iste'mol qiladigan ovqatni ifodalash uchun qo'llanadi va ovqat so'ziga nisbatan biroz badiiy bo'yoqqa ega. *Oziq* «odam va boshqa jonivorlar, hatto o'simliklar qabul qiladigan ovqat» ma'nosini bildiradi. Ovqat va taom so'zlari asosan yeyish uchun tayyor holatdagi narsani bildirsa, oziq, umuman, ovqatlanish uchun lozim bo'lgan tayyor yoki xom holatdagi narsani bildiradi *Xo'rak* va *yemish* juda kam qo'llaniladi. *Ne'mat* badiiy uslubga xos.

Tayyor

Tayyor (muhayyo, shay, taxt, hozir). Ishlatish, foydalanish yoki boshqa narsa uchun naqd holatda. *Tayyor* kengroq tu-shunchaga ega. *Muhayyo* ko'proq yozuv uslubiga xos. *Shay* «tayyor» ma'nosini kuchli bo'yoq bilan ifodalaydi. U biror nar-saga har jihatdan mos holda tayyor ekanlikni bildiradi. *Taxt* so'zi bu ma'noda ko'proq jonli so'zlashuvda qo'llanadi va ma'noni tayyor so'ziga nisbatan biroz kuchli bo'yoq bilan ifodalaydi. *Hozir* so'zi bu ma'noda kam qo'llanadi.

Vaqt

Vaqt (payt, zamon, fursat, mahal, chog', kez, kezak, mavrid, palla, muddat, dam, on, lahza). Vaqt – yuz beradigan voqeа-hodisa va narsalarning asrlar, yillar, soatlar, daqiqalar va hokazolar bilan o'chanadigan davomiyligi.

Vaqt so'zi qolganlardan keng tushunchaga ega. *Payt, zamon, fursat, mahal, chog', kez, kezak, palla, muddat, dam, on, lahma* so'zları ma'lum chegaralangan vaqtini bildiradi. Shuning uchun bu so'zlar ifodalanayotgan vaqt chegarasini aniqlab ko'rsatuvchi so'zlar bilan birga qo'llanadi: *yoz payti, bir zamon, bir mahal, shu on, shu chog', o'sha kezda, har lahma, kuz pallasi kabi. Muddat o'lchangan, belgilangan vaqt-ni bildiradi. Zamon* biror voqeа-hodisa bilan xarakterli bo'lган vaqt oralig'ini ham bildiradi. *Lahza, on* vaqtning juda qisqa darajasini bildiradi va ko'proq kitobiy uslubga xos. *Fursat* ko'pincha ma'lum ish uchun lozim bo'lган, shu ishga belgilangan vaqt ma'nosini bildiradi.

Vatan

Vatan (mamlakat, yurt, diyor, el, mulk). *Vatan* – kishi tug'ilib o'sgan, o'zi uning fuqarosi bo'lган joy, territoriya.

Vatan so'zida fuqaro, xalq tushunchasi u mansub bo'lган joy tushunchasi bilan birlashgan, shuningdek, unda joy (hudud)ning fuqaro, xalq mansubligi, uning «yashash joy»и bo'yog'i aks etib turadi. *Mamlakat* ko'proq adabiy nutqqa xos bo'lib, unda «yashash joyi» bo'yog'i juda kuchsiz, hatto yo'q darajada bo'ladi. Bu so'z, umuman, biror xalq yoki xalqlar uchun umumiy (birlashtiruvchi) hududni bildiradi. *Yurt* ko'proq oddiy nutqqa xos va u ma'lum joy (hudud) bilan shu joyga mansub xalqni ham qo'shib ifodalay oladi. *El* nisbatan eskirgan, hozir ko'proq poetik asarlarda uchraydi. *Diyor* poetik uslubga xos. Bu so'z, umuman, ma'lum bir joy ma'nosida (ma'lum bir xalqqa mansublik tushunchasisiz) ham qo'llanadi.

Antonimlar (zid ma'noli so'zlar)

Biz o'zimizni qurshab turgan olamni sezgi a'zolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib boramiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-holatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Bizning butun bilim faoliyatimiz zidlanishlarga asoslangan desak, yanglishmaymiz. Shuning uchun zidlanishlarga bizning ajdodlarimiz Abu Nasr Forobi, Jaloliddin Rumi va boshqalar katta ahamiyat bergenlar. xususan, **Jaloliddin Rumiyning** ta'kidlashlaricha, har qanday «ashyo»ning qimmati ziddi bilan ayon bo'ladi, ziddi bo'limgan narsani ta'rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Tangri nurning oshkor bo'lishi uchun gorong'i etib yaratilgan mazkur olamni mavjud ayladi... Odam ro'parasida Iblisning, Muso qarshisida Fir'avnning, Ibrohim oldida Namrudning va Mustafo qarshisida Abu Jahlning paydo bo'lishini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Ana shunday zidlanishlar tilimizda ham o'z ifodasini topgan. Birini aytishimiz bilan uning ziddi xayolimizga keladi. Masalan, oq – qora, uzun – qisqa (*kalta*), *baland* – *past*, *dono* – *ahmoq*; -li (*suvli*), -siz (*suvsiz*) va boshqalar.

O'zaro zid ma'noli so'z va qo'shimchalarga antonimlar deyiladi. So'z maqomidagi antonimlar lug'aviy (leksik) antonimlar. qo'shimcha maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar sanaladi.

Antonimlar ko'pincha sifat so'z turkumi bilan ifodalandi, ravishlarda antonimlikni ko'proq kuzatish mumkin. Ot va fe'llarda kamroq uchraydi. Son, olmosh, yordamchi so'zlarda antonimlik yo'q:

mehnatsevar – *dangasa*, *yolg'onchi* – *rostgo'y*, *toza* – *iflos*, *qisqa* – *uzun*, *yo'g'on* – *ingichka*, *katta* – *kichik*, *ozg'in* – *semiz*, *baland* – *past*, *chiroyli* – *xunuk*, *yaxshi* – *yomon*; *kelmoq* – *ketmoq*, *ost* – *ust*, *urush* – *tinchlik*, *kulmoq* – *yig'lamoq*, *kecha* – *kunduz*, *avval* – *keyin*, *ilgari* – *hozir*, *tonggi* – *tungi*.

Antonim juftlik hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tu-shuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xusuşıyati antonimlikni vujudqa keltirmaydi. Yozdi – yozmadı so'zlari antonim emas.

Ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosи bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin: qattiq yer – yumshoq yer; qattiq (xasis) odam – saxiy odam.

Antonimlar zid, ikki qarama-qarshi, a'zodan iborat bo'ladi. Birini aytsak, ikkinchisi xayolimizga keladi. Masalan, *achchiq* deyishimiz bilan *shirin* esimizga tushadi. Zid ma'noli so'zlar birgalikda qo'llanib, yangi so'z hosil qilishi mumkin. Masalan, *yosh-u qari* – bari, *achchiq-chuchuk* – salat, *uzoq-yaqindan* – hamma yoqdan kabi.

Antonimlarning lug'aviy, affiks (grammatik), frazeologik kabi turlari mavjud:

Lug'aviy antonimlar	Affiks antonimlar	Frazeologik antonimlar
yolg'onchi – rostgo'y	tuzli – tuzsiz so'zlaridagi -li va -siz	do'ppisini osmonga otdi – tepa sochi tikka bo'ldi

Nutqimizda lug'aviy (leksik) antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'at tazod deyiladi.

Menga nomehribon yor o'zgalarga mehribon emish,
Mening jonim olib, ag'yorga oromijon emish. (Navoiy)

Rahm qilg'il bandaq'a, ey shoh, ul tengri uchun
Kim etar bizni gado ul sizni sulton aylagan. (Lutfiy)

Qarosi ko'zlarning ogi birla
Ajab kufredur, imon birla hamroh. (Atoiy)

Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,
Firogi shiddatinda yo'qsa jon bermog'liq osondur.

(Bobur)

Antonimlarni to'g'ri qo'llay olmaslik qo'pol uslubiy xatoga olib keladi: Choyxona mudiri Yusufjon Nozimov ko'rinishidan turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o'xshaydi. (Gazetadan). (Issiq so'zining antonimi sovuq, achchiq so'zining antonimi chuchuk hisoblanadi)

Uyadosh so'zlar

Bir mazmuniy uyaga (guruhg'a) mansub bo'lgan so'zlar uyadosh so'zlar deyiladi.

Tilimizdag'i barcha so'zlar ongimizda ma'lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so'zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. Uyadosh so'zlarni, ya'ni bir-biriga mutanosib so'zlarni qo'llash orqali adabiyotda tanosub san'ati hosil qilinadi.

*Sen husn ila boysan, senga chun **farz** durur **haj**.
Qil **tengri** uchun **Ka'ba** ko'nglumni **ziyorat**. (Lutfiy)*

Baytda haj voqeasi bilan aloqador tushunchalarni bildiruvchi **haj**, **farz**, **tengri**, **Ka'ba**, **ziyorat** kabi uyadosh so'zlarning bir o'rinda keltirilishi shoirga oshiq va mahbuba munosabatlarini ta'sirchan ifodalashga yordam bergen.

Paronimlar (talaffuzdosh so'zlar)

Faqat bir tovush bilan farqlanuvchi, talaffuzi bir-biriga yaqin so'zlar **paronimlar** deyiladi. Talaffuzi yaqin bo'lganligi uchun bunday so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'yish ehtimoli bor. Nutqingizni aniq, ravon bo'lishini istasangiz, ana shunday xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qiling.

Paronimlarni noto'g'ri qo'llash natijasida uslubiy jihatdan g'alizliklar vujudga keladi:

1. Chanoqlarda lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi (tovlanaadi).
2. Quyosh hamal burchiga o'tdi (burj).
3. Yaxshiga yondosh, yomondan qoch (yondash).
4. Samarqand bilan Buxoro yondosh (yondosh).

Eslatma: ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, antonimlar bir xil so'z turkumiga oid bo'ladi. Omonimlar, paronimlar bir so'z turkumi doirasida ham, turli so'z turkumlariga ham oid bo'lishi mumkin.

1. Abzal – ot-ulovni egarlash yoki aravaga qo'shish uchun zarur asboblarning jami. Afzal – yaxshi, a'lo, ortiq so'zlarining ma'nodoshi.
2. Daho – kuchli zehn va iste'dod egasi. Daha – shaharning ma'muriy bo'linishi.
3. Amr – buyruq, farmon. Amir – o'tmishdagi davlat rahbari.

Variantdosh so'zlar

Variantdosh so'zlar leksik dubletlar deb ham yuritiladi. Bunday so'zlar ikki yoki bir necha xil yozilishga ega. Hammasi ham imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan hisoblanadi: *kaptar – kabutar, nevara – nabira* kabi

Variantdosh so'zlar sinonim va paronimlardan farqlanadi.

So'z ma'nosining darajalanishi

So'zlarning ma'no guruhlari tarkibida biror-bir belgi boshqasiga nisbatan kuchli yoki kuchsizroq ifodalanishi mumkin.

- a) yosh belgisiga ko'ra: *qiz – juvon – ayol*;
- b) rang belgisiga ko'ra: *qizil – qizg'ish – qip-qizil*;
- c) harakat belgisiga ko'ra: *yurmoq – chopmoq – yugurmoq – yelmoq*.

7-MAVZU

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING (LUG'ATINING) TARKIBI

1-§. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING RIVOJLANISHI

Tildagi o'zgarishlar tilning lug'at jamg'armasida ko'proq namoyon bo'ladi, chunki xalqimiz tarixida ro'y bergan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar tufayli tilimizga yangi so'zlar kirib keladi, ayrim so'zlar iste'moldan chiqib ketadi. Masalan, eski o'zbek tiliga xos cherik (askar), o'ko'sh (ko'p), talim (bir qancha) singari so'zlar bugungi kunda qo'llanilmaydi.

Ular o'zbek tili leksikasining eskirgan qatlamini tashkil qiladi. Ularga nisbatan eskirgan so'zlar yoki arxaizmlar va istorizmlar atamasi ishlatiladi.

Bunga zid o'laroq, *konsalting*, *audit*, *sammit* singari so'zlar esa tilimizga endigina kirib kelyapti. Ular yangi paydo bo'lgan so'zlar, ya'ni neologizmlar sanaladi.

Sobiq sho'rolar davrida siyosiy byuro, pioner, komsomol singari so'z va birikmalar faol qo'llanilgan bo'lsa, mustaqillik sharoitida bunday so'zlarni ifodalaydigan tushunchalarga hayotda o'rinn qolmadidi. Shuning uchun ular iste'moldan chiqib ketdi. Hozirgi kunda yangicha davlat va xo'jalik boshqaruviga, bozor iqtisodiyotiga doir bir qator yangi so'zlar paydo bo'ldi. Ayrim eski o'zbek tilida qo'llanilgan so'zlar yangitdan olib kirildi. Masalan, *hokimiyat*, *hokimlik*, *vazir*, *vazirlik*, *devonxona* va boshqalar.

Shunday qilib, o'zbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz bo'lib qolgan tushunchalarni bildiruvchi so'zlarning iste'moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning esa kirib kelishi hisobiga doimo o'zgarib, rivojlanib, boyib boradi.

2-\$. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING (LUG'ATINING) BOYISH MANBALARI

O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) o'z ichki imkoniyatlari asosida; 2) boshqa tillardan so'z olish asosida. Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar sanaladi.

1. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari (ichki manba).

O'zbek tili leksikasining birinchi yo'l bilan boyib borish imkoniyatlari juda kengdir. Masalan,

1) ilgari qo'llanilib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi;

2) yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash: *uyali* (*telefon*), *omonatchi*, *pudratchi*, *bojxona*, *auditchi* (*auditor*), *dizaynchi* (*dizayner*) va boshqalar;

3) dialektal (shevaga xos) so'zlarni faollashtirish: *mengzamoq* (*Xorazm*) «*o'xshatmoq*», «*tenglashtirmoq*», «*qiyoslamoq*» ma'nosida; *oyi so'zi ona so'zi o'rniда*.

2. Boshqa tillardan so'z olish (tashqi manba).

O'zbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo'q. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'limgandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Boboramiz Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiylar ham shunga da'vat qilganlar.

Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'zlar yangi tushunchalar bilan birqalikda kirib keldi. Masalan, *monitoring, diler, skaner* kabi.

Bularning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib, boyitmoqda.

1. Tojik tilida

chorpoya	so'ri
olov	o't
chopon	to'n
kissa	cho'ntak
dasta	sop
buqa	novvos
jilt	muqova
oftob	quyosh
osmon	ko'k

2. O'zbek tilida

Tojik tilidan so'z o'tish natijasida qo'shma va juft so'zlar ham paydo bo'lgan: *bosh* (*pana*), *qon* (*xo'r*), *qo'sh* (*nay*), *shirin* (*so'z*), *yalang* (*bosh*), *qahr-g'azab*, *to'y-tomosha*, *sog'-salomat*, *achchiq-chuchuk*.

O'zbek tilining Jug'aviy qatlamlari

Lug'aviy qatlamlar	Qatlamga oid so'zlar guruhi	O'zlashish usuli	Misollar
I.O'z qatlamlar	Umum-turkiy so'zlar	Qadimdan ishlatalib kelinayotgan bo'lib, asosan bir va ikki bo'g'inli tub so'zlardan iborat	<i>bosh</i> , <i>qosh</i> , <i>qo'l</i> , <i>yer</i> , <i>bur</i> , <i>ikki</i> , <i>uch</i> , <i>bobo</i> , <i>ona</i> , <i>bola</i> , <i>qora</i> , <i>burun</i> , <i>etak</i> , <i>bo'l</i> , <i>ol</i> , <i>kel</i> , <i>ko'k</i>
	O'zbek-cha so'zlar	O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan so'zlardir. <u>Olinma so'zlarga o'zbek tiliga xos go'shimchalar qo'shib yasalqan so'zlar ham o'zbekcha so'zdir.</u> O'zbekcha so'zlar <u>f</u> , <u>v</u> , <u>h</u> tovushlari bilan boshlanmaydi va ularda <u>f</u> , <u>h</u> , <u>i</u> (sirg'aluvchi)	<i>adash</i> , <i>ayovsiz</i> , <i>bari</i> , <i>bedana</i> , <i>buyurtma</i> , <i>dala</i> , <i>durkun</i> , <i>narsa</i> , <i>ovsar</i> , <i>oldin</i> , <i>olomon</i> , <i>paxta</i> , <i>pichan</i> , <i>sanchiq</i> , <i>tancha</i> , <i>ishchan</i> , <i>undalma</i> , <i>yozuvchi</i> , <i>yoqilg'i</i> , <i>gulchilik</i> , <i>purkagich</i> , <i>tennischi</i> , <i>asfaltlamoq</i>

		tovushlari, <u>go'sh unli</u> va unlidan keyin keluvchi <u>tutuq belgişi</u> qatnashmaydi	
II.O'z-lashgan qatlam	Forscha-tojikcha so'zlar	Fors-tojik tilidan so'zlar tovush o'zgarishlarisiz olingan. Ko'pchiligi ijtimoiy sohaga tegishli. So'z o'rtasi va oxirida <u>gator undoshlar</u> keladi; tarkibida <i>no-</i> , <i>ba-</i> , <i>be-</i> , <i>ham-</i> , <i>ser-</i> kabi old qo'shimchalari bo'ladi	<i>andisha, barg, bahor, daraxt, farzand, dutor, daromad, ozoda, kabutar, noma'lum, bedarvoza, hamkasb, zebo</i>
II.O'z-lashgan qatlam	Arabcha so'zlar	Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'pchiligi fan va dinga oid bo'lib, asosiy qismi fors tili orqali kirgan. A, i, u unlilarining qisqa va cho'ziq, t, s, z, x, h tovushlarining bir necha variantlari o'zbek tiliga bir tovush sifatida moslashtirib olingan	<i>adabiyot, kitob, oila, davlat, mehnat, mutolaa, qassob, muqaddas, san'at, inshoot, taassub, a'lo, ma'no, ma'sum, ma'yus, doim, saodat, muallim, Ra'no, Ikrom, Akmal, Anvar, Ma'ruf, Laylo</i>
	Ruscha-baynal-milal so'zlar	Rus tili va u orqali g'arb tillaridan o'zlashgan so'zlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid. Bu so'zlar ikki usulda: aynan va kalkalab olish bilan o'zlashgan. Bunday so'zlar o'rtasida undoshlar yonma-yon keladi, so'z oxirida qo'sh undoshlar, qorishiq tovushlar (st, dj, shch, ya, yu, yo), old qo'shimchalar	<i>benzin, vokzal, stol, ruchka, deputat, drap, tort, dialekt, opera, sirk, silindr, agregat, avtoklub, diagramma, komissiya, budjet, samolyot, delegatsiya, sentabr, gipsakardon, konstitutsiya, metall, vakuum, interaktiv</i>

		ishlatiladi. <i>Kalkalash</i> so'zining ma'nosi – so'zma-so'z tarjima qilish: « <i>ishchi kuchi</i> » « <i>rabochnaya sila</i> » iborasining kalkasidir	
--	--	--	--

3-§. QO'LLANISH DOIRASI CHEGARALANMAGAN VA CHEGARALANGAN SO'ZLAR

So'zlar qo'llanilish doirasiga ko'ra chegaralanmagan va chegaralangan so'zlarga bo'linadi.

Umumxalq tilida keng qo'llaniladigan va shu tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lgan so'zlarga qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar deyiladi. Ular neytral leksika atamasi bilan ham yuritiladi. Masalan, *non*, *un*, *bug'doy*, *qalam*, *daftар*, *qor*, *bulut* va boshqalar.

Faqat ma'lum sotsial guruh hamda ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, umumxalq tiliga xos bo'lмаган so'zlar chegaralangan so'zlar sanaladi.

Bunday so'zlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Hududiy chegaralangan so'zlar (dialektizmlar).

2. Sotsial chegaralangan so'zlar.

Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib boshqa hududda yashovchi o'zbek tili vakillari uchun xos bo'lмаган so'zlar hududiy chegaralangan (shevaga xos) so'zlar yoki dialektizmlar deyiladi. Masalan, *eshik* «*hovli*», «*uy*» (Andijon), *shoti* «*narvon*» (Andijon, Farg'ona, Namangan), *takya* «*do'ppi*» (Xorazm), *patinjon* «*pomidor*» (Namangan), *boyinjon* «*baqlajon*» (Surxondaryo) va boshqalar.

Ma'lum ijtimoiy guruh doirasidagina ishlatiladigan so'zlarga sotsial chegaralangan so'zlar deyiladi. Masalan, «*otarchi*»lar doirasida qo'llaniladigan so'zlar: *yakan* – «*pul*», *danap* – «*qiz bola*»; temiryo'l kuzatuvchilari doirasida qo'llaniladigan so'zlar: *qaychi* – «*taftishchi*», *kolxozi* – «*chiptasiz yo'lovchi*». Bunday so'zlar argolar deb yuritiladi.

Ayrim argolar umumtil leksikasidan olinadi. Bunday vaqt-da bu so'zlar umumtildagiga nisbatan boshqa ma'noda qo'llaniladi. Masalan, *kolxozi* umumtil leksikasida eskiringan bo'lib, jamoa xo'jaligini ifodalagan bo'lsa, temiryo'l kuzatuvchilar tilida boshqa ma'noni ifodalaydi.

Shuningdek, ayrim tabaqqa vakillari tilida faol ishlatalidigan leksemalar ham uchrab turadi, bular jargonlar deyiladi. Masalan, *olampanoh, volidayi muhtarama, padari buzrukvor, manzirat qilmoq* va hokazo.

Bunday so'zlardan tashqari, tilimizda kam qo'llanadigan, ko'pincha ayrim sohalarning mutaxassislariga tanish bo'lgan so'zlar mavjud. Qo'llanish doirasiga nisbatan cheklangan bo'lib, ayrim sohalarda, mutaxassislarning nutqida, ilmiy asarlarda, kasb-korda qo'llanadigan so'zlar tor qo'llanishli so'zlar (nofaol lug'atga mansub so'zlar) yoki xususiy so'zlardir. Ularning **atamalar, soha so'zları, sheva so'zları, tarixiy so'zlar** kabi bir necha turlari bor.

Qo'llanish doirasasi chegaralangan so'zlar (Nofaol lug'atga mansub so'zlar)

So'z guruhlari	Izohi	Misollar
Ilmiy atamalar	Ilm-fan doirasida qo'llanadigan bir ma'noli so'zlar	Zoologiya fani atamalari: <i>batraxologiya, baqtrian, baribal, bankiv, garpiya, gaur</i> , ona tili faniga doir atamalar: <i>affiksoid, akkomodatsiya, allomorfa, assonans, eponim, gallitsizm, kriptografiya, kriptologiya, omofon, omograf, paleografiya, replika...</i>
Kasb-hunarga oid so'zlar	Kasb-hunar sohasida ishlatalidigan so'zlar	andoza, angishvona, qatim, bichiq, adip

Shevaga xos so'zlar	Muayyan hududda qo'llanilib, shu yerda yashovchilarga tushunarli bo'lgan so'zlar	<i>mo'rcha – chumoli; uchak – tom; inak, uy – sigir, gavora – beshik; patinjon – pomidor; boyinjon – baqlajon, buvak – chaqaloq</i>
Jargon so'zlar	Fransuzchada <i>jargon</i> «buzilgan til» ma'nosini bildirib, kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida ishlatadigan so'zları	<i>g'isht</i> (xunuk), <i>sindirmoq</i> (lol qilmoq), <i>krutoy</i> (ketvorgan), <i>dum</i> (qoloq), <i>uxlatib ketmoq</i> (aldamoq)
Argo so'zlar	Fransuzcha <i>argot</i> «lahja» ma'nosini bildirib, ayrim professional yoki ijtimoiy guruhning o'ziga xos tili	<i>loy, yakan – pul, bedana – to'pponcha, timsoh – qaychi, maymun – oyna, zamri – qimirlama, atamri – ishingni davom ettir, shuxer – qoch...</i>
Vulgarizmlar	Tilda mavjud bo'lgan so'kish va qarg'ish so'zları	<i>yer yutkur, oqpadar...</i>
Varvarizmlar	Tilda o'rinsiz ishlataladigan chet so'zları	<i>uspet qilolmadim, znachit, tak, mamasha, papasha...</i>
Eskirgan so'zlar: <u>tarixiy</u> va arxaik	Tilimizning ma'lum davrida qo'llanilib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so'zlar (badiiy asarlarda qo'llaniladi)	<i>sarafov – mag'rur, yuksak, andalib – bulbul...</i>

Nutqda qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar ham muhim uslubiy vazifalar bajaradi. Arxaizmlardan badiiy yoki om-mabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy so'zlardan o'tmish voqeligini ifodalash maqsadida foydalaniladi.

4-§. SO'ZLARNING HISSIY-TA'SIRIY JIHATDAN TURLARI

Bo'yoqdar	Bo'yoqsiz	
Ijobiy bo'yoqdar	Salbiy bo'yoqdar	
Narsa, belgi yoki hodisaga bo'lgan ijobiy (erkalash, suyish, tantanavorlik) munosabatni ifodalaydigan so'zlar: <i>chehra,</i> <i>kelishgan,</i> <i>ko'rkan, barkamol,</i> <i>jilmaymoq,</i> <i>qoyillatmoq</i>	Narsa, belgi yoki hodisaga bo'lgan mensimaslik, nafrat, kinoya kabi salbiy munosabatni ifodalaydigan so'zlar: <i>bashara,</i> <i>beo'xshov, xunuk,</i> <i>xo'mraymoq,</i> <i>rasvo qilmoq,</i> <i>satang, qiltiriq,</i> <i>naynov</i>	Narsa, belgi yoki hodisaning o'zini ifodalab, bularga nisbatan so'zlovchining hech qanday hissiy- ta'siriy munosabatini bildirmaydigan so'zlar: <i>yuz, katta,</i> <i>qaysar, osmon,</i> <i>kulmoq, toza, odam,</i> <i>xizmat qilmoq,</i> <i>uchrashmoq</i>

5-§. ATAMA VA ATAMASHUNOSLIK

Ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llaniigan so'zlarga atama deyiladi.

Atamalar qo'llanilishiga kora ilmiy atamalar va kasbiy atamalarga bo'linadi.

Ma'lum bir fan doirasida qo'llaniladigan atamalar ilmiy atamalar hisoblanadi.

Atamalar ikki xil yo'l bilan hosil bo'ladi.

1. Atamalar umumxalq tilidagi so'zlardan ma'nosini maxsuslashtirish orqali hosil qilinadi. Natiжada bunday so'zlar umumxalq tilida bir ma'noni, fan tilida esa boshqa ma'noni bildiradi. *Masalan, ot, ildiz, hol, fe'l, olmosh.*

2. Boshqa tillardan ilmiy tushuncha bilan atama olish orqali. Bular faqat shu fan sohasidagina ishlatalib, umumxalq tilida ishlatilmaydi. *Masalan, kasr, musbat, manfiy, omonim, sinonim, antonim.*

Kimyo fanidagi suv so'zining ma'nosini umumxalq tilida qo'llaniladigan suv so'zining ma'nosidan farq qiladi. Xuddi

shunday holatni *temir*, *oltingugurt*, *oltin* singari so'zlarda ham kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, turli kasb-hunar tarmoqlarida ham umumxalq tilidan ma'nosi chegaralab olingan so'zlar qo'llaniladi. Masalan, chevarchilik sohasidagi suv so'zining ma'nosi umumxalq tilidagi suv so'zining ma'nosidan tamomila farq qiladi. Shuningdek, duradgorlik sohasida ishlataliladigan *qosh* so'zining ma'nosi umumxalq tilidagi *qosh* so'zining ma'nosidan yanada boshqacharoq. Atamalar o'zbek tilining ichki imkoniyatlari nechida hosil qilinishi bilan birga, boshqa tillardan ham tayyor holda olinadi. Masalan, *menejment*, *konsalting* kabi.

Atamalarni tartibga solish har bir tilda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning maxsus bo'limi borki, bunday bo'lim atamashunoslik (*terminologiya*) deb yuritiladi.

Atamashunoslikning o'rganish birligi atamalar (terminlar)dir.

Har bir fan, kasb-hunar tarmog'i atamalarsiz ish ko'ra olmaydi. Shuning uchun atamashunoslik muammolari faqat tilshunoslikningina muammosi bo'lib qolmay, u barcha fan va kasb-hunarning ham asosiy masalalaridandir. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi qoshida barcha fan, kasb-hunar sohalarida atamalami tartibga solish muammosi bilan shug'ullanuvchi atamashunoslik qo'mitasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Atamalarni mumkin qadar milliyashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish (*kichik korxona*, *jamoa xo'jaligi*, *tadbirkor*, *qo'shma korxona* kabi), shu bilan birga, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tilidan kirib kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish (*kompyuter*, *fermer*, *dizayn*) hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili sanaladi. Shuning uchun ham xalq o'ttasida keng iste'molda bo'lgan radio (ovoznigor emas), aeroport (tayvoragoh emas), institut (oliyqoh emas), avtobus (ko'pkursi emas), telefon (durovoz emas), samolyot (uchqoq emas) kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi.

Shuningdek, iqtisodiy hayotimizda mustaqillik sharoitida buyuk burilishlar bo'lganligi sababli, ana shu reallikni ifodalovchi qator chet tilidan kirgan atamalar tayyor holda qabul qilindi: *birja, diler, aksiya, audit, auditor* kabi. Ana shu yo'llar bilan atamalar izga solinmoqda.

Istagan o'zbek tilida so'zlashuvchilardan *ildiz* nima deb so'rasangiz, o'simlikning ozuqa bilan ta'minlab turadigan qismi deb javob beradi.

Lekin matematikaga daxldor kishilar bu savolga ildiz ishorasi, matematik amallardan biri ekanligini aytadi.

Ko'rindiki, bir so'z umumxalq tilida bir ma'noni, ma'lum ixtisoslik sohasida esa boshqa ma'noni ifodalaydi yoki *qosh so'zi* umumxalq tilida «odamning yuz qismida ko'z kosasidan tepada yoysimon shaklda o'sib chiqqan yung» hamda «yon» (qoshimda o'tiribdi) ma'nolarini bildirsa, duradgorlikda boshqa ma'noni ifodalaydi.

Muayyan fan tarmoqlari, kasb-hunar sohalarida ma'lum tushunchalarni aniq ifodalash uchun umumxalq tilida ishlatalayotgan so'zlardan ma'nosini maxsuslashtirish yo'li bilan foydalilaniladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda matematik tushuncha uchun umumxalq tilidan *ildiz* so'zining ma'nosini maxsuslashtirish yo'li bilan olingan. Agar umumxalq tilida ana shunday so'zlarni topish imkoniyati bo'lmasa, u vaqtida boshqa tillardan tayyor holda olinadi. Masalan, *fonema, valentlik, element, sinus, kosinus* va boshqalar.

Ma'lum fan yoki kasb-hunar sohasidagi muayyan bir tushunchani aniq ifodalash uchun ma'nosini maxsuslashtirilgan so'z yoki so'z birikmalari **atama (termin)** hisoblanadi.

Atamashunoslik muammolari

Har qanday fan sohalarining rivojida shu fanga doir atamalarni izga solish katta ahamiyatga ega.

Istiqlolga erishgunga qadar o'zbek tilidagi ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi atamalarning rivojiga e'tibor berilmadi. Natijada atamalarning ko'pchiligi rus tilida qanday bo'lsa, shundayligicha olindi. Masalan, *spravka, doklad, kanselyariya* va boshqalar.

Mustaqillik sharoitida atamalarni izga solish eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Atamalarni tartibga solish harakati mustaqillikning ilk davrlarida turli yo'sinda olib borildi: a) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o'rniiga arabfors tilidan atamalar tanlash: *aeroport* o'rniiga *tayyoragoh; samolyot* o'rniiga *tayyora; institut* o'rniiga *oliygoh, rayon* o'rniiga *nobiya, radio* o'rniiga *ovoznigor, telefon* o'rniiga *durovoz* kabilar; b) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalar o'rniiga o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini qidirib, o'zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobili bo'lmasa, boshqa tillardan olingen atamalarni o'zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirib qo'llash. Masalan, *aksiya – hissa, aksioner – hissador, kanselyariya – devonxona, pechat – muhr, gimn – madhiya, tamojnya – bojxona, bank – banka, samolyot – samolyot, vertolyot – vertolyot, raketa – raketa, tank – tank, telefon – telefon, kompyuter – kompyuter* kabi. Atamalarni izga solishning keyingi yo'li istiqbolli yo'l ekanligi hammaga ayon bo'ldi, chunki boshqa tillardan atama qabul qilmaydigan birorta ham til yo'q. Masalan, *telefon, kompyuter* atamalari dunyoning hamma tillariga kirib borgan.

Bugungi kunda *tayyora, tayyoragoh, oliygoh, nobiya, ovoznigor, durovoz* so'zлari atama sifatida qo'llanilmaydi.

Hozirgi kunimizda o'zbek tili *birja, dizayn, lizing, marketing, menejment, monitoring, audit* singari yuzlab boshqa tillardan olingen atamalar hisobiga boyib bormoqda.

6-§. SHEVAGA XOS SO'ZLAR

Uy (sigir), gavora (beshik), mayak (tuxum), huvnon (xonim yoki o'rama manti) so'zлari shevaga xos so'zlardir.

Bir tilning faqat ma'lum hududiga xos bo'lib, boshqa joylarda o'zgacha nom bilan yuritiladigan so'zlar shevaga xos so'zlar sanaladi. Bu so'zlardan littasi umumxalq tili bo'lgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu so'z adabiy til uchun me'yor sanaladi.

Masalan, do'ppi so'zi – adabiy me'yор, kallapo'sh, qalpoq, takya so'zлari esa shevaga xos so'zlardir.

Xorazm shevasida: qarindja – chumoli; yumirta, moyak – tuxum; uchak – tom; ay – oy; go’rmak – ko’rmoq; galdi – keldi; yop – kanal; gashir – sabzi; o’jak – buzoq; taxya – do’ppi; secha – chumchuq; taka – yostiq; hovva – ha.

Buxoroda shevasida: inak – sigir; mo’rcha – chumoli; kallapo’sh – do’ppi; nana – ona.

Surxondaryo shevasida: jorub – supurgi; boyinjon – baqlajon; mayda – kichkina; hayla – ana.

Namangan shevasida: shoti – narvon; aba – ona; acha – buvi; opodda – bobo; kelutti – kelyapti; patinjon – pomidor; ho’pitamiz – cho’milamiz; paqir – chelak; buvak – chaqaloq.

Shevaga oid birliklar adabiy til me’yorlaridan tashqarida, ular milliy tilga xos so’zlar sanaladi. Shuning uchun bunday birliklar ilmiy, rasmiy va publisistik uslublarda qo’llanmaydi.

Ammo ular oddiy (adabiy emas) so’zlashuv va badiiy uslubda muayyan bir me’yorda ishlataladi. Badiiy uslubda qo’llangan shevaga oid birliklar yozuvchining uslubiy-estetik maqsadiga xizmat qiladi. Xususan, badiiy asarda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta’kidlash, mahalliy koloritni yaratish, hayotning realistik tasvirini chizishga yordam beradi.

Shuningdek, shevadagi so’z va adabiy tildagi so’z ifodalagan tushunchalarda ayrim nozik farqlar mavjud bo’lganda ham yozuvchi shevadagi so’zni afzal ko’rishi mumkin. Masalan, hassos so’z ustasi Abdulla Qahhor bir qissasini «Sinchalak» deb sheva so’zi bilan nomlagan, adabiy tilda bu so’zning muqobili «chittak»dir. Lekin «chittak» so’zida qushning qo’nimsizligiga ishora bor, «sinchalak»da esa uning nozikligi (*sinchaloq* – *jimjiloq* so’zi bilan aloqador) ta’kidi mavjud, noziklik, albatta, ijobiy sifat. Shuning uchun yozuvchi alohida mehr bilan tasvirlagan qahramoniga nisbatan sheva so’zini ma’qul ko’rgan.

7-§. ESKIRGAN SO’ZLAR

Tilimizning ma’lum davrida qo’llanilib, hozirgi kunda foydalanylmaydigan so’zlarga **eskirgan so’zlar** deyiladi.

So’zlarning eskirishi ikki xil yo’l bilan amalga oshadi.

1. Tarixiy so'zlar – hozirda mavjud bo'limgan narsa-hodisalarning iste'moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir, bunda so'z o'zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *qozi, mirshab, amin, mingboshi, xon, ellikboshi, kanizak, omoch, dodhoh, mumsik, xalfa, mo'ndi...*

2. Arxaik so'zlar – hozirda mavjud bo'lgan narsa-hodisalar-ning eskirib qolgan atamalaridir. Bunda so'z eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so'z bilan nomlanadi: *rayon – tuman, oblast – viloyat, andalib – bulbul, ulus – xalq, bitik – yozuv...*

So'zlar eskirgani kabi qo'shimchalar ham eskirishi mumkin. Masalan, qadimgi o'zbek tilida tushum kelishigining -(i)g, -(i)g'shakli, jo'nalish kelishigining -ra/ru kabi shakkiali mavjud bo'lgan, shuningdek, -(i)n qo'shimchali **yosita kelishigi** ham bo'lgan: ***eligin tutdi – qo'li bilan ushladi.***

Eskirgan so'zlar ham badliy va publitsistik uslublarda juda katta uslubiy qimmatga ega. Eskirgan so'zlarning ikki turi mavjudligini bilamiz: arxaik so'zlar (*dudoq – hozirgi muqobi lab; meng – hozirgi muqobili xol; tilmoch – hozirgi muqobili tarjimon kabi*) va tarixiy so'zlar (*yasovul, bek, xon, qozi, cho'ri kabi*). Tarixiy so'zlar tarix mavzulari yoritilgan ilmiy va badiiy matnlarda o'tmishni real tasvirlash maqsadi bilan qo'llanadi. Arxaik so'zlar matnga tarixiy kolorit berish bilan birga zamonaviy mavzular yoritilgan badiiy va publitsistik asarlarda ko'tarinkilik, tantanavorlik ifodasiga xizmat qiladi.

8-Ş. YANGI SO'ZLAR

Hozirgi kunda yangilik belgisini saqlab turgan so'zlarga **yangi so'zlar** deyiladi: *maketing, birja, internet...*

9-Ş. OLINMA SO'ZLAR

Bir tildan boshqa tilga kirib, o'zlashib qolgan so'zlar **olinma so'zlar** deb ataladi.

Masalan, *avtobus, tramvay, radio, trolleybus, televizor, institut, kollej, litsey, gimnaziya* kabi so'zlar **olinma so'zlardir.**

So'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'zlashishi davlatlar o'r-tasidagi siyosiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa aloqalar asosida yuz beradi.

10-§. EVFEMIZMLAR

Ba'zan biron-bir tushunchani o'z nomi bilan emas, shunga mos keladigan boshqa so'zlar yoki iboralar bilan ifodalash talab qilinadi. Bunda muayyan millatning urf-odatlari shunday qilishga undaydi. Masalan, *o'lmoq so'zining ma'nosi vafot etmoq, narigi dunyoga ketmoq, ko'z yummoq, bandalikni bajo keltirmoq, qazo qilmoq, joni uzilmoq, jon bermoq, olamdan o'tmoq, mangulik uyqusiga ketmoq, omonatini topshirmoq* kabi bir qancha iboralar bilan beriladi.

Demak, aytilishi noqulay bo'lgan so'zlar o'mida qo'llangan silliq, yumshoq so'zlar **evfemizmlar** deb yuritiladi.

11-§. IDIOMA

Ta'riflar, misollar	Atamalar
Shaklan mantiqqa zid bo'lib, boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydigan so'z va iboralar...	Idioma
Mazmuni matndan anglashilib turadigan idiomalar...	Leksik idioma
Masalan, <i>Majlisda uni rosa terlatishdi</i>	
<i>Latta, tulki...</i>	Leksik idioma
<i>Oyog'ini qo'lga olmoq, ammamning buzog'i...</i>	Frazeologik idioma
Shaxs, narsa-buyum, voqeа-hodisalarni bo'rttirib ifodalash...	Mubolag'a (giperbola)

12-§. TASVIRIY IFODA

Biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o'x-shatish orqali tasvirlab ifodalash **tasviriy ifoda** deyiladi.

Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning **ikkinchi nomi** hisoblanadi. Masalan, o'rmon podshosi – *sher, qanotli do'st-*

lar – qushlar, samo lochinlari – fazogirlar, dala malikasi – makkajo'xori, mo'yqalam sohiblari – rassomlar.

Tasviriy ifodalardagi bitta so'z har doim o'z ma'nosida bo'ladi, shu bilan ular iboralardan farq qiladi. Tasviriy ifodalar ham omonimlik, sinonimlik xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Omonim tasviriy ifodalar:

aql gimnastikasi – 1) matematika; 2) shaxmat; qora oltin – 1) neft; 2) ko'mir. Sinonim tasviriy ifodalar: g'azal multining sultoni va o'zbek tilining asoschisi – Alisher Navoiy; uyg'onish va fasllar kelinchagi – bahor.

Tasviriy ifodalar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

13-§. NOMSHUNOSLIK

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik bo'limi **onomastika** (lotincha so'zdan olingan) deyiлади.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra bir necha gruhga bo'linadi:

1. Shaxslarga qo'yilgan nomlar **antroponimlardir** (lotincha so'zdan olingan): **Diyora, Shirin** va boshqalar.

2. Geografik obyektlarning nomlari **toponimlar** (lot. topos – qishloq, shahar, maydon, ko'cha, onuma – nom): **Shirmonbuloq, Qorako'l, Qarshi** kabi.

3. Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar **zoonimlar** (lot. soom – hayvon, opuna – nom): **Boychibor, G'irot (G'irko'k), Jiyronqush, Ko'kdo'nан, Tarlon, Kuno'g'lon** kabi.

4. Suv havzalari inshootlariga atab qo'yilgan nomlar (daryo, ko'l, dengiz nomlari) **gidronimlar** (lot. gidro – daryo, suv, onuma – nom): **Orol dengizi, Balxash ko'li, Qashqadaryo** kabi.

14-§. LUG'AVIY BIRLIKLER HAQIDA MA'LUMOT

Lug'aviy birlik deganda, tilning **lug'at boyligiga kiradigan barcha birliklar** nazarda tutiladi. Bunga birinchi navbatda **so'z** kiradi. So'zga ma'no jihatidan teng keladigan barcha birliklar ham lug'aviv birlik hisoblanadi. Masalan, **ibora, tas-**

viriylifoda, qo'shma so'zlar, juft so'zlar, takroriy so'zlar, birikmali so'zlar (Oliy Mailis) lug'aviy birliklardir.

So'z birikmasi, gap lug'aviy birlik emas. Ular lug'atlarda aks etmaydi. Faqat so'zning ma'nosini yoritib berishda qo'l-laniladi.

15-Ş. BARQAROR BIRIKMALAR: IBORALAR, MAQOL VA MATALLAR, HIKMATLI SO'ZLAR

Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kirluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalaridan o'rinni foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi **pare-mioloqiya** (lot. *parema* – barqaror, *logos* – ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa **paremiografiya** (lot. *parema* – barqaror, *grofho* – yozmoq) sanaladi.

Barqaror birikmalar tasnifi

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylilikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turli chadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Frazeologizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

Iboralar

Ma'nosi bir so'zga teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarga **ibora** deyiladi.

Iboralar gap tarkibida yaxlit holda **bitta so'roqqa** javob bo'ladi va **bitta gap bo'lagi** vazifasida keladi.

Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'nō jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi, ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlataladi.

Masalan, **qulog'i ding bo'lmoq** – hushyor bo'lmoq, **govoq'i osilmox** – xafa bo'lmoq, **og'zining tanobi gochmoq** – quvonmoq kabi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga **frazeologizmlar** (iboralar) deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so'zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, *Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

«*Burni ko'tarilgan*» – takabbur, manman, o'ziga bino qo'ygan kimsalarga nisbatan aytildi.

Laylakqor yog'sa-yu, yerda qor tugul nam ham bo'lmasa, shuningdek, qorning havosi ham bo'lmasa, dehqon bunday ob-havoni: «*Tulki qiziga to'y berdi*», – deydi.

Iboralar tilning eng muhim tasviriy-uslubiy vositalaridan biridir. Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko'pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo'llanadi. Masalan, *qo'l qo'ymoq*, *xulosaga kelmoq*, *qarshi chiqmoq*, *ovoz bermoq*, *qo'l ko'tarmoq* kabi iboralar bunga misol bo'la oladi.

Iboralarning aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo'lib, kuchli ko'chma ma'no ifodasi bilan, yorqin emotsiyal-ekspressivligi bilan tilda yashaydi. Masalan, *tomdan tarasha tushganday, taruzi qo'lting'idan tushmoq, oyog'ini qo'lga olmoq, o'pkasini qo'lting'amoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq* kabi.

Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi

Iboralar ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topganligi bois qo'shma so'z va so'z birikmalariga o'xshaydi, lekin ular ko'chma ma'noga ega ekanligi, ta'sirchanligi bilan qo'shma so'zlardan; barqarorligi, nutqqa tayyor holda olib kirilishi bilan so'z birikmalaridan farqlanadi.

Solishtiring. Iboralar: *tепа сочи тикка бо'лмоқ – achchiqlanmoq, qovog'idan qor yog'moq – xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochmoq – sevinmoq;* so'z birikmalari: *uzun сочли, qалин qovoq, уяга ketmoq;* qo'shma so'zlar: *To'ytepa, lay-lakqor, bodomqovoq.*

Maqollar va matallar

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar **maqollar** sanaladi.

Masalan, *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to'nka dam oladi.*

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi.

So'zlovchi bunday birikmalami yaxlit holda nutqiga olib kiradi.

Maqolda **fikr aniq, ifoda lo'nda, xulosa tugal** bo'ladi.

Maqollar fikri ta'sirchan, bo'yodkor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o'rinli foydalanish so'zlovchining mahorati sanaladi.

Matallar – ko'chma ma'noda ishlataluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi. Matallar so'zlarning birikuvidan iborat bo'ladi. «*Tuyaning dumi yerga tekkanda*», «*ilon inidan chiqadigan*». Maqol va matalning farqi: maqol tugal mazmunga ega, matalda bunday xususiyat yo'q, shuning uchun u alohi-da qo'llanmaydi, gapning tarkibida keladi. **Ilon inidan chigadigan** qilib gapirdi.

Hikmatli so'zlar (aforizmlar)

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning tur-mush tajribasiga tayanib ma'lum bir shaxs tomonidan yaratil-gan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga **hikmatli so'zlar (aforizmlar)** deyiladi.

Masalan,

*Odam ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. (A. Navoiy)*

Hikmatli so'zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yax-litlik, takroriylik (ya'ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko'ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylilik kasb etsa ham, aniq muallifining borligi bilan ulardan farq qiladi.

Hikmatli so'zlarni o'rganib, xotirada saqlab, nutqda o'rini qo'llay bilish kishining so'z san'atkori, donishmand bo'lishini ta'minlaydi.

16-§. LEKSIKOGRAFIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Leksikografiya (lotincha so'zdan olingan bo'lib) lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasini bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limidir.

Leksikografiya nazariyasining predmeti **lug'at tuzish tamoyillari va usullaridir**.

Leksikografiya amaliyoti esa lug'at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so'zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarlarni o'z ichiga oladi.

Leksikografiya nazariyasida lug'at turlari, so'zlik tarkibi va so'z maqolasining tuzilishi asosiy o'rinni egallaydi.

Tilimizdagи so'zlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lug'at, lug'at tuzish qoidalarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasiga esa lug'atshunoslik (leksikografiya) deyiladi.

So'zlarning ma'lum maqsadda to'plangan va tartibga solingan jamg'armasi **lug'at** hisoblanadi. Lug'atlar asosan alifbo tartibida tuziladi.

Lug'atlar qadimdan yaratib kelingan. Masalan, Mahmud Koshg'ariy tomonidan XI asrda yaratilgan «Devonu lug'otit turk», XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan «Abushqa» lug'atlari.

«Devonu lug'otit turk»

Turkiy tilda yaratilgan ilk lug'at – «Devonu lug'otit turk»dir. Bu asarni atoqli tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy 1072-yilda yoza boshlagan va 1074-yilda (XI asrda) yozib tugatgan. Bunga qadar u bir necha o'n yillar davomida Chin (Xitoy)dan tortib to Rum (Vizantiya)ga qadar bo'lgan ulkan hududda yashovchi turkiy qabilalarni birma-bir o'rganib chiqqan. Bu haqda uning o'zi shunday deb yozadi: «Men turklar, turkmanlar, o'g'izlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim. Men bu kitobni maxsus alifbe tartibidagi hikmatli so'zlar, sa'jlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Bu ishda misol tariqasida, turklarning tilida qo'llanilib kelgan she'haridan shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlardan, maqollardan keltirdim».

Devon ikki qismdan iborat: «Muqaddima» va «Lug'at».

Undan mehnat va marosim qo'shiqlari, o'gitnomalar, mu-nozara shaklidagi to'rtliklar, Alp Er To'nga (Afrosiyob) marsiyasi kabi ajoyib adabiy yodgorliklar o'rin olgan.

«Devonu lug'otit turk» bitmas-tuganmas ilm manbayidir.

17-§. LUG'ATLAR VA ULARNING TURLARI

Avvalo, lug'atlar ikki turli bo'ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar; 2) filologik (lingvistik – tilshunoslik) lug'atlar.

Bu ikki turdag'i lug'atlar lug'at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug'atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug'at: ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug'at hisoblanadi.

Filologik (lingvistik) lug'atlar. Lug'at turlari

Lug'at turlari	O'rghanish obyekti
Qomusiy lug'at	Mashhur shaxslar, ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, borliqdagi predmetlar, hodisalar haqida ma'lumot beriladi
Filologik (lingvistik) lug'atlar	
Izohli lug'at	Tilda mavjud bo'lgan so'zlarning ma'nolari izohlanadi
Tarjima lug'at	Bir tildagi so'z ikkinchi tilda qanday so'zga teng kelishini ko'rsatadi
Imlo lug'at	So'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatadi
Chappa (ters) lug'at	So'zlar oxirgi harfi bo'yicha alfavit tartibida joylashtiriladi
Orfoepik lug'at	So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi
Morfem lug'at	So'zlarni asos va qo'shimchalarga ajratishga yordam beradi
O'zlashma so'zlar lug'ati	Chet tilidan kirgan so'zlarga ta'rif beriladi
Frazeologik lug'at	Iboralar ma'nosi izohlanadi
Terminologik lug'at	Ma'lum bir soha bo'yicha atamalarga izoh beriladi
Chastotali lug'at	Ma'lum asarlarda so'zlarning qo'llanish darajasi haqida ma'lumot beradi

Omonimlar lug'ati	Tildagi omonim so'zlar jamlanadi
Sinonimlar lug'ati	Tildagi sinonim so'zlarning yig'indisi
Paronimlar lug'ati	Tilda mavjud talaffuzdosh so'zlar haqida ma'lumot beradi
Antonimlar lug'ati	Tildagi antonim so'zlar izohlanadi
Etimologik lug'at	Tildagi so'zlarning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot beradi

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar va ulardan foydalanish

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o'z ifodasini topadi. Umuman, **ensiklopedik lug'atlar** ma'lum bir xalqning madaniy-ma'naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o'z izohini topadi.

Qomusiy lug'atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi. Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kartalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atoqli shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

Misol uchun, 14 jiddli O'zSEning 1-jildini tayyorlash ishida 14 akademik, 13 akademianing muxbir a'zosi, 88 fan doktori, professor, 539 fan nomzodi va boshqa ko'plab mutaxassislar qatnashgan. Unda 3350 ta maqola mavjud. Mazkur jild ustida 1965 – 1971-yillar mobaynida tayyorlov ishlari olib borilgan.

1971 – 1980-yillar oralig'ida O'zSEning 14 jildi nashrdan chiqqan. O'sha davr uchun bu juda katta voqeа edi, lekin ushbu qomusiy lug'atdagi ko'plab maqolalar bugungi kun talabiga javob bermaydi, eskirdi. Ulami qayta ishslash, mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazardan yoritish lozim bo'lib qoldi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»ni yaratish to'g'risida maxsus qaror qa-

bul qildi. Ana shu qaror asosida **2000 – 2006-yillarda 12 jildli «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»** yaratildi.

Toshkent shahrida ensiklopedik lug'atlar va kitoblarni nashr etish bilan shug'ullanayotgan alohida muassasa – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti faoliyat ko'satmoqda.

Filologik lug'atlar va ularning turlari

Filologik lug'atlar ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga oлади. So'zlar muayyan bir tartibda (yo alifbo asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi.

Tildagi so'zlarni izohlashga qaratilgan lug'atlar **izohli lug'at**, muayyan tildagi so'zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug'atlar esa **tarjima lug'at** sanaladi.

1981-yili Moskvadagi «Русский язык» nashriyotida nashr qilingan 2 jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2006 – 2008-yillarda O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr qilingan va 80 ming so'z hamda so'z birikmasini o'z ichiga olgan 5 jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2001-yili Toshkentdagi «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan «O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati» yoki o'zbekcha-ruscha, inglizcha-ruscha-o'zbekcha lug'atlar bunga misol bo'la oladi.

Izohli lug'atlar so'zlikning tanlanishiga ko'ra **umumiy** va **tarmoq** lug'atlarga bo'linadi. Tilning barcha so'zlarini izohlashga qaratilgan lug'atlar **umumiy izohli lug'atlar**, ma'lum bir tarmoqqa doir so'zlarigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug'atlar **tarmoq lug'at** hisoblanaadi. (Masalan, kasb-hunarga doir lug'atlar, ma'lum fan sohasi bo'yicha atamalar lug'ati (adabiyotshunoslik terminlari lug'ati) va boshqalar)

Har qanday lug'at shu lug'atning egasi bo'lgan xalqning katta madaniy va ma'naviy boyligi sanaladi.

Ayrim so'zlar izohi:

Polis – (fr. polici, ital. pollissa – tilxat) – shaxsiy yoki mulkiy sug'urta shartnomasi zarurat tug'ilganda sug'urtachiga

qarshi da'vo qo'zg'atib, zararni undirish uchun sudga taqdim etiladigan rasmiy hujjat.

Monitoring – biron-bir jarayonni uning kutilgan natija yoki dastlabki taxminga muvofiqligini aniqlash maqsadida doimiy kuzatib borish.

Alternativa – bir-birini inkor etuvchi imkoniyatlardan birini tanlash; muqobililik.

Investitsiya – mamlakat ichkarisida yoki chet elda, foyda ko'rish maqsadida, biror korxonaga, iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga kapital qo'yish, kiritish va shunday kapitalning o'zi.

Mafkura – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalalar majmuyi.

Ombudsman – turli xil ma'muriy organlar, shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalar faoliyatining qonuniyligini, ularning fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylangan (tayinlangan) mansabdor shaxs.

Xalgaro tillar – turli davlatlar xalqlarining aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan tillar: **ingliz, fransuz, ispan, rus, xitoy va arab** tillaridir.

Ayrim so'zlar izohi: **turbatlari** – tuproq, yer, ziyoratgoh, maqbara, **giryon** – yig'lovchi, yig'lab turgan; **bexonumon** – uy-joysiz, darbadar, **ro'yi jahon** – yer yuzi.

Bog' so'zi

Boq' 1 ot. Biror narsaning to'dalab bog'langan holati. Bog'-lamoq, bog'lash: bir bog' beda, bir bog' piyozi.

Boq' 2 (tojikcha) ot. Uzum (tok), mevali daraxtlar ko'p ekilgan yer uchastkasi.

Bog'ni boqsang, bog' bo'ladi,
Botmon dahsar yog' bo'ladi.
Boqimsiz bog' tog' bo'ladi.
Yurak-bag'ring dog' bo'ladi.

«O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati»dan
(Toshkent, «O'qituvchi», 1984)

Navoiy asarlari lug'atidan

Bosh oqarmoq – sochi oqarmoq, qartaymoq.

Bosh olib chiqmoq – hamma narsaning bahridan o'tmoq, kechmoq, tark qilmoq.

71	1) xush-	xushaxloq, xushbichim, xushmanzara, xushmuomala, xushovoz, xushtabiat, xushta'm	s/y	Otdan sifat hosil qiladi
	2) xush-	xushxabar	s/y	Ba'zan otdan ot yasaydi

72	1) -xo'r	aroqxo'r, go'shtxo'r, nonxo'r, palovxo'r, choyxo'r, shaftoli-xo'r, qimizxo'r	s/y	Otdan sifat yasaydi
	2) -xo'r	merosxo'r, nafaqaxo'r	s/y	Otdan ot yasaydi
73	1) -y	qoray	s/y	Sifatdan fe'l yasaydi
	2) -y	yig'lay-yig'lay, so'ray-so'ray	l/sh/y	Ravishdosh shakli
	3) -y	boshlay, tashlay	s/sh/y	Felning buyruq mayli shakli
	4) -y	o'qi+y+miz	s/sh/y	Fe'lning kelasi zamon shakli
74	1) -g'i	tomizg'i	s/y	Fe'lidan ot yasaydi
	2) -g'i	izg'i	s/y	Otdan fe'l yasaydi
75	1) -g'in	yong'in, qirg'in, quvg'in	s/y	Fe'lidan ot yasaydi
	2) -g'in	ozg'in, so'lg'in, qizg'in	s/y	Fe'lidan sifat yasaydi
76	1) -g'ich	yelpig'ich, savag'ich, so'rg'ich, tomizg'ich, to'g'nag'ich, chizg'ich, qashlag'ich, qirg'ich, suyag'ich	s/y	Fe'lidan ot yasaydi
	2) -g'ich	boshlang'ich, yulg'ich	s/y	Fe'lidan sifat yasaydi
77	1) -g'oq	to'lg'oq	s/y	Fe'lidan ot yasaydi
	2) -g'oq	toyg'oq, to'zg'oq, qurg'oq	s/y	Fe'lidan sifat yasaydi
78	1) -sh	fikrlash, yashash, o'qish	l/sh/y	Fe'lning harakat nomi shakli
	2) -sh	ayblashdi, ishlashdi	l/sh/y	Fe'lning birgalik nisbat shakli
79	1) -ch	ishonch, sevinch, suyunch, o'tinch, quvonch	s/y	Fe'lidan ot yasaydi
	2) -ch	jirkanch, tinch	s/y	Fe'lidan sifat yasaydi

80	1) -cha	arabcha (o'yin), afg'oncha (rubob), zarracha (foyda), zig'ircha (tuz), tariqcha (aql), yangicha, yevropacha	s/y	Otdan sifat yasaydi
	2) -cha	aravacha, yigitcha, kitobcha, xo'rozcha, yulduzcha, qizcha, qushcha	l/sh/y	Otlarga qo'shib, kichraytirish, erkalash ma'nosini hosil qiladi
	3) -cha	tushuncha, qizilcha (lavlagining turi), ko'kcha (qovunning turi)	s/y	Fe'l, sifatdan ot hosil qiladi
	4) -cha	yigitcha (ishlamoq)	s/y	Otdan ravish hosil qiladi
81	1) -chak	kuyunchak, erinchak	s/y	Fe'lidan sifat yasaydi
	2) -chak	burchak, belanchak	s/y	Fe'lidan ot yasaydi
	3) -chak	kelinchak, tugunchak	l/sh/y	Otiardagi kichraytirish qo'shimchasi
82	1) -chi	ashulachi, asalarichi, ishchi, qiziqchi, bekorchi, beshchi, ikkichi,	s/y	Ot, sifat, sondan ot yasaydi
	2) -chi	yolg'onchi (bola), o'yinchi (qiz), hasadchi (odam), ayirmachi (kishi), bekorchi (gap), dangalchi (xotin), qiziqchi (odam)	s/y	Otdan sifat yasaydi
83	1) -chiq	qopchiq, qorachiq	s/y	Ot va sifatdan ot yasaydi
	2) -chiq	qizg'anchiq	s/y	Fe'lidan sifat yasaydi

84	1) -choq	tortinchoq, cho'zinchoq, erinchoq	s/y	Fe'ldan sifat yasaydi
	2) -choq	toychoq, qo'zichoq	l/sh/y	Otlarga qo'shilib, kichraytirish va erkalash ma'nosini anglatadi
	3) -choq	o'yinchoq	s/y	Otdan ot yasaydi

3-§. OMONIM SO'ZLARNING IZOHLI LUG'ATI

Omonim so'zlar	Izohi
Ado	1. Ish-harakat, voqeа-hodisaning oxiri, tamomi, ijrosi: <i>Xor-u zorlik topdim-u, hurlik adosin topmadim.</i> (M.Ismoilii); <i>ado bo'lmoq, ado qilmoq...</i> 2. Ishva, jilva, noz-karashma
Azali	1. Azador 2. Azaldan. <i>Azali shunday</i>
Akademik	1. Unvon (ot). 2. Akademianing ilmiy muassasasi yoki (sifat)
Aksiya	1. Aksiyadorlik jamiyatи chiqargan qimmatbaho qog'oz. 2. Biror maqsadga erishish uchun qilinadigan ish, harakat
Alam	1. Jismoniy qiynoq; azob, og'riq. 2. Bayroq, tug'
Alif	1. Arab alifbosining birinchi harfi va uning nomi. 2. O'simlik, asosan zig'ir yog'idan qizdirib tayyorlangan va bo'yoychilikda ishlataladigan moy
Anbar (arab. xushbo'y modda)	1. Kashalotlar tanasidan – oshqozon yoki ichaklaridan chiqadigan mumsimon xushbo'y modda (parfumeriya da atir hidiga turg'unlik berish uchun ishlataladi, kasha lot so'zining ma'nosi esa: katta boshli baliq – kitsimonlaming tishli, katta boshli bir turi, 60 – 70 tonnacha bo'ladigan, ulkan sut emizuvchi dengiz hayvoni) 2. Erkaklar tobutining to'rt burchiga tik qoqilgan ta yoqlarga o'ralgan gazlama, surp; shuningdek, ayollar tobutining tepasiga ishkom tarzida egib o'rnatilgan tol yog'ochlari ustiga yopilgan malla bo'z
Ar-ar	1. Taqlid so'z. Ar-ar qilmoq. Unar-unmasga arillamoq, arillab yig'lamoq. 2. Piramidasimon terak; shoterak
Arz	1. Dard-hasrat, shikoyat tarzidagi gap, murojaat. 2. Yer shari yoki uning bir qismi
Arish	1. Arimoq. 2. G'alla o'simliklaridan biri, qora bug'doy va uning doni, g'allasi

Ark	1. Poytaxtdagi qasr; xon yoki amirning atrofi baland devor bilan o'ralgan qo'rg'on-saroyi. 2. Ark yoki arka – tepasi yarim doira shaklida solingan darvoza, eshik va sh.k.
Asorat	1. Ozodlikdan mahrumlik, tutqunlik. 2. Odatda, salbiy ta'sir
Asr	1. Yuz yillik davr. 100 yil. 2. Quyosh botish chog'idan bir soatcha oldingi payt va shu paytda o'qiladigan namoz
Atlas	1. Atlas (yunoncha so'z. Mifologiyada Liviya podshohining nomidan; go'yo u birinchi bo'lib osmon globusini yaratgan emish) – muayyan maqsadlarda va muayyan tizim asosida tanlab olingen kartalaridan iborat bo'lgan va tushuntirish matnlari bilan albom shaklida nashr etilgan to'plam. <i>Geografik atlas</i> . 2. Atlas (arabcha so'z. Tekis, silliq; ipakdan to'qilgan mayin mato) – bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan (to'qmoqsimon yog'och asbob bilan urib tekislab, jilo berilgan) mahalliy ipak gazlama
Afkor	1. Afkor. 2. Butun omma
Badik	1. Duduqlanib gapiruvchi, chuchuk til (shevaga xos so'z). 2. Bemorni so'z yoki ashula aytish yo'li bilan davolash usuli; duoxonlik, avrash (folkloriga xos)
Bayot	1. Shashmaqomning uchinchi – Navo maqomlari ga kiradigan kuylar guruhlardan birining nomi. 2. Qadimgi o'g'uz qabilalaridan birining nomi
Bayzo	1. O'ta oq, oppoq. 2. Quyosh, oftob
Bayir	1. Qo'lga o'rnatilgan hayvon (asosan ot); jaydari. 2. Qumli cho'llarda shamol oqibatida paydo bo'lgan botiq joylar.
Bayt	1. Sharq she'riyatida aruz vaznida yozilgan g'azal, qasida, masnaviy kabi asarlarning bir butun ikki misrasi, bandi. 2. Istiqomat qilish, yashash uchun qurilgan uy, xona; manzil

Bali	1. Tasdiq yuklamasi. 2. Gap qaytaravermoq. <i>Ali desa, bali demoq</i>
Balli	1. Ma'qullah, tasdiqlash, maqtov, tahsin. 2. Muayyan ball kuchiga ega bo'lgan. <i>Besh balli (sifat) zilzila. To'qqiz balli dovul</i>
Balqimoq	1. Yorqin nur sochib jilva qilmoq; nurga to'lmoq, yarqiramoq. 2. Yumshoq, mayin holatga kelmoq; bo'shashmoq, ko'pchimoq
Band	1. Narsa, qurol-asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi; sop, tutqich; dasta. <i>Choynakning bandi</i> 2. Rasmiy hujjatlar (qaror, bayonnama, qonun, shartnama va sh.k.)ning raqam yoki harf bilan bo'lib ko'rsatiladigan kichik bir qismi; modda, paragraf. <i>Qarorning beshinchchi bandi</i> 3. Ip, arqon va shu kabilarning bog'langan, tunganlangan joyi. <i>Ipning bandi. Bandni bo'shatmoq. Bandni yechmoq.</i> 4. Egallangan, ishg'ol qilingan, bo'sh emas. <i>Uy odamlar bilan band. Telefon band</i>
Banda	1. Olloh yaratgan, taqdiri uning qo'lida bo'lgan kishi; Ollohnning quli. <i>Xudoning bandasi</i> . 2. Opera va simfonik orkestrga qo'shimcha cholg'u ansamblı sifatida kiritiluvchi puflama mis sozlar orkestri. <i>Banda ijro vaqtida sahna orqasiga joylashadi</i> . 3. Bosqinchilik, o'g'rilik, zo'ravonlik, qotillik bilan shug'ullanuvchi qurollangan to'da
Bandak	1. Paranjining yelkadan yon tomonga osiltirib tikilgan ikkita yengsimon qismi, soxta yeng. 2. Loydan yasalgan xom idishlarni kulollar charxida tekislash va silliqlash uchun ishlataladigan charm, latta yoki kigiz
Bandar	1. Kema, savdo kemasi. 2. Bandargoh, savdogarlar qo'nib o'tadigan gavjum joy, karvonsaroy; kema to'xtab o'tadigan port. 3. Issiq mamlakatlarda o'sadigan xushbo'y, mevali daraxt (mango)

Bandlik	1. Biror narsa uchun tutqich, dasta qilishga mo'ljallangan material, xomashyo (ot so'z turkumi) 2. Ushlashga mo'ljallangan dastasi, bandi, tutqichi bor (sifat so'z turkumi). <i>Bandlik katta likoblar</i> 3. Biror narsa bilan band ekanlik, bo'sh emaslik
Bank	1. Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini to'plash, korxonalarga kredit (qarz) berish, naqd pulsiz hisobkitob qilish va shu kabilar bilan shug'ullanuvchi kredit-moliya muassasasi. 2. Qimorda, karta o'yinida o'rtaqa qo'yilgan, tikilgan pul;
Banka	1. Bank (so'zlashuv uslubida). 2. Shisha, tunuka yoki plastmassadan yasalgan, odatda, slindrik shaklga ega bo'lgan idish
Bar	1. Ust kiyimning ikki yon etagi. <i>Choponining bari</i> . 2. Old qo'shimcha. <i>Bardavom</i> . 3. Kichik restoran, mayxona. 4. Dengizning qirg'oqqa yaqin qismida yoki daryolarning dengizga quyilish joylarida hosil bo'ladigan kambar qum to'siq, qumloq; sayozlik. 5. Meteorologiyada atmosfera bosimining o'Ichov birligi
Baraban	1. Zarbli musiqa asbobi. 2. Turli mashina va apparatlarning silindr shaklidagi ichi kovak qismi. Tosh maydalovchi mashinaning barabani xunuk g'irchillay boshladi. (A.Muxtor, «Tug'ilish»)
Barava-riga	1. Bir vaqtida, bir paytda, bir-biridan qolishmay, birstay (ravish). 2. O'mniga, evaziga (ko'makchi). <i>Bir tanob yerdan 60 pud paxta olib, naqd pul baravariga hukumatga topshiradi</i>
Barak	1. Yog'ochdan qurilgan vaqtinchalik uy, yashash joyi. 2. Chuchvara. Xorazm va Qoraqalpog'iston muhitida tansiq taom hisoblanadi. <i>Tuxum barak</i>

Bargak	<p>1. Danagi olingen holda quritilgan o'rik; o'rikqoqi.</p> <p>2. Ayollar peshonasiga, ko'ksiga taqadigan, oltin yoki kumush tangalardan tuzilgan bargnusxa ziynat buyumi, taqinchoq.</p> <p>3. Tolning erta ko'klamda barg yozib, popuk chiqaradigan surx novdasi.</p> <p><i>Bargak taqdi yashil fusunkor Majnuntolning chilvir sochlari</i></p>
Bardor	<p>1. Qo'lida ko'taruvchi, yuqori tutib turuvchi. <i>Qizlar... Qorajonni bardor-bardor qilib... uyga kirgizib ketdi.</i></p> <p>2. Ko'tarilgan xirmondan g'alvir bilan o'lchab, amirlik uchun berilladigan g'alla</p>
Barot	<p>1. Podsho tomonidan berilgan ozodlik xati; podshoh, xon tomonidan biror soliq yoki jarimadan ozod etish yoki muayyan vakolatlar, huquqlar be-rish haqidagi maxsus guvohnoma, yorliq.</p> <p>2. Qamariy yil hisobidagi sakkizinch oy – sha'boning 15-kuni. Bu kunda Muhammad alayhissalomga payg'ambarlik xabari nozil qilingan</p>
Bas	<p>1. Yetarli, kifoya, boshqa kerak emas, shu bilan yetar, to'xtat.</p> <p>2. Bas bog'lashmoq, garov bog'lamoq, garov o'ynamoq.</p> <p>3. Erkaklarning eng past, yo'g'on va shunday ovozga ega ashulachi</p>
Baqqa	<p>1. Suvda va quruqlikda yashovchi dumsiz jonivorlar oilasi vakili; qurbaqa.</p> <p>2. Tegirmon parragi o'qining uchiga biriktirilgan va parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qism</p>
Baqaloq	<p>1. Hayvonlarning tuyoq bilan ilik o'rtaсидаги bo'g'ini.</p> <p>2. Eni bo'yiga nomutanosib; semiz, do'mboq</p>
Baqir	<p>1. Qizil mis. <i>Noma'lum yerda oltin bor, borsang - baqir topilmas.</i></p> <p>2. Misdan zarb qilingan chaqa pul.</p> <p>3. Paqir, chelak (shevaga xos so'z)</p>

Baholi	1. Muayyan bahoga, narxga ega bo'lgan; baho, narx qo'yilgan; qimmatbaho. 2. Baholi qudrat. Qudrati, qurbi yetgancha, qo'lidan kelgancha, imkoniyat darajasida
Bahr	1. Dengiz, okean. 2. Aruz she'riy tizimidagi 19 ta she'riy vazn guruhlaridan har biri. 3. Bahra. <i>Navoiyning san'ati zo'r nazmida, El bahr olur o'z suhbatি, bazmida.</i> (Habibiy)
Bahrin	1. Turkiylashgan mo'g'ul qabilalaridan birining nomi. 2. Yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush
Begona	1. Qarindoshlik yoki boshqa jihatdan bir toifadagi, guruhdagi kishilardan chetda turuvchi, ularga munosabati bo'limgan; yot. 2. Beklarga, beklar nasliga xos bo'lgan, dabdabali, hashamatli; beklarcha
Bedona	1. Urug'siz qora kishmish uzum va undan tayyorlangan mayiz. 2. Bir-ikki yashar molning terisidan ishlangan charm. <i>Yengil bedona mahsisi bilan qala kafshi (Ra'noning) kichkina oyog'iga juda kelishgan.</i> (A.Qodiriy)
Bez	1. Tirik mavjudotning yashashi uchun zarur bo'lgan moddalar ishlab chiqaradigan ko'p hujayrali a'zo. 2. Surpga qaraganda qalin va pishiqligini gazlama
Bel	1. Orqa suyakning (umurtqa pog'onasining) pastki qismi. <i>Odamning beli. Otning beli.</i> 2. Yer qazish, sochilgan narsalarni olib solish, to'plash uchun ishlatiladigan yog'och soplari temir quroq; belkurak
Belamoq	1. Chaqaloqni beshikka yotqizib, qo'lboq', oyoqbog' bilan bog'lamoq. 2. Yuqadigan narsalarga (un, tuproq, bo'yoq) botirib, qorishtirib yoki bulg'ab, hamma yog'ini shunarsa bilan qoplamoq; bulamoq

Belli	<p>1. Dangal, foydali, mazmunli. <i>Ellik gapdan belli gap yaxshi. (Magol)</i></p> <p>2. Maral (kiyik) belli, qiz belli. Kiyikning, qizning beliga o'xhash nozik. <i>Ostimga minganim qiz belli tulpor («Malikai ayyor»)</i></p>
Benavo	<p>1. Ovozsiz, unsiz; xomush, sokin.</p> <p>2. Turmushning huzur-halovati, rohat-farog'atidan bebahra qolgan, ro'shnolik ko'rмаган; g'arib, notavon, sho'rlik</p>
Beoqibat	<p>1. Mehr-oqibatsiz. <i>Odamlarning beoqibatligi.</i></p> <p>2. E'tibordan, nazardan chetda. <i>Arizasi beoqibat qoldirildi</i></p>
Betlamoq	<p>1. Botinib betma-bet kelmoq, ro'para bo'lmoq, yuzma-yuz kelishga jur'at qilmoq. <i>Unga hech kim betlay olmaydi.</i></p> <p>2. Yozma narsalarning betlarini sahifalarini raqam-alamoq. <i>Qo'lyozmani betlab chiqdim</i></p>
Besh	<p>1. Raqam.</p> <p>2. Ko'p, ortiq, ziyoda. (beshbattar)</p>
Beshurug'	<p>1. Qovun. Bo'yi kalta, tuxumsimon, sirti och yashil, serto'r va sal tilim-tilim ko'rinishli jaydari qovun.</p> <p>2. Tarvuz. Urug'i kam bir navli tarvuz</p>
Behtar	<p>1. Afzal, yaxshi; yaxshiroq.</p> <p>2. Qulupnayning yirik bir navi</p>
Bijillamoq	<p>1. Bijirlamoq. «<i>Besh</i>» qo'ysa ham bo'lardi deb bijilashdi.</p> <p>2. Bijirlamoq. <i>Har xil qurtlar bijillab yotibdi</i></p>
Bijir-bijir	<p>1. Tovushga taqlid so'z.</p> <p>2. Holatga taqlid so'z</p>
Biy	<p>1. Qabilaning yoki qabilalar ittifoqining boshlig'i, to'rasи; ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning urug' oqsoqoli.</p> <p>2. O'rgimchak. Tanasining uzunligi 3,5 sm gacha bo'lgan, uzun sariq tuk bilan qoplangan, zaharli katta o'rgimchak.</p> <p>3. Biy dala. Ochiq, keng, yalang dala</p>

Biyron	1. Burro-burro gapiradigan, gapga chechan; so'zamol, gapdon. 2. Tobiga yetkazib qovurilgan, pishirilgan. <i>Biyron go'sht – qovurilgan go'sht</i>
Biljiramoq	1. Aljiramoq, juda ezmalik qilmoq, keraksiz gapni ko'paytirmoq. 2. Bilchillamoq. <i>Bilchillab yotgan yer</i>
Bimetall	1. Ikki xil metalldan iborat bo'lgan sim, plastinka va sh.k. (ot so'z turkumiga mansub). 2. Ikki xil metalldan iborat bo'lgan, yasalgan (sifat)
Bint	1. Yaralarni bog'lashga mo'ljallangan doka. 2. Xotin-qizlar ismidan keyin «qizi» ma'nosini bildirib keladigan so'z. Kumushbibi qizi binti Mirzakarimboyga... («O'tkan kunlar»)
Birinj	1. Bronza. 2. Guruch
Birisi	1. Birisi kuni. Ertadan keyin, uchinchi kuni, indiniga. 2. Ikkisidan biri yoki ko'p narsadan birortasi
Birov	1. Son. 2. Guman olmoshi
Birxil	1. Allanechuk, allaqanday. <i>Birxil bo'lib ketyapman, oyi.</i> 2. O'xshash, baravar, teng
Bitik	1. Yozuv. 2. Et bitib tuzalib ketgan yoki birikib, bekilib qolgan, bitov
Bitmoq	1. So'ngiga, oxiriga, nihoyasiga yetmoq, tamom bo'lmoq, tugamoq; to'xtamoq. <i>Gap bitdi. Tilak bilan bitmagan bilim bilan bitar. Kanal qurilishi tez kunda bitdi.</i> 2. O'sib-unmoq; yetishmoq. <i>Ekin bitdi. Omad kelsa, daraxtdan ham non bitar.</i> 3. Yozmoq. <i>She'r bitdim</i>
Bitov	1. Et birib tuzalib ketgan yoki birikib, bekilib qolgan, bitov. 2. Ayol jinsiy yo'llarining tabiiy (tug'ma) holda berk bo'lishi yoki bitib qolishi

Biq-biq	1. Tovushga taqlidni bildiruvchi so'z. Bo'tqa biq-biq qaynayapti. 2. Holatga taqlidni bildiruvchi so'z. Biq-biq semirmoq. Juda ham semirmoq, yog' bitib, biqqiday semirmoq
Blok	1. Gardishida zanjir, arqon, tasma o'rnatiladigan novi bo'lgan, g'ildirak shaklidagi eng sodda yuk ko'tarish mexanizmi, moslamasi. Qo'zg'almas blok. 2. Ayrim davlatlar, partiyalar, tashkilotlar yoki kishilar guruhining biror umumiy maqsad yo'lida birgalikda harakat qilish uchun doimiy yoki vaqtinchalik tuzilgan ittifoqi; koalitsiya. <i>Harbiy blok. Siyosiy blok</i>
Bod	1. Shamol, yel. 2. Bo'g'in va mushaklarning yallig'lanishi (revmatizm, radikulit va sh.k. kasalliklar). 3. Daraxtning bir turi. 4. Tanda (o'rish) iplarining bir-birini kesib (mingashib) turgan joyi
Bodiya	1. Sahro, cho'l, biyobon. 2. Tagi baland, qirg'og'i tik, katta sopol idish (lagan). Bodiya Xorazm kulolchiligidagi qadimdan keng tarqalgan
Bodom-chä	1. Organizmni himoya qilish jarayonlarida qatnashuvchi, halqumda joylashgan, bodom shaklli limfasimon to'qimalar majmuyi. <i>Ma'lum yoshdagagi bolalarda tomoqdagi bodomcha bezlar yallig'lanishi mumkin.</i> 2. Ra'nodoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub sershox va sertikan buta
Boz	1. Yana, tag'in; buning ustiga. Oz so'zlagan boz so'zlar, boz so'zlagan soz so'zlar (<i>Maqol</i>). 2. Lochin, qarchig'ay
Bozi	1. O'yin, ermak. 2. Eshik, derazalarning ust, ost va yon tomonlariga qo'yiladigan material, kesaki
Boy	1. Mol-dunyosi, davlati, boyligi ko'p; badavlat, davlatmand. 2. Boy bermoq – yutqizmoq

Boylam	1. Bog'lam. 2. Organizmdagi a'zolarni bir-biriga ulab yoki ularni ushlab turuvchi pishiq, bukiluvchan, cho'ziluvchan hamda taranglanuvchan to'qimadan iborat tuzilma
Boks	1. Ikki raqibning maxsus qo'lqop kiyib, ma'lum qoidalar asosida yakkama-yakka mushtlashish musobaqasi. 2. Kasalxonalarda yuqumli kasallik bilan og'riganlikda gumon qilingan kishilarni boshqalardan alohida yotqizish uchun ajratilgan maxsus xona yoki bino. 3. Erkaklarning soch qo'yish usullaridan biri
Bolish	1. Yostiq. 2. Mo'g'ullar, qisman turklar orasida XIII – XIV asrlarda muomalada bo'lgan tilla yoki kumush pul
Bor	1. Mavjud. 2. Marta, daf'a, karra. 3. Mendeleyev davriy sistemasi III guruhidagi kimyoziy element. 4. Bormoq (jo'namoq)
Bora	1. Marta, karra. 2. Dengiz bo'yini hududlarida qishda tog' bag'ridan pastga qarab esadigan kuchli sovuq shamol
Bosim	1. Biror jism yuza birligiga tik yo'nalishda ta'sir qiladigan boshqa kuchni ifodalovchi fizik kattalik. <i>Qon bosimi, Atmosfera bosimi.</i> 2. Tin olmay, to'xtamay surunkasiga. <i>Uch kundan beri bosim chap ko'zim uchar edi.</i> (S.Ahmad «Qadrdon dalalar»). 3. Ustun, baland. <i>Bosim kelmoq.</i> 4. Urg'u
Bosiriq	1. Yomon tush, dahshatli tush. 2. Bosim. Tin olmay, to'xtamay surunkasiga. 3. Bosilgan, toptalgan, ezilgan, yanchilgan
Bostiriq	1. Ovqat, dori va sh.k. ustidan iste'mol qilinadigan boshqa ovqat yoki ichimlik. 2. Yaydoq ot ustiga yopib qo'yiladigan qalin mato

Bostirma	1. To'rt tomoni yoki ikki yoni va old tomoni ochiq, usti yengilgina yopilgan qurilma, (usti yopiq uzun) yo'lak. 2. Taomni ustidan mahkam bekitib, biror og'ir narsa bostirib qo'yib, pishirish usuli va shunday usulda pishirilgan taom. <i>Bostirma kabob</i>
Bosqon	1. Temirchilarning katta og'ir bolg'asi. 2. Chilangarlar ko'rasidagi ko'raga havo haydovchi va ko'mirning yonishini kuchaytirishga xizmat qiluvchi qurilma. <i>Bosqon bosmoq</i>
Botil	1. Soxta, yolg'on, asossiz; foydasiz. 2. Yaroqsiz holga kelib, ishlatilmay qolgan (ariq, zovur haqida)
Boshliq	1. Idora, muassasa, tashkilot va sh.k.ga rahbarlik qiluvchi shaxs; rahbar. 2. Ba'zi Sharq xalqlarining sovuq, qor-yomg'ir va oftobdan saqlanish uchun boshga kiyadigan jun yopinchig'i. 3. Yuganning yuqori (otning boshida turadigan) qismi
Boqon	1. Boqon solmoq – tuhfa olish uchun yangi keelayotgan kelin yo'liga g'ov solmoq, kelinning yo'llini to'smoq. 2. Boshliq, rahbar, vazir
Bog'	1. Mevali daraxt, tok va gul bilan band yer maydoni; mevazor. 2. Bog'lash uchun xizmat qiladigan narsa va uning bog'langan joyi, tuguni; bog'ich
Bog'li	1. Bog'i, bog'chasi bo'lgan, bog'-rog'li. 2. Bog'lanadigan, bog'ichi bo'lgan
Bog'liq	1. Bog'lab qo'yilgan, bog'langan, bog'log'liq. 2. Arava g'ildiragining to'g'in uchlarini biriktirib tutib turadigan qo'shaloq kegayı. 3. Shox-shabba, beda, bug'doy sholi kabi narsalarни yig'ib bog'lash uchun o'sha narsalarning o'zidan yoki novda, poxol kabilardan eshilgan bog', belbog'
Bronla-moq	1. Bron, 'in bilan qoplamoq, zirhlamoq. 2. Biror kimsa yoki narsa uchun atab, band qilib qo'ymoq

Bron	1. Harbiy mashinalarning o'q o'tmaydigan, qalın po'lat niqobi, qoplaması. 2. Maxsus ajratilgan yoki imtiyoz berilgan narsalar dan foydalanish huquqini beradigan hujjat
Bulbul	1. Chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush. 2. O'zbek xalq amaliy san'atining ko'p sohalarida qo'llanadigan, o'yma va quyma usullarda bajari ladigan naqsh
Bulduruq	1. Ayozli, sovuq kunlari yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi natijasida hosil bo'ladigan mayda qattiq qor, qirov. 2. Kaptarsimonlar oilasining bulduruqlar turkumiga mansub bo'lgan cho'l qushi; qorabovur. 3. Bاليق tuxumi, urug'i; uvuldiriq, ikra
Bulut	1. Osmonni butunlay qoplab olgan yoki uning u yer-bu yerida g'uj bo'lib to'plangan, quyuqlashgan suv bug'lari. 2. Kulolchilikda ishlatiladigan bulutsimon bo'rtma yoki ilon iziga o'xshash naqsh
Burang	1. Buralgan, egri-bugri. <i>Burang yog'och.</i> 2. Qo'y va echkilarda uchraydigan kasallik turi
Burgut	1. Qarchig'aysimonlar (lochinsimonlar) oilasiga mansub katta yirtqich ovchi qush. 2. Osmon ekvatori atrofida Delfin, Qavs, Dalv yulduz turkumlari oralig'ida joylashgan yulduzlar turkumi
Burua	1. Buruaziya sinfiga mansub kishi. 2. Buruaziya – savdo-sotiq, sanoat, kredit-moliya kabi tadbirkorlik faoliyatি orqali foyda oluvchi kapital egalarining ijtimoiy sinfi – asosiy ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi hokim sinf, kapitalistlar
Burish-moq	1. Burushmoq. <i>Yuz-qo'llari burushmoq.</i> 2. Burmoq. <i>Aravani o'ngga burishdi</i>
Burun	1. Hidlash, hid bilish a'zosi. 2. Quruqlikning suv havzasiga ko'proq turtib kirgan cho'zinchoq qismi. 3. Ilgari, ilgarigi, o'tgan vaqtarda.

	4. Degrezlikda ishlataladigan, do'kon tarnovlaridan kirgan, shamolni ko'mirga yo'naltirish uchun yasalgan quyma cho'yan moslama
Burundiq	1. Asov, tishlong'ich tuyaning yoki qopag'on itning tumshug'iga kiydirib qo'yiladigan maxsus to'r. 2. Kemiruvchilar oilasiga mansub hayvon
Burch	1. Ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa; majburiyat. 2. Burchak. <i>Kazarma, qorong'i, uning bir burchida kichkina chirog' miltillar edi.</i> (A.Qahhor)
But	1. To'liq, hech qanday kamchiligi yo'q; bekam-u ko'st; yetarli; ta'min etilgan. 2. Ikki oyoq orasi. 3. Sanam
Butun	1. Butun – sifat so'z turkumi. Sinmagan, sindirilmagan. 2. Belgilash olmoshi. <i>Butun do'stlar</i>
Buyurmoq	1. Istak-talabni bajarishga ko'rsatma bermoq; buyruq bermoq, amr, farmon qilmoq. 2. Nasib bo'lmoq, nasib qilmoq. <i>Yugurganniki emas, buyurganniki</i>
Bo'z	1. Paxta ipidan to'qilgan mato. 2. Ko'kka moyil oq rang. <i>Bo'z ot.</i> 3. Ekin ekishga yaroqli, lekin uzoq vaqt ishlanmay, ekilmay yotgan yer. 4. Bo'z bola. Endigina kuchga to'lib kelayotgan, turmush achchiq-chuchugini totmagan, turmush tajribasiga ega bo'limgan, xom bola, o'smir. 5. O'tsimon cho'l o'simligi, chalov. 6. Qattiq, uvvos yig'i. Unutmoq ham shunchami, Dunyo to'ldi bo'zimga. (<i>M.Yusuf</i>)
Bo'za	1. Oqshoq, tariq, arpa va sh.k. donlardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlik. 2. G'isht terish yoki poydevor qo'yish uchun tayyorlangan qorishma
Bo'zlik	1. Bo'z yer. 2. Bo'z bolalarga xos g'o'rlik

Bo'y	1. Kishining qomatining balandligi; gavdaning boshdan oyoq ko'rinishi; bo'y-bast, qomat. 2. Hid, is
Bo'ydor	1. Bo'yi baland, bo'ychan, novcha. 2. O'tkir muattar hidli, xushbo'y. <i>Bo'ydor gullar</i>
Bo'yin	1. Odam va umurtqali hayvonlar gavdasining bosh bilan tanani biriktiruvchi qismi. 2. Suv bilan ajralib qolgan quruqlik qismlarini, hatto materiklami bir-biriga qo'shadigan tor, uzunchoq yer bo'lagi. <i>Osiyo bilan Afrika orasidagi Suvaysh bo'ynining kengligi 164 km ga teng.</i> («Tabiiy geografiya»). 3. Haydalayotgan yer maydonining u boshidan bu boshigacha bo'lgan masofa (taxminan 120 – 150 qadam)
Bo'ylash-moq	1. Birga aylanib yurmoq, sayr qilmoq. 2. Bo'y o'lchashmoq; tortishmoq, musobaqalashmoq
Bo'yli	1. Muayyan bo'yi bo'lgan, bo'yga ega. <i>Baland bo'yli yigit.</i> 2. Isli, hidli, hidi bor
Bo'ka	1. Ba'zi hasharotlarning tuxumidan chiqadigan, qo'shghanotlilar turkumiga mansub qurt (o'qaloq); hayvonlarning teri ostida, oshqozonida, burnida parazitlarcha yashab yetiladigan, qo'shghanotlilar turkumiga mansub hasharotlarning umumiy nomi. 2. Sayg'oq – qo'sh tuyoqli, kavsh qaytaruvchi, cho'lda yashovchi, sutemizuvchi hayvon
Bo'ktargi	1. Qarchig'aysimonlar oilasiga mansub ko'chman-chi yirtqich qush. 2. Egarning orqasiga bog'lab qo'yiladigan lo'la yostiqcha
Bo'la	1. Bo'liq, yetilgan; me'yoriga yetgan. 2. Opa-singillarning bolalari; xolavachcha
Bo'lish	1. Bo'lmoq. Boy bo'lish. 2. Muayyan qism, bo'laklarga ajratish; taqsimlash
Bo'lish-moq	1. Bo'lmoq. «Opa» deydigan bo'lishdi. (birgalik nisbat) 2. Ko'maklashmoq; yon bosmoq, tarafini olmoq. Bo'Imaganga bo'lishma. (Maqol). 3. Bo'lmoq. <i>Teng bo'lishmoq</i>

Bo'lmoq	1. Yuz bermoq, voqe bo'lmoq. 2. Butunni bo'laklarga ajratmoq
Bo'luv	1. Bo'lmoq (harakat nomi). 2. Butunni bo'laklarga ajratmoq
Bo'ta	1. Tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi, bo'taloq. 2. Oltin, kumush, mis va sh.k.ni eritish uchun ishlatiladigan qadimiy asbob, dumaloq kosacha; tigel
Bo'sh	1. Ichida hech narsasi bo'l'magan, quruq. <i>Bo'sh idish.</i> 2. Salga uzilib, yulinib, yirtilib ketadigan, pishiqlixta emas, jonsiz. <i>Bo'sh arqon</i>
Bo'sha-moq	1. Band etib yoki ishg'ol qilib turgan kimsadan, narsadan holi bo'lmoq. <i>Zal bo'shadi.</i> 2. Bo'sh, yumshoq bo'lib qolmoq. Yer namiqib, bo'shab qolibdi
Bo'shat-moq	1. Bo'shamoq (orttirma nisbat). <i>Yo'lni bo'shatmoq.</i> 2. Bo'shamoq (orttirma nisbat). <i>Qatqaloqlarni bo'shatmoq. Vintni bo'shatmoq. Cholg'u torlarini bo'shatmoq</i>
Bo'shash-moq	1. Bo'shamoq. <i>Dala ishlardan bo'sashdi (birgalik nisbat).</i> 2. Yumshoq bo'lib qolmoq, yumshamoq
Bo'shlik	1. Ichida hech narsasi yo'qlik. 2. Pishiqlixta, mustahkam emaslik.
Bo'g'ma	1. Bo'g'ib qo'yiladigan yoki bo'g'ib, burab qo'yilgan, burmali. <i>Bo'g'ma yoqa ko'ylak.</i> 2. Tomoqning yallig'lanishi va nafas yo'lining torayishi natijasida nafas olishning qiyinlashuvi, xirillab yo'talish bilan kechadigan yuqumli kasallik
Bo'g'oz	1. Qornida bolasi bor. <i>Bo'g'oz sigir.</i> 2. Ikki suv havzasini tutashtiruvchi tor suv yo'lli
Dabba	1. Kasallik, churra. 2. Juvozkashlarning charmdan yoki metaldan yasalgan va yog', umuman, suyuqlik quyib qo'yadigan idishi
Dav	1. Ulkan, katta, baquvvat. 2. Tuhmat, bohton
Davkash	1. Munozarani yaxshi ko'ruchchi, janjalkash. 2. Tuhmatchi, bohtonchi

Davlat	1. Mustaqil mamlakat. 2. Boylik, mol-dunyo, mol-mulk
Davlatli	1. O'z mustaqil davlatiga ega bo'lgan. 2. Katta davlatga, boylikka ega bo'lgan; davlatmand, badavlat
Davra	1. Doira shaklida tuzilgan saf yoki doira yasab, qurshov olib o'tirgan kishilar. 2. Badiiy misgarlikda barkash va laganlar ustiga tushiriladigan, ma'lum tartibga ega bo'lgan, doira shaklidagi naqshlardan biri
Dagir	1. Firibgar, qallob, aldoqchi. 2. Ochiq rangli yarim shoyi mato
Dakang	1. Dakan – Tovuq-xo'rozlarning bo'ydor va go'shtdor turi. 2. Taqlid so'z. Childirmaning ikki zarbda chiqargan ovozi
Dal	1. Xuddi o'ziga, to'ppa-to'g'ri. <i>Ovchi-da! Dal ko'zlab otar... (Mirtemir)</i> 2. Tut bargi
Dam	1. Nafas, tin. <i>Damim qaytib ketyapti. Damimni rostlab olay. Chuqur dam oling.</i> 2. On, lahma, kez, payt. <i>Baxtli damlar.</i> 3. Temirchilarning ko'ra yoki o'choqdagi ko'mirni yondirish uchun havo yuboradigan, charmdan ishlangan asbobi. 4. Chet, qirg'oq. <i>Ayvonning damiga o'tirdi.</i> 5. Asbobning kesadigan o'tkir tomoni, tig'i; tig'. <i>Xanjarning dami</i>
Damba	1. Daryo, soy, suv havzasi yoqalariga tuproq, tosh, shag'al, beton va sh.k.dan ko'tarilgan to'siq, ko'tarma. 2. Tamba. <i>Keyin damba o'rniga uzun zanjir urilgan ko'cha eshigini qiya ochib, ko'chaga chiqdi. (M.Ismoiliiy).</i> 3. Yo'g'on gavdali, qo'pol semiz odam
Dandana	1. Dandona. Biror asbob-uskunaning tishga o'xshatib ishlangan va ulanadigan qismi. 2. Tishlari bo'lgan mola; sixmola

Dard	1. Jismoniy azob; og'riq, kasallik. <i>Og'ir dard. Dard ko'moq, Dardga chalinmoq.</i> 2. Koyish so'zi. <i>Ali desang, bali deydi, o'l desang, dard deydi.</i>
Daroyi	1. Ertapishar qora rangli uzum navlaridan biri. 2. Daroyi ro'mol, daroyi ko'ylak
Dasta	1. Turli asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi; sop. <i>Bolta dastasi. Pichoq dastasi.</i> 2. Keli (o'g'ir)da narsa oqlashda (tuyishda) ishlataladigan tutqichli asbob, kulisop. 3. Chillak. Qadimgi mayalarning kasallangan tishlarini davolashda shifokorlar yog'och dastalaridan foydalanishgan ekan. («Fan va turmush»). 4. Bir tutam yoki bog'lam qilib terilgan yoxud bog'langan narsa, bog', bog'lam. <i>Bir dasta piyoz</i>
Dastak	1. Turli qurilmalarning richag asosiga qurilgan qismi; richag. <i>Tegirmon qulog'ining dastagi.</i> 2. Oyoq kiyimining tovonni aylantirib olgan va boshliqqa biriktirilgan orqa qismi. <i>Etikning dastagi</i>
Dastalamoq	1. Dasta o'matmoq, soplamoq. <i>Ketmonni dastalamoq.</i> 2. Dasta-dasta qilib termoq yoki bog'lamoq. <i>Gul dastalamoq</i>
Daf	1. Chertib chalinadigan, doira shaklidagi yog'och gardishga xom teri qoplab yasalgan musiqa asobi; childirma, doira. <i>Daf chalinib, bazm boshlandi.</i> (Mirmuhsin) 2. Qaytarish yo'qotish, bartaraf etish
Daha	1. O'rta Osiyo xonliklarida qishloq joylarida bir necha qishloqdan, yirik shaharlarda esa bir necha mahalla, mavzedan iborat bo'lgan ma'muriy-hududiy birlik. <i>Mirzakarimboyni Toshkentning to'rt dahasi biladi.</i> (Oybek). 2. O'tmishda Buxoro amirligida o'nta piyoda askaridan iborat bo'lgan harbiy bo'linmaning nomi. 3. Ipak qurtining uyquga kirish pallasi, yoshi

Devon	<ol style="list-style-type: none"> Muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga roya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she'rlarining (dostonlaridan tashqari) to'liq to'plami. O'tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyo xonliklarida amal qilgan oliy davlat amaldorlarining majlisi. Devon – divan (so'zlashuv uslubida)
Delta	<ol style="list-style-type: none"> Yunon alifbosidagi to'rtinchi harfning nomi. Daryoning uchburchaksimon tarmoqlanib, ko'lga yoki dengizga quyiladigan joyida hosil bo'lgan tekislik.
Depres-siya	<ol style="list-style-type: none"> Tushkunlikka berilgan ruhiy holat; og'ir ruhiy holat. Quruqlikning dengiz sathidan past qismi
Derivat-siya	<ol style="list-style-type: none"> Suvni daryo o'zanidan boshqa yoqqa (qazilgan ariqqa, kanalga) solib yuborish. Til birliklari (so'z, so'z birikmalari va b.)ning yasalishi, hosil bo'lishi
Dim	<ol style="list-style-type: none"> Shamolsiz, shabadasiz va nafasni qaytaradigan darajada issiq. Jim. <i>Pismiq dim o'tirar.</i> Sira, aslo (shevaga xos so'z)
Dim-dim	<ol style="list-style-type: none"> Dimlab, asta-asta qaynatib tayyorlanadigan ovqat. Indamaslik, ovozini chiqarmaslik, jimlik, bosti-bosti.
Diplomat	<ol style="list-style-type: none"> Chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokaralar olib borish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan va shunday ishlar uchun o'z hukumati tomonidan vakil qilib tayin etilgan lavozimli kishi. Kichik chemodan shaklida ishlangan, qulflanadigan portfel
Differen-sial	<ol style="list-style-type: none"> Erkin o'zgaruvchan miqdorning cheksiz kichik ixtiyoriy orttirmasi (matematik termin). Har xil sharoitda turlicha yuz beradigan, bir xilda turmaydigan; farqli, tafovutli
Dov	<ol style="list-style-type: none"> Bo'yি baland, yo'g'on va baquvvat. O'z haq-huquqini tasdiqlash yoki qondirish haqidagi talab, da'vo, tortishuv. <i>Yomon yo'ldosh yov bo'ladi. Oxir ishi dov bo'ladi. (Maqol).</i> Qimorda o'rtaga tikilgan pul yoki qimmatli narsa. Urush, janjal, olishuv

Dovon	1. Tog' yoki tepalikning baland, ammo oshib o'tsa bo'ladijan qulay joyi; oshuv. 2. To'quvchilarning ishxonasida ikki ustunning tepa oralig'iga o'matilgan va ustidan uchiga tosh bog'langan tanda oshirib qo'shiladigan yog'och g'altak
Dovul	1. Vayronlik keltiruvchi kuchli bo'ron. <i>Dovul turdi</i> . 2. Maxsus nog'ora. Ovchilar, to'pchi qorovullar yoki harbiylar uchun mo'ljallangan, teridan yoki po'latdan yasalgan maxsus nog'ora.
Dovur	1. Qadar (ko'makchi). <i>Soat ikkiga dovur</i> . 2. Tovush, ovoz. 3. Davir. Ot ustiga egardan keyin yopiladigan zarbof abzal, yopinchiq
Doira	1. Tekislikning aylana bilan o'rалган yuzasi; to'garak. <i>Doiraning yuzi</i> . 2. Aylana shaklidagi, gardishsimon urma musiqa asbobi; childirma, daf. <i>Doira chalmoq</i>
Dom	1. Hayvon va parrandalarni tirik tutish uchun mo'ljallangan ov quroli; tuzoq, sirtmoq; qopqon. 2. Domi ham yo'q, daragi ham yo'q. <i>Dom-daragi yo'q</i> . 3. Dam, ich, og'ush, quchoq. <i>Boylik botqoqqa o'xshagan narsa</i> . <i>Domiga bir tortsa, bir umrga g'arq bo'lib ketishing turgan gap!</i> (F.Musajonov). 4. Dom (so'zlashuv uslubida) – ko'p qavatlari uy
Domana	1. Domana (shevaga xos so'z) – hech narsa, baloga ham. <i>O'zicha hamma narsaga aqlim yetadi deb o'ylaydi-yu, domanaga ham fahmi yetmaydi</i> . (H.Qobil). 2. Har bir narsanining etagi, tagi; cheti, hoshiyasi. <i>Tog'ning domanasi</i>
Don	1. Boshoqli va dukkakli o'simliklar mahsuli. 2. Ispaniyada va ispan tilida so'zlashuvchi boshqa mamlakatlarda erkak ismi oldidan qo'yib, unga hurmat bilan murojaat qilishda qo'llanadigan so'z; Italiyada ruhoniylar va dvoryanlarning faxriy unvoni

Dong	<ol style="list-style-type: none"> Shon-shuhrat, dovrug, mashhurlik. <i>Yolg'iz oting changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong'i chiqmas.</i> (<i>Maqol</i>). Dong qotib uxlamoq yoki dong qotmoq. Juda qattiq uxlamoq. Vyetnam Sotsialistik Respublikasining pul birligi
Dong'	<ol style="list-style-type: none"> Dong. Shon-shuhrat, dovrug, mashhurlik. Holatga taqlid so'z. Tovushga taqlid so'z
Dor	<ol style="list-style-type: none"> Ustiga kiyim-kechak, mol tashlab qo'yish uchun ikki ustun (qoziq) orasiga ko'ndalang o'rnatilgan xodacha yoki tortilgan arqon (ip). Uy (shevaga xos so'z), maskan, makon
Doroyi	<ol style="list-style-type: none"> O'rishi xom ipak, arqog'i ishqorlangan, ipakdan to'qilgan, serbar harir gazlama va undan tayyorlangan kiyim-kechak. Doroyi ko'yak. Ertapishar, jaydari uzum navlарidan biri
Dosh	<ol style="list-style-type: none"> Qozon. Doshqozon. Dosh bermoq. Chidam, turish bermoq, bardosh bermoq, chidamoq
Dog'	<ol style="list-style-type: none"> Narsalarning yuzidagi boshqa rangda, boshqa tusda ajralib, farqlanib turgan kichikroq joy, tabiiy belgilar. O'ta qizitilgan, qizdirib, ma'lum meyorga yetiltirilgan (<i>yog'</i>, moy haqida). <i>Yog' dog' qilmoq</i>. O'g'ir musibatdan, qayg'u-kulfatdan ko'ngilda qolgan alam. <i>Ayriliq dog'i</i>
Dog'li	<ol style="list-style-type: none"> Yuragida dog'i, alami, yarasi bo'lgan, alam chekkan, kuygan. <i>Yurak-bag'ri dog'li</i>. <i>Dog'i bor, dog' tekkan; dog'dor. Dog'li yuz</i>
Dud	<ol style="list-style-type: none"> Tutun, qurum, is. Tovushga taqlidni bildirgan so'z. Gazlamaga gul bosishda ishlatiladigan qo'sh qolip
Duk	<ol style="list-style-type: none"> Charxning yigirilayotgan ip o'ralib boradigan qismi; yig. Tovushga taqlidni bildirgan so'z

Dukur	1. Tovushga taqlidni bildirgan so'z. 2. Suv taqsim qilinadigan joy
Dum	1. Dum. 2. Dastasiz, xumchasimon kichkina idish
Dunyo	1. Butun borliq, koinot, olam. 2. Boylik, davlat
Dupoya	1. Yamoqchi ustalarning uchi qayrilgan temir asbobi. 2. Misgarlik, naqshgarlikda ishlataladigan sandonning uzun, dumli turi
Durang	1. O'yining g'alabasiz tugallanishi. 2. Mahsi yoki etikning chokiga ko'pincha ikki xil rangli ip yoki ipak bilan tikilgan gulli hoshiya, uqa
Durra	1. Ayollar peshonasiga tang'iydigan kichik ro'mol. 2. G'alladoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik; donli jo'xorining bir turi
Dut	1. Dud. Tutun 2. Tovushga taqlidni bildirgan so'z
Do'l	1. Muz parchalaridan iborat atmosfera yog'ini. 2. Idish, xampa. Tegirmon toshi tepasiga o'rnatilgan, piramida shaklidagi idish. 3. Katta nog'ora. Urush maydonlarida yoki ulkan tantanalarda chalinadigan katta nog'ora.
Do'lop (shevaga xos so'zlar)	1. Qo'pol, beso'naqay. 2. Serodam, gavjum. 3. Har xil navli donlar aralashmasi
Do'ita	1. Yumaloqqina, lo'ppi, do'mboq. <i>Do'ita bola</i> . 2. Qaymoqni qizdirib, yog'ini olgandan keyin qozonda qoladigan jizzasimon yeishli qismi
Do'q	1. Qo'rqtish, cho'chitish, tartibga chaqirish uchun aytilgan gap, qilingan harakat; po'pisa, siyosat. 2. Do'q (taqlid so'z). Jarangsiz narsalarning urilishidan hosil bo'lgan ovoz
Ekvatorial	1. Ikkita bir-biriga perpendikulyar bo'lgan o'q atrofida aylanadigan va har qanday osmon jismining osmon ekvatoriga nisbatan vaziyatini aniqlashga imkon beradigan linzali yoki ko'zguli teleskop . 2. Ekvatorga oid, ekvatorda yoki ekvatorga yaqin joylashgan

Ekvivalent	1. Biror narsaga teng yoki biror jihatdan mos keladigan va uning o'rnini bosa oladigan boshqa narsa (ot so'z turkumi). 2. Teng (sifat so'z turkumi)
Ekipaj	1. Ot qo'shiladigan, odam tashuvchi yengil arava. 2. Kema, samolyot, tank va sh.k.larning shaxsiy tarkibi
Elastik	1. Sintetik tolalardan maxsus tayyorlangan cho'zi-luvchan, egiluvchan, qayishqoq modda, cho'zib qo'yib yuborilganda, tez o'z holiga qaytadigan material, rezinka (ot so'z turkumi). 2. Qayishqoq, cho'ziluvchan, egiluvchan (sifat so'z turkumi)
Elektrik	1. Elektrotexnik (shaxs). 2. Elektrga aloqador, unga xos, elektr bilan harakatga keltiriladigan, elektr hosil qiladigan, elektr tufayli ishlaydigan. <i>Elektrik lampa</i>
Elektron	1. Eng kichik manfiy elektr zaryadiga ega bo'lgan elementar zarracha. 2. Magniyga bir oz aluminiy, rux va marganes qo'shilishidan hosil bo'ladigan yengil, qayishqoq qotishma. 3. Elektronga oid. <i>Elektron qobiq</i> . 4. Elektronadan qilingan. Elektronli. <i>Elektron detal</i>
Ellik	1. Ellik raqami. 2. Enli, serbar. 3. Biror elga mansub bo'lgan. <i>Chet ellik mehmon</i>
Elchilik	1. Elchi ishi, vazifa – lavozimi. 2. Biror elga, xalqqa xos rasm-rusum, tartib qoidalar
Emissiya	1. Pul va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish. 2. Qizdirilgan yoki tashqi elektr va magnit maydonlar ta'siri ostidagi jismlar sirtidan zarralarning otilib chiqishi, chiqarilishi
Emission	1. Qimmatli qog'ozlar, qog'oz pullar chiqaradigan va ularni ishga soladigan. <i>Emission bank</i> . 2. Emissiya hodisasi bilan bog'liq bo'lgan (fizikaga doir). <i>Emission jarayon</i>

Erish	1. Erimoq. 2. Asl, odatdagи holga to'g'ri kelmaydigan; g'alati
Esiz (omonim emas)	1. Achinish, afsuslanishni bildirish; attang, afsus.
Essiz	1. Bekor ketgan. <i>Nodonga so'zlagan essiz so'zim.</i> 2. Es-hushi o'zida emas
Etiket	1. Biror jamiyatda, ijtimoiy guruh va sh.k.da qabul qilingan o'zaro muomala, odob-axloq; marosim tartibi, qoidalari. <i>Saroy ahliga xos etiket.</i> 2. Etiketka, yorliq
Etmoq	1. Qilmoq (yordamchi fe'l). 2. Aytmoq (Toshkent shevasida)
Efemer	1. Bahorda unib chiqib, tez (bir necha hafta davomida) urug'laydigan va yozda qovjirab, qurib qoladigan o'tlarning nomi. 2. Uzoq davom etmaydigan, vaqtli, o'tkinchi. Agar <i>isitma bir-ikki kungina chiqsa, efemer isitmalash deyladi.</i>
Eshmoq	1. Aylantirib, burab, tovlab pishiq qilmoq; pishitmoq, chiyramoq, yigirmoq; 2. Eshkak eshmoq.
Ehrom	1. Makkaga haj safariga otlangan kishilarning ma'lum vaqt davomida ba'zi narsalardan (masalan, atir sepish, soqol-mo'ylov, tirnoq olish...) foydalanishdan o'zini tiyish. 2. Piramida
Farq	1. Narsalar orasidagi nomuvofiqlik, noo'xshashlik; ayirma, tafovut. <i>So'zdan so'zning farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor. (Maqol)</i> 2. Sochning ikki tomonga tarashdan boshda hosil bo'ladigan yo'l
Fen	1. Sochni quritishga mo'ljallangan, havoni iliq qilib haydovchi elektr asbob. 2. Organizmning irsiy belgisi, xususiyati (genlar bilan bog'liq)

Feodal	1. Feodalizm davridagi humron sinf vakili – katta yer-mulk egasi; zamindor; pomeshchik. 2. Feodalizmga, feodalarga xos; feodalizm prinsiplariga asoslangan. <i>Feodal munosabatlar</i>
Ferma	1. Fermerga tegishli bo'lgan qishloq xo'jalik korxonasi. 2. Tom yopish, bostirmalar va ko'prik qurishda ishlataladigan, metall, temir-beton, yog'ochdan bo'lgan tayoq(cha)larni bir-biriga biriktirib yasaladigan qurilish konstruksiyasi
Fe'l	1. Kishi xarakterini tashkil etuvchi ruhiy xususiyatlar va undan yuzaga keluvchi xatti-harakatlar majmuyi; xulq, xarakter, xulq-atvor. 2. So'z turkumi
Fizik	1. Fizik – fizika fani mutaxassisasi. 2. Fizik – fizikaviy. <i>Fizik hodisalar</i>
Fokus	1. Optik sistema orqali o'tgan parallel nurlar dastasining o'zaro kesishgan yoxud to'plangan nuqtasi (fizika faniga doir). <i>Linza fokusi</i> . 2. Ko'z ilg'amas darajadagi, ko'zni aldaydigan chaqqonlik, mohirlik bilan qilinadigan, o'zining g'ayritabiyligi bilan tomoshabinlarni hayratga soladigan hiyla: ko'zboyloqchilik, nayrangbozlik
Fon	1. Surat chiziladigan, biror narsa tasvirlanadigan, surat bo'yoqlaridan ajralib turadigan asosiy rang. <i>Oq fonga chizilgan qizil gullar</i> . 2. Tovushning balandlik darajasi birligi
Fraksiya	1. Biror-bir siyosiy partyaning, qonunchilik organining siyosatini parlamentda, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarida, jamoat tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tashkiliy guruh. 2. Suyuq aralashmaning sochiluchan yoki bo'lak-bo'lak qattiq materialning biron-bir belgisi, xossa-siga ko'ra ajratilgan qismlari
Gaz	1. Bir metrik sistema qabul qilinganga qadar ishlatalgan, 0,71 metrga teng uzunlik o'ichovi birligi; arshin. 2. Yengil modda. <i>Zaharli gaz</i> .

	3. Yupqa shaffof ipak gazlama; harir. <i>Gaz ro'mol.</i> 4. Yulg'un
Gazak	1. Yaraning, shikastlangan joyning yallig'langan, yiring olgan holati. 2. Ichkilikdan keyin yeyiladigan yegulik; ishtaha ochar yengil ovqat
Gazlamoq	1. Gaz bilan o'lchamoq. 2. Suyuqlikni gaz bilan to'yintirmoq
Gazli	1. Gaz uzunligidagi. <i>Yetti gazli supa.</i> 2. Ichida gazi bor. <i>Gazli ballon</i>
Gala	1. Bir turdag'i qush, hayvon-jonivorlar to'dasi. 2. O'tmishda: Yevropa podsholari saroyida bo'ladigan tantanali bayram; hozirda ot turkumidagi so'z bilan qo'shilgan holda anglatuvchi tantanali, yorqin, xalqni, ommani o'ziga jalb etuvchi tomosha. <i>Gala konsert</i>
Gamma	1. Musiqada bir yoki bir necha oktava tarkibidagi yaqin tovushlarning bosqichli, ketma-ket tartibi. 2. Yunon alifbosining uchinchi harfi va shu harfning nomi
Gap	1. So'zlar orqali bayon etiladigan fikr. 2. Do'st-tengqur, hamkasaba ulfatlar orasida navbat bilan hafta yoki oyda ulardan birinikida o'tkazildigan ziyofat; ulfatchilik
General	1. Oliy qo'mondonlik tarkibiga beriladigan harbiy unvon. 2. Bosh, asosiy. <i>Shaharning general plani</i>
Giperbola	1. Mubolag'a. 2. Matematikada doiraviy konusni uning ikki yasovchisiga parallel tekislik bilan kesganda hosil bo'ladigan egri chiziq
Girih	1. Bog'lam, bog'langan joy, tugun. 2. Me'morchilikda va badiiy hunarmandchilikda keng ishlatiladigan murakkab naqsh.
Grafik	1. Grafik. Turli narsa va hodisalarining miqdoriy bog'lanishlarini chiziqlar, chizmalar vositasida tasvirlash va shunday tasvirning o'zi. 2. Grafik. Grafika sohasida ijod qiluvchi rassom. 3. Grafik. Grafikaga oid. <i>Grafik tasvir</i>

Grif	1. Antik mifologiyada burgut qanotli va burgut boshli sher; afsonaviy maxluq. 2. Biror kimsa imzosi, tashkilot, muassasa va sh.k.lar nomi chekilgan muhr, shtamp va ularning hujjat ustiga bosilgan nusxasi.
Gul	1. Yopiq urug'li o'simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan, gulband, kosachabarglar, tojbarglar, changchilar va urug'chidan iborat qismi. 2. Qizilcha, qizamiq va boshqa ba'zi bir kasalliklar bilan og'riqan vaqtida badanda paydo bo'ladijan mayda qizil toshma
Gula	1. To'qimachilik dastgohida tanda iplarini ikkiga ajratib, ular orasidan moki o'tkazishga xizmat qiladigan moslama. 2. Nusxa, o'rnak, andaza
Gulband	1. Pichoqning dastasi bilan tig'i birikkan joyiga o'rnatilgan maxsus metal halqa. 2. Gulni tutib turuvchi novdacha (Botanikada)
Gullamoq	1. Gul ochmoq, gulga kirmoq. 2. Mog'orlamoq, po'panak bosmoq. <i>Non gullabdi</i>
Gulobi	1. Gulob rangli, pushti. 2. Qovunning kechpishar navi
Guppa	1. Guppa tashlamoq. 2. Guppa urmoq
Guppi	1. Hovliqma, shoshma-shoshar. 2. Qalin paxtali chopon, to'n
Go'yo	1. Aytuvchi, gapiruvchi. 2. Qiylash, o'xshatish ma'nolarini ifodalovchi yuklama
Ha	1. Javobda biror fikrni tasdiqlashni, rozilikni bildiradi. 2. So'roq va taxmin ma'nolarini ta'kidlash uchun ishlatalidi. <i>Ha, nega ranging bo'zarib ketdi?</i>
Havo	1. Yer atmosferasini hosil qiluvchi, inson, hayvon, o'simliklar hayoti uchun zarur bo'lgan, asosan, azot va kisloroddan iborat gazlar aralashmasi. 2. Kibr, g'urur. <i>Havosi baland</i> . 3. Kuy, ohang.

	4. Havosini olmoq – mashqini olmoq, yo'l-yo'rig'ini, usulini yaxshi egallamoq
Havodor	1. Toza havoli, bahavo. 2. O'yinchi, ashulachi, sozanda kabilarga to'y, zi-yofat egalari va tomoshabinlardan tushadigan pul va sovg'alar. 3. Kibrli, dimog'dor
Havoli	1. Bahavo. 2. O'zini boshqalardan yuqori tutadigan; kibrli, xud-bin, dimog'dor
Had	1. Chegara. 2. Matematikada tenglamani tashkil etuvchi sonlar-dan har qaysisi yoki son o'rnidiga ishlatalilgan belgi-lardan bittasi
Hadis	1. Muhammad payg'ambarimizning bajargan amal-lari, aytgan gaplari. 2. Kurash, bellashuv kabilarda qo'llanadigan o'ziga xos usul. <i>Polvonlarning kurash hadislarining o'z nomi bor.</i> (Sh. Xolmirzayev)
Hayot	1. Materiyaning o'z rivojlanishining muayyan bir davridagi harakatlanish shakli. 2. Kichik ekin maydoni, tomorqa, bog'cha, chorvoq
Hal	1. Yechimini topgan, bir yoqli etilgan. 2. Tilla, kumush yoki bronza kukunidan yasalgan bo'yoq
Halim	1. Kishiga qattiq botmaydigan, muloyim, yoqimli
Hilla	1. Makr-u hiyla. 2. Hulla. Nozik va nafis mato
Hov	1. Undov so'z. 2. Taqlid so'z
Hu	1. Undov so'z. 2. Taqlid so'z
Huzur	1. Yuqori darajadagi qanoat, qoniqish hissi, kishi vujudi a'zolarining yayrash holati; rohat. 2. Makon munosabatini bildiradi. <i>Huzuriga, huzu-rida, huzuridan</i>

Hur	1. Birovning izmidan holi, erki o'zida bo'lgan; ozod, erkin. 2. Islom an'anasi va Qur'onga ko'ra, taqvodorlar bilan birgalikda jannatda yashaydigan, jismoniy va ma'nnaviy kamchiliklardan xoli bo'lgan nihoyatda go'zal qiz(lar)
Huh	1. Undov so'z. 2. Taqlid so'z
Ho'ppak	1. Ikki qo'l shapalog'ini biriktirib, orqasi bilan urish. 2. Paxtasi yetilib, yaxshi ochilgan ko'sak
Iborat	1. Tashkil topgan, tarkib topgan, tuzilgan. 2. Ibora; so'z, so'zlar (eskirgan so'z hisoblanadi)
Ivimoq	1. Suv yoki boshqa suyuqlikni emib, shimib ho'l bo'lmoq, nam tortib yumshamoq; bo'kmoq. 2. Quyulib qolmoq, quyuqlashmoq
Ivitmoq	1. Ivimoq. <i>No'xatni ivitib solmoq.</i> 2. Ivimoq. <i>Qatiq ivitmoq</i>
Ikkilik	1. Yo u yoqlik, yo bu yoqlik bo'ladigan, yaxshi to-monga hal bo'lishi guman. 2. Ikki dona xoli, surati bo'lgan (karta haqida). <i>Tap-ponning ikkiligi</i>
Ilmoq	1. Mix, qoziq, ilgak va sh.k.ga osmoq, osib qo'yamoq. 2. Ilgak
Inju	1. Marvarid, dur. 2. Chingizxon xonadoni a'zolariga tegishli yer-suv; keyinchalik shohlar, amirlar, xonlar xonadoni a'zolariga tegishli yer-suv
Iraq	1. Uzoq, olis. 2. Shashmaqom tizimidan oltinchi maqom nomi
Irq	1. Nasl, zot. 2. Yuz, yonoq
Is	1. Hid. 2. Tutun, dud
Istak	1. Xohish. 2. Tok poyalarini bog'lash uchun ishlataladigan nov-da (bog'ich)

Ish	1. Inson faoliyati bilan bog'liq, uning mehnati bilan amalga oshadigan, bajariladigan faoliyat. 2. Bir juft poyabzalga yetarli teri bo'lagi yoki muayan kiyimga yetarli gazlama. <i>Bu teridan to'rtta ish chiqarish mumkin. Ish bichmoq</i>
Ishkal	1. Ishdagi chatoq holat; chalkashlik, buzuqlik. 2. Poxol yoki qo'g'adan eshilgan bog'lik, arqon
Jabr	1. Jismoniy yoki ruhiy azob; zulm, adolatsizlik. 2. Algebra
Javramoq	1. Hadeb gapiravermoq, zerikarli darajada ko'p gapirmoq, vaysamoq. 2. Sovuqqa qotmoq, sovuq yemoq, diydiramoq
Jaz	1. To'g'ralgan, to'g'ramcha go'sht. 2. Taqlid so'z. 3. Jiz. 4. Ko'pincha urib va puflab chalinadigan asboblar dan tuzilgan orkestr. 5. Tuya egari
Jar	1. Chetlari o'pirilgan chuqur soylik; chuqurlik. 2. Jarchi qo'yib, hammaga xabar bermoq. <i>Jar solmoq</i>
Jiz	1. Taqlid so'z. 2. Taom turi
Jizzilla-moq	1. Jon achitib og'rimoq, lovullamoq. 2. Jazillamoq. <i>Jazillagan kabob</i>
Jild	1. G'ilof. 2. Ko'p qismli badiiy yoki ilmiy asarning har bir nashr qilingan qismi; tom
Jin	1. Afsonaviy maxluq. 2. Jiring. <i>Jin chaqa – jiring chaqa. Jin chaqa hammaning karmoniga tupurib, boylaming hamyoniga o'zini uradi.</i> (Oybek) 3. Jin mashina. Paxta tozalaydigan, chigtdan tolalarni ajratib oladigan mashina
Jingirtob	1. Qaqragan, qayishgan, qovjiragan. 2. Birdan ko'tariladigan, o'ta nishab, tik. 3. Bir-biriga kirishib, ajratish qiyin, chigal holga kel gan, jingala holatl

Jir	1. Moy, yog'. 2. Qo'shiq. 3. Janjal
Jish	1. Go'sht. 2. Qushlarning hali pat chiqarmagan bolasi
Joy	1. Yer, yuza, fazo; o'rin, makon. 2. Bafurja, bamaylixotir; kech, keyin; aniq. <i>Bugun ishga joyroq boraman</i>
Joyli	1. Joyi, yeri bo'lgan; oilali. 2. Xalqona-xurofiy e'tiqodlarga ko'ra, muqaddas yoki pastqam, ovloq joylarda nojo'ya, nojoiz ish qilinganligi sababli kelib chiqqan, vujudga kelgan (kasallik, betoblik haqida). «Kasalingiz joyli ekan», – dedi folbin.
Joysiz	1. Boshpanasiz, uysiz. 2. O'rinsiz, noo'rin
Juvda	1. Tuyaning bo'yni va tizzasidagi jun. 2. Boltaning sop o'rnatiladigan tomoni
Juftak	1. Narsalarni qisib ushlaydigan ombirsimon asbob; qisqich. 2. Juftak(ni) rostlamoq (urmoq, otmoq). Qochib qolmoq
Jo'r	1. To'rg'aylar oilasiga mansub sayroqi qush. 2. Mos tushgan, mos, ohangdosh, hamohang, uyg'un
Jo'ra	1. Oshna, og'ayni, o'rtoq. 2. Bir kiyimli ikki bo'lakdan iborat ipakli mol (beqasam, atlas, shoyi...)
Kavaler	1. Orden bilan mukofotlangan kishi; nishondor. «Mustaqillik» ordeni kavaleri. 2. Biroz ayol bilan birga bo'lib, suhbatlashib yuruchi, kuzatib boruvchi yoki birga o'yinga, raqsga tushuvchi erkak
Kadet	1. Chor Rossiyasida kadet korpusi – dvoryanlarning bolalari uchun mo'ljallangan yopiq harbiy o'quv muassasasining o'quvchisi. 2. 1905-yilda tashkil topgan, konstitutsion-demokratik partiya deb ataluvchi partianing a'zosi

Kadr	1. Kinoplyonka yoki fotoplyonkadagi alohida-alohida suratlardan biri; bitta surat, yakka rasm. 2. Xizmatchi, ishchi, xodim.
Kalla	1. Jonivorlarning boshi. 2. Issiqxonalarda va xonadonlarda o'stiriladigan, gullaydigan ko'p yillik manzaralni o'simlik
Kamar	1. Kiyim ustidan belga bog'lanadigan, odatda, ko'ndan qilinadigan, to'qali enli tasma. 2. Suv qirg'og'ida, jar chetida, tepalik yoki tog' yonbag'rida yuvilish, o'parilish va sh.k. natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiq joy, yo'l
Kanna	1. Shoyigul o'simligi. 2. Afrikada yashaydigan, antilopalar guruhiga mansub juft tuyoqli sutemizuvchi hayvon
Kapaki	1. Poyabzalning tagcharmi. 2. <i>Kapaki qilib otmoq (nos, tolqon va sh.k. haqida)</i>
Kapital	1. O'zini o'zi ko'paytirish uchun foydalilaniladigan, o'z egasiga foya, daromad keltiradigan boylik (qimmatbaho qog'ozlar, pul mablag'lari, moddiy mol-mulk va sh.k.) 2. Asosli ravishdagi, tubdan bo'ladigan; katta; ko'p mehnat va mablag' talab qiladigan. <i>Kapital ta'mir</i>
Karam	1. Poliz ekini. 2. Marhamat, muruvvat, himmat
Kart	1. <i>Kart dumba – dumbaning o'zi</i>
Karta	1. Xarita. 2. Yerning, dalaning alohida, to'g'ri to'rtburchak shaklida ajratilgan bo'lagi, bir bo'lak dala
Kasr	1. Matematikada birlikning qismlaridan tashkil topgan son. 2. O'zganing yoki biron narsaning aybi, sababi bilan bo'ladigan yomon ta'sir, yaramas oqibat; kasofat
Kashal	1. Intizor, zor; xavotirlanish. 2. Kashal eli («Algomish»da) 3. Ishkal

Kindik	1. Qorindagi bolani yo'ldosh orqali ona tanasi bilan birlashtiruvchi, bolani oziq moddalari bilan ta'minlash uchun xizmat qiluvchi ichak-nay. 2. Dorboz yuradigan arqonning o'taroq joyidan ko'tarib turuvchi ikki yog'och uchlarining bir-biri bilan, shuningdek, arqon bilan tutashgan, kesishgan joyi
Kisht	1. Shaxmat o'yinida biror dona bilan shohga hujum haqida ogohlantirish. 2. Undov so'z. Haydash
Kom	1. Og'iz ichi; ich (ko'pincha ajdar, dev kabi afsonaviy maxluqlarning og'zi haqida). <i>Nadomat komida (ichida)</i> 2. Maqsad, murod; shodlik, komronlik
Konditer	1. Pazanda, shakarpaz; qandolatchi. 2. Konditer mahsulotlari (pirojniy, tort, shirinliklar...)
Kredit	1. Kredit – kirim-chiqim daftarlaring chiqimlar, unadigan pullar yoziladigan o'ng tomoni. 2. Kredit – foyda qaytarish sharti bilan, vaqtinchalik foydalanish uchun moddiy mablag'lар berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi, qarz, nasiya
Kran	1. Jo'mrakli truba. 2. Mexanizm (mashina)
Kub	1. Hamma tomoni teng kvadratdan iborat olti yoqlik geometrik shakl; shunday shakldagi narsa. 2. Suyuqliklarni haydash, qaynatish yoki saqlash uchun ishlataladigan silindr shaklidagi katta yopiq idish
Kuva	1. Bog'zi siqiqroq uzun sopol idish. 2. Kosibchilikda charmni urib tekislash, cho'zish va sh.k.lar uchun ishlataladigan og'ir temir asbob
Kuzamoq	1. Tekis qilib kesmoq. 2. Ketmoq , jo'namoq
Kuy	1. Ma'lum musiqa asari, ohang. 2. Ko'y. <i>Shu ko'yga tushdim</i>
Kuyka	1. Lochinsimonlar oilasiga mansub yirtqich qush. 2. Isqirt, iflos

Kulliyot	1. Bir turdag'i narsalarning to'plami, she'riy to'plam. 2. Fakultet
Kunda	1. To'nka. 2. Har kuni (ravish)
Kurash	1. Olishuv, o'zaro bellashuv. 2. Kuramoq. Qor kurash.
Kurash-moq	1. Olishuv, o'zaro bellashuv. 2. Kuramoq. Qor kurash.
Kurra	1. Shar shaklidagi narsa; shar. 2. Xo'tik, eshak bolasi
Kurs	1. O'quv yurtlarida biror fan yoki uning biror qismining ma'lum hajmdagi izchil, tartibli bayoni, darslik. 2. Kema, samolyot va sh.k.ning harakat yo'lli, yo'nalishi
Ko'kla-moq	1. Amal olmoq, o'sib rivojlanmoq. 2. Yirik-yirik qilib, naridan beri tikib, chatib qo'ymoq
Ko'pchik	1. Egar ustiga qo'yiladigan yostiq. 2. Vasiqa
Ko'ra	1. Fe'lning ravishdosh shakli. <i>Meni ko'ra o'rnidan turdi.</i> 2. Tunuka-temirdan tarnov shaklida yasalgan, kabob pishiriladigan asbob. 3. Toshloq, qum-shag'alli yerlarda suvni tortib keta-digan g'ovak joy; o'pqon; 4. Ko'makchi
Ko'st	1. Kam. <i>Kam-ko'st.</i> 2. Biror narsaning ortiqcha, oshiqcha qismi.
Ko'ch	1. Ko'chish paytida tashiladigan uy-ro'zg'or buyum-laridan iborat yuk. 2. Ahli ayol, xotin (eriga nisbatan)
Ko'cha	1. Aholi yashaydigan joylarda yo'lovchilar o'tib turadigan, transport qatnaydigan yo'il. 2. Go'ja
Lava	1. Vulqondan otilib chiqadigan erigan yoki juda yopishqoq tog' jinsi. 2. Shaxtada ko'mir yoki boshqa foydali qazilma qatlami yoppasiga qaziladigan joy

Lama	1. Janubiy Amerikada yashaydigan o'rakchatsiz kichikroq tuya. 2. Tibet va Mo'g'ulistonda budda dini ruhoniysi
Lampa	1. Yoritish uchun ishlatiladigan, yonayotgan (pilikli) qismini o'ziga xos shakldagi shisha qoplab turadi-gan asbob; chiroq. 2. Ganch yoki alebastr suvoq qilingan ship
Lang	1. Cho'loq, oqsoq. 2. Keng. <i>Lang ochiq</i>
Langar	1. Suzib yuruvchi vositalarni (mas. kemani) suv yu-zida ma'lum bir joyda to'xtatib, ushlab turish uchun zanjirga biriktirib, suv ostiga tashlanadigan og'ir temir changak. 2. Dorda muvozanatni saqlash uchun dorboz qo'lda tutadigan yo'g'onroq uzun tayoq; langarcho'p
Lat	1. Shikastlanmoq. <i>Lat yemoq</i> . 2. Latviya Respublikasining asosiy pul birligi (1993-yildan)
Laqqa	1. Chuchuk suvlarda yashaydigan, tangachasiz, mo'ylovli yirtqich baliq. 2. Surishtirmsandan, o'ylab ko'rmasdan, osongina, paqqos ishonmoq, aldanib qolmoq. <i>Laqqa tush-moq</i> . 3. Laxcha. <i>Laqqa cho'g'</i>
Lek	1. Lekin. 2. Albaniya Xalq Respublikasining asosiy pul birligi
Liberal	1. Feodalizmga qarshi qaratilgan siyosiy oqim tarafdori; liberallar partiyasining a'zosi. 2. Liberalizmga oid. <i>Liberal partiya</i>
Liga	1. Kishilar, tashkilotlar, davlatlarning ittifoqi, ham-jamiyati, birlashmasi. 2. Musiqada nota yozuvida ma'lum notalarni birlashtiruvchi va ularni qo'shib, uzuksiz ijro etish zarurligini bildiruvchi yoysimon belgi
Lippa	1. Ishtonning bog' o'tkazish uchun qaytarib tikilgan joyi. 2. Lip. <i>Lippa turib, bo'sag'adan bosh chiqardim</i>

Liq	1. <i>Liq to'la.</i> 2. <i>Liq etib yutmoq</i>
Logistika	1. Matematik mantiq. 2. Inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta'minlashni boshqarish tizimi
Lozim	1. Kerak, zarur. 2. Ishton
Lozimlik	1. Kerak ekanlik. 2. Ishton qilishga yaroqli gazlama
Lom	1. Arab alifbosidagi «L» harfining nomi. 2. Bir yoki har ikkala uchi ham o'tkir bo'lgan uzun, ingichkaroq metall asbob; misrang
Lot	1. Arablarning islomdan ilgarigi topingan sanam; but. 2. Kemadan turib, suvning chuqurligini o'chaydigan asbob
Lotok	1. Ko'chada chakana savdo qilish uchun mo'ljalangan ochiq peshtaxta, ko'chma do'koncha. 2. Cement va boshqa narsa qorishmasidan ishlangan va bir-biriga ulab ishlatiladigan beton tarnov; suv yo'li, ariq
Luqma	1. Ozgina, bir yutum, bir osham (og'izdag'i) taom. 2. Birov gapirayotganda, uning gapiga javob, izoh, so'roq tariqasida boshqa kishi tomonidan qo'shiladigan gap
Lyuks	1. Boshqalardan farqli o'laroq, yuqori sifatli buyum, qimmatbaho narsalar bilan bezatilgan magazin, mehmonxona nomeri, poyezd, paroxod kupesi va shu kabilar. 2. Xalqaro birliklar tizimida yoritilganlik o'chov birligi
Mador	1. Kishining kuch-quvvati, majol. 2. Tropik
May	1. Yilning beshinchchi oyи. 2. Uzumdan tayyorlangan ichkilik, musallas, vino
Man	1. Men. 2. Taqiqlamoq, to'xtatib qo'ymoq, qatag'on qilmoq. 3. Joyiga qarab turli qiymatga ega bo'lgan og'irlik o'chovi

Mandarin	1. Janubiy mamlakatlarda o'sadigan bir turli sitrus o'simligi va uning to'q sariq rangli, terisi yupqa, xushbo'y mevasi. 2. Xitoyning feodalizm davridagi davlat arboblariga yevropaliklar tomonidan berilgan nom
Manot	1. So'm. 2. Arablar islomdan ilgari sig'ingan sanam
Mansab	1. Mas'ul vazifa, amal, lavozim. 2. Daryoning ko'l, dengiz yoki boshqa daryoga quyiladigan joyi
Manqa	1. Dimog'ida gapiruvchi. 2. Ot va boshqa yakka tuyoqli hayvonlarda bo'ladigan, ba'zan odamga ham o'tadigan yuqumli kassallik
Mardum	1. El, xalq, kishilar. 2. Ko'z qorachig'i, gavhari
Marka	1. Pochta haqi va boshqa xil davlat yig'imlari to'langanini ko'rsatuvchi, turlicha qiymatga ega bo'lgan, odatda, biror tasvir tushirilgan kichikroq to'rtburchak qog'ozcha. 2. Germaniyaning (1871-yildan) va Finlandiyaning (1860-yildan) milliy pul birligi (2002-yil 1-yanvardan bu mamlakatlar pul birligi yevroga o'tish munosabati bilan muomaladan chiqqan)
Martaba	1. Marta. <i>Bir necha martaba.</i> 2. Obro', e'tibor, nufuz
Marsh	1. Safda baravar qadam tashlab yurish. 2. Safning yurish boshlashi uchun beriladigan buyruq, komanda
Maska	1. Maxsus niqob. 2. Sariyog'
Mastak	1. G'alla ekinlari orasida o'sadigan, doni zaharli, bir yoki ko'p yillik yovvoyi o't. 2. Kaklikning modasi
Maston	1. Mastona, xumor. 2. Ayyor, jodugar

Masxara	1. Kamsituvchi, kulgi qiluvchi gap-so'z, xatti-harakat; mazax, ermak, kulgi. 2. Qiziqchi, masxaraboz
Mashq	1. Biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. 2. Cholg'u kuyi va uning ijrosi
Ma'mur	1. Boshqarish va ijro huquqiga ega bo'lgan mansabdor, boshliq. 2. Obod va farovon, bekam-u ko'st; to'kin
Maqom	1. Musiqiy ohang. 2. O'rin, joy
Mag'iz	1. Danak, yong'oq kabi qattiq po'choqli mevalarning ichki qismi. 2. Kiyim, ko'rpa kabilarning chetiga ikki qavat qilib tikilgan, rangi shu narsalardan boshqacha bo'lgan tasma, adip, parovuz
Mahal	1. Zamon, vaqt. 2. Chekka, atrof, joy
Metrik	1. Asosini metr tashkil qilgan. <i>Metrik o'lchov sistemasi.</i> 2. Metrik vazn. <i>Aruz vazni</i>
Metrika	1. Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma. 2. She'r vazni o'lchovi haqidagi ta'llimot va she'riy vaznnining o'zi
Mexanik	1. Mexanik. Mexanika mutaxassisi. 2. Mexanik. Mexanikaga oid. <i>Mexanik harakat.</i>
Me'da	1. Kishining ovqat hazm qilish a'zolaridan biri. 2. Terida oq yoki rangli dog'lar hosil qiladigan kasallik
Mehr	1. Samimiy muhabbat, yaxshi ko'rish tuyg'usi. 2. Quyosh, oftob
Mijoz	1. Sotuvchiga nisbatan doimiy xaridor va shu xardorga nisbatan sotuvchi. 2. <i>Odamning mijozи</i>

Mil	<ol style="list-style-type: none"> 1. Miltiq, to'pponcha kabi otish quollarining o'q otilib chiqadigan naysimon qismi. 2. Turli o'lchov va nazorat asboblarining o'z o'qi atrofida aylanib, o'lchanayotgan narsa miqdorini ko'rsatuvchi bosh qismi, yassi va uchli qismi. <i>Soat mili.</i> 3. Milya. Uzunlik o'lchovi. 4. Uchi ingichka, keskir temir asbob (tarixda qizdirib, kishi ko'zini ko'r qilish uchun ishlataligan) 5. O'sma, surma qo'yish uchun ishlataladigan asbob, surmacho'p
Milk	<ol style="list-style-type: none"> 1. Og'iz bo'shilg'i shilliq qavatining tishlar bo'yniga jips yopishgan yumshoq to'qimadan iborat qismi. 2. Matoning ikki yonidan uzunasiga chiqarilgan qirg'oq
Mingboshi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi. 2. Mingbosh. Pilla qurti pilla o'rash davrida dasta qilib qo'yish uchun ishlataladigan bir turli o't-o'simlik
Mineral	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yer qobig'i tarkibida uchraydigan tabiiy kimyoviy birikma yoki element. 2. Tarkibida shunday element yoki birikmalar bor. <i>Mineral tuzlar</i>
Mistik	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mjstik. Mististizm tarafdori. 2. Mistik. Mistikaga oid. <i>Mistik asar</i>
Moda	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tovuq yoki bedanadan boshqa qushlarning urg'ochisi. 2. Turmush yoki madaniyatda kiyim-kechak, ro'zg'or buyumlariga nisbatan muayyan did yoki qizi-qishning ma'lum vaqtgacha ustuvor bo'lishi
Modda	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tinch holatda massaga ega bo'lgan zarralar majmuyi, jismlarni tashkil qilgan narsa. 2. Rasmiy hujjat, majmua, qonun va sh.k.larning raqam yoki harf bilan ajratiladigan mustaqil bo'limi
Moya	<ol style="list-style-type: none"> 1. Urg'ochi tuya. 2. Biror narsaning asosini tashkil qilgan modda, asos bo'lgan narsa; o'zak; biror guruhning, jamoaning asosini tashkil qilgan shaxslar

Mumiyo	<ol style="list-style-type: none"> Fiziologik funksiyalarni kuchaytiradigan murakkab biologik tabiiy mahsulot; qoyalarning yoriqlaridan sizib chiqadigan smolasimon modda (Sharq tabobatida asosan singan suyaklarning bitishini tezlatish va boshqalar uchun tavsiya etiladi). Asosan suvsiz temir oksididan iborat, ko'pincha, qizg'ish-qo'ng'ir rang mineral bo'yog. Maxsus kimyoviy tarkib bilan ishlov berib, chirimaydigan qilib qo'yilgan jasad
Murtak	<ol style="list-style-type: none"> Embrion – pushtak, kurtak; gumona (xomila). Shamollash yoki turli mikroblarning ta'siri natijasida yallig'langan yoxud yiring olgan tomoq bezlari
Muruvvat	<ol style="list-style-type: none"> Murvat. Yaxshilik, saxovat, himmat
Mushtariy	<ol style="list-style-type: none"> Yupiter. Xaridor, oluvchi
Muhit	<ol style="list-style-type: none"> Hayot, faoliyat kechadigan tabiiy yoki ijtimoiy sharoitlar majmuyi. Okean
Mo'rcha	<ol style="list-style-type: none"> Yevropa tipidagi hammom. Chumoli, qumursqa
Ha	<ol style="list-style-type: none"> Nima? so'roq olmoshining qisqargan shakli. Inkor yuklamasi
Nabot	<ol style="list-style-type: none"> Novvot. O'simlik turi
Navo	<ol style="list-style-type: none"> Kuy, ohang, xonish. Yarim oy shaklidagi bezak turi, shift bilan devor oralig'idagi qayrilma egik bezak
Navro'z	<ol style="list-style-type: none"> Shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni (21-mart). Kechpishar o'rik navi
Nayza	<ol style="list-style-type: none"> Qo'l bilan otib yoki urib sanchish uchun mo'ljallangan, uchi o'tkir qurol. Amaliy san'atda naqsh turi
Naycha	<ol style="list-style-type: none"> Kichik yoki ingichka nay idish. Yupqa metall yaproqcha o'rami (nay shakli)dan iborat, chakkaga taqiladigan ayollar taqinchog'i

Nasr	1. Prozaik asar (hikoya, qissa, roman). 2. Shashmaqom tarkibidagi maqomlarning ashula bo'limi
Nafis	1. Go'zal, nozik, latif. 2. Olmaning erta hosilga kiradigan qishki navi
Negativ	1. Oq o'rniqa qora, qora o'rniqa oq bo'lib tushgan fototasvir va shunday tasvir tushirilgan plastinka yoki pylonka. 2. Teskari, aks mazmundagi; noto'g'ri, yaroqsiz (sifat so'z turkumi)
Nefrit	1. Buyrakning, eng avvalo, buyrak tugunchalarining yallig'lanishi. 2. Yashil yoki oq rangli tig'iz kristall mineral (Nefritning mayda toshlari buyrak shaklida bo'lganligidan ushbu mineral shunday ataladi)
Novvot	1. Shakar qiyomidan maxsus tayyorlanadigan yaltiroq kristall qattiq oq yoki sarg'ish shirinlik. 2. To'qimachilik dastgohida tayyor mato o'raladigan yog'och valik
Novcha	1. Bo'yи baland, daroz, uzun. 2. Qarol, xizmatkor (tarixiy so'z)
Nozik	1. Nafis, latif. 2. Kashtachilikda ishlataladigan rang-barang mayda, nafis munchoq
Nominal	1. Qog'oz va tanga pullar, qimmatbaho qog'ozlar, mol va sh.k.ning belgilangan, ustiga yozilgan bahosi. 2. Belgilangan, yozib ko'rsatilgan. <i>Nominal baho</i>
Nor	1. Bir o'rkachli erkak tuyu. 2. Badandagi tug'ma qizg'ish dog'. 3. Anor. 4. Olov, o't
Normativ	1. Biron bir ishni bajarish, dasturni amalga oshirishning iqtisodiy, texnik va boshqa norma ko'rsatkichlari majmuyi. 2. Normalar yoki normativlar bilan belgilanadigan

Nota	1. Musiqada muayyan balandlik va cho'ziqlikdagi tovushni (musiqani) yozib olishda qo'llanadigan shartli grafik belgi. 2. Bir davlatning boshqa bir davlatga yozgan rasmiy diplomatik murojaatnomasi
No'sh	1. No'sh aylamoq, ichmoq. 2. No'sh piyoz. Kuzda tiqma qilib ekilgan piyoz
Obaki	1. Oq chillakiga o'xshash, o'rtapishar mahalliy uzum navi. 2. Obakidandon. Shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik turi
Obi	1. Forscha izofalar tarkibida kelib, shu so'zning suvgaga aloqadorligini bildiradi. <i>Obidiya, obirahmat.</i> 2. Tayyor nonning sarf qilingan unga nisbatan oshgan og'irligi
Obiravon	1. Oqar suv. 2. Bir turli guldor, yupqa gazlama
Obyektiv	1. Fizikada optik asbob, fotoapparat, kinoapparat va sh.k.ning bir necha linza yoki ko'zgulardan iborat, obyektning teskari tasvirini hosil qiladigan old qismi. <i>Fotoapparat obyektivi.</i> 2. Ongdan tashqarida bo'lgan va ongga bevosita bog'liq bo'l'magan. <i>Obyektiv borliq</i>
Ovora	1. Darbadar, sargardon. 2. <i>Ikkiovora (Illi kishiga bittadan)</i>
Ovsar	1. Gap anglamaydigan, esi pastroq. 2. Tuya boshiga kiydirib qo'yiladigan maxsus boshvoq
Ovqat	1. Yemish, taom, yemak. 2. Vaqt(lar), davrlar, mavsumlar; tirikchilik, kun o't-kazish
Oyoq	1. Odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o'rmalashi uchun xizmat qiladigan a'zo. 2. Kosa, idish
Ozmoq	1. Ozg'inlamoq, oriqlamoq. 2. To'g'ri yo'ldan adashmoq

Ozg'in	1. Eti qochgan, etdan tushgan, oriq. 2. Yo'ldan ozgan, to'g'ri yo'ldan chiqib ketgan; aynigan, buzuq
Olaqaroq	1. Yakkam-dukkam, ola-qura, siyrak, chala. 2. Ot va mollarda bo'ladigan bir turli miya kasalligi
Olmos	1. Shaffof, yaltiroq sof ugleroddan iborat o'ta qat-tiq, qimmatbaho tosh (tarashlab ma'lum shaklga keltirilgani «brilliant» deb ataladi). 2. Zaharli, sariq gulli yovvoyi o't, olmoso't
Olchin	1. O'zbek xalqining etnik sostaviga kirgan urug'-lardan birining nomi. 2. Uzunlik o'Ichovi birligi, arshin va gaz qiymatlari-ga ega. 3. Olchin to'qmoq. Dastasi uzun katta yog'och to'qmoq
Olqor	1. Arxar. Yovvoyi tog' qo'yi. 2. Yovvoyi o't, o'simlik turi
Om	1. Umum; umumga tegishli. 2. Fizikada xalqaro birliklar tizimida elektr qarshilik birligi
Ombir	1. Ombur. 2. Devor tagidan suv o'tishi uchun qoldirilgan tuy-nuk; quvur
Omil	1. Ish-harakat, voqeа-hodisa va sh.k.ning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; sabab. 2. Biror ishni yaxshi egallagan; usta, mohir, omilkor
On	1. <i>On hazratlari. U oliy hazratlari.</i> 2. Qisqa bir zamон, lahza, payт
Ong	1. Odam ruhiy faoliyatining oliy shakli, kishining fikrlash qobiliyati; aql, idrok. 2. Ov, ilvasin
Ora	1. Ikki narsa yoki nuqta o'rtaсидagi masofa. 2. Ora oyi. Qamariya yil hisobидаги shavvol va zul-hijja oralig'idagi oy; zulqa'da
Oraz	1. Chiroyli yuz, bet, chehra; jamol. 2. O'n ikki maqom tizimidagi sho'ba nomi. <i>Orazi Dugoh</i>

Organ	1. Odam, hayvon, o'simlik va umuman, jonli organizmarning ma'lum bir vazifalarni bajaradigan qismi; a'zo. 2. Damli-klavishli, trubalariga yuborilgan havo yordamida chalinadigan musiqa cholq'u asbobi
Organik	1. Organik. Organik kimyo mutaxassis, olimi. 2. Organik. Tirik, jonli. Organik dunyo. 3. Uzviy. Organik ravishda bog'langan masalalar
Orden	1. Nishon, mukofot. 2. Katolik monaxlarning muayyan nizomnomaga ega bo'lgan tashkiloti
Original	1. Asl nusxa. 2. Boshqalarga o'xshamaydigan, o'ziga xos, ajoyib
Oriy	1. Hind-yevropa, eng asosan, hind-eron xalqlarning umumiy shartli nomi. 2. Yuklama. Ha shundoq, rost
Ortiq	1. Ziyod, oshiq, ko'p. 2. Badanda yoki biror a'zoda bo'rtib, o'sib chiqqan joy
Ortmoq	1. Ko'paymoq, oshmoq. 2. Joylamoq, yuklamoq
Orttirmoq	1. Ko'paymoq, oshmoq. 2. Joylamoq, yuklamoq
Orqali	1. Ko'makchi. 2. Orqasi, suyanchig'i, homiysi bor
Ot	1. Hayvon. 2. Ism. 3. Otmoq – harakat
Ota	1. Farzandli, bola-chaqali er kishi. 2. Orol
Otar	1. Sifatdosh. 2. Yaylovda boqiladigan qo'ylarning yirik to'dasi
Otli	1. Oti bor; ot qo'shilgan. 2. Ismli, nomli
Oxir	1. Cho'ziq narsaning so'nggi chegarasi, eng keyingi qismi, poyoni. 2. Oxur

Och	1. Ochiqqan. 2. Kuchsiz, nimxush. <i>Och ko'k</i>
Osh	1. Ovqat. 2. Teri oshlashda ishlataladigan modda
Oshiq	1. Birovgal muhabbat qo'ygan kishi, xushtor. 2. Anatomiyada ayrim hayvonlarning orqa oyog'i tizza bo'g'imidiagi biriktiruvchi chorqirra suyakcha. 3. Ma'lum miqdordan ko'p, ortiq. 4. Oshiqmoq. Shoshilmox
Oshiqlik	1. Sevib qolganlik. 2. Ko'plik, ortiqchalik
Oshlamoq	1. Maxsus moddalar, eritmalar bilan xom teriga, mo'ynaga ishlov bermoq, terining junini to'kmoq, terini yalong'ochlamoq. 2. Osh yemoq, ovqatlanmoq
Oq	1. Rang. 2. Oq qilmoq. O'z farzandidan voz kechmoq
Oqibat	1. Mehr-muruvvat. 2. Oxirgi yakun, natija
Oqibatsiz	1. Yaxshilikka yaxshilik qaytarishni bilmaydigan; bemehr, muruvvatsiz. 2. E'tibor berilmasdan, tekshirilmasdan, natijasiz
Oqin	1. <i>Oqin (sifat) daryo.</i> 2. Qozoq va qirq'izlarda shoir, baxshi
Oqish	1. Oqqa moyil. 2. Oqmoq
Oqsil	1. Organik modda. 2. Chorva mollari va cho'chqalarda bo'ladigan, shiddatli o'tadigan yuqumli kasallik, yashchur
Oqsim	1. Organik modda. 2. Chorva mollari va cho'chqalarda bo'ladigan, shiddatli o'tadigan yuqumli kasallik, yashchur
Og'iz	1. Ikki jag' o'rtaсидаги ovqatlanish, so'zlash yoki ovoz chiqarish uchun xizmat qiladigan bo'shiq. 2. Yangi tuqqan sigirning uch-to'rt kunlik sutini yig'ib pishirilgan pishloqsimon taom

Pay	1. Oyoq, qadam. 2. Biror maqsadni amalga oshirish yo'llidagi astoy-dil harakat, urinish, qasd. <i>Birinchi bo'lish payida</i> . 3. Yerga yoyib, terib qo'ymoq. 4. Biror shirkat, aksiyadorlar jamiyati ishida qat-nashish uchun qo'shiladigan hissa, ulush
Payraha	1. Yog'och-taxta chopilganda, randalanganda hosil bo'ladigan chiqindi. 2. Loygarchilikda, qorda odamlar yuraverib hosil qilgan yo'l, so'qmoq
Paysa	1. Taxminan 50 grammga teng og'irlik o'lchov birligi. 2. Tibbiyotda terining qizarishi.
Palak	1. Qovun, bodring kabi o'simliklarning yerda yoyilib o'sadigan tana, shox va barglari. 2. Osmon gumbaziga o'xshash doira shaklidagi gul-naqshlar bilan qoplangan, odatda uy devorlari-ga osib qo'yiladigan kashtachilik buyumi
Palata	1. Ba'zi mamlakatlarda parlament yoki boshqa oliv davlat organining tarkibiy qismi. 2. Davolash va dam olish muassasalarida bemor-lar yoki dam oluvchilar yotadigan alohida bo'lma, xona
Palla	1. Muayyan davr, vaqt, payt. 2. Tarozining narsa yoki tosh qo'yiladigan har bir taqsimchasi
Pand	1. O'git, nasihat. 2. Pand bermoq, aldamoq, avramoq, laqillatmoq, aldab ziyon keltirmoq, firib bermoq
Panja	1. Qo'lning kaft va barmoqlardan iborat qismi. 2. Panja ko'rinishidagi bilaguzuk turi
Par	1. Parranda tanasini qoplab turadigan yumshoq va nafis pat. 2. Juft. 3. Bug'
Parvona	1. Shu'la yoki chiroq atrofida aylanuvchi tun kapa-lagi. 2. Amir, xon farmoni, yorlig'i

Parda	1. Xonani quyosh nuri, shamol va hokazolardan to'sish yoki bezak uchun deraza, eshiklarga tutildigan gazlama, mato. 2. Torli cholg'u asboblari dastasini bo'g'lnlarga ajratuvchi to'siqlar. <i>Avj parda</i>
Pardali	1. Parda tutilgan. 2. Tovush notalarini belgilovchi bo'g'lmalarga ega bo'lgan, parda bog'langan. <i>Pardali cholg'u asbobi</i>
Pardasiz	1. Parda tutilmagan. 2. Parda bog'lanmagan. <i>Pardasiz cholg'u asbobi</i>
Parcha	1. Butundan qism, bo'lak, bo'lakcha. 2. Zar ip aralashitirlib to'qilgan qalin ipak mato, kimxobning bir turi
Parchin	1. Arxitektura bezaklarida ishlataladigan uchburchak, to'rtburchak va hokazo shakilli sirlangan so-pol taxtacha; koshinning bir turi. 2. Parchinmix, narsalarni biriktirgach, uchli tomoni yalpoqlab qo'yiladigan, tana va kallakdan iborat detal
Pas	1. Karta o'yinida qatnashishdan voz kechish yoki mag'lubiyatni tan olish. 2. Ba'zi sport o'yinlarida bir o'yinchining o'z sheri-giga to'p yoki shaybani uzatishi
Passiv	1. Korxona va tashkilotlarning barcha qarzlari va majburiyatları. 2. Befarq, loqayd, g'ayratsiz, shijoatsiz
Pat	1. Parrandaning parlari. 2. Shaxmatda o'yin durang hisoblanadigan holatlarning biri, pot
Patir	1. Ko'pincha yog' aralashirilgan, oshirilmagan xamirdan chekichlab tayyorlanadigan yupqaroq non. 2. Taqlid so'z
Paxmoq	1. O'siq, hurpaygan. 2. Bir tomoni tukli, mayin va qalin ip gazlama
Pashmak	1. Shirinlik. 2. Bir yillik o'simlikning bir turi.
Paqir	1. Idish, chelak. 2. Ikki tiyinlik chaqa

Paqpaq	1. Bolalar o'yini. 2. Ko'sakka o'xshash, ichi bo'sh ko'p yillik o'simlik
Pechak	1. O'simlikning bir turi. 2. Handalakning bir turi
Peshband	1. Fartuk. 2. Qo'lini oldiga qilib bog'lamoq
Pilla	1. Ipak qurti mahsuli. 2. Tish milkinning shishib, yiring bog'lashi
Pir	1. Uzoq umr ko'rgan kishi, keksa, qari. 2. <i>Hafsalasi pir bo'lmoq.</i> 3. Taqlid so'z
Pix	1. Ayrim erkak parrandalarning oyog'ida bo'ladigan muguzsimon uchli o'simta. 2. Taqlid so'z. 3. Po'panak, mog'or
Pishimoq	1. Me'yoriga yetmoq. 2. Ivimoq
Pishmoq	1. Yetilmoq. 2. Ho'l qilmoq
Pish-pish	1. Undov so'z. 2. Taqlid so'z
Pozitiv	1. Negativdan ko'chirilgan va narsaning haqiqiy rang-tusini aks ettiradigan fotosurat va shunday surat tushirilgan plastinka yoki pylonka. 2. Pozitivga aloqador. <i>Pozitiv fotosurat</i>
Pok	1. Top-toza, pokiza (sifat). 2. Butunlay, batamom, paqqos (ravish)
Pokiza	1. Sifat. 2. Ravish
Pol	1. Ekin maydonining bir bo'lagi. 2. Uyning, xonaning oyoq bosib yuriladigan va o'tiriladigan sathi
Pop	1. Pravoslaviye cherkovida o'rta darajali ruhoniylig'i. 2. Taqlid so'z
Pora	1. Bo'lak, parcha. 2. Biror ishni bitirib bergani uchun mansabдор shaxsga beriladigan narsa yoki pul

Port	1. Dengiz yoki daryo qirg'og'ida kemalar turadigan maxsus joy. 2. Taqlid so'z
Portal	1. Binoning me'moriy jihatdan alohida ishlov berilgan, bir qadar ajralib turadigan old, kirish qismi. 2. Konstruksiya yoki mashinaning Π-simon tayanch qismi. 3. Internetdagi axborot sahifa
Pog'ona	1. Zina yoki narvonning moyalaridan har biri. 2. Musiqada tovushqator
Prozaik	1. Adib. 2. Proza janriga oid. Prozaik asar
Prospekt	1. Shaharlarda keng, katta va to'g'ri ko'cha. 2. Nashrga tayyorlanayotgan yoki yozilayotgan asarning qisqacha bayoni yoki keng va mukammal rejasi
Pul	1. Oldi-sotdi yoki to'lov muomalarida narx, baho, qiymat o'lchovi bo'lgan metall yoki qog'oz; aqcha. 2. Ko'prikl (Taxtapul)
Put	1. Oyoq. 2. Pud (og'irlik o'lchovi)
Po'k	1. Ichi chirigan yoki kavak. 2. Taqlid so'z
Po'rsildoq	1. Dukaklilarga mansub, hosili pufakka o'xshash buta. 2. Teridagi qavariq
Qavs	1. Tinish belgi: () 2. Burj (O'qotar)
Qadar	1. Ko'makchi. 2. Taqdir, qismat, yozmish
Qadoq	1. Og'irlik o'lchovi (409,512 g) 2. Chega (idishlarni yamaydigan) 3. Qadoq choy. Ma'lum miqdordagi narsa. 4. Qattiq qavariq
Qadoqlangan	1. Choy qadoqlanadigan fabrika. 2. Qadoqlangan piyola. 3. Qo'llari qadoqlangan

Qayir	1. Vodiy tubining, daryo tarmoqlari va sun'iy kanal-lar etaklari (qирғоqlари)ning daryo toshganda suv bosadigan joylari. 2. Qovun ekiladigan bo'z yer
Qayish	1. Past navli charm. 2. Xamir ovqatning bir turi
Qalay	1. So'roq olmoshi. 2. Kimyoviy element
Qalami	1. Qo'lida to'qilgan, tagi oq yo'l-yo'l gulli ipli mato. 2. Bezak, naqsh
Qalb	1. Yurak. 2. Qallob, nopol
Qalin	1. Ko'ndalang o'lchami katta. <i>Qalin kitob</i> . 2. Nikoh to'yida kuyov tomondan kelin tomonga beriladigan, to'lanaqidigan pul, mol...
Qalmoq	1. Xalq nomi. 2. Qarmoq
Qandil	1. Osma chiroq, lyustra. 2. Olma navlaridan biri
Qari	1. Keksa. 2. Uzunlik o'lchovi
Qariqiz	1. O'simlikning bir turi. 2. Qovunning bir turi
Qarta	1. Taomning bir turi. 2. O'yin varaqchalari
Qasir	1. Taqlid so'z. 2. Qisqa, kalta, past. <i>Aqli qasir</i>
Qat	1. Qatlam. 2. Qayer? 3. Ustiga qamish qalam uchini qo'yib turib, pichoq bilan kesish uchun suyakdan yasalgan taxtacha
Qatron	1. Obdan yuvib, qizdirib yoki kuydirib tozalamoq. 2. Yog'och, torf, toshko'mir va sh.k.dan havosiz qizdirib olinadigan qora quyuq modda
Qiyom	1. Quyosh tikka ko'tarilgan payt, tush payti, peshin. 2. Shakarni suvda qaynatib tayyorlangan quyuq sharbat

Qizilbosh	1. O'rdaklar kenja oilasining sho'ng'uvchilar urug'i-ga mansub yovvoyi o'rdak. 2. Safaviylar davrida Ozarbayjon va Shimoliy Eron-dagi turkiy qabilalardan eron qo'shinida xizmat qilgan askar
Qizilcha	1. Qizil lavlagi. 2. O'tkir yuqumli kasallik
Qiziq	1. Kishini hayron qoldiradigan, ajablantiradigan. 2. Juda issiq payt. <i>Kunning qizig'i qaytmagan</i>
Qizg'ish	1. Rang. 2. Qizqush
Qiy	1. Go'ng. 2. Taqlid so'z
Qiyiq	1. Qiyyim. 2. Belbog'
Qin	1. G'ilof. <i>Pichoqning qini.</i> 2. Muskulli elastik a'zo
Qirov	1. Ayozli, havo ochiq, sokin (shamolsiz) tunlarda tup-roq, o't va yerdagi narsalar ustida hosil bo'ladigan muz kristallari. 2. Yangi charxlangan pichoq, xanjar kabi asbob-larning damida qolgan zarralar. 3. Mollarning tilida qipiqlar bo'rtiqlar paydo qiladigan kasallik
Qirovli	1. Qirovli daraxt. 2. Qirovi to'kilmagan, ishlatilmagan, tutilmagan, yangi
Qiron	1. Ko'plab o'ldirish, qirg'in. 2. Davlat, mamlakat
Qirq	1. Son. 2. Qabila nomi
Qisir	1. Bo'g oz bo'lmay qolgan hayvon. 2. Taqlid so'z
Qishloq-cha	1. Maskan, hudud. 2. Ravish

Qovoq	1. Poliz o'simligi. 2. Ko'z kosasini qoplovchi, ochilib-yopilib turadigan teri. 3. Qovoqxona (spirtli ichimliklar ichiladigan mayxona)
Qovuq	1. Odam a'zosi. 2. Chaqmoq surtib, uning uchqunidan o't yoqish uchun qilinadigan maxsus pilik, pilta
Qovg'a	1. Yog'och paqir. 2. O'simlikning bir turi (Qo'g'a)
Qonun	1. Obyektiv borliqda turli hodisalar o'rtasida kishi on-gidan va ixtiyoridan tashqari hamisha mavjud bo'lgan muhim, zaruriy, barqaror bog'lanish, munosabat. 2. Changga o'xshash cholg'u asbobi
Qoplamoq	1. Ustini yoki hamma yog'ini qamramoq. 2. Qopga solmoq
Qorakuya	1. Kuya. 2. O'simliklar kasalligining bir turi
Qoraqand	1. Kechpishar qovunning bir turi. 2. Buta o'simligi va mevasi, zirk
Qoraqosh	1. O'simlik. 2. Qovun turi
Qoqi	1. Qurigan, quritilgan meva, go'sht va hokazo. 2. <i>Qoqigul, qoqio't</i>
Qoqilmoq	1. <i>Qoqilgan mix.</i> 2. Munkimoq
Qoqshol	1. Oriqlididan qurib qolgan, quruq suyak. 2. <i>Og'ir kasallikning bir turi</i>
Quv	1. Mug'ombir, ayyor. 2. Oqqush. 3. Rangi quv o'chmoq. 4. Undov so'z. 5. Chaqmoq uchqunidan o't olib yonadigan maxsus pilik, pilta
Quymoq	1. Suyuqlikni bir idishdan boshqasiga solmoq. 2. Tuxum va undan tayyorlangan ovqat
Qullob	1. Qarmoq, qisqich, changak; tuzoq. 2. Tananing kasal joyini bog'lab qo'yadigan belbog' yoki xalta

Qulqoq	1. Odam hamda umurtqali hayvonlarning eshitish hamda muvozanat a'zosi va uning tashqi qismi. 2. Suvning anhor, kanal, o'qariq va sh.k.dan kichik suv yo'liga, ariqlarga tarmoqlanib o'tadigan joyi; dahana. 3. Qarollar, kambag'allar, umuman, dehqonlarning yollanma mehnatidan foydalanuvchi katta yer ega-si, qishloq boyi; boy yoki o'rtahol dehqon
Qulqoq-lashmoq	1. Bir-birining qulog'iga shivirlamoq. 2. Qulqoq tabaqasiga o'tmoq
Qur	1. Marta, daf'a. 2. Qush. 3. Undov so'z. 4. Taqlid so'z. 5. Davra, davra o'rtasidagi joy, maydon
Qurama	1. Har xil tus, ko'rinishda bo'lgan; turli xil, har xil turdag'i. 2. O'zbek xalqi tarkibidagi guruh
Qurish	1. <i>Uy qurish.</i> 2. <i>Doka ro'molning qurishi</i>
Quroq	1. Ulab-qurab, biror narsa hosil qilish uchun yaroqli mato parchasi. 2. O'simlik. Qiyoqning quruqlikda o'sadigan bir turi
Qurt	1. Mayda jonivor. 2. Qurut
Qurum	1. Qora rangli chiqindi. 2. Tog'larning yonbag'irlari, yassi tepaliklar va dar-yolar o'zanlaridagi yalang tosh uyumlari va sochilmalari
Qurch	1. Bronza. 2. Tig'iz, niq; zarang. <i>Qurch yer</i>
Qur-qur	1. Goho-goho, o'qtin-o'qtin. 2. Takroriy so'z
Qushxona	1. Uy qushlari boqiladigan joy. 2. Kushxona (hayvon so'yiladigan joy)
Qo'zila-moq	1. Tug'moq (qo'y haqida). 2. Dona-dona holga kelmoq. <i>Qo'zilab turgan tuproq</i>

Qo'noq	1. O'simlikning bir turi. 2. Mehmon
Qo'ng'ir	1. Qora-sariq rangli, to'q malla 2. Qo'ng'irsimonlar oilasiga mansub qush
Qo'riqchi	1. Soqchi, posbon. 2. Qo'riq yer ochuvchi, qo'riq yerda ishlovchi shaxs
Qo'tos	1. Hayvonning bir turi. 2. Bo'yinka taqiladigan bezak buyumi
Qo'sh	1. Qo'shaloq. 2. Safar, sayohatda vaqtincha qo'nish joyi
Qo'shmoq	1. Qo'shuv amalini bajarmoq. 2. Qo'shilib turgan. <i>Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar</i>
Ravon	1. Bir tekisda va to'xtovsiz boradigan yoki borayotgan, silliq. 2. Derazalar bilan o'ralgan oynaband ayvon
Radikal	1. Radikalizm – mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o'zgarishlar va islohotlar o'tkazishni talab etuvchi siyosiy oqim, partiya. Radikal – ushbu partiya a'zosi yoki tarafdori. 2. Matematikada ildiz chiqarish amalining belgisi va shu amalning natijasi, ildizi. 3. Qat'iy, keskin, tub. <i>Radikal o'zgarishlar</i>
Razryad	1. Daraja, toifa. 2. Fizikada elektr zaryadini yo'qotish, elektrsizlan-tirmoq
Razm	1. <i>Razm solmoq, nazar solmoq.</i> 2. Urush, jang
Rang	1. Bo'yash uchun ishlataladigan modda. 2. Unvon, rutba, daraja. 3. Qiyoqqa o'xshash yovvoyi o'simlik
Rasad	1. Osmon jismlarini kuzatish, astronomik kuzatishlar. 2. <i>Rasad qilmoq, unib chiqqan ko'chatlarni tez yetiltirish uchun yashikdan yoki ko'chatxonadan olib, yerga siyrakroq qilib qayta o'tqazmoq</i>
Rasm	1. Qo'lda chizilgan yoki fotografik tasvir. 2. Tartib-qoida, urf, udum, taomil

Rasta	1. Bozorlarda bir turdag'i mol bilan savdo qiladigan do'konlar qatori va ular o'tasidagi bozor, ko'cha, yo'lak. 2. Balog'atga yetgan payt
Raschyon	1. Loyihalash mahalida kerakli ma'lumotlarni hisoblab chiqarish. 2. Bitta to'p (zambarak), pulemyot yoki minomyotni boshqaruvchi jangchilar guruhi
Reaksiya	1. Tibbiyotda tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarga javoban inson va uning tana a'zolarida paydo bo'ladigan harakat, jarayon yoki holat; aks ta'sir. 2. Siyosatda eski umri tugagan ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish, qayta tiklash va mustahkamlash maqsadida ijtimoiy taraqqiyotga faol qarshilik ko'rsatish
Realizm	1. Adabiyotda hayotni haqqoniy tasvirlash usuli. 2. Falsafiy yo'nalishning bir turi
Registr	1. Muayyan huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan ro'y-xat, hisobga olish hujjati; qaydnama. 2. Klavishli musiqa asboblarida tovush kuchi va tembrini o'zgartirishga imkon beradigan moslama. 3. Raqamli hisoblash mashinasining kodlarni xotirlashga mo'ljalangan elementi
Reyd	1. Davlat yoki jamoat tashkilotlari, matbuot organlari topshirig'iga muvofiq muayyan obyektlarni, korxona va sh.k. faoliyatini to'satdan tekshirish. 2. Dengiz portiga kiraverishda, sohil yaqinida kermalarning langar tashlab turishi va yuk tushirish uchun qulay joy
Relyef	1. Yer sirtidagi tabiiy yoki sun'iy ravishda hosil bo'lgan har xil notekisliklar – past-balandlik, tog'lik-nishabliklar majmuyi. 2. Haykaltaroshlikning bir turi: muayyan sathga nisbatan bo'rtma yoki o'yma tasvir; bo'rtma naqsh
Rom	1. Rom qilmoq (maftun qilmoq). 2. Fol. 3. <i>Eshik-romlar yangidan o'matildi.</i> 4. Shakarqamishning achitilgan shirasi yoki qiyomidan haydash yo'li bilan tayyorlanadigan kuchli spirtli ichimlik

Romantik	1. Romantizm vakili. 2. Romantizmga oid. <i>Romantik poeziya</i>
Rondo	1. Musiqiy pyesa. 2. Qofiyalarning murakkab almashinuvi va takrorlanuvchi qofiyalanmagan naqaroti bo'lgan she'r shakli
Rost	1. To'g'ri, adil, tik. 2. Shashmaqom tizimidagi beshinchı maqom nomi
Rohat	1. Estetik zavq yoki orom beradigan narsalardan olinadigan lazzat, huzur, gasht. 2. Rost maqomining Ushshoq shu'basi asosida yaratilgan o'zbek xalq kuyi
Rohila	1. Ot-ulov, yuk hayvoni. 2. Yo'l ozuqasi
Rukn	1. Ustun, kolonna. 2. Islomdagi beshta farz: kalimayi shahodat, namoz, zakot, ro'za va haj
Rux	1. Shaxmatdagi sipoh, to'ra. 2. Kishining yuzi, ruxsor. 3. Kimyoviy element
Savag'ich	1. Paxta, jun kabi narsalarni savash uchun ishlataladigan bir juft uzun, ingichka tayoq yoki chiviqlar dastasi. 2. Qamishsimon bo'g'imli, ichi po'kaksimon mod-dadan iborat suv o'simligi
Savdo	1. Savdo-sotiq. 2. Inson hayotida uchraydigan g'am-tashvish, mashaqqat, kulfat va mushkul holatlar
Sad	1. Mustahkam devor, to'siq. 2. Yuz (son)
Sadr	1. Vaqf va din ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldor. 2. Qalandarlar zikrida eng jazaval holat
Sazo	1. Tanbeh, ta'zir, dashnom. 2. Sado, tovush, ovoz
Sak	1. Sag – it, kuchuk. 2. Sak elati
Salat	1. Turli sabzavotlardan tayyorlanadigan yaxna taom. 2. Iste'mol qilinuvchi, vitaminlarga boy bir yillik ko'kat

Salib	1. But, xoch, krest. 2. O'simlik nomi
Salla	1. Uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha bo'ladigan do'ppi, kuloh, telpak ustidan o'raladigan sidirg'a mato, doka. 2. Milliy pishiriq, o'rama
Sandal	1. Tancha. 2. Nihoyatda xushbo'y, efir moyiga boy, doimiy yashil ko'p yillik daraxt (bo'yoq va xushbo'y efir moylari olishda foydalaniлади). 3. Poshnasiz yozgi yengil oyoq kiyimi, sandalet, shippak
Sanjob	1. Qattiq siquv, iskanja, tazyiq. 2. Bo'sh; siyrak; kam, xoli
Sano	1. Xudoning, payg'ambarlarning sha'niga aytilgan maqtov so'zlar; madhiya, madh, hamd. 2. Asosan tropik va subtropik o'simlik
Sari	1. Ko'makchi. 2. Eng yaxshi, sara. 3. Sariq rangli. 4. Hind ayollarining yubka shaklidagi belga bir necha bor o'ralib, bir uchi ro'mol qilib boshga tashlab qo'yiladigan kiyimi
Sariq	1. Rang. 2. O'rta Osiyodagi qabila nomi
Saroy	1. O'zbeklar tarkibiga kirgan yirik qabilalar uyusmasi. 2. Koshona
Saroybon	1. Xon saroyi qo'riqchisi. 2. Karvonlar va savdogarlar qo'nadigan saroy egasi
Sarparda	1. Kapa, soyabonli aravanning katta pardasi, yopinchiq. 2. Musiqa asari boshlanadigan asosiy parda
Sarf	1. Chiqim, harajat. 2. Sarf – morfologiya
Safar	1. Biror yerga borish, yo'l. 2. Safar oyi. Qamariya yil hisobida 29 kundan iborat ikkinchi oyning arabcha nomi

Sachratqi	1. O'simlik. 2. Badanda, yuzda paydo bo'ladigan yiringli toshma
Saqmon	1. Sopqon, palaxmon. 2. Qo'zilarning yoshi va rivojlanishi bir xil bo'lgan emizikli ona qo'ylar guruhi
Si	1. Musiqada muayyan izchillikdagi tovushqatorning yettinchi tovushi va uning nota belgisi. 2. Xalqaro birliklar tizimi – fizik kattaliklarning asosiy va hosilaviy o'lchov birliklari tizimining qisqacha nomi
Siyoh	1. Qora, qora rangli. 2. Avzo, turq, ko'rinish
Siklon	1. Atmosferaning kuchli yog'ingarchilik, shamol va quyuq bulutlanish bilan kechadigan shiddatli, uyur-maviy harakati; radiusi bir necha ming kilometrga yetadigan havo girdobi. 2. Havo(gaz)ni muallaq qattiq zarralardan markazdan qochma kuch ta'sirida tozalash uchun mo'ljallangan apparat
Sila	1. Idishning cheti, labi, og'zi bilan baravar qilib. 2. Olabug'a baliqlar oilasiga mansub, dengiz, daryo, ko'llarda yashaydigan baliq
Sim	1. Ip, chilvir, chiviq ko'rinishidagi uzun metall buyum. 2. Siym – kumush
Sinoptik	1. Meteorolog. 2. Meteorologiyaga oid. <i>Sinoptik kuzatishlar</i>
Sinf	1. Nisbatan barqaror bo'lgan katta ijtimoiy qatlam. <i>Mulkdorlar sinfi</i> . 2. Maktab ta'limining har bir bosqichi
Sir	1. O'zgalardan maxfiy tutilgan yoki o'zgalarga no'ma'lum bo'lgan biror ish, gap, narsa. 2. Yaltiroq mineral yoki moybo'yoq (idishning siri). 3. Pishloq
Sira	1. Yuklama. 2. Muntazam, izchil qator, ketma-ketlik, tartib, navbat
Sirka	1. Sirka kislotasining suvdagi eritmasi. 2. Bit tuxumi

Sirli	1. Maxfiy. 2. Bo'yoqli
Sirmoq	1. Ustini mato bilan tarang qilib qoplamoq. 2. Och qoldirmoq, och o'tirmoq
Soz	1. Yaxshi, tuzuk, durust, qulay. 2. Musiqa asboblarining umumiy nomi. 3. Qamish, qamishzor
Soliq	1. Majburiy to'lov. 2. Quyi solingan, osilgan, solig'liq
Sollan-moq	1. Osilib tushmoq, osilmoq, egilmoq. <i>Qor bosgan daraxt shoxlari sollanib yotibdi.</i> 2. U yon-bu yon tebranmoq, chayqalmoq
Son	1. Hisoblash uchun xizmat qiladigan vosita. 2. Odam va hayvon oyog'ining tizza bilan tos o'r-tasidagi qismi
Sop	1. Tutqi, dasta, band. 2. Tamom bo'lmoq. 3. Eng zo'r, asl
Soch	1. Odamning bosh terisida o'sadigan qil tolalar qoplamasи va ularning har biri. 2. Chumchuqsimonlar turkumining shaqshaqlar oilasiga mansub kichkina sayroqi qush; maynaning bir turi
Sochiq	1. Sochib tashlangan, sochilib yotgan. 2. Yuz-qo'l yoki idish-tovoq artish uchun ishlataliadi-gan buyum
Soqa	1. Daryo yoki anhorlardan katta ariqlarga suv olina-digan joy; ariq boshi. 2. Soqqa. 3. Harbiy yurish yoki mashqlar chog'ida asosiy kuchlar ortidan soqchilik qilib boruvchi maxsus qism
Sog'	1. Sog'lom. 2. O'ng. <i>Sog'-u so'</i>
Stavka	1. Oliy bosh qo'mondon qarorgohi (urush davrida). 2. Soliq, ish haqi va boshqa turli xil to'lovlardan miqdori, me'yori

Standart	1. O'ziga o'xshash boshqa obyektlarni taqqoslash uchun asos qilib olingan na'muna, andoza, etalon. 2. Standartga muvofiq, mos bo'lgan. <i>Standart uylar</i>
Suveren	1. Xalqaro huquqda mustaqil oliv hokimiyat egasi. 2. Suverenitetga, mustaqillikka ega bo'lgan; erkin, hur; mustaqil
Sud	1. Davlat organi. 2. Foyda, naf
Suzmoq	1. Suzgich yoki boshqa biror narsa orqali o'tkazib, mexanik aralashmalardan tozalamoq. 2. Suvda harakat qilmoq. <i>Suvda suzmoq</i> . 3. <i>Shoxi bilan suzmoq</i>
Suzuvchi	1. <i>Ovgat suzuvchi, qarta suzuvchi</i> . 2. <i>Suvda suzuvchi</i>
Sumalak	1. Qorning erib, oqib, qayta muzlashi. 2. Taom
Sur	1. Dudlab yoki osib qo'yib quritilgan, qoqlangan. <i>Sur baliq</i> . 2. Bez, surbet. 3. To'q kulrang. 4. Salobat. 5. Qur'onda aytishicha, qiyomat kuni Isrofil farishta tomonidan chalinadigan shox (muguz)dan ishlangan karnay
Surgi	1. Ichni yumshatadigan, suradigan dori-darmon. 2. Yuz-qo'l artadigan sochiq, lungi
Surish-tirmoq	1. Biridan biriga yoki u yon bu yon surmoq. 2. So'rab-so'rab anig'ini bilmoq
Surma	1. Mendeleev davriy sistemasidagi element. 2. Suriladigan. <i>Stolning surma yashigi</i>
Surtki	1. Sochiq, lungi. 2. Surtki dori
Suyulmoq	1. Ma'lum darajadan suyuqroq bo'limoq. 2. Erkalatgan sari haddidan oshmoq
So'zak	1. Yuqumli tanosil kasalligi, tripper. 2. Qattiq sovqotish natijasida panja uchlarida sezi-ladigan sanchiqli og'riq

So'zanak	1. Ninachi. 2. Otning peshnobi
So'kmoq	1. Tikilgan narsanining ipini uzmoq. 2. Yomon so'zlar bilan urishmoq, haqorat qilmoq
So'liq	1. So'ligan, so'lg'in. 2. Suvluq (otga nisbatan)
So'm	1. Pul nomi. 2. Katta chipqon, xo'ppoz. 3. So'm go'sht. Suyaksiz va yog'siz yumshoq et, lahm go'sht
So'na	1. Hasharot. Yirik pashsha. 2. Erkak o'rdak.
So'rmoq	1. Lablarga qo'yib yoki lab orasiga olib, siqib ichiga tortmoq. 2. So'ramoq. <i>Rang ko'r, hol so'r (Maqol)</i>
So'qmoq	1. Yolg'izoyoq yo'l. 2. Urmoq, tushirmoq, solmoq
Ta'b	1. Tabiiy holat. 2. Nashr etmoq
Tavr	1. Hayvonlarga qo'yiladigan tamg'a. 2. Singari, kabi; xilda, tarzda
Taka	1. Echkining erkagi. 2. Bangladesh Xalq Respublikasining pul birligi
Taksa	1. Davlat yoki o'z-o'zini boshqarish organi tomonidan aniq belgilangan Tovar bahosi yoki mehnat va ko'rsatilgan xizmat haqi miqdori. 2. Tanasi uzun, oyoqlari kalta va qiyshiqliq bo'lgan, inda yashovchi jonivorlarni ovlashga moslashgan ov iti
Takya	1. Yostiq, bolish, suyanchiq. 2. Odamlar to'planib ulfatchilik qiladigan joy
Talon	1. O'zganing mulkini talab, tortib olish; talash. 2. Biror narsani olish, biror joyga kirish huquqini beradigan nazorat varaqchasi
Taloq	1. Nikohni buzish, bekor qilish haqidagi er tomonidan aytildigan so'z. 2. Qorajigar

Tamtam	1. Qaddi qomati kelishgan va zebo. 2. Katta mis barkash shaklidagi, tayoqcha bilan urib chalinadigan musiqa asbobi; gongning bir turi
Tana	1. Gavda, badan, tan. 2. Bir-ikki yoshli urg'ochi buzoq
Tanketka	1. Razvetka aloqa uchun xizmat qiluvchi yengil jan-govar mashina. 2. Tagcharmi tovonga tomon qalnlashib boradigan, xotin-qizlarbop yengil oyoq kiyimi
Tap	1. Taqlid so'z. 2. <i>Tap tortmoq</i> – cho'chimoq, hadiksiramoq
Tar	1. <i>Tar meva</i> – ho'l meva. 2. Taqlid so'z
Tarash	1. <i>Sochni tarash</i> . 2. Kesish, yo'nish, qirtishlash
Tariq	1. G'alla o'simligi. 2. Yo'l, yo'sin. <i>Shu tariqa</i>
Tark	1. <i>Tark etmoq</i> . 2. Bukilgan, qayrilgan joy; narsaning buklangan rahi; tax. <i>Do'ppining tarki</i>
Tarh	1. Oluv. <i>O'ndan uchni tarh qilsa, yetti qoladi</i> . 2. Chizma, lavha; loyiha, reja
Tatim	1. Ravoch urug'i. 2. Ta'm, maza
Taxt	1. Shoh, xon, amirlarning hashamatli o'rindig'i. 2. Tayyor, shay, muhayyo
Taxta	1. Yog'och bo'lagi. 2. Suyanchiqsiz keng divan
Ta'til	1. Dam olish kunlari. 2. Ovqat, yegulik, nonushta, ovqatlanish
Taqa	1. Ot-ulov tuyog'iga qoqiladigan metall buyum. 2. Jufning biri; toqa
Taqilmoq	1. Ko'krakka taqiladigan nishon. 2. Teginmoq; tegmoq
Tegana	1. Poyabzal qolipining ustki va ostki qismi orasiga qoqiladigan pona. 2. Tegirmon toshlari orasidan chiqayotgan un tushib yig'iladigan gardishsimon joy

Tezlamoq	1. Tezligi oshmoq. 2. Binoning ishdan chiqqan devorini, tomini buzmasdan ko'tarib qo'yib ta'mirlamoq, yangilamoq
Tender	1. Bevosita parovozga tirkaladigan (ulanadigan), suv va yoqilg'i zaxiralari, moylash-tozalash ash-yolari saqlanadigan maxsus vagon. 2. Ma'lum bir loyihani topshirish uchun o'tkaziladi-gan tanlov
Tepki	1. Oyoq bilan berilgan zarb. 2. O'tkir yuqumli kasallik
Tepchi-moq	1. Ipni sirtga chiqarmay mayda qavimoq. 2. Yuzaga tepib, sizib o'tib ko'rinxmoq; yuzaga temoq; <i>Yuziga tepchib chiqqan tashvish</i>
Teri	1. Odam va hayvon tanasining tashqi qoplamasi. 2. Taomning bir turi
Termit	1. Kimyoviy modda. 2. Zararkunanda hasharot
Tiz	1. Tizza. 2. Taqlid so'z
Tiyin	1. Mayda chaqa pul. 2. Olmaxon
Tik	1. Yuqoriga tikka yo'nalgan yoki pastga tikka tushgan. 2. Kanop yoki paxta tolasidan to'qilgan qalin, pishiq gazmol, mato. 3. Nerv sistemasining kasallanishi oqibatida ayrim yoki bir guruh muskullarning ixtiyorsiz qisqarishi
Tikilmoq	1. Ko'ylak tikildi. 2. Ko'z uzmasdan qaramoq
Tikma	1. Ip bilan tikilgan. 2. Urug'likni sepib emas, balki uyalarga ko'mib eki-ladigan va shu yo'l bilan ekilgan
Til	1. Og'iz bo'shlig'idagi muskulli a'zo. 2. Fikr almashish vositasi
Tim	1. Usti yopiq bozor. 2. Kuchaytiruv yuklamasi
Ting'	1. Haydalmay, ekilmay yotgan; zarang. <i>Ting' yer.</i> 2. Taqlid so'z

Tir	1. O'q, kamon o'qi. 2. Kamon, to'pponcha, miltiq kabilarni otish uchun maxsus jihozlangan joy
Tirnoqcha	1. Tirnoqcha. Tirnoq. 2. Tirnoqcha. Ozgina, jinday (ravish)
Tirsak	1. Qo'lning bilak suyagi bilan yelka suyagi qo'shiladigan, bukilib, burchak hosil qiladigan joyi, bo'g'imi. 2. Tilda paydo bo'ladijan so'galsimon bo'rtiq, chiqiq; sariqcha
Tirsilla-moq	1. Tirs etmoq. 2. To'lishmoq
Titan	1. Mendeleev davriy sistemasining IV guruhiga mansub kimyoviy element, po'latsimon yaltiroq qattiq, korroziyabardosh metall. 2. Suv isitadigan yoki qaynatadigan maxsus qurilmali katta idish
Titul	1. Kitobning nomi, muallifi, nashr qilingan yili va joyi, nashriyot nomi ko'rsatilgan birinchi beti. 2. Milliy va boshqa turli huquqlar asosi; ayrim kodeks yoki qonunlardagi alohida bo'limcha
Tish	1. Ovqat yeish, tishlash, chaynash, tutib turish uchun xizmat qiladigan a'zo. 2. Tash, sirt, tashqari
Toblamoq	1. Taftiga, alangasiga tutmoq, qizdirmoq. 2. Pishitmoq, eshmoq, chiyramoq
Tovva	1. Tavba, pushaymon. 2. Oshiqning olchiga qarama-qarshi silliq tomoni
Tovlamoq	1. Toblamoq. 2. Eshmoq, o'ramoq; buramoq, to'g'rيلamoq. 3. Aldab, laqillatib, qo'rqtib, biror narsasini yoki pulini olmoq, yulmoq, anoyi qilmoq, firib bermoq
Tovon	1. Oyoq kaftining orqa qismi. 2. Keltirilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan yoki olinadigan haq
Tovsilla-moq	1. Tovsilmoq – siyraklashib, kamayib qolmoq, tortilmoq; bosilmoq. 2. Ikkilanmoq, nima qilarini bilmay turmoq, tortilmoq

Toy	1. Otning bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan bolasi. 2. Katta to'p qilib taxlab yoki bosib bog'langan mol va shu tarzdagi mol o'ichovi
Tok	1. Uzum o'simligi. 2. Elektr
Tol	1. Daraxt. 2. Uzun va ingichka. «Kokillarim eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol». «Alpomish»dan. 3. Mina va snaryadlar ichiga quyiladigan kuchli portlovchi modda; oq yoki sarg'ish rangli qattiq kristall mahsulot
Tom	1. Uyning, binoning ustini bekitib turuvchi tepe qismi. 2. To'la, to'liq. 3. Bir necha kitobdan iborat asar, asarlar to'plami, jild
Tomli	1. Tom bilan yopilgan. 2. Belgili jiddan iborat
Tong	1. Kun chiqish payti. Subhidam. 2. Dong. <i>Tong qotib qolmoq</i>
Topish-moq	1. Birgalik nisbatdagi fe'l. 2. O'yin turi
Topqir	1. Navbatdagi guruh, turkum. 2. Fahmi o'tkir, topag'on
Tor	1. Ensiz, kambar. 2. Cholg'u asboblarning tebranib tovush chiqaradigan ipi. 3. Musiqa asbobi
Tos	1. Asosan, kir yuvish, yuvinish uchun ishlataladigan katta metall idish. 2. Birga o'tirgan kishilar guruhi. 3. Parcha, kimxob. 4. Toz – boshning sochsiz taqir yoki kal yeri
Tosh	1. Qattiq, mo'rt tog' jinsi. 2. 8 chaqirimga yaqin uzunlik o'ichov birligi (taxminan 6 kilometr)
Toshli	1. Tarkibida toshi bo'lgan. 2. Tosh uzunligidagi

Toq	1. Ikkiga bo'linmaydigan, juft bo'l magan. 2. Eshik va binolarning tepasidagi yarim doira shaklida ishlangan qismi, arka. 3. <i>Toqati toq bo'lmoq</i>
Tragik	1. Tragik. Dramaturg. 2. Tragik. Tragediyaga xos. Tragik aktyor
Tuz	1. Modda. 2. Tekis yer, keng tekislik. 3. Karta
Tuzalmoq	1. <i>Xastalikdan tuzalgan.</i> 2. <i>Dasturxon tuzalgan</i>
Tuzuk	1. Buzilgan-netgan yeri yo'q. 2. Qonun-qoidalar to'plami; nizom
Tuyilmox	1. <i>Jo'xori tuyildi.</i> 2. <i>Uning so'zi menga qattiq tuyildi</i>
Tuymoq	1. Maydalamoq. 2. His qilmoq
Tuyg'un	1. Sezgir. 2. Qirg'iy va qarchig'ayning erkagi
Tuman	1. Tabiat hodisasi. 2. O'n ming. 3. Sharqda, jumladan, O'zbekistonda XX asrning 20-yillarigacha ma'muriy-hududiy bo'linish; uyezd
Tur	1. Xil, nav. 2. Davrali sport musobaqalarida bir qur o'yin. <i>Xokkey bo'yicha... sharqiy zonada qatnashayotgan komandalarning ikkinchi davra birinchi tur uchrashuvlari...</i>
Turoq	1. Turadigan joy, maskan. 2. She'r misralarida bo'g'inlarning misralar bo'yicha takrorlanib kelgan muayyan bo'lagi, qismi
Turp	1. Hosili ko'kishroq rangda bo'ladigan va pishirilmay ovqatga qo'shib yeyiladigan sabzavot o'simligi. 2. Mevaning siqb suvi yoki shirasi olingandan keyin hosil bo'lgan qoldig'i
Tuta	1. Paxtadan ip yigirish uchun tayyorlangan pulta. 2. Erta bahorda o'sadigan o'simlikning bir turi

Tutanoq	1. Tutqanoq, quyonchiq. 2. G'ayrati ichiga sig'maydigan, sho'x
Tutatqi	1. Tutantiriq. 2. Tutatilganda kasallik, falokat va shu kabilarni daf etuvchi yoki kerakli predmet, voqeа-hodisani yuzaga keltiruvchi, hozirlovchi narsa
Tutash	1. Tutamoq. Isiriqning tutashi. 2. Bir-biriga yonma-yon ulangan
Tutashmoq	1. Alanga olmoq. 2. Tutash holatda bo'lmoq
Tutinmoq	1. Tutmoq fe'lining o'zlik nisbati. 2. Kimsa bilan ahdlashib do'st... tutinmoq
Tutuq	1. Tutib qo'yilgan. <i>Parda tutiq</i> . 2. Duduq (shevada)
Jonidan bezor bo'ldi – ortiq toqat qilolmasligi tufayli o'limiga ham rozi bo'ldi

Jonidan to'ydi – 1) yashashni istamadi; 2) ortiq toqat qilolmasligi tufayli o'limiga ham rozi bo'ldi

Jonidan umidini uzdi – o'lishga iqrar bo'ldi

Joniga aro kirdi – 1) bir o'limdan qutqarib qoldi; 2) og'ir ahvoldan qutqardi

Joniga oro kirdi – 1) bir o'limdan qutqarib qoldi; 2) og'ir ahvoldan qutqardi

Joniga tegdi – 1) bezor qildi; 2) bezor bo'lib zerikdi

Jonini berdi – har qanday og'ir shartni, talabni bajarishta tayyor bo'ldi

Jonini fido qildi – o'zini qurban qilishga ham tayyor bo'ldi

Jonini ham ayamadi – 1) biror maqsad yo'lda o'lishga ham tayyor bo'ldi; 2) bisotida bor hamma narsasini berishga tayyor bo'ldi

Jonini hovuchlab – biror falokatning yuz berishidan benihoya qo'rqqan holda

Jonini jabborga berdi – bor kuchini safarbar qildi

Jonini kaftiga olib – biror

falokatning yuz berishidan benihoya qo'rqqan holda

Jonini kuydirib – mashaq-qatni o'z bo'yniga olgan holda, tirishib

Jonini oldi – 1) o'ldirdi; 2) ruhan juda qattiq ezib yubordi; 3) jismonan juda qattiq ezib yubordi

Jonini tikdi – butun kuch va imkoniyati, hatto hayotini bag'ishladi

Jonini chiqardi – nihoyatda qattiq g'azablandi, darg'azab bo'ldi

Jonining boricha – kuch-quvvati yetganicha, tirishib

Jon-jonidan o'tib ketdi – 1) jismiga chuqur ta'sir qildi; 2) ruhiga chuqur ta'sir qildi

Jon-jonidan o'tib ketdi – 1) jismonan va alamli ta'sir qildi, qaqshatdi; 2) ruhan alamli ta'sir qildi

Jon-poni chiqib ketdi – nihoyatda qattiq qo'rqli

Jon-u holiga qo'ymaydi – tinchlik bermaydi

Joyiga keltirdi – o'rinaltdi

Joyiga qo'ydi – bajardi, o'rinaltdi

K

Kalavasining uchini topdi – jumbojni hal qilish yo'lini topdi

Kalavasining uchini yo'-qotdi – qilib turgan ishini bilmay qoldi, gangidi

Kallasi g'ovlab ketdi – o'ylayverib gangidi

Kapalagini uchirdi – qattiq cho'chish bilan qo'rqli

Kapalagi uchdi – qattiq cho'chish bilan qo'rqli

Katta gap – 1) diqqatga sazovor, arzigulik; 2) qano-atlanishga yetarli, kifoya

Katta gapirdi – imkoniyatiga ortiqcha baho berdi

Katta ketdi – imkoniyatiga ortiqcha baho berdi

Katta og'iz – 1) soxta kibr-havoli, maqtanishni yaxshi ko'radigan; 2) imtiyozli mavqega ega (kinoya)

Kavushini to'g'irlab qo'ydi – haydab yubordi

Kayfi chog' – kayfiyati yaxshi

Kayfi buzuq – kayfiyati yomon, xafa

Kayfi uchdi – qattiq cho'chish bilan qo'rqli

Kayfi xush bo'ldi – xur-sandchilik qildi, dilxushlik qildi

Kayfi chog'lik qildi – xur-sandchilik qildi, dilxushlik qildi

Kayfiyati buzildi – kayfiyati yomonlashib, xafa bo'ldi

Kesak otdi – yomonlik xatti-harakatlari qildi

Ketidan tushdi – qayerga borsa, zimdan ta'qib qilib bordi

Ketiga tushdi – 1) zimdan yurib butun xatti-harakatlarini ta'qib qildi; 2) manfaatdor bo'lgani holda berilib harakat qildi

Kechani kecha, kunduzni kunduz demay – vaqt tanlamay, sutkaning istalgan vaqtida

Kechirmoq – 1) o'z hayotida ko'rdi; 2) ma'lum bir muddat fikrladi

Kim biladi – aniq aytib boilmaydi

Kim biladi deysiz – aniq aytib boilmaydi

Kim bilsin – aniq aytib boilmaydi

Kim qo'yibdi?! – lozim emas, loyiq emas

Kindigi kesilgan – tug'ilgan

Kindik qoni to'kilgan – tug'ilgan

Kiprik qoqmaslik – sira uxlamaslik

Komil ishonch bilan – mutlaqo amin bo'lgan holda

Kuli ko'kka sovrildi – butunlay yemirildi, yo'q bo'ldi

Kun o'tkazdi – 1) vaqt

o'tkazdi; 2) tirikchilik qildi

Kun bermaslik – chiqish-tirmaslik, ta'bini xira qiladigan, osoyishtaligini buzadigan harakatlar qildi

Kun ko'rdi – tirikchilik qildi, tirikchilik o'tkazdi

Kun yo'q – tinchlik bermaslik, tinch hayot kechirishga yo'l qo'ymaslik

Kuni bitdi – o'ladigan vaqt keldi

Kuni tugadi – o'ladigan vaqt keldi

Kuniga qoldi – 1) biror ishni bajarishda qaram bo'ldi; 2) foydalanishga majbur bo'ldi

Kunini o'tkazdi – 1) vaqtini o'tkazdi; 2) tirikchiligini qildi

Kunini ko'radi – 1) tirikchilik qiladi, tirikchilik o'tkazadi; 2) jazolanadi

Kunni kechirdi – 1) vaqt o'tkazdi; 2) tirikchilik qildi

Kurakda turmaydigan – aytib bo'lmash darajada nomunisosib

Kekirdagini cho'zdi – 1) shovqin solib, dabdabali qilib gapirdi; 2) o'dag'ayladi

Ko'kka ko'tardi – ortiq darajada maqtadi

Ko'kka sovurdi I – behuda sarfladi

Ko'kka sovurdi II – butun-

lay yemirilib yo'q bo'ldi

Ko'klarga ko'tarib – ortiq darajada, benihoya

Ko'kragi tog'day ko'tarildi – xursand bo'lib, benihoya ruhlandi

Ko'kragiga urdi – chapanichasiga pisanda qildi

Ko'ksi ko'tarildi – xursand bo'lib, benihoya ruhlandi

Ko'ngil bog'ladi – sevish hissiga erk berdi

Ko'ngil berdi – sevdi, oshiq (ma'shuq) bo'ldi

Ko'ngil ochdi – xursand-chilik qildi, kayfiyatini ko'tardi

Ko'ngil qo'ydi – sevdi

Ko'ngil aynidi – 1) tanasi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'ldi; 2) tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg'andi

Ko'ngli bor – moyil, xayri-xoh, sevadi

Ko'ngli bormadi – xohlamadi

Ko'ngli bo'sh – ko'ngilchan, rahmdil

Ko'ngli bo'shadi I – ruhiy kechinmalar ta'sirida yig'lab yuborish holatiga yetdi

Ko'ngil bo'shadi II – xo'rligi keldi

Ko'ngli bo'shashdi – ruhiy kechinmalar ta'sirida yig'lab yuborish holatiga yetdi

Ko'ngli joyiga tushdi – xotirjam bo'ldi, tinchlandi

Ko'ngli keng – oliyhimmat, saxovatli

Ko'ngli ko'tarildi – ruhlandi

Ko'ngli ko'tarmaydi –

1) yana yeb-icha olmaydi;

2) yoqtirmaydi

Ko'ngli oq – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan

Ko'ngli ozdi – 1) behush bo'ldi; 2) tanasi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'ldi

Ko'ngli og'ridi – ranjidi

Ko'ngli ochiq – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan

Ko'ngli pok – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan

Ko'ngli qattiq – rahm-shafqati yo'q

Ko'ngli qoldi – avvalgi yaxshi munosabati o'rniga xush ko'rmaslik hissi uyg'ondi

Ko'ngli qora – yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan

Ko'ngli sovidi – avvalgi yaxshi munosabati yo'q bo'ldi

Ko'ngil so'radi – boshiga xafachilik, musibat tushgan kishiga hamdardlik bildirib hol-ahvolini so'radi

Ko'ngli topilsa – istak-xohishiga mos tushadigan harakatlar qilish bilan o'ziga moyil qilsa

Ko'ngli tortdi – yoqtirdi

Ko'ngli toza – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan

Ko'ngli tog'day ko'tarildi – xursand bo'lib, benihoya ruhlandi

Ko'ngli to'ldi – 1) mammun bo'ldi; 2) qanoat hosil qildi, tinchidi

Ko'ngli to'q – xotirjam

Ko'ngli xira – tashvishli, bezovta, notinch

Ko'ngli xira bo'ldi – tashvish qildi

Ko'ngli xiralashdi – biroz tashvish qildi

Ko'ngli yorishdi – ko'nglidagi g'ashlik tarqadi

Ko'ngli yumshadi – rahmdilli uyg'ondi

Ko'ngli yumshoq – ko'ngilchan, rahmdil

Ko'ngli yo'q – istamaydi

Ko'ngli o'ksidi – ma'yuslandi, o'ksindi

Ko'ngli o'rniga tushdi – xotirjam bo'ldi, tinchlandi

Ko'ngli o'sdi – ruhlandi

Ko'ngli g'ash – tashvishli,

beзовта, неотлич

Ko'ngli g'ash bo'ldi – ташвиш сформирован

Ko'ngli g'ash tortdi –bir oz tashvish qildi

Ko'ngli g'ashga to'ldi – qattiq tashvishda bo'ldi

Ko'ngli cho'kdi – ruhsizlandi

Ko'nglida kiri yo'q – kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q

Ko'nglidan kechirdi – ma'lum bir muddat fikrladi

Ko'nglidan o'tdi – ma'lum bir muddat fikrladi

Ko'nglidan chiqardi – 1) butkul unutib yubordi, o'ylamay, eslamay qo'ydi; 2) ko'nglidagi g'uborni tarqatdi; 3) o'z roziligi bilan berishni ma'qul ko'rди

Ko'ngliga keldi – 1) o'zicha o'yladi; 2) biror munosabat bilan aytilgan gapni yoki qilingan harakatni og'rinib qabul qildi; 3) xohladi

Ko'ngliga qo'l soldi – eng yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qildi

Ko'ngliga sig'maslik – diqqatlik, xafalik tufayli mashg'ul bo'lolmaslik

Ko'ngliga tugdi – 1) o'mi kelganda aytishni mo'ljallab qo'ydi; 2) ahd qildi; 3) fikran

belgilab qo'ydi; 4) unutmay ichda saqladi

Ko'ngliga tegdi – 1) yoqmay qoldi, tanasi qabul qilmay qo'ydi; 2) yoqtirmaslik hissi uyg'ondi

Ko'ngliga urdi – 1) qiziqishi yo'qoldi; 2) jirkanish hissini uyg'otdi, bezdirdi

Ko'ngliga vahima soldi – qo'rqish hissini uyg'otdi

Ko'ngliga vahima tushdi – qo'rqish hissi uyg'ondi

Ko'ngliga g'ashlik soldi – tashvish qilishiga sabab bo'ldi, tashvishli holatga qo'ydi

Ko'ngliga g'ashlik tushdi – o'z-o'zicha tashvish qildi

Ko'ngliga g'ashlik tushgan – 1) qiziqishi yo'qoldi, zeriktirdi; 2) jirkanish hissini uyg'otdi, bezdirdi

Ko'nglini buzmaslik – har xil o'y-xayollarga borib, o'zini o'zi xafa qilmaslik

Ko'nglini bo'lmaslik – har xil o'y-xayollarga borib, o'zini o'zi xafa qilmaslik

Ko'nglini ezdi – ruhan azob-ladi

Ko'nglini joyiga tushirdi – xotirjam bo'ldi, tinchlandi

Ko'nglini ko'tardi – ruhlantirdi

Ko'nglini oldi – xursand qilish bilan o'ziga qaratdi

Ko'nglini ovladi – o'ziga moyil qilish uchun intildi

Ko'nglini og'ritdi – ranjitdi

Ko'nglini ochdi I – xafaligi tarqab, xursand bo'ldi

Ko'nglini ochdi II – ichidagi istak yoki dardini aytidi

Ko'nglini qoldirdi – avvalgi yaxshi munosabati o'rniga xush ko'rmaslik hissi uyg'ondi

Ko'nglini qora qildi – juda xafa qildi

Ko'nglini sovitdi – avvalgi yaxshi munosabati yo'q bo'ldi

Ko'nglini so'radi – boshiga xafachilik, musibat tushgan kishiga hamdardlik bildirib hol-ahvolini so'radi

Ko'nglini topdi – istak-xohishiga mos tushadigan harakatlar qilish bilan o'ziga moyil qildi

Ko'nglini tog'day ko'tardi – xursand qilib ruhlantirdi

Ko'nglini to'q qildi – xotirjam bo'ldi

Ko'nglini to'q tutdi – xotirjam bo'ldi

Ko'nglini uzdi – yuragiga yaqin kishisidan yoki narsasidan ajralishga qaror qildi

Ko'nglini xira qildi – bezovta, notinch bo'ldi

Ko'nglini yordi – ichidagi istak yoki dardini aytidi

Ko'nglini yorishtirdi – ko'nglidagi g'ashlikni tarqatdi

Ko'nglini yozdi – xafaligi tarqaldi

Ko'nglini yumshatdi – rahmdillik uyg'otdi

Ko'nglini o'stirdi – ruhlan-tirdi

Ko'nglini g'ashladi – tash-vish tortdi

Ko'nglini cho'ktirdi – umid-sizlikka tushdi

Ko'nglining bir chekkasi xira – tashvishli, bezovta, notinch

Ko'nglining bir chekkasi g'ash – tashvishli, bezovta, notinch

Ko'nglining bo'shligi – ko'ngilchan, rahmdil ekanligi

Ko'rarga ko'zi yo'q – niho-yatda yomon ko'rdi

Ko'rgani ko'zi yo'q – niho-yatda yomon ko'rdi

Ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q – nihoyatda yomon ko'rdi

Ko'rpasiga qarab oyoq uzatdi – imkoniyatini hisobga olib ish tutdi

Ko'rsatib qo'yaman – qo'r-qitish

Ko'z bo'yadi – aldadi, laqil-latdi

Ko'z ilindi – mizg'idi, uxlay boshladi

Ko'z ilg'amас I – bilinarbilinmas, mayda

Ko'z ilg'amас II – cheksiz, poyoni ko'rilmaydigan

Ko'z ilg'amaydi – poyoni ko'rilmaydi

Ko'z olaytirdi – 1) o'q-raydi; 2) o'z manfaatiga bo'y-sundirish niyatida bo'ldi

Ko'z oldidan o'tdi – tasavvurida ketma-ket gavdalandi

Ko'z oldiga keldi – tasavvurida gavdalandi

Ko'z olmaslik – qarashni to'xtatmaslik

Ko'z ostidan – yashirinchcha, sezdirmay

Ko'z ostiga oldi – biror maqsad bilan ko'zlab qo'ydi

Ko'z ochgani qo'ymaslik – biror narsani betiga solib yoki qattiq talab qilib tinchlik bermaslik, qattiq siuvuga olish

Ko'z ochib ko'rgan – birinchi nikohiga olgan

Ko'z ochib yunguncha – juda qisqa muddatda, tezda

Ko'z ochirmaslik – biror narsani yuziga solib yoki qattiq talab qilib tinchlik bermaslik, qattiq siuvuga oldi

Ko'z qirini tashladi – tez va sezilar-sezilmas qaradi

Ko'z qorachig'i – yakka-

yu yagona va qadr-qimmati
beqiyos yuksak

Ko'z suzdi – noz-karashma
bilan qaradi

Ko'z tagidan – yashirinchcha,
sezdirmay

Ko'z tagiga oldi – biror
maqsad bilan ko'zlab qo'ydi

Ko'z tashladi – qisqa mud-
dat qaradi

Ko'z tegdi – ko'zikdi

Ko'z tikdi – 1) tikilib qaradi;
2) umidvor bo'lib qaradi

Ko'z tutdi – kelib qolar de-
gan umidda kutdi

Ko'z urishtirdi – ko'z qa-
rashlari bir daqiqa duch keldi

Ko'z yogurtirdi – tez va
yuzaki qaradi

Ko'z o'ngida – 1) bevosita
ko'ringan, kuzatilgan holda;
2) tasavvurida saqlagan

Ko'z o'ngiga keldi – tasav-
virida gavdalandi

Ko'zda tutdi – fikran hisob-
ga oldi

Ko'zdan kechirdi – qarab
chiqli, birma-bir ko'rди, sin-
chiklab tanishdi

Ko'zdan qochirmaslik –
doim kuzatib turdi

Ko'zdan o'tkazdi – qarab
chiqli, birma-bir ko'rди, sin-
chiklab tanishdi

Ko'zga ko'rinarvardi? –
1) tatimaslik, e'tiborini tort-
maslik; 2) hisoblashmaslik,
o'ylab-netib o'tirmaslik

Ko'zga ko'rindi – 1) tanildi;
2) o'ziga diqqat-e'tiborni jalb
qiladigan bo'ldi

Ko'zga ko'rinxaslik I –
1) tanilmaslik; 2) o'ziga jalb
qiladigan bo'lmaslik

Ko'zga ko'rinxaslik II –
1) tatimaslik, e'tiborini tort-
maslik; 2) hisoblashmaslik,
o'ylab-netib o'tirmaslik

Ko'zga tashlandi – 1) ro'y-
rost, aniq ko'rindi; 2) aniq
ajralib, sezilib turdi

Ko'zga chalindi – bir marta
noaniq holda ko'rindi

Ko'zi qamashdi –

1) nur aks etib, ko'zi hech
narsani ko'rmaydi;

2) go'zalligiga mahliyo bo'ldi

Ko'zi ilindi – mizg'idi, u xlabel
boshladi

Ko'zi ilg'amaydi – kichik,
sezilar-sezilmas bo'lgani
uchun ko'ra olmaslik

**Ko'zi kosasidan chiqib
ketayozdi** – 1) g'azabi qo'zib,
asabiyashdi; 2) g'ayrat
ko'zida aks etib chaqchaydi

Ko'zi ketdi – xlabel boshladi

Ko'zi ko'r, qulogi kar –
hech narsadan bexabar

Ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ldi – hechnarsani ko'rmaydigan, eshitmaydigan bo'ldi

Ko'zi ko'ziga tushdi – ko'z qarashlari bir daqiqqa duch keldi

Ko'zi moshdek ochildi – jazo olib, hushyor qildi

Ko'zi ola-kula bo'lib ketdi – olayib qaradi

Ko'zi ochildi – yaxshi-yomonni tushunadigan bo'ldi

Ko'zi ochiq I – barhayot

Ko'zi ochiq II – yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlashga qobiliyatli

Ko'zi pishdi – anchagina o'rganib, tajribasi ortdi

Ko'zi qinidan chiqib ketayozdi – 1) g'azabi qo'zib, asabiylashdi; 2) g'ayrati ko'zida aks etib, ko'zi chaqchaydi

Ko'zi qiyadi – 1) ko'ngilchanlik tufayli botinolmaslik;

2) rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik;

3) ko'ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik

Ko'zi qiyarda-qiymay –

1) ko'ngilchanlik tufayli botinolmaslik; 2) rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik; 3) ko'ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik

Ko'zi qiymadi – 1) ko'ngilchanlik tufayli botinolmaslik; 2) rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik; 3) ko'ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik

Ko'zi tindi – 1) holsizlanish natijasida ko'z oldi xiralashdi; 2) ko'p va mayda narsaga tikilib, ko'z oldi xiralashdi

Ko'zi tirik – barhayot

Ko'zi tor – qizg'anchiq

Ko'zi tushdi – bexosdan, kutilmaganda ko'rdi

Ko'zi to'rt bo'ldi – intizor bo'ldi

Ko'zi uchib turibdimi? – ko'rish ishtiyoyqidami? (kesatiq bilan)

Ko'zi xonasidan chiqay dedi – 1) g'azabi qo'zib, asabiylashdi; 2) g'ayrati ko'zida aks etib, ko'zi chaqchaydi

Ko'zi yetdi – ishondi, ishonch hosil qildi

Ko'zi yordi – tug'di

Ko'zi yumildi – qazo qildi, vafot etdi

Ko'zi o'tmaydi – nuri ketib, ko'zi kamquvvat bo'lib qoldi

Ko'zi o'ynadi – ko'z-ko'z qilganligi tufayli havasi keldi

Ko'zi kosasidan chiqib ketayozdi – 1) g'azabi qo'zib, asabiylashdi; 2) g'ayrati

ko'zida aks etib, ko'zi chaq-chaydi

Ko'ziga issiq ko'rindi – 1) tanishdek tuyuldi; 2) o'ziga tortdi, yoqimli tuyuldi

Ko'ziga ko'rinish ketdi – bordaniga xotirasida gavdalandi

Ko'ziga ko'rinaslik I – ro'para bo'lmaslik, duch kelmaslikka harakat qilish

Ko'ziga ko'rinaslik II –

1) tatimaslik, e'tiborini tortmaslik; 2) hisoblashmaslik, o'yab-netib o'timaslik

Ko'ziga oq-qora ko'rinnmaydi – 1) tatimaslik, e'tiborini tortmaslik; 2) hisoblashmaslik, o'yab-netib o'timaslik

Ko'ziga sovuq ko'rindi – yoqtirmaslik, jirkanish hissini uyg'otmoq

Ko'ziga o'tday ko'rindi – 1) tanishdek tuyuldi; 2) o'ziga tortdi, yoqimli tuyuldi

Ko'ziga cho'p soldi – aldadi, chalg'itdi

Ko'zlari chanog'idan chiqar bo'ldi – 1) g'azabi qo'zib, asabiyashdi; 2) hayrati ko'zida aks etib, ko'zi chaqchaydi

Ko'zini qamashtirdi – 1) nur aks etib, ko'zi hech narsani ko'rmaydigan bo'ldi; 2) go'zalligiga mahliyo bo'ldi

Ko'zini bildi – ustalik bilan bajara oldi

Ko'zini bo'yadi – aldadi, laqillatdi

Ko'zini oldi – qarashni to'xtatdi

Ko'zini olmaslik – qarashni to'xtatmaslik

Ko'zini ochdi – hushyor qildi, yaxshi-yomonni tushunadigan qildi

Ko'zini pishitdi – anchagina o'rganib, tajribasini ortirdi

Ko'zini tikdi – 1) tikilib qaradi; 2) umidvor bo'lib qaradi

Ko'zini to'rt qildi – intizor

Ko'zini uzmaslik – muttasil qarash

Ko'zini uzmay – muttasil (qaradi)

Ko'zini yog' bosdi – takabburlik qildi, tanib tanimaga ganda oldi

Ko'zini yogurtirdi – tez va yuzaki qaradi

Ko'zini o'ynatdi – ko'z-ko'z qilganligi tufayli havasi keldi

Ko'zini shira bosdi – takabburlik qildi, tanib tanimaga ganda oldi

Ko'zini chirt yumib – tavakkal qilib

Ko'zining oq-u qorasi – yakka-yu yagona va qadr-qimmati beqiyos yuksak

Ko'zining ochiqligida – barhayotligida

Ko'zining paxtasi chiqdi – g'azabi ko'zida aks etib, ko'zi chaqchaydi

Ko'zining paxtasi chiqib ketayozdi – 1) g'azabi qo'zib, asabiylashdi; 2) g'ayrati ko'zida aks etib, ko'zi chaqchaydi

Ko'zining qirini tashladi – tez va sezilar-sezilmas qaradi

Ko'zining qorachig'i – yakka-yu yagona va qadr-qimmati beqiyos, yuksak

Ko'zining tirikligida – barhayotligida

Ko'zining yog'ini yedi – o'zini kimgadir yaqin ko'rsatib, uning xayrixohligidan o'z manfaati yo'lida foydalandi

Ko'z yumdi – qazo qildi, vafot etdi

Ko'z oldiga keldi – tasavvurida gavdalandi

L

Labi labiga tegmaydi – juda tez va ko'p gapiradi

Labiga uchuq toshdi – qattiq qo'rqliq bilan cho'chidi

Labini tishladi – kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qoldi

Lafzida turdi – ahdini saqladi

Lafzidan qaytdi – ahdidan voz kechdi

Laqqa tushdi – osongina aldandi

Luqma tashladi – biror kishining nutqi davomida shu nutqni bo'luvchi so'z-gap ilova qildi

«Lom» demaslik – hech narsa demaslik, e'tiroz qilmaslik

«Lom-mim» demay – e'tiroz qilmay, qarshilik qilmay

«Lom-mim» demaslik – hech narsa demaslik, e'tiroz qilmaslik

M

Ma'lumot berdi I – boshqalarni ham xabardor qilish maqsadida so'zлади

Ma'lumot berdi II – yuqori organlarga shikoyat tarzida xabar yubordi

Ma'qul ko'rdi – ma'qul, durust deb bildi

Ma'qul topdi – to'g'ri deb hukm chiqardi. Ma'qul tushdi – yoqdi

Malol keldi – ortiqcha bir narsadek qabul qildi, og'ir tuyuldi

Mana man deb – o'zini o'zi ko'rsatib

Man-man degan – eng oldingi, eng yuqori, o'ziga yuskak baho beradigan

Mayda gap – bo'lar-bo'lmas gaplarni dastak qilib gapirib yuruvchi odam

Mazasi ketdi I – sog'ligi yomonlashdi

Mazasi ketdi II – biror ishi yomonlashib, inqirozga yuz tutdi

Mazasi qochdi I – sog'ligi yomonlashdi

Mazasi qochdi II – biror ishi yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi

Mazasi yo'q I – sog'ligi yomon holatda

Mazasi yo'q II – harakati, layoqati sust

Mijja qoqdi – mizg'idi

Mijja qoqmadi – sira uxlamadi

Miridan sirigacha – butun tafsiloti bilan, mayda chuydasigacha, batafsil

Misi chiqdi – soxtaligi, yolg'onligi fosh bo'ldi

Miyasi aynidi – fikrlash qobiliyatini yo'qotdi

Miyasi qotdi – o'layverib gangidi

Miyasi g'ovlab ketdi – o'layverib gangidi

Miyasida danak chaqdi – ortiq darajada azobladi

Miyasidan kechdi – 1) o'z hayotida ko'rди; 2) ma'lum bir muddat fikrladi

Miyasidan o'tdi – 1) o'z hayotida ko'rди; 2) ma'lum bir muddat fikrladi

Miyasiga keldi – o'yładi, idrok qildi, fahmladi

Miyasini achitdi – me'yoriy fikrlash qobiliyatini yo'qotdi

Miyasini qoqib, qo'liga berdi – so'rayerverib miyasini charchatdi, sergapligi bilan bezdirdi

Miyasini qotirdi – astoydil o'yładi, chuqur fikrladi

Miyasini yedi – miyasi ishlamay qoldi, fikrlash qobiliyatini yo'qotdi

Mos keldi – muvofiq bo'ldi, mos bo'ldi

Moy tomsa – yalaguday – benihoya darajada toza

Muhabbat qo'ydi – sevdi

Mukkasidan ketdi – o'zini tiya olmaslik darajasida berilib ketdi

Mum tishladi – mutlaqo gapirmadi, suhbatda mutlaqo qatnashmadi

Mushugini «pisht» demaydi – hech qanday ozor yetkazmaydi

Me'dasiga tegdi – yoqmay qoldi, tanasi qabul qilmay qo'ydi

Mehr qo'ydi – butun hissi-yoti bilan suydi

Mehri tosh – bemehr, iltifoti yo'q

Mehri tushdi – suyib qoldi

N

Nafasi ichiga tushib ketdi – qo'rquv aralash hech narsa deyolmay lol bo'lib qoldi

Nafasi kesildi – gapirtirmadi

Nafasi chiqmadi – hech narsa demadi, indamadi

Nafasini ichiga yutdi – hech qanday tovush chiqarmaydi

Nari borib, beri keldi – juda qattiq azoblandi

Nari borsa – ko'pi bilan, ortig'i bilan hisoblaganda

Nari-beriga bordi – xafalashdi, janjallahashdi

Nazar soldi – diqqat bilan qaradi

Nazar tashladi – qisqa muddat qaradi

Nazarda tutdi – fikran hisobga oldi

Nazarga ilmaslik – 1) mensimaslik, pisand qilmaslik;

2) arzugulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaslik

Nazarga ilmaydi – 1) mensimaydi, pisand qilmaydi; 2) arzugulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaydi

Nazari tushdi – 1) bexosdan, kutilmaganda ko'rdi; 2) mehri tushdi

Nazaridan qoldi – yaxshi munosabatidan, hurmat-e-tiboridan mahrum bo'ldi

Nazaridan o'tkazdi – qarab chiqdi, birma-bir ko'rdi, sinchiklab tanishdi

Nigoh tashladi – qaradi

Ninaday gapni tuyadek qildi – mubolag'a qilib, bo'rtitrib yubordi

Nomi chiqdi – 1) ma'lum-mashhur bo'ldi; 2) sharmanda bo'ldi

Nomimni boshqa qo'yaman! – biror ishni bajarishga qasd qilganlikni bildirishda aytildi

Nomusi bukildi – sharmanda bo'ldi

Nonini tuya qildi – aldabsuldar haqini o'zlashtirdi

Nog'orasiga o'ynadi – izmi bilan, yo birovning yo'rig'i bilan ish ko'rdi

O

Obro'si baland – katta e'tiborga ega

Obro'si ko'tarildi – yana ham e'tiborli bo'ldi

Obro'si tushdi – nufuziga putur yetdi

Obro'sini ko'tardi – yana ham e'tiborli qildi

Obro'sini oshirdi – yana ham e'tiborli bo'ldi

Obro'sini to'kdi – nufuziga putur etkazdi

Odam qo'ydi – 1) o'zi bilan o'zga tomon orasida birov vositachiligidan foydalandi; 2) biror kishi yordamida kimnidir ta'qib etdi; 3) sovchi yubordi

Odobini berdi – qilmishiga yarasha jazoladi

Oila qurdi – turmush qurdi

Olam guliston – hamma narsa ko'ngildagidek, hech qanday e'tirozga o'rin yo'q

Olamdan o'tdi I – yashadi

Olamdan o'tdi II – qazo qildi, vafot etdi

Oldi olindi – kutilgan hodisaga qarshi chora-tadbir ko'rildi

Oldidan o'tdi – biror ishni qilishdan oldin kimnidir xabardor qildi

Oldiga tushadigan – ustunlik qila oiadigan

Oldirib qo'ygan yuragi – bezillab qolgan

Olib qochdi – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi

Ona suti og'zidan keldi – haddan tashqari qiynalib ketdi

Ona suti og'zidan ketmagan – hali yosh, tajribasiz

Ona suti og'ziga keldi – haddan tashqari qiynalib ketdi

Onasini ko'rsatdi – do'q qildi, qo'rqiidi, adabini berdi

Onasini Uchqo'rg'onidan ko'rsatdi – do'q qildi, qo'rqiidi, adabini berdi

Oq bilan qorani ajratdi – yaxshini yomondan, foydani zarardan ajratdi

Oqko'ngil – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan

Oq ko'ngillik – to'g'rilik, yomonlikni bilmaslik

Oq-qorani ajratdi – yaxshini yomondan, foydani zarardan ajratdi

Oq-qorani tanidi – yaxshi yomonni, foyda-zararni bildi

Oq-qorani tushundi – yaxshi-yomonni, foyda-zararni bildi

Ora ochiq bo'ldi – olish-berish muomalasini ro'y-rost hal qildi

Oraga tushdi – 1) ikki tarafni murosaga keltirish maqsadida biror janjalga aralashdi; 2) jabrдида deb hisoblagan kishisini himoya qilib biror janjalli ishga aralashdi

Oralari ochiq – bir-biriga qarzdor emas, bir-biriga malol keladigan hech nima o'r-tada yo'q

Oralaridan qil ham o'tmaydi – nihoyatda ahil, inoq, ya-qin

Oralarini buzdi – o'zaro munosabatini yomonlashtirdi

Oro berdi – ko'rinishini ko'r kam, chirolyi qildi

Orqasiga tushdi – zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qildi

Osmon bilan yercha – juda katta, beqiyos (farq mannosida)

Osmonga ko'tardi – ortiq darajada maqtadi

Osmonga ko'tarib – ortiq darajada, benihoya

Osmonga uchsa, oyog'i-dan, yerga kirsa, qulogidan torta-di – qutulib ketishiga qo'yaydi

Ostonasiga bosh qo'ydi – xoksor bo'ldi, xoksorlik qildi

Ot bilan tuyacha – juda katta farq

Ota go'ri qozixonami? – janjallahib, xafalashib o'tirishga arzimaydi

Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi – mavqeyini yo'qotganiga qaramay, o'zini avvalgiday tutadi

Otilgan tosh – yomonlik xatti-harakatlarini qildi

Otimni boshqa qo'yaman! – biror ishni bajarishga qasd qilganlikni bildirishda aytildi

Oyoq osti bo'ldi – tahqirlandi

Oyoq osti qildirdi – poymol qildirdi, tahqirlatdi

Oyoq osti qilindi – tahqirlandi

Oyoq tiradi – o'jarlik qildi

Oyoqni tiradi – qaysarlik qildi

Oyog'i tortmadi – borgisi kelmadi

Oyog'iga bolta urdi – mavqeyidan mahrum etadigan zarba yetkazdi

Oyog'iga bosh qo'ydi – xoksor bo'ldi, xoksorlik qildi

Oyog'ini bir etikka suqdi – o'z ishining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qildi

Oyog'ini tirab oldi – qaysarlik qildi

Oyog'ini yerga tiradi – qaysarlik qildi

«Og'zing qani?» – desa, qulog'ini ko'rsatadi – no-shud, merov, anqov

Og'iroyoq – homilador

Og'iz juftladi – gapirishga hozirlandi

Og'iz ko'pirtirdi – ko'p va maqtanib gapirdi

Og'iz soldi – 1) qayliq yoki kuyov qilish niyati borligini aytdi; 2) g'ayriqonuniy ravishda o'zlashtirishga harakat qildi

Og'iz-burun o'pishdi – apoq-chapoq bo'lib ketdi

Og'zini juftladi – gapirishga hozirlandi

Og'iz ko'pirtirdi – ko'p va maqtanib gapirdi

Og'zi bormadi – biror andisha-mulohaza bilan aytishni ma'qul ko'rmasdi

Og'zi katta – 1) soxta kibr-havoli, maqtanishni yaxshi ko'radigan; 2) imtiyozli mavqega ega (kinoya)

Og'zi qulog'ida – nihoyatda xursand

Og'zi qulog'iga yetdi – behad sevindi, xursandligi tufayli lab-lunjini yig'ishtirib ololmadi

Og'zidan sut hidi keladi – hali yosh, tajribasiz

Og'zidan bol tomadi – shi-rinsuxan

Og'zidan ona suti ketmagan – hali yosh, tajribasiz

Og'ziga cho'g' soldi – umuman gapirmadi

Og'ziga nos oldi – mutlaqo gapirmadi

Og'ziga oldi – gapirdi

Og'ziga olmaydi – 1) umuman iste'mol qilmaydi; 2) gapirmaydi

Og'ziga qarab – o'ylab (gapirdi)

Og'ziga qaradi – 1) tingladi, nima deyishini diqqat bilan kutdi; 2) o'z bilganicha ish qilmay, kimningdir ko'rsatmasini kutdi

Og'ziga qaramay – o'ylamasdan (gapirdi)

Og'ziga qaratdi – nutqi bilan mahliyo qilib oldi

Og'ziga qatiq ivitdi – mutlaqo gapirmadi, suhbatda mutlaqo qatnashmadi

Og'ziga tolqon soldi – mutlaqo gapirmadi

Og'izga tushdi – ko'pchilik orasida gap-so'z bo'ldi yoki ma'lum-mashhur bo'ldi

Og'ziga urdi – do'q bilan yoki dalil bilan biror kishining yana so'zlashiga yo'l qo'y-madi

Og'zini ochdi – 1) angraydi;
2) gap boshladi

Og'zini poyladi I – biror
flkrni o'zicha aytishini kutdi

Og'zini poyladi II – 1)
tingladi, nima deyishini diqqat
bilan kutdi; 2) o'z bilganicha
ish qilmay, kimningdir ko'r-
satmasini kutdi

Og'zini yumdi – gapirishini
to'xtatdi

Og'zining tanobi qochdi
– behad sevindi, xursandligi
tufayli lab-lunjini yig'ishtirib
ololmaydi

Oshib-toshib yotdi – ortiq
darajada, benihoya ko'p

Ochilgan ko'z – hushyor,
yaxshi-yomonni tushunadigan

Ochiq ko'ngil – samimiy,
g'ayirlikni bilmaydigan

Ochiq qo'l – saxiy

Ochiq yuz bilan – yaxshi
kayfiyat bilan, xushtabiatlik
bilan

Ochiq yuzli – xushtabiat,
kayfiyati yaxshi

Ochiq chehra bilan – yax-
shi kayfiyat bilan, xushtabi-
atlik bilan

Ochiq chehrali – xushta-
biat, kayfiyati yaxshi

P

Parvoysi falak – beparvo,
beg'am

Parvoyiga keltirmaslik –
e'tibor qilmaslik, o'ylab ham
o'tirmaslik

Pastga urdi – ortiq darajada
kamsitdi

Payidan tushdi – qayerga
borsa, zimdan ta'qib qildi

Payiga tushdi – 1) zimdan
yurib butun xatti-harakatini
ta'qib qildi; 2) manfaatdor
bo'lgani holda berilib harakat
qildi

Payini qirqdi – mavqeyidan
mahrum etadigan zarba yet-
kazdi

Pashsha qo'ridi – foydali,
ko'zga ko'rinarli ish bilan shu-
g'ullanmaslik, vaqt ni befoyda
o'tkazish

Pashshadan fil yasadi – mu-
bolag'a qilib, bo'rttirib yubordi

Pinagini buzmaslik –
o'ziga qaratilgan gap yoki
harakatga ko'ra-bila turib
e'tibor qilmaslik, o'zini go'yo
hech narsa bilmagandek tu-
tish

Pinakka ketdi – 1) uxlab
qoldi; 2) xayolga cho'mdi

Pixini yorgan – uddaburon,
quv

Pichoq suyakka yetdi –
ortiq chidab bo'lmaydi

**Podadan oldin chang chi-
qardi** – ro'yobga chiqishi
aniq £ ёl'magan narsa haqida
vaqtidan ilgari gapirib yurdi

Putur yetdi – zararli bo'lib chiqdi

Puch yong'oq bilan qo'y-nini to'Idirdi – yolg'on va-dalar bilan aldadi

Puchakka chiqardi – xom xayol bo'lib chiqdi

Puchga chiqdi – xom xayol bo'lib chiqdi

Peshona teri – halol mehnat

Peshona teri to'kildi – ma-shaqqa bilan jismoniy mehnat qildi

Po'st tashlatadigan – chiday olmaydigan, toqat qilib tura olmaydigan

Po'stagini qoqqi – ayovsiz tanqid qildi

Po'stiga somon tiqqi – ju-da qattiq jazoladi

Q

Qahri keldi – achchiqlandi

Qalbi pok – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan

Qalbidan chiqarib tashladi – uzil-kesil unutdi

Qalbiga vahima soldi – kuchli darajada qo'rqish his-sini uyg'otdi

Qalbini ochdi – ko'nglidagi istak yoki dardini aytdi

Qarshi oldi – kutib oldi

Qattiq ko'ngil – rahm-shaf-qati yo'q

Qattiq turdi – o'z aytganining amalga oshishini qat'-iy talab qildi

Qay bet bilan – qanday qi-lib, uyalmasdan

Qayoqdan kun chiqdi?! – nechuk bunday favqulodda yaxshi ish bo'ldi?!

Qaysi shamol uchirdi?! – bu tomonga kelishingizga nima sabab bo'ldi?

Qildan qiyiq qidirdi – de-yarli aybi yo'q odamning harakatidan ayb topdi

Qilidan quyrug'igacha – butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha, batafsil

Qirq marta o'lchab, bir marta kesadi – nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan ish qiladi

Qon yutdi – ruhan azob-landi

Qoni qaynadi – achchiq-landi, qizishdi

Qora terga botdi – haddan tashqari zo'r berish natijasida terladi

Qora yurak – g'arazgo'y, buzuq niyatli

Qorasi o'chdi – uzoqlashib, ko'rinxay ketdi

Qorasini ko'rsatmaydi – kimningdir ko'ziga hech ko'rinxaydi

Qordan qutilib, yomg'irga tutildi – avvalgisidan ham yomoniga uchradi

Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqardi – yaxshilik qilaman degan holda yomonlik qilib qo'ydi

Qochirdi – juda ustun chiqdi, osonlikcha yengdi

Quling o'rgilsin – ajoyib, zo'r

Quloq berdi – tingladi

Quloq osdi – 1) tingladi; 2) aytganini qildi

Quloq soldi – 1) tingladi; 2) aytganini qildi

Quloq-miyasini yedi – so'-rayverib miyasini charchatdi, sergapligi bilan bezdirdi

Qulog'iga kirdi – diqqat bilan tinglamadi, qiziqmagani holda eshitdi

Qulog'iga kirmaydi – 1) parishon bo'lish, kuchli hayajonlanish yoki mashg'ul bo'lish tufayli o'ziga qarata aytilayotgan gaplarni anglamaydi, eshitmaydi; 2) e'tiborsiz qoldiradi, qabul qilmaydi

Qulog'iga oldi – kimningdir fikriga amal qilib ish tutdi

Qulog'iga quyди – 1) gap uqtirdi; 2) xotirasida mustahkam saqladi

Qulog'iga quyilib qoldi – 1) gapni uqdi; 2) xotirasida mustahkam saqladi

Qulog'iga yetdi – biror kishi orqali eshitib, xabardor bo'ldi

Qulog'iga chalindi – biror gapni yoki tovushni noaniq tarzda eshitdi

Quruq aravani olib qochdi – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi

Quti o'chdi – qattiq qo'rqqanidan, g'azablanguidan rangi oqardi

Quvonchi ichiga sig'maydi – xursandligi oshib-toshib ketdi

Qushdek yengil tortdi – ruhiy azoblanishi tarqadi

Qo'l berdi I – salomlashish uchun qo'l uzatdi

Qo'l berdi II – murid bo'ldi

Qo'l keldi – manfaatiga mos tushgan holda qulay keldi

Qo'l ko'tardi – 1) urdi; 2) tarafdorligini, xayrixohligini bildirdi; gapiruvchi ekanini bildirdi

Qo'l siltadi – diqqat-e'tiborga noloyiq deb topdi

Qo'l urdi – 1) tegdi; 2) biror ishni qila boshladi

Qo'ldan berdi – yo'qotdi

Qo'Idan ketdi – kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi

Qo'Idan chiqdi – 1) kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi; 2) bitdi (qurish, tikish, yozish kabilar)

Qo'Iga kirdi – ixtiyoriga o'tdi

Qo'Iga oldi – 1) o'z ixtiyoriga o'tkazdi; 2) qo'qqisdan hujum qilib bosib oldi; 3) hibs qildi, qamash maqsadida tutdi; 4) biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qildi

Qo'Iga tushdi – 1) tutqun bo'ldi; 2) biror nojo'ya ish bilan tutildi; 3) aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'ydi

Qo'li baland – raqobatda, musobaqada vaziyati ustun

Qo'li bormadi – nimanidir qilmaslikka undovchi histuyg'uning ta'sirida biror faoliyatga kirisha olmaydi

Qo'li egri – o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlaydigan mayda o'g'ri

Qo'li kalta – cheklangan imkoniyatga ega

Qo'li ochiq – saxiy

Qo'li qisqalik qildi – cheklangan imkoniyatga ega.

Qo'li tegmadi – juda bandligi tufayli vaqt topolmadı

Qo'li uzun – barcha imkoniyatga ega

Qo'li yuqori bo'ldi – raqobatda, musobaqada vaziyati ustunlik qildi

Qo'lidan keldi – bajarishga, qilishga qodir

Qo'lidan kelganicha – qila organicha, bilganicha, kuchi yetganicha

Qo'lini bigiz qildi – niqtab ko'rsatdi

Qo'lini burniga tiqib – quruqdan-quruq, evaziga hech narsa ololmay

Qo'lini ko'tardi – taslim bo'lganini bildirdi

Qo'lini sovuq suvga urmaydi – qiyinroq jismoniy mehnatni mutlaqo qilmaydi

Qo'lini yuvib, qo'Itig'iga urdi – ixlosi qaytib, ishonmay qo'ydi

Qo'Itig'iga suv purkadi – biror ishni qilishga o'chakishtirdi

Qo'yi mingga etdi – behad sevindi

Qo'yniga qo'l soldi – fikriyatini bilishga harakat qildi

Qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirdi – yolg'on va'dalar bilan aldadi

R

Rahmi keldi – ayash, achinish hissi uyg'ondi

Rahmini keltirdi – ayash, achinish hissini uyg'otdi	yozishni bildi; 2) nimanidir sirlarini bilib, o'rganib oldi
Razm soldi – sinchkovlik bilan kuzatdi	Savol berdi – javob talab qiluvchi so'z-gap aytdi
Ruhi ko'tarildi – ruhiy tush-kunlikdan chiqdi	Sazasi o'lmasin – gapi e'tiborsiz qolmasin, xafa bo'lmasin
Ruhi tushdi – ruhiy tush-kunlikka berildi	Siqilib ketgan – ziq bo'lgan
Ruhini ko'tardi – ruhiy tushkunlikdan qutqardi	Sirkasi suv ko'tarmaydi – tanqidga mutlaqo chidamaydi
Ro'yobga chiqardi – 1) ko'ngildagi istak-rejalami amalga oshirdi; 2) moddiy-ma'naviy ojizlikdan xalos bo'ldi	Sitorasi issiq – xush ko'rinishli, yoqimli, jozibador
S	
Sabr kosasi to'ldi – 1) o'lar holatga yetdi; 2) chidami tugab, yashashdan ham bezor bo'lib ketdi; 3) nihoyatda qat-tiq qo'rqedi	Sichqonning ini ming tanga bo'ldi – qochib qutulgani joy topilmay qoldi
Sakkiz yoshdan sakson yoshgacha – katta-kichik, hamma	Soddadil – ishonuvchan, jo'n
«San-man»ga bordi – jan-jallashuv, tortishuv darajasi-ga yetdi	Soddadillik bilan – jo'nlik, ishonuvchanlik oqibatida
Sanamay «sakkiz» dedi – aniq bilmay turib gapirdi	Sof dil – vijdonli, beg'araz
Sariq chaqalik – hech qan-day	Soyasiga ko'r pacha soldi – izzat-hurmat qilishni me'yordan o'tkazib yubordi
Sarkalavasini yo'qotdi – qilib turgan ishini bilmay qoldi, gangidi	Sochi tikka bo'ldi – bir lahzaning o'zida nihoyatda g'azablandi, jahli chiqdi
Savodi chiqdi – 1) o'qish-	Suv quygandek – hech qan-day tovush yo'q
	Suv sepgandek – hech qan-day tovushsiz
	Suvga oqizди – befoyda sarfladi, deyarli tekinga berdi
	Suyagi qotdi – yoshligidan biror ish bilan shug'ullanib katta bo'ldi

Suyak-suyagidan o'tib ketdi
– 1) jismiga chuqur ta'sir qildi;
2) ruhiga chuqur ta'sir qildi

Suyangan tog'i – 1) suyan-chig'i, g'amxo'ri; 2) orqa qila-digani, e'tiqod-ishonch bilan qaraydigani

Sevinchi ichiga sig'maydi
– xursandligi oshib-toshib ket-di

Sevinchini yuragiga sig'-dirolmaslik – xursandchiligi oshib-toshib ketdi

So'xtasi sovuq – yoqimsiz, badhazm

So'z bera(di)mi?! – 1) bosh-qalarga imkon bermay, nuqul o'zi gapirdi; 2) itoat qilmaslik, o'z bilganicha ish tutdi; 3) bahs-lashuvda yutib chiqishga qodir bo'ldi

So'z berish – muzokara-da gapirishga rasmiy ruxsat berdi

So'z berdi – 1) muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat berdi; 2) ahd-u paymon qildi

So'z bermaydi – 1) bosh-qalarga imkon bermay, nuqul o'zi gapirdi; 2) itoat qilmadi, o'z bilganicha ish tutdi; 3) bahsla-shuvda yutib chiqishga qodir bo'ldi

So'z oldi – 1) muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat oldi; 2) ahd-u paymon qildi

So'z otdi – 1) fikrini bilish maqsadida biror gap-so'z aytdi; 2) suhabatga tortish maqsadida tegajoqlik bilan gapirdi

So'z qaytardi – 1) javob qildi; 2) e'tiroz javobini berdi, aytishdi

So'z qistirdi – biror kishi-ning nutqi davomida shu nutqni bo'lувчи so'z-gap ilova qildi

So'z qotdi – 1) suhabatga tortish maqsadida gap aytdi; 2) biror kishining nutqi da-vomida yo'l-yo'lakay biror fikri aytib qoldi

So'z tashladi – 1) fikrini bilish maqsadida biror gap-so'z aytdi; 2) suhabatga tortish maqsadida tegajoqlik bilan gapirdi

So'z tegadigan bo'ldi – tanbeh eshitadigan bo'ldi

So'zi o'tdi – aytgani inobat-ga olindi, ma'qullandi

So'zida turdi I – ahdini saqladi

So'zida turdi II – o'z fikrini o'tkazishga intilib qaysarlik qildi

So'zida qattiq turdi – o'z fikrini o'tkazishga intilib qay-sarlik qildi

So'zidan qaytdi – ahdidan voz kechdi

So'ziga kirdi – 1) tingladi; 2) aytganini qildi

So'ziga so'z qaytardi – 1) javob qildi; 2) e'tiroz javobini berdi, aytishdi

So'zini berdi – ahd-u paymon qildi

So'zini bermaslik – 1) bosh-qalarga imkon bermay, nuqul o'zi gapirdi; 2) itoat qilmaslik, o'z bilganicha ish tutdi 3) bahslashuvda yutib chiqishga qodir bo'ldi

So'zini ikki qilmaslik – aytgani bajarildi

So'zini qaytardi – rad javobini berdi

So'zlari bir joydan chiqди – fikr-o'ylari mos keldi

T

Ta'bi xira bo'ldi – kayfiyati yomonlashdi, xafa bo'ldi

Ta'bi namozshom – kayfiyati yomon, xafa

Ta'bi tirriq – kayfiyati yomon, xafa

Ta'bi xiralashdi – kayfiyati yomonlashdi

Ta'zirini berdi – yengil-yelipi jazoladi

Ta'zirini yedi – qilmishiga yarasha jazo oldi

Tabiatli tirriq bo'ldi – kayfiyati yomonlashdi, xafa bo'ldi

Tabiatini xira qildi – kayfiyati yomonlashdi, xafa bo'ldi

Tagiga yetdi – mohiyatini, sababini oxirigacha anglab oldi

Tan berdi – e'tirof qilishga majbur bo'ldi, rozi bo'ldi

Tan oldi – e'tirof qildi

Tanbeh berdi – yengil-yelipi jazoladi, urishib qo'ydi

Tap tortmaydi – qo'rqlmay botinadi, hayiqmaydi

Tarafini oldi – bahslashuvda tomonlardan birini himoya qildi

Tarvuzi qo'lting'idan tushdi – umidi puchga chiqib, bo'shashdi

Tayoqni alif deyolmaydi – savodsiz, hech narsa bilmaydigan

Tashvish tortdi – 1) tashvish qildi; 2) xavotirga tushdi

Tashvish chekdi – 1) tashvish qildi; 2) xavotir bo'ldi

Tashvishga soldi – tashvish qilishiga sabab bo'ldi

Tashvishga tushdi – o'z-o'zicha tashvish qildi

Tegib ketdi – gap-so'zi tasir qildi

Teri to'nini ters kiyib oldi – o'chakishgan holda qaysarlik qildi

Terisi suyagiga yopishgan – haddan tashqari ozg'in, haddan tashqari qotma

Til biriktirdi – yashirin hol-da kelishib oldi

Tilga kirdi – 1) nutqqa ega bo'ldi (go'dak); 2) ma'lum fursat o'tgandan keyin gapira boshladi

Tilga keldi – gapirish qobi-liyatik tiklandi

Tilga oldi – gapirdi

Tili bir qarich – maqtanish-ga, gapirishga haqli

Tili bormadi – biror andisha mulohaza bilan aytishni ma-quil ko'rmaydi

Tili qisiq – gapirmaslikka, e'tiroz bildirmaslikka majbur

Tili qichidi – gapirgisi keldi

Tili uzun – 1) har qancha gapirishga haqi bor; 2) ortiq-cha gapiradigan

Tili chiqdi – 1) nutqqa ega bo'ldi; 2) indamay yurgan kishi gapiradigan bo'lib qoldi; 3) aytishadigan bo'ldi

Tiliga tushdi – 1) ko'pchilik orasida gap-so'z boidi; 2) shuhrat qozondi

Tilini qisdi – gapirmaslikka, e'tiroz bildirmaslikka majbur qildi

Tilini tishladi – o'zini gapir-maslikka majbur qildi

Tinka-madori quridi – toliqdi, darmonsizlandi, charchada

Tinkasi quridi – toliqdi, darmonsizlandi

Tirnoq orasidan kir qidir-di – yomon niyat bilan deyarli aybi yo'q kishining faoliyatidan ayb topishga harakat qildi

Tishi o'tmaydi – 1) biror qattiqroq narsani maydalashga, chaynashga tishining qurbi yetmaydi; 2) yenga olmaydi, o'zlashtira olmaydi; 3) idrok qilib yeta olmaydi, uqib yeta olmaydi

Tishini tishiga qo'ydi – butun his-tuyg'usini iroda kuchi bilan yengib chidadi

Tishining oqini ko'rsatdi – tirjayib, ishshayib qaradi

Tob berolmaydi – chiday olmaydi, qarshi tura olmaydi

Tob keltira olmaydi – chiday olmaydi, qarshi tura olmaydi

Tobi qochdi – kasal bo'ldi

Tobi yo'q – 1) kasal; 2) rag'batli yo'q, kelishmaydi

Tomdan tarasha tushgan-day – qo'qqisdan, kutilmagan holda va qo'pol tarzda

Tomonini oldi – bahslashuvda tomonlardan birini himoya qildi

Toqati toq bo'ldi – sabr chidami tugadi

Tor kelib qolganda – ilojsiz og'ir ahvolga tushdi

Tog'dan kelsa, bog'dan keldi – suhbatdoshining gapi-ga hech aloqasi yo'q gap-so'z aytdi

Tog'ni tolqon qiladigan – zabardast, pahlavon

Tog'ni tolqon qildi – har qanday katta va og'ir ishni ham bajardi

Tosh bag'ir – berahm

Tosh ko'ngil – rahm-shaf-qati yo'q

Tosh otdi – yomon xatti-harakat qildi

Tosh yurak – rahm-shafqati yo'q

Tumshug'ini suqdi – 1) kirdi; 2) aralashdi

Tumshug'ini tiqdi – aralashdi

Turgan gap edi – aniq, shak-shubhasiz

Turgan gap I – aniq, shak-shubhasiz (kesim vazifasida keladi)

Turgan gap II – aniq, shak-shubhasiz (kirish bo'lak vazifasida keladi)

Turgan gapki – aniq, shak-shubhasiz

Turib oldi – o'jarlik qildi

Turmush qurdi – oilaviy hayot kechirdi

Turmushga chiqdi – oila qurdi (xotin-qizlarga nisbatan)

Tuya ko'rdingmi – yo'q – o'zini ko'rmaganga, bilmaganga chiqardi

Tuya qildi – aldab-suldab haqini o'zlashtirdi

Tushida ham ko'rmaydi – mutlaqo o'ylamaydi, kutmaydi

Tushiga kirmaydi – mutlaqo o'ylamaydi, kutmaydi

Tegirmonga tushsa, butun chiqadi – har qanday qiyin sharoitdan ham qutulish yo'lini topa oladi

Tekkanga tegib, tegmanga kesak otadi – hech kimga tinchlik bermaydi

Temirni qizig'ida bosdi – biror ishni ayni vaqtida qildi

Tepa sochi tikka bo'lib ketdi – bir lahzaning o'zida nihoyatda g'azablandi

Tepsa-tebranmas – har qanday ishni ham imillab qiladigan, sustkash, loqayd

Ter to'kdi – mashaqqat bilan jismoniy mehnat qildi

Terisiga sig'may ketdi – behad sevindi

Terisiga somon tiqdi – juda qattiq jazoladi

To'nini teskarri kiyib oldi – o'chakishgan holda qaysarlik qildi

To'rt enlik – qisqagina

To'rt gapning birida – gap davomida dam-badam, qayta-qayta gapirdi

To'rt ko'z bilan – intizorlik bilan

To'rt og'iz – oz-moz, bir oz

To'rt tarafi qibla – qayoqqa xohlasa, ketaversin

To'ydan ilgari nog'ora qoqdi – ro'yobga chiqishi aniq bo'limgan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirib yuborish

To'g'ri keldi – 1) muvofiq bo'ldi, mos bo'ldi, yaradi; 2) bir vaqtda bo'ldi; 3) yo'liqdi, uchradi; 4) taqsimlaganda tegdi; 5) qulay bo'ldi; 6) lozim bo'ldi, zarur bo'ldi

U

U qulogidan kirib, bu qu-log'idan chiqib ketdi – e'tibor bermay, xotirasida tutib qololmaydi

U yoqda tursin – zidlash ma'nosini anglatib, bog'lovchi vazifasida keladi

Uddasidan chiqdi – uddalay oldi, eplay oldi

Umidini uzdi – ko'nglidagi oxirgi ilinjini ham yo'qotdi

Umr ko'rди – yashadi

Umr o'tkazdi – yashadi

Ustdidan chiqdi – 1) biror narsa qilayotganida tepasiga borib qoldi; 2) va'dani bajardi

Ustiga oldi – biror ishni bajarishga mas'ul bo'ldi

Ustun keldi – yengdi

Uxlab, tushida ko'rmaslik – mutlaqo o'yamaslik, kutmaslik

Uzildi – vafot etdi

Uch pul – qadr-qimmatsiz

Uch pul bo'ldi – barbod bo'l-di

Uch-to'rt og'iz – oz-moz, bir oz

Uchiga chiqqan – o'taket-gan

V

Vahima bosdi – qo'rqinchli o'y-xayollarga berildi

Vahimaga solib qo'ydi – qo'rqitib, o'ylantirib qo'ydi

Vahimaga tushdi – qo'rqnigan holda o'ylanib qoldi

Vaqti chog' – kayfiyati yaxshi

Vaqti chog'lik qildi – xur-sandchilik, dilmushlik qildi

Voz kechdi – uzil-kesil ke-chib yubordi

X

Xabar berdi – xabardor qilib qo'ydi

Xabar oldi – 1) o'zi kelib xabardor bo'ldi; 2) biror kishining turish-turmushini, ahvolini yengillatishga ko'-maklashdi

Xabar topdi – xabardor qiliindi

Xalal yetkazdi – zararli bo'-lib chiqdi

Xalaqit berdi – monelik qildi

Xamir uchidan patir – katta, ko'p narsaning boshlang'ich, kichik bir qismi

Xamirdan qil sug'urgandy – osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz

Xayol daryosiga cho'mdi – o'ylanish holatida bo'ldi

Xayol surdi – hamma narsani unutgan holda o'yladi

Xayolga toldi – uzoq o'ylandi

Xayolga cho'mdi – o'ylanish holatida bo'ldi

Xayolidan ko'tarildi – unutdi

Xayolidan o'tdi – ma'lum bir muddat fikrladi

Xayoliga keldi – 1) o'yladi, idrok qildi, fahmladi; 2) xotirasida tiklandi

Xira ko'ngil – tashvishli, bezovta, notinch

Xotiradan chiqardi – unutdi

Xotiridan chiqdi – unutdi

Xotiriga keldi – 1) xotirasida tiklandi; 2) o'yladi, idrok qildi

Xudo biladi – aniq aytib bo'lmaydigan

Xursandchiligi ichiga sig'-maydi – xursandligi oshib-toshib ketdi

Xush keldi – yoqdi

Xush ko'rди – yoqtirdi

Xo'rлиgi keldi – o'ksinib, yig'lab yuborish holatiga bordi

Y

Yakson qildi – butunlay yemirildi, yo'q bo'ldi

Yaqin oldi – 1) qadrdon qilib ko'rsatdi; 2) qadrdon deb bildi

Yaxshi ko'rди – 1) sevdi, oshiq bo'ldi; 2) sevdi, izzat-hurmat qildi; 3) yoqtirdi

Yelkasiga oldi – e'tirof qildi, biror holatga rozi bo'ldi

Yelkasining chuquri ko'r-sin – yana qaytadan hech qachon ko'rmasin

Yeng ichida – ko'pchilikka oshkor qilmay, zimdan

Yeng shimardi – biror yu-mushni bajarishga taxt bo'ldi, biror ishni qilishga otlandi

Yeng shimarib – astoydil, jiddiy ravishda

Yengil tabiat – yengiltak, suyuq

Yengil tortdi – ruhiy azob-lanishi tarqadi

Yer tishlatdi – o'ldirdi

Yer bilan bitta bo'ldi – so-chilib ketdi, betartib holda so-chilib yotdi

Yer bilan osmoncha – ju-da katta, beqiyos (farq ma-nosida)

Yer bilan yakson bo'ldi – butunlay yemirildi, yo'q bo'ldi

Yer ostidan – yashirinch, sezdirmay

Yer tagida ilon qimirlasa biladi – nihoyatda ziyrak, sezgir

Yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi – nomus qil-ganidan o'zini qayoqqa olib qochishni bilmadi

Yerda qoldi – e'tiborsiz qoldi

Yerga kirib ketdi – qattiq izza bo'ldi, o'sal bo'ldi

Yerga kirsa, qulog'idan tortib chiqaradi, osmonga chiqsa, oyogidan tortib tu-shiradi – qutulib ketishiga qo'ymaydi

Yerga qaradi – uyat-nomus-dan bosh ko'tarolmaydigan holatga tushdi

Yerga urdi – ortiq darajada kamsitdi

Yerga ursa, ko'kka sap-chiysi – juda sho'x

Yer-u ko'kka ishonmaydi – nihoyatda ardoqlaydi, par-vona bo'ladi

Yetti bukilib – ortiq dara-jada egilib

Yetti nomusini yerga buksi – sharmanda qildi

Yetti uxbab, tushiga kir-maydi – mutlaqo o'ylamaydi, kutmaydi

Yetti yashardan yetmish yashargacha – katta-kichik, hamma

Yetti o'Ichab, bir kesadi – nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan ish qiladi

Yil – o'n ikki oy – butun yil davomida, qishin-yozin

Yig'lamoqdan beri bo'ldi – yigiab yuborish darajasiga yetdi

Yodida qoldi – xotirasida saqlanib qoldi

Yodidan ko'tarildi – unutdi

Yodidan chiqdi – unutdi

Yodiga keldi – 1) xotirasida tiklandi; 2) o'yladi, idrok qildi

Yodiga soldi – 1) xotirasida tiklandi; 2) unutilayozganni es-latdi

Yodiga tushdi – xotirasida tiklandi

Yomon ko'radi – 1) sev-

maydi, izzat-hurmat qilmaydi;
2) yoqtir-maydi

Yon bosdi – yoqladi

Yon berdi – ustun bo'lishiga
yo'l qo'yди

Yonini oldi – bahslashuvda
tomonlardan birini himoya
qildi

Yoqasini ushladi – niho-
yatda ajablandi

Yostiqdan bosh ko'tardi –
yotib qolgan xastalikdan ke-
yin sog'aya boshladi

Yostig'ini quridi – butun
oilasi bilan o'ldirib yubordi

Yog' tushsa yalagudek –
nihoyat darajada toza

Yulduzi issiq – xush ko'-
rinishli, yoqimli, jozibador

**Yulduzi yulduziga to'g'ri
keldi** – bir-biriga mos

**Yulduzni benarvon uradi-
gan** – har qanday ishni ab-
jirlik bilan bajaradigan

Yumilgan ko'z – qazo qil-
gan, o'lgan

Yumshoq ko'ngil – ko'ngil-
chan, rahmdil

Yuqori keldi – pisand qil-
madi

**Yuragi orqasiga tortib
ketdi** – bir lahza ich-ichidan
qo'rqish aralash qattiq haya-
jonlandi

Yuragi xira – tashvishli,
bezovta, notinch

Yuragi g'ashlandi – tash-
vishli, bezovta, notinch boidi

Yuragi achidi – 1) kuyindi;
2) achinib kuyindi

Yuragi betlamadi – nima-
dandir xavfsirab, biror ishga
jazm qila olmaydi

Yuragi daryo – hovliqmas-
dan, shoshmasdan ish tuta-
digan

Yuragi dov bermadi – cho'-
chib botina olmaydi

Yuragi ezildi – ruhan azob-
landi

Yuragi ko'tarmaydi – 1)
yana yeb-icha olmaydi; 2)
yoqtirmaydi

Yuragi pok – yaxshi niyatli,
boshqalarga yomonlikni ravo
ko'rmaydigan

Yuragi qinidan chiqayozdi
– 1) betoqat bo'ldi; 2) se-
vinchdan kuchli to'lqinlandi

Yuragi qon – g'am-alamli,
g'am-alamda

Yuragi qon bo'ldi – 1) ziq
bo'ldi; 2) ruhan azoblandi

Yuragi yorila yozdi –
sevinib, juda qattiq hayajon-
landi

Yuragi qora – g'arazgo'y,
buzuq niyatli

Yuragi sof – yaxshi niyatli,
boshqalarga yomonlikni ravo
ko'rmaydigan

Yuragi taka-puka bo'ldi – ruhan notinch, bezovta

Yuragi tars yorilib keta yozdi – sabr-chidami tugab, xunob bo'lib ketdi

Yuragi toza – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravonko'rmaydigan

Yuragi tosh – rahm-shafqati yo'q

Yuragi toshdi – kechinmalari ichiga sig'may, kimgadir aytish ehtiyoji tug'ildi

Yuragi xun bo'ldi – 1) ziq bo'ldi; 2) ruhan azoblandi

Yuragi yorishdi – ko'nglidagi g'ashlik tarqadi

Yuragi o'ynadi – 1) yurak urishi odatdagidan ko'ra tezlashdi; 2) qalbi hayajonga to'ldi

Yuragi shig' etib ketdi – bir lahma ich-ichidan qo'rquv aralash hayajonlandi

Yuragi shuv etdi – bir lahma ich-ichidan qo'rquv aralash hayajonlandi

Yuragi chiqib ketdi – bir lahzada kuchli hayajonlanish bilan qattiq qo'rqi ketdi

Yuragida kiri yo'q – kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q

Yuragidan sidirib tashladi – uzil-kesil unutdi

Yuragidan urdi – kimgadir ko'ngil qo'ydi

Yuragidan chiqardi – 1) butkul unutib yubordi, o'y-lamay, eslamay qo'ydi; 2) ko'nglidagi g'uborni tarqatdi; 3) o'z roziligi bilan berishni ma'qul ko'rdi

Yuragiga qil sig'maydi – juda qattiq tajang bo'lib, ruhan ezilib, hech narsa bilan mashg'ul bo'lolmaydi

Yuragiga qo'l soldi – eng yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qildi

Yuragiga sig'armidi?! – diqqatlik, xafalik tufayli bি-ror ish bilan mashg'ul bo'lolmaslik

Yuragiga tugdi – 1) o'rn kelganda aytishni mo'ljallab qo'ydi; 2) ahd qildi; 3) fikran belgilab qo'ydi; 4) unutmaya ichida saqladi

Yuragiga vahima soldi – kuchli darajada qo'rqish hissini uyg'otdi

Yuragiga g'ulg'ula soldi – bezovta qilib qo'ydi

Yuragini bo'shatdi – ichida yigilib qolgan hasrat-nadomatini aytib, yig'lab, ruhan yengillashib oldi

Yuragini ezdi – ruhan azoblandi

Yuragini hovuchlab – biror falokatning sodir bo'lishidan benihoya qo'rquv holati

Yuragini olib qo'ydi – bezillatib qo'ydi

Yuragini ochdi – ichidagi istak yoki dardini aytdi

Yuragini siqdi – ziq qildi

Yuragini tirnadi – yashirin holda ruhan bezovta qildi

Yuragini yordi I – qattiq cho'chitib qo'rqtidi

Yuragini yordi II – ichidagi istak yoki dardini aytdi

Yuragini yozdi – xafachilagini tarqatdi

Yuragini changallagancha – biror falokatning sodir bo'llishi-dan benihoya qo'rquv holati

Yuragining bir chekkasi g'ash – tashvishli, bezovta, notinch

Yuragining chigili yozildi – xafachiligi tarqadi

Yurak-bag'ri ezildi – ruhan azoblandi

Yurak-bag'ri qon bo'ldi – 1) ziq bo'ldi; 2) ruhan azoblandi

Yurakka sig'armidi?! – diqqatlik, xafalik tufayli mashg'ul bo'lomaslik

Yuz ko'rmas bo'ldi – aloqani butunlay uzdi

Yuz o'girdi – 1) boshini burib qaradi; 2) qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burdi; 3) aloqani uzdi

Yuz o'giz – juda ko'p

Yuzaga chiqdi – 1) ko'n-gildagi istak-rejalar voqelikka aylandi; 2) moddiy-ma'naviy ojizlikdan xalos bo'ldi

Yuzi yorug' – uyaladigan joyi yo'q, olqishlashga loyiq

Yuzi g'amgin bo'ldi – uyatli holatga tushdi

Yuzi shuvut – uyatli holatda

Yuzi chidamadi – andisha qildi, nomus qildi

Yuzi chidaydi – nomus qilmaydi, uyalmaydi, andisha qilmaydi

Yuzidan o'ta olmaydi – biror ishni qilishga kimningdir ra'y, xohishi bilan hisoblashadi

Yuziga oyoq qo'ydi – behurmat qilish darajasida hisoblashmaydi

Yuziga soldi – aybli deb qaralgan kishining o'ziga shu haqda kesatib, achitib gapirdi

Yuzini ochib yubordi – uyalmaydigan qildi

Yuzini ters burdi – qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burdi

Yuzini teskari o'girdi – qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burdi

Yuzini yerga qaratdi – uyat-nomusdan bosh ko'tara olmaydigan holatga tushdi

Yo'l berdi – 1) o'zi chetlanib, boshqaning o'tishiga imkon berdi; 2) monelik qilmadi

Yo'l bo'l sin – 1) qayerga ketyapsiz, qayerga bormoqchisiz? (so'rash); 2) Qayoqda! (biror ishni) Qila olarmidi?!

Yo'l ko'rsatdi – nima qilish lozimligi haqida maslahat berdi

Yo'l oldi – jo'nadi

Yo'l qo'ydi – sodir boiishiga imkon berdi

Yo'l soldi – yo'naldi

Yo'ldan ozdi – yomon yo'lga kirdi, aynidi

Yo'ldan ozdirdi – yomon yo'lga boshladi, aynitdi

Yo'ldan urdi – yomon yo'lga boshladi, aynitdi

Yo'lga qo'ydi – faoliyatini yaxshiladi

Yo'lga soldi – 1) ketish tomoniga to'g'rilib, yurgizdi; 2) to'g'ri yo'lga qaytardi; 3) manfaatdor bo'lgani holda biror ishga rag'batlantirdi; 4) faoliyatini yaxshiladi

Yo'lga tushdi – 1) jo'nadi, keta boshladi; 2) to'g'ri yo'lga qaytdi

Yo'lga chiqdi – jo'nab ketdi, ravona bo'ldi

Yo'liga ko'z tutdi – kelib qolar degan umidda kutdi

Yol-yo'riq ko'rsatdi – nima qilish lozimligi haqida maslahat berdi

Yo'q yerdagi – hech kim bilmaydigan, hech kimning xayoliga kelmaydigan, bo'l-mag'ur

Yo'qni yo'ndirdi – qancha mashaqqat bilan bo'lsa ham, bunyod qildi

Z

Zabtiga oldi – juda kuchayib ketdi

Zahridan tushdi – achchiqlanishdan to'xtadi

Zahrini sochdi – zug'um qildi, g'azab bilan achitib-achitib gapirdi

Zarar keltirdi – zararli bo'lib chiqdi

Zarar ko'rdi – zarar qildi

Zarar yetkazdi – zararli bo'lib chiqdi

Zarari tegdi – zararli bo'lib chiqdi

Zardasi qaynadi – juda jahli chiqdi

Zimmasiga oldi – biror ishni bajarishga mas'ul bo'ldi

Zimmasiga tushdi – javobgar qilindi

Ziyon ko'rdi – zarar qildi

Ziyon yetkazdi – achchiqlanishdan to'xtadi

Zig'ir yog'day ko'ngliga urdi – 1) qiziqishi yo'qoldi; 2) jirkanish hissini uyg'otdi, bezdirdi

Zoye ketdi – befoyda sarflandi

Zuvalasi pishiq – a'zoyi badani chiniqqan

Zeb berdi – turli kiyim va taqinchoqlar yordamida o'zini ko'rkar qildi

Zehn soldi – diqqat-e'tibor bilan qaradi, ko'zdan kechirdi

Zo'r berdi – 1) to'la-to'-kis safarbar qilishga harakat qildi; 2) butun kuchg'ayratini safarbar qildi; 3) biror narsaga boshqalardan ko'proq e'tibor qildi

Zo'r berib I – to'la-to'-kis safarbar qilishga harakat qildi

Zo'r berib II – muttasil va astoydil

O'lгanning ustiga tepdi – bir ko'ngilsiz ish ustiga boshqa bir ko'ngilsiz ishni qildi

O'n og'iz – juda ko'p

O'ng keldi – 1) qulay bo'ldi; 2) sodir bo'ldi

O'ngidan keldi – muvaffaqiyatlari bo'ldi

O'pka(n)ni bos (...) – hovliqma, tinchlan

O'pka(si) to'ldi – iztirob chekib, yig'lab yuborish holatiga yetdi

O'pkasini bosolmaydi – o'zini yig'lashdan saqlab qolmaydi

O'rniga keltirdi – o'rnattdi

O'rniga qo'ydi – 1) bajardi; 2) o'rnattdi

O'rtaga oldi – tanbeh berish yoki ko'ndirish maqsadida ko'pchilik gapirdi

O'rtaga soldi – 1) ko'pchilik oldida ro'kach qildi; 2) munozarada xizmatidan foydalandi

O'rtaga tashladi – fikrlashish maqsadida o'z mulohazalarini boshqalarga aytdi

O'rtaga tushdi – 1) ikki tarafni murosaga keltirish maqsadida biror janjalga aralashdi; 2) jabrdiyda deb hisoblagan kishisini himoya qilib biror janjallli ishga aralashdi

O'takasini yordi – qattiq cho'chitib qo'rqtidi

O'tdi – vafot etdi

O'tib ketdi I – vafot etdi

O'tib ketdi II – 1) jismonan va alamlita'sirqildi, qaqshatdi; 2) ruhiy ta'sir qildi

O'tirgani joy topa olmaydi – kuchli hayajonlangan holda toqatsizlandi

O'tqazgani joy topa olmaydi – nihoyatda ardoqlaydi, parvona bo'ladi

O'y surdi – hamma narsani unutgan holda fikrladi

O'ya toldi – uzoq fikrladi

O'ya cho'mdi – chuqur fikrlash holatida bo'ldi

O'y lab – o'yiga yeta olmaydi – uzoq o'y lab, aniq bir fikrga kela olmaydi

O'z yog'iga o'zi qovrildi – ruhan azoblandi, ezildi

O'zida yo'q – benihoya, juda-juda xursand

O'zidan ketdi – behush bo'ldi

O'ziga bino qo'ygan – o'ziga ortiqcha baho bergan, yuksak fikrda bo'lgan

O'ziga keldi – 1) behushlikdan qaytdi; 2) odadagi so'zlash, anglash holatiga qaytdi; 3) avvalgi sog'ligini, kuch-quvvatini tikladi; 4) to'g'ri idrok qildi

O'ziga oldi – 1) o'ziga tegishli deb bildi; 2) zimmasiga oldi

O'ziga yuqtirmaydi – o'ziga tegishli deb bilmaydi

O'zini qayoqqa urishini bilmaydi – kuchli hayajonlangan holda toqatsizlandi

O'zini qayerga qo'yishni bilmaydi – 1) kuchli hayajonlangan holda toqat-

sizlandi; 2) bekorchilikdan zerikib toqatsizlandi; 3) sevinchdan kuchli hayajonlandi

O'zini qo'lga oldi – o'z xatti-harakatlarini irodasiga bo'y sundirdi

O'zini qo'ygani joy topa olmaydi – kuchli hayajonlangan holda toqatsizlandi

O'zini yo'qotib qo'ydi – gangib qoldi

O'z-o'zini yeb qo'ydi – ichki ruhiy azoblanish natijasida ozib-to'zib ketdi

G'

G'am yedi – kuyinib qayg'urdi

G'amini yedi – 1) g'amxo'rlik qildi; 2) ilgaridan o'y lab, hozirlik qilib qo'ydi

G'azabga keldi – achchiqlandi

G'azabi keldi – achchiqlandi

G'azabi qaynadi – darg'azab bo'ldi

G'azabidan tushdi – achchiqlanishdan to'xtadi

G'ashi keldi – asabi qo'zg'adi

G'ashiga tegdi – asabini qo'zg'atdi

G'olib keldi – yengdi

Sh

Shamolgasovurdi – behuda sarfladi

Shamolgauchdi – befoyda ketdi

Shishibketgan – gerdayib ketdi, kibrga berildi

Shodligiichiga sig'maydi – xursandligi oshib-toshib ketdi

Shovqinsoldi – qattiq shovqin qildi

Ch

Chang soldi – 1) astoydil tashlandi; 2) g'ayriqonuniy tarzda yopishdi

Chigilini yozdi – 1) xafachilagini tarqatdi; 2) charchog'ini tarqatdi

Childirmasiga o'ynadi – izmiga, yo'l-yo'rig'iga solib ish ko'rди

Chippakka chiqli – bekor bo'ldi

Chiqli (turmushga) – oila qurdi (xotin-qizlarga nisbatan)

Chiroyiochaldi – xafaligi tarqaldi

Chizgan chizig'idan chiqlaydi – barcha talablarini to'la-to'kis bajardi, ko'rsatmasiga ko'ra ish tutdi

«Churq» etmaydi – hech narsa demaydi, e'tiroz qilmaydi

Chumchuq «pir» etsa, yuragi «shir» etadi – juda qo'rqoq

Chuchvarani xom sanabsan – xom xayol qilib yuribsan, xomtama bo'libsan

Chehrasi ochiq – xushtabiat, kayfiyati yaxshi

Chehrasinochdi – 1) xafaligining tarqalganini yuz ifodasi orqali ko'rsatdi; 2) go-zallashtirdi

AYRIM SO'ZLAR IZOHI

So'zlar	Izohi
Abro'	Qosh
Asil	Asil (sara, sarxil, xil, mumtoz, zupta, poshshaxon). <i>Asil</i> – qimmati, fazilati va boshqa xususiyati jihatidan eng yuqori darajali, eng yaxshi
Avaylamoq	Avaylamoq (ayamoq, ehtiyotlamoq, ehtiyot qilmoq, ardoqlamoq, e'zozlamoq, e'zoz qilmoq, palamoq (po'palamoq). Ehtiyot holda tutmoq, ehtiyot bilan munosabatda bo'lmoq
Ayyor	Ayyor (mug'ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog'uli, mo'ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qiriq, xirpa, maston). <i>Ayyor</i> – aldab, chalg'itib, har qanday ishni o'z foydasiga hal qiladigan makr-hiylaga usta.
Azob	Azob (aziyat, jabr, jafo, ozor, zahmat, alam, iztirob, uqubat, sitam). <i>Azob</i> – ruhiy yoki jismoniy qynoq.
Bajarmoq	Bajarmoq (ado etmoq, bitirmoq, o'rinchlatmoq, do'ndirmoq, o'tamoq, bajo qilmoq). <i>Bajarmoq</i> – ish-vazifa, topshiriqni amalga oshirmoq, bajo keltirmoq.
Balo	Balo (usta, ustamon, bilag'on, bilarmon, chechan, epchil, chaqqon, uddaburon). <i>Balo</i> – o'rinchlatib bajaradigan, mahorat va chaqqonlikka ega. <i>Balo</i> oddiy so'zlashuvga xos. U «aqliy, jismoniy ish-harakat bajarishda yuqori mahoratga egalik»ni ifodalash uchun qo'llana oladi.
Barter	Pul mablag'lari ishtirokisiz bevosita tovarga tovar ayirboshlash va shu haqdagi shartnoma
Birja	Qimmatbaho qog'ozlar va har xil mollar bilan savdo-sotiq qiladigan yirik savdo muassasasi; bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli
Bitik	1. Yozuv. 2. Xat, maktub. 3. Asar. O'rxun-enasoy bitiklari
Boplamoq	Boplamoq (qoyil qilmoq, qoyillatmoq, o'xshatmoq, o'rinchlatmoq, kelishtirmoq, qotirmoq, do'ndirmoq, qymoq, eshmoq, mondalamoq, yasamoq). <i>Boplamoq</i> – ijrosini o'rniga qo'ymoq.

Boshliq	Boshliq (rahbar, yo'l boshchi, ishboshi, boshchi, katta, kattakon, ulug', rahnamo, sardor, peshvo, sarvar, sarkarda, xo'jayin, kallampo). <i>Boshliq</i> – guruh, jamoa, xo'jalik va shu kabilarning ish-harakatida bosh bo'lувчи, mas'ul shaxs.
Brifing	Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan rasmiy nuqtayi nazar bildirish yoki muayyan masaladagi xulosalarni qisqacha bayon etish maqsadidagi uchrashuvi
Diversifikasiya	Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini ko'paytirish, kengaytirish
Guhar	Gavhar (qimmatbaho tosh, marvarid, qimmatbaho toshlarning umumiy nomi)
Gulshan	Gulzor, gulbog', chamanzor
Imon	1. Xudoga bo'lgan ishonch, e'tiqod; ko'ngilda ishonish va tilda iqror qilish; 2. Umuman, ishonch
Investitsiya	Mamlakat ichkarisida yoki chet elda, foyda ko'rish maqsadida, biror korxona yoki iqtisodiyotning muayyan tarmog'iga kapital qo'yish, kiritish va shunday kapitalning o'zi
Isnod	Uyatga yoki ta'naga qoldiradigan, nomiga dog' tushiradigan ish, shunday ishdan keladigan uyatli holat
Jilmaymoq	Jilmaymoq (kulimsiramoq, iljaymoq, injaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq). <i>Jilmaymoq</i> – ovoz chiqarmay ko'z, lab harakati bilan kulgi ifoda qilmoq, miyig'ida kulmoq.
Juda	Juda (g'oyat, g'oyatda, bag'oyat, nihoyatda, benihoya, ashaddiy, o'taketgan, toza, rosa, xo'p (ho'b), biram, chunon, beqiyos, mislsiz, obdan, o'bdan, chandon, zap, ko'p, o'ta, uvvalo, bisyor, yomon, kamoli, kiroyi, o'lgu(n)day, o'larday, o'larcha, qattiq). <i>Juda</i> – yuqori darajada, ortiq darajada ma'nosini anglatuvchi so'z
Kaniz	1. Tutqun ayol; cho'ri. 2. Xon, amir va boshqa hukmdorlar saroyidagi xizmatchi ayol

Kasal	Kasal (betob, notob, bemor, nosog', xasta, og'riq). <i>Kasal</i> – organizmning normal faoliyati buzilgan holati, sog'ning aksi. <i>Kasal</i> keng tushunchaga ega. U odamga, hayvonga yoki jonivorlarga hatto jonsiz narsalarga nisbatan ham qo'llanaveradi. Bu so'z «organizm faoliyatining vaqtincha buzilgan»ligini vaqtincha ifodalash uchun ham, shuningdek, «sog'ning aksi» ma'nosida ham qo'llanaveradi
Kolorit	1. Rasm, gravyurada ranglarning uyg'un, o'zaro mutanosib bo'lishi, uyg'unlik kasb etishi. 2. Ko'chma. Biror narsaning o'ziga xos tomonlari, xususiyatlari majmuyi
Koshin	1. Chinniga o'xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g'isht plastinkasi. 2. Bir-biriga zinch qilib yopishtirilgan rang-barang shisha, marmar, tosh, yog'och va shu kabilardan yasalgan surat yoki naqsh
Kulliyot	Bir adabiy turga mansub asarlarning majmuyi, she'riy to'plam
Kungura	Qal'a devorlari yoki imoratlar aylanasiga tishga o'xshatib ishlangan me'moriy bezak; dandana
Madrasa	Diniy oliy o'quv yurti
Maqbara	Qabr ustiga qurilgan me'moriy inshoot yoki tosh tobut; dahma, sag'ana
Marketing	1. Iqtisodiyotning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish (talab va iste'mol, mahsulotga narx belgilash, ularni targ'ib qilish, sotilayotgan tovarlar hajmini ko'paytirish vositalari kabi) muammolari bilan shug'ullanuvchi soha. 2. Bozor ehtiyoji tablalaridan kelib chiqqan holda korxonaning yangi mahsulotlar ishlanmalarini tayyorlash, tovarlar ishlab chiqarish va sotish yoki turli xil xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatini boshqarish va tashkil etish tizimi
Ma'dan	1. Mineral. 2. Metall. 3. Ruda
Menejer	Korxona va kompaniya egasi bo'limgan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan malakali yollanma boshqaruchi

Menejment	Zamonaviy ishlab chiqarishni boshqarish (rejalash, tartibga solish, nazorat qilish), shuningdek, ishlab chiqarishga rahbarlik qilish, uni tashkil etish; boshqarish to'g'risidagi fan
Mexanika	Mexanika – tashqi kuch ta'sirida jismning fazoda harakatlanishi va muvozanatini o'rganish bilan shug'ullanadigan, ya'ni jismlarning makondagi harakati va ularning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan
Modernizatsiya	Zamonaviy talab va didga moslab o'zgartirish
Moziy	O'tmish, hayotning o'tgan qismi, o'tgan davrdagi hayot
Mufti(y)	Musulmonlarda oliy darajadagi ruhoniy; shariat qonunlarini talqin qiluvchi; fatvo beruvchi lavozimli ulamo
Murid	Pir yoki eshon (murshid)ga qo'l berib, so'fiylik yo'liga kirgan shaxs
Murshid	Tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz
Ovoz	Tovush, un, sado, sas, nido, sazo. Ovoz eshitish sezgisini uyg'otuvchi, eshitish a'zolari orqali qabul qilinuvchi, eshitiluvchi narsa
Ovqat	Taom, oziq, tomoq, xo'rak, yemish, ne'mat. Ovgat – odam, hayvon, umuman, jonivorlar iste'mol qiladigan suyuq yoki quyuq yegulik
Parlament	Demokratik davlatlarda asosan saylov yo'li bilan tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi
Qiblagoh	Qibla tomon, qibla. 2. O'ta hurmatga loyiq kishi (masalan, ona) va unga murojaat shakli
Qurultoy	1. Mo'g'ul va turkiy xalqlarda qadimdan mavjud bo'lgan turli harbiy kengashlar va majlislarning umumiy nomi. 2. O'zbekistonda hozir: biror soha vakillari ishtirokidagi respublika miqyosida o'tkaziladigan katta yig'ilish
Qutidor	Qo'qon xonligida oliq-soliqlardan to'plangan pul-lami qabul qilib oluvchi, saqlovchi va xon xazinasiga topshiruvchi saroy amaldori

Rabot	1. Mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma'lum masofada joylashgan istehkom; qo'rg'on. 2. Savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy. 3. Shashdan chetroqdagi turar joy
Samar, samara	Natija, hosila, foyda
Strategiya	Maqsadga erishishning uzoq muddatli rejasи; ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirishni, shuningdek, boshqaruvni uzoq muddatli to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish. <i>Harakatlar strategiyasi</i>
Suyurg'ol	Shoh, xon, amir tomonidan amaldor va sarkardalarga sultanat oldida ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun in'om qilingan yer-suv, mol-mulk
Tancha	(shevada) Sandal
Tayyor	Tayyor (muhayyo, shay, taxt, hozir). Ishlatish, foydalanish yoki boshqa narsa uchun naqd holatda. <i>Tayyor kengroq tushunchaga ega</i>
Vaqt	Vaqt (payt, zamon, fursat, mahal, chog', kez, kezak, mavrid, palla, muddat, dam, on, lahma). Vaqt – yuz beradigan voqeа-hodisa va narsalarining asrlar, yillar, soatlar, daqiqalar va hokazolar bilan o'lchanadigan davomiyligi.
Vatan	Vatan (mamlakat, yurt, diyor, el, mulk). Vatan – kishi tug'ilib o'sgan, o'zi uning fuqarosi bo'lgan joy, territoriya
Xonaqoh	1. Masjidning namoz o'qiladigan, odatda keng va katta xonasi. 2. So'fiylar mashg'ulotlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan katta xona va uning atrofidagi hujralar
Yog'iy	Dushman, g'anim
Zavj	Er, qayliq
Zavja	Xotin, rafiqा
G'och	(Shevada) Mard, botir
Shayx	Islom dini tarqalgan mamlakatlarda, avvalo, bilimdon kishilarga, so'ngra ulamo va faqirlarga berilgan nom; keyinchalik muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI FANIDAN UMUMIY TEST SAVOLLARI

1-variant

1. Eski o'zbek adabiy tili qaysi davrda shakllangan edi?

- A) X – XI asrlarda
- B) XI – XII asrlarda
- C) XIII asrda
- D) XIV asrda

2. O'zbek adabiy tilining boyishida shevalar qanday manba hisoblanadi?

- A) ichki manba
- B) tashqi manba
- C) shevalar adabiy tilning emas, balki o'zbek milliy tilining ichki manbasi hisoblanadi
- D) shevalar adabiy til uchun manba bo'la olmaydi

3. XI asrda grammatikaga oid asar yozgan mashhur vatandoshimiz kim?

- A) Yusuf Xos Xojib
- B) Mahmud Qoshg'ariy
- C) Abulqosim Zamaxshariy
- D) Narshahiy

4. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi lahjaga kiradigan shevalar asos qilib olin-gan?

- A) qarluq lahjasi
- B) qipchoq lahjasi
- C) og'uz lahjasi

D) qarluq va qipchoq lahjalar

5. Xalq shevalari adabiy til-dan qaysi jihatlari bilan farq qilishi mumkin?

- A) fonetik jihatdan
- B) leksik jihatdan
- C) grammatik jihatdan
- D) fonetik, leksik va grammatik jihatdan

6. Adabiy tilning qanday shakllari mavjud?

- A) xalq shevalari va adabiy til
- B) og'zaki adabiy til va yozma adabiy til
- C) so'zlashuv, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar
- D) milliy til va adabiy til

7. Tilshunoslikda lahja atamasi qanday tushunchani anglatadi?

- A) ma'lum shevaning kichik bir qismi
- B) bir-biriga yaqin bo'lgan shevalar yig'indisi
- C) sheva atamasining sinonimi sifatida ishlataladi
- D) xalq tilining ma'lum bir me'yorlarga keltirilgan shakli

8. Xalq shevalarining qanday shakli mavjud?

- A) faqat og'zaki shakli
- B) faqat yozma shakli
- C) faqat adabiy til shakli
- D) og'zaki va yozma shakli

9. So'zlarning kelib chiqish, paydo bo'lish yo'llarini o'rganuvchi sohaning nomi qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) leksikologiya
- B) etimologiya
- C) frazeologiya
- D) so'z yasalishi

10. Dunyodagi xalqaro tillar qaysi qatordagи javobda aks etgan?

- A) ingliz, fransuz, rus, ispan, arab, xitoy tillari
- B) o'zbek, usmonli turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, rus tillari
- C) ingliz, nemis, yapon, italyan, polyak, rus tillari
- D) o'zbek, koreys, tatar, alban, arab, mo'gul tillari

11. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi joyning shevalari asos qilib olingen?

- A) Andijon – Shahrixon
- B) Xorazm – Urganch
- C) Toshkent – Guliston
- D) Farg'ona – Toshkent

12. Quyida berilgan tillardan qaysi biri o'lik tillar sira-siga kiradi?

- A) uyg'ur tili
- B) lotin tili
- C) yoqut tili
- D) yunon tili

13. O'zbek adabiy tili qaysi jihatdan Toshkent shahar shevasiga asoslanadi?

- A) fonetik
- B) morfologik
- C) sintaktik
- D) leksik

14. Zamaxshariy qaysi asarini chig'atoy (o'zbek) tiliga o'zi tarjima qilgan?

- A) "Al – Mufassal"
- B) "Muqaddimat ul-adab"
- C) "Asos ul-baloga"
- D) "Notiqlik asoslari"

15. Mashhur vatandoshimiz Abulqosim Zamaxshariyning otlar, fe'llar, bog'lovchilar, otlarning turlanishi, fe'llaring tuslanishi haqidagi besh qismidan iborat asari qaysi qatorda berilgan?

- A) "Al-Mufassal"
- B) "Muqaddimat ul-adab"
- C) "Sarf-u nahv"
- D) "Asos ul-baloga"

16. O'zbek tili asosan qaysi davrdan boshlab o'quv fani sifatida maktablarda o'qitila boshlandi?

- A) XV asrdan
- B) XVIII asrning oxirlaridan
- C) XIX asrning boshlaridan
- D) XX asrning boshlaridan

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan va unda nechta harfdan iborat alifbo joriy elilgan?

- A) 1993-yil 2-sentabrda, 31 harf va 1 tutuq belgisi
- B) 1940-yilda, 33 ta harf va 2 ta belgi
- C) 1929-yilda, 35 ta harf
- D) 1995-yil 6-mayda, 29 ta harf

18. Xalq shevalari nima?

- A) qo'llanish darajasi ma'lum hudud bilan chegaralangan umumxalq tilining bir qismi
- B) adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, uning og'zaki shakli xalq shevalari hisoblanadi
- C) umumxalq tilining me'yorga solingan shakli
- D) adabiy tilning ma'lum bir shakli

19. Qanday shakllar adabiy tilga xos?

- A) faqat yozma adabiy til
- B) mahalliy so'zlashuv tili va yozma adabiy til
- C) faqat og'zaki adabiy til
- D) og'zaki adabiy til va yozma adabiy til

20. Yozuvning tarixiy ahamiyati javoblarning qaysi bida o'z ifodasini topgan?

A) Yozuv bo'lmaganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat namunalari bizgacha yetib kelmagan bo'lardi

B) Yozuv qadimda amal qilgan tillarning leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi

C) Qadimgi yodgorlik egasি bo'lgan xalqning tarixiy urf-odatlari va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Jamiyat a'zolarining savodxonligini oshirishda yozuvning ahamiyati katta

D) Barcha javoblar to'g'ri

21. O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tili ekanligi Konstitutsiyamizning nechanchi moddasida o'z aksini topgan?

- A) 3-moddasida
- B) 5-moddasida
- C) 1-moddasida
- D) 4-moddasida

22. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri qo'shib yoziladi?

- A) liq tola
- B) qiyma taxta

- C) och sariq
D) lang ochiq

2-variant

23. Eski turkiy til qaysi davrda amalda bo'lgan?

- A) XII – XV asrlarda
B) XV – XIX asrlarda
C) miloddan oldingi davrlardan X asrgacha
D) X – XII asrlarda

24. Qadimgi turkiy til qaysi davrlargacha qo'llangan?

- A) X asrgacha
B) VIII asrgacha
C) XIV asrgacha
D) miloddan oldingi davrlardan X asrlargacha

25. 1995-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarori tasdiqlandi?

- A) "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi
B) "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida"gi
C) Yangi yozuvga o'tish to'g'risidagi
D) O'zbek alifbosiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi

1. Qaysi javobda turkiy til-larning qipchoq guruhiga kir-maydigan tillar qatori beril-gan?

- A) qirg'iz, yoqut, qo'miq
B) o'zbek, uyg'ur, ozarbay-jon
C) tatar, turkman, qozoq
D) qoraqalpoq, boshqird, tojik

2. Qaysi javobda turkiy til-lar oilasi qipchoq guruhiga kiruvchi tillar keltirilgan?

- A) tatar, o'zbek
B) no'g'ay, qo'miq
C) uyg'ur, boshqird
D) ozarbayjon, qirg'iz

3. A.Borovkovning e'tirof etishicha, qaysi asar eski o'zbek tilining eng yorqin namu-nasi hisoblanadi?

- A) «O'g'uznama»
B) «Xusrav va Shirin»
C) «Qissasi Rabg'uziy»
D) «Tafsir»

4. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida turklar asli nechta qabila ekanligi aytilgan?

- A) 25 ta B) 24 ta
C) 30 ta D) 20 ta

5. O'zbek tilida yozilgan

dastlabki yozma yodgorliklar qaysi asrlarga tegishli?

- A) IV – V asrlarga
- B) VI – VII asrlarga
- C) VIII – IX asrlarga
- D) X – XII asrlarga

6. X – XII asrlarda yaratilgan asarlar qaysi qatorda berilgan?

A) «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Devonu hikmat», «Muqaddimat ul-adab»

B) «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Qisasi Rabg'uziy», «O'g'uznama»

C) «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Muhabbatnoma», «Yusuf va Zulayho»

D) «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Me'rojnama»

7. XIII – XIV asrlarda yaratilgan asarlar qaysi qatorda berilgan?

A) «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq»

B) «Qisasi Rabg'uziy», «Muhabbatnoma», «Me'rojnama», «Yusuf va Zulayho», «O'g'uznama»

C) «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Me'rojnama»

D) «Muhabbatnoma», «Yusuf va Zulayho», «Devoni hikmat», «Muqaddimat ul-adab»

8. O'zbek tilining takomilashuvida qaysi tarixiy davr muhim rol o'ynadi?

- A) VI – VII asrlar
- B) X – XII asrlar
- C) XII asrдан XIII asrning ikkinchi yarmigacha
- D) XIV asrдан XIX asrning ikkinchi yarmigacha

9. O'zbek adabiy tilining uslublari qaysi davrdan boshlab shakllana bordi?

- A) XV asrning ikkinchi yaridan
- B) XVII asrning ikkinchi yaridan
- C) XIX asrning ikkinchi yaridan
- D) XX asrning ikkinchi yaridan

10. Rivojlangan, ijtimoiy mavqeyi yuksalgan, sayqal topgan, fonetik va leksik-grammatik jihatdan me'yorlashtirilgan milliy til...

- A) qadimgi turkiy til
- B) eski turkiy til
- C) eski o'zbek adabiy tili
- D) hozirgi o'zbek adabiy tili

11. To'g'ri talaffuz qilish qo-

dalarini tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A) orfografiyada
- B) orfoepiyada
- C) imloda
- D) grafikada

12. Harflar tizimi qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A) fonetikada
- B) grafikada
- C) etimologiyada
- D) til tarixida

13. Tog'ri yozish qoidalari qaysi bo'limda o'rganiladi?

- A) leksikologiyada
- B) orfoepiyada
- C) grafikada
- D) orfografiyada

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

- A) 1992-yil 8-dekabrda
- B) 1994-yil 7-dekabrda
- C) 1997-yil 8-dekabrda
- D) 1996-yil 8-noyabrda

15. Hozirgi kunda yer yuzida qancha til mavjud?

- A) 7000 ga yaqin til
- B) 8000 ga yaqin til
- C) 9000 ga yaqin til
- D) 10 000 ga yaqin til

16. O'zbek tili qaysi til oilasiga mansub?

- A) Turkiy tillar
- B) Hind-yevropa
- C) Xom-som
- D) Xitoy-tibet

17. Turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga qaysi tillar mansub?

- A) o'zbek va uyg'ur tillari
- B) xakas va yoqut tillari
- C) ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillari
- D) tatar, boshqird, chuvash tillari

18. Turkiy tillar oilasining o'g'uz guruhiga qaysi tillar mansub?

- A) qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz tillari
- B) o'zbek va uyg'ur tillari
- C) ozarbayjon, turkman, usmonli turk tillari
- D) tatar, boshqird, chuvash tillari

19. Turkiy tillar oilasining qipchoq guruhiga qaysi tillar mansub?

- 1)o'zbek; 2)qirg'iz; 3)uyg'ur;
- 4) qozoq; 5) ozarbayjon;
- 6) qoraqalpoq; 7) turkman;
- 8) tatar; 9) usmonli turk;
- 10) boshqird; 11) xakas;
- 12) yoqut; 13) chuvash
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10
- B) 1, 3, 4, 6, 8, 10, 11, 12,
- 13

- C) 2, 4, 6, 8, 10, 11, 12, 13
D) 1, 3, 5, 7, 9, 11, 13

- C) Qadimgi turk davri
D) O'rta turk davri

20. O'zbek tili turkiy tillar oиласининг qaysi guruhiga mansub?

- A) qipchoq B) qarluq
C) o'g'uz D) oltoy

21. Turkiy tillar oиласида nechta til bor?

- A) 30 ga yaqin
B) 30 dan ortiq
C) 40 ga yaqin
D) 40 dan ortiq

22. «O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi to'g'risida»gi Qonunning nechanchi modda-larida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi?

- A) 2-, 4-, 6-, 10-, 14-modda-larida
B) 1-, 3-, 5-, 7-, 9-, 11-modda-larida
C) 4-, 7-, 9-, 12-, 19-modda-larida
D) 2-, 8-, 14-, 17-, 24-modda-larida

23. Hozirgi barcha turkiy xalqlar va ular tillarining shakllanish hamda rivojlanish davri qaysi javobda berilgan?

- A) Oltoy davri
B) Eng qadimgi turk davri

24. Turdi Farog'iy o'zbek xalqining tashkil topishida nechta urug' ishtirok etishini aytadi?

- A) 22 ta B) 65 ta
C) 92 ta D) 99 ta

25. Bir-biriga mos javobni belgilang.

- 1) Eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalar;
2) G'arbiy til an'anasiда yozilgan asar;
3) Sharqiyl til an'anasiда yozilgan asar;
4) A.Borovkovning e'tirof etishicha, o'zbek tilining yorqin namunasi bo'lgan asar.
a) Quil Alining «Qissayi Yusuf» asari;
b) «O'g'uznama», «Tafsir», Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Guliston», Xorazmiyning «Muhabbatnama» asarlari;
c) «Tafsir» (XIII asr);
d) Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asari

- A) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
B) 1-b, 2-d, 3-a, 4-c
C) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b
D) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c

FONETIKA, GRAFIKA, ORFOEPIYA, ORFOGRAFIYA MAVZULARI YUZASIDAN TESTLAR

1-variant

1. Qaysi qatorda **ng** tovushi ishtirok etgan so'zlar berilgan?

- A) shudring, yanga, dengiz
- B) singil, menga, ko'ngil
- C) kongress, yengil, shtanga
- D) kenglik, ingramoq, tungi

2. **Gapirmasinmi?** Ushbu so'zda **urg'u** qaysi bo'g'inga tushadi?

- A) ikkinchi bo'g'inga
- B) uchinchi bo'g'inga
- C) to'rtinchi bo'g'inga
- D) beshinchi bo'g'inga

3. Quyidagi so'zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlining **cho'ziqroq** aytishini ifodalash uchun qo'yiladi?

- 1) ma...no;
- 2) san...at;
- 3) mo'...tadil;
- 4) in...om;
- 5) shu...la.

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 1, 5
- C) 1, 3, 5
- D) 2, 4

4. Quyidagi so'zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlini undoshdan **ajratib** talaffuz etilishini ifodalash uchun qo'yildi?

- 1) qat...iy;
- 2) da...vo;
- 3) mo'...jiza;
- 4) sur...at;
- 5) e...lon.

- A) 1, 4
- B) 2, 3, 5
- C) 1, 3, 4, 5
- D) 2, 5

5. **Qator undoshli** so'zlar berilgan javobni belgilang.

- A) traktor, paxta, chaqqon
- B) ikki, million, metall
- C) stol, do'st, daraxt
- D) paxta, nimcha, o'simlik

6. **Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur sabog'iga izzat-ehtirom bilan qadam qo'ymoq lozim.** Ushbu gapda qo'sh va qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang.

- A) 1 ta qo'sh undosh, 2 ta qator undoshli so'z

- B) 2 ta qo'sh undosh, 1 ta qator undoshli so'z

- C) 2 ta qo'sh undosh, 3 ta qator undoshli so'z

- D) 2 ta qo'sh undosh, 4 ta qator undoshli so'z

7. Qaysi harf til oldi, portlovchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi?

- A) ch
- B) sh
- C) j
- D) k

8. **Shudring** so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

- A) 3 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari

B) 4 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari

C) 4 ta til oldi, 1 ta til o'rtal undoshlari

D) 3 ta til oldi, 1 ta til o'rtal undoshlari

9. **Kongress** so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

A) 2 ta til orqa, 2 ta til oldi undoshlari

B) 2 ta til orqa, 4 ta til oldi undoshlari

C) 2 ta til orqa, 3 ta til oldi undoshlari

D) 1 ta til orqa, 1 ta chuqur til orqa, 4 ta til oldi undoshlari

10. So'z tarkibida *n* harfi qaysi harflardan oldin kelganda ba'zan *m* tarzida talafuz qilinadi?

- A) b, m B) v, p
C) f, t D) k, sh

11. Qaysi qatordagi so'zda *n* harfi *m* tarzida talaffuz qilinadi?

- A) o'n bir B) tandir
C) o'n so'm D) tomonda

12. *Singlimning anchaulg'ayib qolgan o'g'li yig'lab o'rnidan turdi-da, yana onasining bag'rida uxbagoldi.*

Ushbu gapdag'i necha so'z

tarkibida tovush tushishi kuzatiladi?

A) 3 ta so'zda

B) 4 ta so'zda

C) 5 ta so'zda

D) 6 ta so'zda

13. -*a fe'l* yasovchi qo'shimchasi qo'shilganda so'z asosida qanday fonetik o'zgarish yuz berishi mumkin?

1) tovush tushishi; 2) tovush almashishi; 3) tovush ikkilanishi; 4) tovush ortishi.

- A) 2, 3 B) 2, 4
C) 1, 2 D) faqat 2

14. *Mening bu voqeadan xabardorligimni unga aytako'rma.*

Ushbu gapdag'i so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi?

- A) tovush tushishi
B) tovush almashishi va tushishi
C) tovush orttirilishi, tushishi, almashishi
D) tovush orttirilishi

15. *Jo'ja va jirafa* so'zlaridagi *j* tovushlari qaysi jihatdan o'zaro farqlanadi?

- A) til qismlarining harakatiga ko'ra
B) jarangli va jarangsizligiga ko'ra
C) portlovchi va sirg'aluvchiligidagi ko'ra

D) talaffuzida labning ishti-rokiga ko'ra

16. 1) *tinmay*; 2) *o'n besh*; 3) *qamchin*; 4) *qantarmoq*; 5) *manmanlik*; 6) *sunbul*

Berilgan qaysi so'zlarda n harfi m tarzida talaffuz qilinadi?

- A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5
C) 2, 4, 6 D) 3, 5, 6

17. So'z tarkibida qaysi harflardan oldin kelgan *n* harfi *m* holida o'qiladi, lekin n yozildi?

- A) *b* va *p* B) *d* va *t*
C) *b* va *m* D) *v* va *f*

18. Qaysi harflar birikmasi bitta *til orqa* undoshini ifodelaydi?

- A) *ng* B) *sh* C) *ch*
D) bunday harflar birikmasi mavjud emas

19. *Ko'ngil, singlisi, kongress* so'zlarining birinchi bo'g'ini qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) har uchala so'zning birinchi bo'g'ini ochiq bo'g'in
B) har uchala so'zning birinchi bo'g'ini yopiq bo'g'in
C) ko'ngil so'zida ochiq, singlisi kongress so'zlarida yopiq bo'g'in
D) ko'ngil, singlisi so'zla-

rida ochiq, kongress so'zida yopiq bo'g'in

20. Berilgan so'zlarning qaysi birida birinchi bo'g'in ochiq bo'g'in hisoblanadi?

- 1) *dengiz*; 2) *shtanga*; 3) *singlim*; 4) *ko'ngil*
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3
C) 1, 4 D) 1, 3, 4

21. Quyida berilgan gapda nechta ochiq bo'g'in bortigini aniqlang.

Go'zallik tuyg'usini sing-dirmay turib, barkamolinsonni voyaga yetkazish mumkin emas.

- A) 12 ta B) 11 ta
C) 10 ta D) 9 ta

22. Qaysi qatorda **unli** va **sirg'aluvchi** undoshlardan tarkib topgan so'zlar berilgan?

- A) saxovat, xususiylashtirish, g'azal
B) vazifa, serhafsala, xo'roz
C) suyanish, jirafa, sarosima
D) xushbichim, vazifa

23. Qaysi qatorda **unli** va **portlovchi** undoshlardan tarkib topgan so'zlar berilgan?

- A) abadiy, telpak, qadriyat
B) odob, botiq, qichitqi
C) dudutlatdi, qobiliyat, qorabayir

D) tekintomoq, qanoat, vazifa

24. Qaysi so'zning yopiq bo'g'ini unli va jarangli undoshdan iborat?

- A) qadriyat B) yoqimli
C) iztirob D) fazilat

25. Fe'llarning vazifa shakli qo'shimchalari fe'lning qaysi lug'aviy shaklini hosil qilganda, bir unli tovush boshqasiga aylanishi mumkin?

- A) ravishdosh
B) harakat nomi
C) ravishdosh va sifatdosh
D) ravishdosh, sifatdosh,
harakat nomi

2-variant

1. **-a, -ay, -illa** fe'l yasovchi qo'shimchalari so'zlarga qo'shilganda, qanday fonetik hodisa ro'y beradi?

- A) tovush tushishi, tovush o'zgarishi
B) tovush tushishi, tovush orttirilishi
C) tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush o'zgarishi
D) tovush orttirilishi, tovush o'zgarishi

2. **Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur sabog'iga**

izzat-ehtirom bilan qadam qo'ymoq lozim. Ushbu gapda qator undoshli so'zlar miqdorini aniqlang.

- A) 1 ta qator undoshli so'z
B) 2 ta qator undoshli so'z
C) 3 ta qator undoshli so'z
D) 4 ta qator undoshli so'z

3. **Dengiz** so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

- A) 3 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari
B) 2 ta til oldi, 1 ta til orqa undoshlari
C) 2 ta til oldi, 1 ta til o'rta undoshlari
D) 3 ta til oldi, 1 ta til o'rta undoshlari

4. O'zbek tilida quyidagi tovush almashuvining qaysi ko'rinishi kuzatilmaydi?

- A) otdan fe'l yasalganda o'zakdag'i o tovushi a tovushiga almashishi
B) fe'ldan sifat yasalganda a tovushi o tovushiga almashtishi
C) fe'ldan ot yasalganda a tovushi o tovushiga almashishi
D) otdan sifat yasalganda o'zakdag'i a tovushi o tovushiga almashishi

5. Qaysi so'zda hosil bo'

lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

- A) norasida B) mabodo
C) qarg'a D) ko'rmana

6. Qaysi so'zda hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar qatnashgan?

- A) suzuvchi B) bedarak
C) havoyi D) dabdabali

7. Qaysi qatordagi so'z fagaqt unli va sonorlardan iborat?

- A) romanlar B) sezuvchi
C) kitobxon D) xushbichim

8. **Sanab sanog'iga yetolmadi.** Ushbu gapdag'i so'zlar tarkibida jami nechta tovush o'zgarishi yuz bergan?

- A) 2 ta B) 3 ta
C) 4 ta D) 5 ta

9. **Sanab sanog'iga yetolmadi.** Ushbu gapdag'i so'zlar tarkibida jami necha marta tovush almashinish hodisasi yuz bergan?

- A) 2 ta B) 3 ta
C) 4 ta D) 5 ta

10. **Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim**

sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim.

Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan nechta so'z bor?

- A) 4 ta B) 5 ta
C) 6 ta D) 7 ta

11. **Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim.**

Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

- 1) ega 2) kesim 3) aniqlovchi
4) to'ldiruvchi
A) 1 va 2 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2, 4 D) 2, 4

12. **Qush edim, qanotim qayrildi; gul edim, bulbulimdan ayrildim; ko'nglim sindi chil-chil; mening ozurda yuragimni bu kun so'roqlamas hech kim.**

Ushbu gapda fonetik qoida asosida yozilgan nechta so'z bor, ularning nechta fe'l so'z turkumiga mansub?

- A) 5 ta so'z, 3 tasi fe'l
B) 5 ta so'z, 2 tasi fe'l
C) 6 ta so'z, 3 tasi fe'l
D) 6 ta so'z, 2 tasi fe'l

13. *I*, *n* tovushlari qaysi jihatdan bir guruhga mansub emas?

- A) sirg'aluvchi undoshlar
- B) jarangli undoshlar
- C) til oldi undoshlari
- D) jarangli va til oldi undoshlari

14. 1) *yonbosh*; 2) *ko'n-maslik*; 3) *tutunsimon*; 4) *bo'yin-turuq*; 5) *o'n besh*

Berilgan qaysi so'zlarda n harfi m tarzda talaffuz qilindi?

- A) 1, 2, 4, 5
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 2, 5
- D) 1, 2

15. Qaysi qatorda *k* undoshiga to'g'ri tavsif berilgan?

- A) til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush
- B) til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush
- C) til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush
- D) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush

16. 1) *barcha*; 2) *texnika*; 3) *direksiya*; 4) *kimdir*; 5) *kitob*.

Berilgan so'zlarning qaysi birida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

- A) 1, 2, 4
- B) 2, 3, 4

C) 1, 2, 3

D) 1, 3, 5

17. Qaysi so'zda til undoshi lab undoshi sifatida talaffuz qilinadi?

- A) manmanlik
- B) qamchin
- C) ingichka
- D) tartib

18. Undosh tovushlar tovush psychalarining ishtirokiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- A) jarangli undoshlar, jarangsiz undoshlar
- B) portlovchilar, sirg'aluvchilar
- C) lab undoshlari, til yoki tilish undoshlari
- D) sof undoshlar, bo'g'iz undoshlari

19. Undoshlar qaysi xususiyatiga ko'ra jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratildi?

- A) tovush psychalarining ishtirokiga ko'ra
- B) paydo bo'lish o'rninga ko'ra
- C) aytılısh usuliga ko'ra
- D) ovozning ishtirokiga ko'ra

20. Og'zaki nutqning tovush tizimini o'rganuvchi bo'lim ...

- A) fonetika
- B) grafika
- C) orfografiya
- D) orfoepiya

21. 1) *manba*; 2) *yonma-yon*; 3) *tandir*; 4) *qalampir*; 5) *tanbal*; 6) *yonbosh*.

Ushbu so'zlarning qaysi birida talaffuzda tovush o'zgarishi yuz beradi?

- A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 4, 6
C) 2, 3, 4, 5 D) 3, 4, 5, 6

22. *Men kecha uydan keldim*. Ushbu gapda mantiqiy urg'u ostiga chizilgan bo'lakka tushganda, bu gap uchun mos keladigan so'roq gapni belgilang.

- A) Kim kecha uydan keldi?
B) Sen kecha qayerdan kelding?
C) Sen qachon uydan kelding?
D) Kim kecha qayerdan keldi?

23. *A* yoki *i* unlisi bilan tuggagan fe'l asoslariiga qaysi qo'shimcha qo'shilsa *a* unlisi *o* ga, *i* unlisi *u* ga aylanadi va shunday yoziladi?

- A) -sh B) -v
C) -t D) -moq

24. 1) *yig'lamoq*; 2) *o'y-natmoq*; 3) *sarg'aymoq*; 4) *o'rnatmoq*; 5) *chanqa-moq*; 6) *qaynoqroq*.

Berilgan so'z-larning qaysi birida qo'shimcha-lar qo'shishi natijasida fonetik o'zgarish vujudga kelgan?

- A) 2, 3, 4, 5, 6
B) 1, 2, 3, 4, 6
C) 2, 3, 4, 6
D) 3, 4, 5, 6

25. Berilgan so'zlardan qaysi birining ikkinchi bo'g'inida *u* yoziladi?

- A) mushf..q, muh..m
B) muq..m, muh..t
C) mushk..l, mug..z
D) mutr..b, musl..m

3-variant

1. Qo'sh unlilarsiz yozilishi kerak bo'lgan so'z qaysi qatorda berilgan?

- A) manfaatdor
B) mutaassib
C) mutakaabbir
D) mutolaa

2. *Metal* so'ziga qanday qo'shimcha qo'shilganda qo'shundoshning biri yozilmaydi?

- A) faqat I harfi bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda

- B) undosh harf bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda

- C) unli harf bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shilganda

- D) har qanday qo'shimcha qo'shilganda

3. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda nuqtalar o'rnila f harfi qo'yiladi?

- A) a... tol, a... gor, ta... silot
- B) a... zal, a... g'on, ta... fiq
- C) a... zun, sa... sargul, ta... tish
- D) a... sona, sha... qat, ta... siflamoq

4. Qaysi qatordagi so'zlarda tutuq belgisi unlini undoshdan **ajratib** talaffuz etilishini ifodalaydi?

- A) shu'la, ba'zan
- B) qat'iy, jur'at
- C) Is'hoq, as'hob
- D) mo'jiza, mo'tadil

5. Lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidasiga ko'ra **Is'hoq** so'zida ishlataladigan tutuq belgisi qanday vazifa bajaradi?

- A) unli tovushning cho'ziq-roq aytishini ifodalaydi
- B) unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi
- C) oldin va keyin kelgan tovushlar alohida tovushlar ekanligini ifodalaydi
- D) so'z urg'usini ifodalaydi

6. Berilgan qaysi so'zda tutuq belgisi noto'g'ri qo'yilgan?

- A) ma'sul
- B) ma'sum
- C) ma'mur
- D) ma'qul

7. 1) *kav...sh*; 2) *kib...r*; 3) *kir...m*; 4) *lut...f*; 5) *moy... l*.

Imlo qoidasiga ko'ra nuqtalar o'rnila i unlis qo'yilishi kerak bo'lgan so'zlarni aniqlang.

- A) 1, 2, 3, 5
- B) 1, 4, 5
- C) 3, 5
- D) 1, 4

8. Berilgan so'zlarning qaysilarida nuqtalar o'rnila **u** unlisini yoziladi?

- 1) *junj... kish*; 2) *juld... r*
- 3) *zo'g'...m*; 4) *ibratom... z*
- A) 1, 2, 3, 4
- B) 2, 3
- C) 2, 4
- D) 1, 4

9. *Ayrim paytlarda ko'nglim onamni qo'msaydi-da, qanotim qayrilganini sezib, nafasim bo'g'zimga tiqiladi.*

Ushbu gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta?

- A) 1 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 4 ta

10. Qaysi qatordagi so'zlar noto'g'ri yozilgan?

- A) Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Madaniyat va Sport ishlari vazirligi, Nuroniy jamg'armasi
- B) Buxoro viloyati hokimligi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Quvasoy sement zavodi
- C) Oliy xo'jalik sudi, Tosh-

kent agrar universiteti, "Lazzat" oshxonasi

D) Vazirlar Mahkamasi,
"Sharq gullari" firmasi

11. Qaysi qatordagi so'zlar imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan?

- A) ulgirmoq, unitmoq, urchuuq
- B) umirguzaronlik, unsir, urchiq
- C) umirtqa, ungur, ulgurmoq
- D) uchuriq, uchirim, uchunmoq

12. *Bag'rim yoniq, yuzim ora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyo-ratingga keldim sultonim.*

Gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar soni nechta?

- A) 4 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 5 ta

13. Imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan so'z qaysi qatorda berilgan?

- A) ma'yus
- B) ma'zur
- C) ma'sum
- D) ma'sud

14. 1) *yig'lamoq*; 2) *taranmoq*; 3) *choriamoq*; 4) *anglamoq*; 5) *chanqamoq*; 6) *qaynoqroq*.

berilgan so'zlarning qay-

si biri fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan?

- A) 2, 3, 4, 5, 6
- B) 1, 4, 6
- C) 3, 4, 6
- D) 4, 5, 6

15. 1) *taroqqa*; 2) *buloqqa*; 3) *so'roqqa*; 4) *ilikka*; 5) *kurakka*; 6) *terakka*.

Jo'nalish kelishigidagi ushbu so'zlarning qaysi bida so'zning ham o'zak, ham qo'shimcha qismida tovush o'zgarishi yuz bergen?

- A) 1, 2, 3
- B) 3, 4, 5
- C) 1, 3
- D) barchasida faqat qo'shimchada o'zgarish yuz bergen

16. *Vatanning baxti, porloq istiqboli, yorqin kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lganda jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir.* Ushbu gapdag'i nechta so'z tarkibida qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush o'zgarishi vujudga kelgan?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

17. *Vatanning baxti, porloq istiqlolli, yorqin kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lganda jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir.*

ham farz, ham qarzdir. Berilgan gap tarkibida so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarishlar ro'y bergen?

- A) tovush tushishi
- B) tovush o'zgarishi
- C) tovush orttirilishi
- D) tovush o'zgarishi va orttirilishi

18. Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir.

Berilgan gapdagi qo'shimcha qo'shish natijasida tovush o'zgarishi vujudga kelgan so'zlar miqdorini aniqlang

- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

19. Yashash uchun foydali mehnat qilish kerakligini anglab yetish insonlikning birinchi shartidir. Berilgan gap tarkibida so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida qanday fonetik o'zgarishlar ro'y bergen?

- A) tovush tushishi
- B) tovush o'zgarishi
- C) tovush orttirilishi
- D) tovush orttirilishi va o'zgarishi

20. Qaysi qatordagi so'zlar da qo'sh undosh qo'llanishi kerak?

- A) has os, qo'sh ... a
- B) ud ... aburon, tasad ... uq
- C) hij ... alamoq, uv ... at
- D) mut ... asil, jiz ... illamoq

21. Imlo qoidasiga ko'ra qaysi so'z to'g'ri yozilgan?

- A) uzur
- B) mumyo
- C) mayil
- D) mak'r

22. So'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda so'z tarkibida qanday fonetik o'zgarish yuz berishi mumkin?

- A) tovush tushishi
- B) tovush almashishi
- C) tovush orttirilishi va almashishi
- D) tovush almashishi va tushishi

23. Yozma nutqning harflar tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?

- A) fonetika
- B) grafika
- C) orfografiya
- D) orfoepiya

24. Og'zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan qismi qanday ataladi?

- A) so'z
- B) asos
- C) tovush
- D) qo'shimcha

25. *Qol, qor, qot* so'zlarining ma'nolarini farqlashga xizmat qilayotgan tovushlarni aniqlang.

- A) bo'g'iz undoshi
- B) chuqur til orqa undoshi
- C) til oldi undoshi
- D) til orqa undoshi

4-variant

1. Talaffuzda tovush orttilishi yuz bergan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) tabiat, doim, ilm
- B) unga, achchiq, issiq
- C) qadr, do'st, g'isht
- D) go'sht, yozdir, iliq

2. Imlo qoidasiga ko'ra xato yozilgan so'zni aniqlang.

- A) hasharot
- B) zalvorli
- C) qaynana
- D) qat'i nazar

3. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Berilgan gapda necha so'z fonetik qoida asosida yozilgan?

- A) 1 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 4 ta

4. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Ushbu gapdagagi so'zlar tarkibida qanday fonetik o'zgarishlar mavjud?

- A) tovush tushishi
- B) tovush tushishi va almashuvi
- C) tovush almashuvi va tovush orttirilishi
- D) tovush almashuvi, tovush tushishi va tovush orttirilishi

5. *Og'zaki nutqi yaxshi bo'lgani uchun davraga boshlovchilik qilish unga topshirildi.*

Ushbu gapdagagi fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'zlar miqdorini aniqlang.

- A) 1 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 4 ta

6. Yangi imlo qoidasiga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri qo'shib yoziladi?

- A) lang ochiq
- B) liq to'la
- C) och sariq
- D) yarim avtomat

7. 1995-yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko'ra quyidagi so'zlarning qaysi biri ajratib yoziladi?

- A) kelintushdi, tokqaychi
- B) so'zboshi, achchiqtosh
- C) qirg'iyko'z, oybolta

D) dardibedavo, timqora

8. Quyidagi talaffuz xususiyat-larining qaysilari yozuvda ham aks etadi?

1) k undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda k undoshining g ga o'zgarishi;

2) q undoshi bilan tugagan otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda q undoshining g' ga o'zgarishi;

3) g' undoshi bilan tugagan otlarga jo'nalish kelishi-gi qo'shimchasi qo'shilganda g' undoshining q undoshiga o'zgarishi;

4) a unlisi bilan tugagan fe'llarga shaxs oti yasovchi-vchi qo'shimchasi qo'shilganda a unlisining o ga o'zgarishi

A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4

C) 1, 2, 3 D) 1, 2

9. Qaysi gapda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?

A) 1-oktabr – Ustozlar va murabbiylar kuni.

B) "Bu sirni faqat senga aytayapman", – dedi u.

C) U vaqtida Toshkent ikkitita shahardan iborat bo'lib, birini Eski shahar, ikkinchisini Yangi shahar deyishardi.

D) Berilgan gaplarda imloviy xatoga yo'l qo'yilmagan.

D) ko'ks
24. A) lahim B) lahm
C) libretto D) loxas
25. A) machit
B) mashshaqat
C) ma'tal
D) mahtal

13-variant

Imloviy jihatdan xato yo-zilgan so'zlarni aniqlang

1. A) ma' C) -tolitan
C) ma'zur

- | | |
|---|---|
| <p>2. A) ma'yus B) ma'suliyat
C) ma'sum D) ma'qul</p> <p>3. A) ma'ruza
B) matal
C) maql D) ma'shuqa</p> <p>4. A) mahluq
B) mazax
C) melodrama
D) nuqtayi nazar</p> <p>5. A) oshiq-ma'shuq
B) oshlik
C) oshliq
D) oliv malumotli</p> <p>6. A) oshrayxon
B) oshuftahol
C) oshuftaxotir
D) oshyonlik</p> <p>7. A) ochiqdan-ochiq
B) och havorang
C) ochilib-sochilib
D) och qolgan</p> <p>8. A) och qirmizi
B) och sariq
C) och rang
D) och pushti</p> <p>9. A) parallelilik
B) parallelizm
C) parokanda
D) patinjon</p> <p>10. A) pirqona</p> | <p>B) prezentatsiya
C) pyesa
D) pinxona</p> <p>11. A) poyafzal
B) qahqaha
C) qat'i nazar
D) qat'iy</p> <p>12. A) qaynana
B) qaynsingil
C) qip-qizarish
D) quvlashmoq</p> <p>13. A) qozonyuvg'ich
B) sadqayisar
C) safsargul
D) saramjon</p> <p>14. A) salom-alaykum
B) sanatoriy
C) sarf-harajat
D) saundtrek</p> <p>15. A) serhashak
B) sipoh
C) siyoh D) sponsor</p> <p>16. A) ssuda B) senariy
C) subyekt
D) suiste'mol</p> <p>17. A) stres B) taammul
C) tahqiqlamoq
D) tahqirlamoq</p> <p>18. A) taajjub B) taassurot
C) taalluqli D) tavvallo</p> |
|---|---|

19. A) tavakkal C) taym-aut D) tokqaychi
B) tavsif
C) tayziq D) taassuf
20. A) tarjimayi hol
B) talafot
C) lahcha cho'g'
D) tamagir
21. A) ta'riflamoq
B) tariflamoq
C) tadbiq D) tavshih
22. A) temiryo'lchi
B) tatbiq
C) tahayyul D) tatqiq
23. A) ta'minlamoq
B) taqiblamoq
C) ta'tillanmoq
D) taqiqlamoq
24. A) tahqiqlamoq
B) tahqirlamoq
C) ta'qiqlamoq
D) tahrirlamoq
25. A) talofat B) tamagir
C) tariflamoq
D) ta'riflamoq
2. A) tassaruf
B) tasavvuf
C) tashakkul
D) tashakkur
3. A) ta'limot B) ta'minot
C) tafsif D) ta'mirot
4. A) tarix B) ta'rix
C) tilo'rta D) ob'ekt
5. A) teng huquqli
B) tenghuquqlik
C) tumonat
D) tum-taraqay
6. A) toshoyna
B) tosh ko'prik
C) toshko'ngil
D) tosh-tarozi
7. A) tubjoy B) tuborzu
C) tub-tomir D) tub-ildiz
8. A) turkizabon
B) turkigo'ylik
C) turkiso'z
D) turkiyshunos
9. A) tutinmoq
B) tutunmoq
C) tuyilmoq
D) tuyulmoq
10. A) tunamoq
B) to'namoq

14-variant

Imloviy jihatdan xato yo-zilgan so'zlarni aniqlang

1. A) taqazo B) tarozichi

- C) to'g'anoq
D) to'g'ridan to'g'ri
11. A) to'rt boshli
B) to'rt ko'z
C) to'rt burchakli
D) to'rt kunlik
12. A) ubudiyat
B) umrguzaronlik
C) undan bundan
D) unutmoq
13. A) urishqoq
B) urushqoq
C) urinmoq
D) urunmoq
14. A) urish
B) urush
C) urish-talash
D) urish-so'kish
15. A) usturlab
B) ustixon
C) uydirma
D) u yon-bu yon
16. A) uzur B) uchala
C) to'rtala D) uchuq
17. A) uchmox
B) uchoyoq
C) uch payli D) uch pul
18. A) valaykum assalom
B) vadavang
- C) vadillamoq
D) vadirlamoq
19. A) vahim B) vahm
C) vakum D) vajh
20. A) vaqtি-бемахал
B) vaziri a'zam
C) va'daxilof
D) va'z
21. A) voqelik
B) vitse prezident
C) vyostkachi
D) vznos
22. A) yarimavtomat
B) yarog'li
C) yaroqli
D) zalvorli
23. A) yassi-qavariq
B) yassi-tovon
C) yem-xashak
D) yeryong'oq
24. A) yonbag'ir
B) yon-bag'ri
C) zanburug'
D) zapravka
25. A) yuvundi
B) yuvг'ichi
C) yuzmingchi
D) yuzkilolik

15-variant

1. A) zafaron
B) zo'g'im
C) g'arbi-janubiy
D) shama qilmoq

2. A) o'r'in ko'rpa
B) o'rtasiyolik
C) o'rtasrchilik
D) o'roqqanotlilar

3. A) g'aynali
B) shal pangqulooq
C) sharqi-janubiy
D) shilliqqurt

4. A) shirguruch
B) shon-shavkat
C) sha'n-shavkat
D) shovu-biznes

5. A) shuba B) shu'ba
C) shumshik D) charlston

6. A) shukr B) shukur
C) chulduramoq
D) chorus

7. A) chuchkirik
B) chuchkuruv
C) chorsi
D) chorchi-chambar

8. A) mayiz B) mag'iz
C) chiltomoq
D) chimtomoq

9. A) chalqamcha

B) chalqancha
C) cho'l-saxro
D) chodra

10. A) chodira
B) chimchaloq
C) jimjiloq D) chug'uz

11. A) chiroq
B) chirmoviq
C) qism D) qisim

12. A) habash
B) hafa
C) hadik
D) xalaqit

13. A) xanjar
B) hali-hanuz
C) xarajat D) haloskor

14. A) ho'plam
B) harsangtosh
C) har xil
D) halloslamoq

15. A) xilvat
B) ximoya
C) xijil D) xipcha

16. A) husni-axloq
B) ho'l-quruq
C) hiqqildoq
D) har yoq

17. A) hoyhovlamoq
B) hosiyat

C) hasip
D) hashorat

18. A) hind
B) hijriy
C) hayrat
D) hazil-mazah

19. A) hashak
B) hazm
C) xasta D) xayol

20. A) havo rang
B) hibs
C) harom
D) halqa

21. A) halvo B) hijron

C) hirgoyi D) hushyor

22. A) xiyla-nayrang
B) hofiz
C) hojat
D) xislat

23. A) hovuch
B) hivich
C) xiylagina D) xobbi

24. A) hoxlamoq
B) hudud
C) xartum
D) hasham

25. A) xoja B) hokisor
C) xoqon D) xotirjam

LEKSIKOLOGIYA MAVZUSI YUZASIDAN TESTLAR

1-variant

1. Qaysi qatorda ko'chma ma'noli so'z berilgan?

A) Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsoldir.

B) Ko'lдagi suv jimirlab turar, silliq toshlarga ohista urilardi.

C) Elyorning vujudiga orombaxsh shabada yugurdi.

D) Yomon odamni tanqid qil, yaxshi odamga taqlid qil.

2. *Ko'k yuzida suzib yur-gan bulut parchalari tobora ko'payib borayotgan edi.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?

A) metafora

B) metonimiya

C) sinekdoxa

D) vazifadoshlik

3. Uslubiy betaraf so'zlarni belgilang.

A) traktor, plug, mufta

B) ega, gap, undosh

C) futbol, kurash, shaxmat

D) go'sht, gap, choyxona

4. *Tuzsiz she'rларим deb
shirindan shirin Bolalarim
yurar oyoq uchida.* (M.Yusuf)
Ushbu satrda ma'no ko'chishi-
ning qaysi ko'rinishi bor?

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) sinekdoxa
- D) vazifadoshlik

5. 1. Samovarda osh yedik.

2. Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribman.

3. "Rossiya"ga qanday borsam bo'ladi?

4. Bulutlar orasidan quyosh kulib qaraydi.

Ushbu gaplarda ma'no ko'chishining qaysi ko'rinishi bor?

A) 1-, 4-metafora; 2-, 3-metonimiya

B) 1-sinekdoxa, 2-, 3-me-tonimiya, 4-metafora

C) 1-, 2-, 3-metonimiya, 4-metafora

D) barchasi metonimiya

6. Ko'plik shakli hurmat ma'nosini ifodalaganda, ko'plik va egalik qo'shimchasi qanday o'rinalashadi?

A) hurmat ma'nosini ifoda-lagan ko'plik shakli hamma vaqt egalik qo'shimchasidan oldin keladi

B) hurmat ma'nosini ifoda-lagan ko'plik shakli hamma vaqt egalik qo'shimchasidan keyin keladi

C) ko'plik qo'shimchasi hurmat ma'nosini ifodalagan-da, qaysi shaxsdagi egalik qo'shimchasi bilan qo'llani-shiga ko'ra undan oldin yoki keyin kelishi mumkin

D) ko'plik qo'shimchasi hurmat ma'nosini ifodalagan-da, egalik qo'shimchasi ning qo'llanish-qo'llanmasligi ahamiyatga ega emas

7. Qaysi gaplarda urg'u **ko'zlar, atlas** so'zlarining birinchi bo'g'iniga tushadi?

1. Ko'zlar inson qalbining oynasidir.

2. Chin inson birovga yashilik ko'zlar.

3. Tikuvchi atlas ko'ylik tik-di.

4. Geografiya o'qituvchimiz darsga atlas olib kirdi.

5. O'zbek qizlariga atlas juda yarashadi.

- A) 1, 4 B) 2, 3, 5
C) 2, 4 D) 1, 2, 5

8. Berilgan gaplarda **dam** so'zi qanday so'zlarga ma-nodosh bo'la olishini mos ravishda aniqlang.

1. **Bir dam o'zini yo'qotib, esankirab qoldi.**

2. **Ot pishqirgan damiga erir tog'dagi qorlar.**

3. **Ibrohimov oyog'ini yoz-gani o'rnidan turdi va ayvon-**

ning damiga borib ... uzoq-dagi kaptarrang tog'larga qaradi.

4. **Xanjarini qinidan su-g'urib oldi-da, damini oy-dinga solib boqdi.**

- A) lahma, nafas, tig', chet
B) lahma, chet, nafas, tig'
C) lahma, nafas, chet, tig'
D) lahma, tig', chet, nafas

9. **Dunyoda diyonat hali mavjuddir,**

Hali mard yigitlar yashab yuribdi. (A.Oripov) Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nodoshini aniqlang.

- A) vijdon B) haqiqat
C) savob D) yorug'lik

10. **Yomon** so'zi qaysi gapda **og'ir, xatarli** ma'nosida qo'llangan?

A) Hoy do'stim, birovning do'ppisini birovga uddalab kiygizish yomonmi?

B) Ostonada turish yomon bo'ladi, qizim, joyingizni bilib o'tiring.

C) Inoyat oqsoqol uni ko'pchilik o'tasida yomon haqorat qilgan edi.

D) Yarasi yomon, hushsiz holda hiqillab-hiqillab yotibdi.

11. **Mulk** so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llanmagan?

A) Davlat mulkini, xalq mulkini ko'z qorachig'iday saqlashimiz kerak.

B) Oybek qalamiga man-sub asarlar allaqachon qardosh xalqlarning ma'naviy mulkiga aylandi.

C) Husn mulkida kishi tanho bo'lurmu muncha ham?

D) Barcha gaplarda mulk so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan

12. Uning roziliginini olmasdan turib, bu ishga oyoq qo'yish mumkin emas.

Oyoq qo'ymoq iborasi qanday ma'no anglatadi?

- A) ishga yakun yasamoq
- B) ishga kirishmoq
- C) ishni uddalamoq
- D) ishga bormoq

13. Sayramoq so'zi qaysi gapda salbiy ma'noda qo'llangan?

A) Tolda chumchuq sayraydi, Tol bargini chaynaydi.

B) Dutorimning torlari qo'sh bulbuldek sayraydi.

C) Bir zumda pulemyotlar sayrab ketdi.

D) Jo'ralari orasida "shirinsuxanlik" bilan tanilgan Olimxon sayrayverdi.

14. Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qan-

shariga musht tushdi. Qanshar so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) peshonaning chekka qismi

B) yuzning jag' qismi

C) burunning ikki qosh o'ttasidagi yuqori qismi

D) boshning orqa qismi

15. 1. Kun qiyomdan og'di.

2. Shavla qiyomiga yetib pishgan edi.

3. Kampir o'ng qo'liga nonni oldi-da, piyoladagi qiyomga botirdi.

Berilgan gaplarda qo'llangan **giyom** so'zi haqida to'g'ri fikr qaysi javobda berilgan?

A) uchala gapda bir so'zing turli ma'nolari qo'llangan

B) uchala gapda shakidosh so'zlar qo'llangan

C) ikkinchi va uchinchi gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

D) birinchi va ikkinchi gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan

16. Qanday so'zlar badiy nutqda qo'llanib, tazod yaratish uchun xizmat qiladi?

A) omonimlar

B) sinonimlar

C) antonimlar

D) ko'p ma'noli so'zlar

17. Quyidagi bir sinonimik qatorga mansub so'zlarning bosh so'zini belgilang.

- A) taxt B) tayyor
C) hozir D) muhayyo

18. Qaysi qatordagi birikuvlarda tobe so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A) iliq munosabat, chuqur tekshirmoq, xira odam
B) ishning ko'zi, qozonning qulog'i, yo'l yoqasi
C) sovuq havo, boshi og'rimoq, qalb izhori
D) qalin qor, sergo'sht ovqat, qo'l qovushtirmoq

19. Qaysi qatorda zid ma'noli so'zlar birgalikda yangi so'z hosil qilgan?

- A) yaxshi-yomon, yangi-eski, oq-qora
B) yosh-u qari, achchiq-chuchuk, uzoq-yaqindan
C) uzun-qisqa, kecha-kunduz, ozg'in-semiz
D) katta-kichik, urush-tinchlik, baland-past

20. Nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi birliklarni aniqlang.

- A) ibora, tasviriy ifoda
B) ma'nodosh so'z, ko'p ma'noli so'z
C) so'z birikmasi, gap
D) sanalgan barcha birliklar

21. Uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.

1) *Mashina devon tepasiga ko'tarildi.*

2) *Otning afzalini shayladi.*

3) *O'zbek xalqi ichidan o'nlab daholar yetishib chiqqan.*

- A) 1 B) 2
C) 3 D) 1, 2

22. *Hoy, otginang nima edi, qulunim, sho'rvang sovib qoldi?* (O.Yoqubov)
Ushbu gapda bolani erkatalish uchun qo'llanilgan gulun so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) ohuning bolasi
B) tuyaning bolasi
C) otning bolasi
D) sigirning bolasi

23. *Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar.*

Tagiga chizilgan so'zning ma'nosini to'g'ri izohlangan javobni aniqlang.

- A) tugallangan
B) mantiqli
C) qisqa D) foydali

24. Quyidagi so'zlardan qaysilarining paronim jufti yo'q?

- A) urush, adib, azim
B) ahil, dars, adl
C) avlod, dahriy, lanj

D) burch, o'qish, nufuz

25. ***Intiboh*** va ***ishtiboh*** so'zlarining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) intiboh – ogohlantirish; ishtiboh – gumon

B) intiboh – biror ish yoki faoliyatning me'yori; ishtiboh – natija, oqibat

C) intiboh – borliqning ha-qiqati, bor, mavjud; ishtiboh – aniq ko'riniib turadigan, aniq, ravshan

D) intiboh – omonlik be-rish; ishtiboh – sharh, izoh, tushuntirish

2-variant

1. 1. *O't ishi – qovurmoq.* 2. *Bitta ham yovvoyi o't qolmasin.* 3. *Ko'chadan o'tsang, to'g'ri o't.* 4. *Qalbi-da ishq o'ti alangalandi.*

Ushbu gaplarning qaysilarida ***o't*** so'zi bir so'zning ko'p ma'nolari hisoblanadi?

A) birinchi va ikkinchi gaplarda

B) ikkinchi va uchinchi gaplarda

C) birinchi va to'rtinchi gaplarda

D) barcha gaplarda

2. Qaysi gap tarkibida ikki-ta ibora qo'llangan?

A) Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqqargan edik.

B) Pilla xususida till qisiqlik joyim yoq.

C) Qizga o'zbek qishlog'i-ning oq ko'ngil va bag'ri keng odamlari juda yoqdi.

D) O'g'lidan ko'ngli to'q bo'l-gach, yana nimanidir qidir-moqqa, tevaragiga alanglab qaramoqqa boshladi.

3. Qaysi qatordagi iboralar belgi bildiradi?

A) quling o'rgilsin, yurak-bag'ri xun, parvoysi falak

B) tili qisiq, kayfi buzuq, kulini ko'kka sovurmoq

C) istarasi issiq, ruhini ko'tarmoq, tili achchiq

D) dili siyoh, bosh og'rig'i, bahri-dilini ochmoq

4. Ibora qo'llanmagan gapni aniqlang.

A) Tengqurlarim ichida yu-zim yorug' bo'ldi.

B) Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

C) Uni qo'lga oluvchi kishi-larimiz nihoyatda pixini yor-gan bo'lmoq'i shart.

D) Kishilikning dushmanlari yer bilan yakson bo'lur.

5. 1. *Po'lat qilichingni ko'r-ganman o'tda.*

2. *Xalqlar birligi po'latday qudratlidir.*

3. Bizning po'lat qudratimiz birligimizdadir.

4. Po'lat otni o'ynatib, traktorchi bo'laman.

Berilgan gaplarning qaysi birida **po'lat** so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4
C) 1, 2, 3 D) 3, 4

6. Qaysi qatordagi atamlar morfologiya tegishli?

- A) kirish so'z, bosh so'z, undalma
B) ismlar, lug'aviy shakllar, mavhum otlar
C) lug'aviy ma'no, ma'nodosh, ko'p ma'nolilik
D) taqlid so'z, juft so'z, badiiy uslub

7. Qaysi qatorda paronimlar berilgan?

- A) obro'-obro'y
B) kabutar-kaptar
C) a'yon-ayon
D) a'zo-azo

8. Obrazlilik va estetik ta'sir etish qaysi uslubning muhim belgisidir?

- A) so'zlashuv uslubi
B) publisistik uslub
C) badiiy uslub
D) rasmiy va ilmiy uslublar

9. Tilshunoslikning atash ma'nolarini o'rganuvchi bo'limi qanday nomlanadi?

- A) morfologiya
B) sintaksis
C) leksikologiya
D) lug'atshunoslik

10. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari of-tobni bir zumda yuz ko'yga solyapti (A.Qahhor). Ushbu gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?

- A) metafora
B) metonimiya
C) sinekdoxa
D) ma'no ko'chishi kuzatilmaydi

11. "Ajralmoq" fe'lning asl (bosh) ma'nosи qaysi misolda berilgan?

- A) Odatda, buloqlar o'zlarining qaysi tog' jinslaridan chiqishiga qarab, bir necha turlarga ajraladi.
B) Bu hammadan ajralib chiqqan shaxs – samarqandlik To'g'onbek edi.
C) Vaqt o'tishi bilan kesilgan daraxtlarning po'stlog'i tanasidan ajraladi.
D) Elga qo'shilsang – er bo'lsan, eldan ajralsang – yer bo'lsan.

12. Soyaga qarab to'n bichma maqolidagi to'n bichmoq iborasining ma'nosи qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A) rag'batlantirmaslik
- B) andaza olmoq
- C) baho bermoq
- D) xato ish qilmoq

13. **Bo'lmoq** so'zi qaysi gapda lug'aviy ma'noga ega emas?

- A) Bugun bir qiziq voqeа bo'ldi.
- B) Erkak odam bir so'zli bo'ladi.
- C) Samarqandda bir necha marta bo'lganman.
- D) Hozir unga qo'ng'iroq qilsam bo'larmikin?

14. **Sarvixon daromadning buromadini eshitib gangib qoldi** gapidagi **bu-**
romad so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) hajm, miqdor
- B) chiqim, sarf
- C) natija, nihoya
- D) bu so'z o'z lug'aviy ma'nosini yo'qotgan

15. **Baland oxurdan yem yemoq** iborasining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) boquvi zo'r bo'lmoq
- B) o'ta takabbur bo'lmoq
- C) hayot darajasi, maishati yuqori bo'lmoq
- D) katta maqsad sari intilmoq

16. Qaysi javobda faqat shakldosh so'zlar qayd etilgan?

- A) savdo, rux, pilla
- B) oqibat, rasta, savat
- C) soch, baho, sayoz
- D) sado, palata, rasta

17. **Ortmoq** so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A) Mehnatdan do'st ortar, g'iybatdan dushman.
- B) Toza suvg'a bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.
- C) Qalay, novvoylikdan bir nima ortdimi?
- D) Xarajatdan ancha pul ortib qoldi.

18. **Oqlamoq** so'zining asl (bosh) ma'nosi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) sholi oqlamoq, mastavani oqlamoq
- B) daraxtlami oqlamoq, devorni oqlamoq
- C) ishonchni oqlamoq, choyni oqlamoq
- D) do'stni oqlamoq, ona sutini oqlamoq

19. Bir turkum doirasidagi shakldosh so'zlar qaysi javobda keltirilgan?

- A) yoz, palla, rasta
- B) palata, soch, nor

- C) oq, savdo, oqibat
D) savag'ich, sandal, palla

20. *Musofirman, g'arib-man, bekasu ham benavodurman,*

Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.

Uvaysiy qalamiga man-sub ushbu baytdagi benavo so'zining ma'nodoshi qaysi javobda berilgan?

- A) kuysiz, qo'shiqsiz
B) ilhom parisidan yiroqda
C) baxtsiz, sho'rpeshon
D) kambag'al, faqir

21. Sarafroz so'zining ma-nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) mag'rur, yuksak
B) saodatli, baxtli
C) siqiqlik, bukiklik
D) erkin, quvnoq

22. *Ot, sifat, fe'l* so'z tur-kumi vazifasida qo'llanishi mumkin bo'lgan shakldosh so'zni aniqlang.

- A) terma B) to'r
C) qaynatma D) soch

23. 1. *Tilak bilan bitmagan bilim bilan bitar.*

2. *Omad kelsa, daraxtda ham non bitar.*

3. *Abdulla xatni chiroylifi bitardi.*

Ushbu gaplarda qo'llangan **bitmoq** so'zlari ma'no munosabatiga ko'ra o'zaro qanday so'z?

- A) shakldosh so'z
B) ma'nodosh so'z
C) ko'p ma'noli so'z
D) so'zning turli ma'nolarda qo'llanishi

24. Shuur so'zining ma'nosи to'g'ri izohlangan javobni aniqlang.

- A) faxr B) shuhrat
C) idrok D) g'urur

25. Qo'yি mingqa yet-di iborasining ma'nodoshini aniqlang.

- A) boyib ketmoq
B) behad sevinmoq
C) maqsadiga erishmoq
D) o'zligini unutmoq

3-variant

1. Quyidagi qaysi birliklar ning shakliy ifodasi bilan mazmuni o'tasida bog'liqlik yo'q?

- A) ibora
B) tasviriy ifoda
C) so'z birikmasi
D) ibora va tasviriy ifoda

2. Lug'at turlarining qaysi birida davlat so'zi "Davlat – jamiyatni qonun kuchi bilan

boshqaruvchi tashkilot”
tarzida ifodalanishi mumkin?

- A) imlo lug'atida
- B) izohli lug'atda
- C) tarjima lug'atida
- D) sinonim (ma'nodosh) so'zlar lug'atida

3. Sajda aylar zohid ul mehrob aro.

Men qilurman sajda egma goshima. (Mashrab)

Baytda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

- A) metafora
- B) sinekdoxa
- C) metonimiya
- D) vazifadoshlik

4. Internet so'zining ma'nosini qaysi lug'at orqali bolib olish mumkin?

- A) imlo lug'ati
- B) tarjima lug'ati
- C) izohli lug'at
- D) sinonim (ma'nodosh) so'zlar lug'ati

5. So'zlarning borliqdag'i ma'lum **narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi ularning qanday ma'nolari hisoblanadi?**

- A) lug'aviy ma'nolari
- B) grammatik ma'nolari
- C) morfologik ma'nolari
- D) so'zlarning ko'chma ma'nolari

6. Bahr so'zi qaysi gapda **tug'yon, to'fon so'zlariga ma'nodosh bo'lib kelgan?**

- A) Terdi san'at bahrining qimmatbaho injusidan.
- B) Buloqlarda qaynadi g'a-zabning bahri.
- C) Yigitlar taltayar qizlar bahrida.
- D) Bir yoningda Sevanday bahr, Misoli bulutlar ichida qamar.

7. Bedov boylovda semirar, Qo'y-qo'zi yaylovda

(Maqol)

Ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) yuvosh
- B) o'ynoqi
- C) oriq
- D) yovvoyi

8. Sen chindan ham go'-zalsan,

Huzuringga keldim bot.

(A.Oripov)

Ajratib ko'rsatilgan so'z qanday ma'noni anglatadi?

- A) tez
- B) yana
- C) umrbod
- D) kech

9. 1. Xufton namozidan so'ng poychiroq yonida o'tirib, Fuzuliy devonini va-raqlar edi.

2. Ikkisi birga devonga kirdilar.

3. Devonda yonboshlab yotgan Abbosxon Saidiy-

ning hurmatiga g'imirlab qo'ydi. Berilgan gaplarda qo'llangan **devon** so'zi haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.

A) Uchala gapda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan.

B) Uchala gapda shakldosh so'zlar qo'llangan.

C) Birinchi va ikkinchi gapdagi devon so'zi uchinchi gapdagi devon so'ziga nisbatan shakldosh

D) Ikkinci va uchinchi gapdagi devon so'zi birinchi gapdagi devon so'ziga nisbatan shakldosh

10. **Sel** so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llanmagan?

A) Har qanday go'sht tuzlanganda, seli chiqib ketadi.

B) Quyoshning seliga miriqib cho'milgan yam-yashil dala barq uradi.

C) Elmurod shunday o'ylar selida g'arq bo'lib, uyqusi qochdi.

D) Barcha gaplarda sel so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan.

11. **Qoq** so'zi qaysi gapda yordamchi so'z bolib kelgan?

A) O'tadagi devorni buzib, qoq kesagini toklarning tagiga solishdi.

B) Agar muruvvat qilsanglar, jilla bo'lmasa, bu yilcha mevalarni qoq bo'lasilardan.

C) Butun jonzotga hayot beruvchi quyosh erta bilan ko'tariladi-yu, qoq tushga kelib, tik turib oladi.

D) Barcha gaplarda qoq so'zi mustaqil so'z bo'lib kelgan.

12. **Yumshoq non, yumshoq ovoz, yumshoq gapirmoq** birikuvlardagi **yumshoq** so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) bir so'zning turli ma'nolari

B) bir xil shakldagi uchta so'z

C) bir xil ma'nodagi uchta so'z

D) o'zaro paronim so'zlar

13. **Tush ko'rmoq, tush payti, pastga tush** birikuvlardagi **tush** so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) bir so'zning turli ma'nolari

B) bir xil shakldagi uchta so'z

C) bir xil ma'nodagi uchta so'z

D) o'zaro paronim so'zlar

14. Kasbiy atamalar berilgan qatorni aniqlang.

- A) qo'shish, kvadrat, ot, fe'l
B) andava, sog'moq, yigir-moq
C) hikoya, qissa, roman
D) milod, kalendar, kurtak

15. Shakldosh so'zlarni aniqlang.

- 1) *hadis*; 2) *davr*; 3) *havo*;
4) *bosim*; 5) *vij-vij*; 6) *davlat*

- A) 2, 3, 4, 5, 6
B) 1, 3, 4, 5, 6
C) 2, 3, 4, 6
D) barchasi shakldosh so'zlar

16. Tuyg'un so'zining ma'nodoshi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) masrur B) sezgir
C) aniq D) mos

17. Chapdast so'zining ma'nodoshi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) chaqqon B) chapaqay
C) chapani D) chaparosta

18. Tartaddun so'zining ma'nosи qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) poydevor B) boshlovchi
C) kashfiyat D) madaniyat

19. Xilqat so'zining ma'nosи qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) biror narsaning yig'indisi
B) biror bir hukmdor qo'l ostidagi mamlakat
C) yaratilish, buniyodga kelish
D) sirli, mavhum

20. Qaysi javobda ma'nodosh so'zlar to'g'ri berilgan?

- A) ataylab, jo'rttaga, azabazza
B) subut, burd, tob
C) sevinch, surur, huzur
D) jang, muhoraba, qutqu

21. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bogiiq xatolik mavjud?

- A) Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazdik.

B) Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashladi.

C) Yo'lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bolsa ham, faqir hayotmng uch yilini Mirzakarimboy eshigida o'tkazdi.

D) Quyosh hamal yulduzlar burchiga o'tishi bilan kunlar isiy boshladi.

22. Qaysi so'zlar o'zidan oldingi so'zning tarkibiy qismi sanaladi?

- 1) ko'makchi fe'llar; 2) to'liq-siz fe'llar; 3) ko'makchilar; 4) bog'lovchilar

- A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 4
 C) 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

4-variant

23. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. (A.Qodiriy)
 Ushbu gapdagi tagiga chizilgan so'zning ma'nodoshini aniqlang.

- A) ozg'in B) novcha
 C) kelishgan D) chaqqon

24. Qishloqning husniga husn qo'shgan qaddi raso teraklar tik qomatlarini mag'rur ko'rsatib turadi.

Ushbu gapda shakl va ma-no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar ishtirok etgan?

- A) ma'nodosh
 B) shakldosh
 C) paronim
 D) ma'nodosh va shakldosh so'zlar

25. Addoi otang Yusufbek hoji. Toshkand 27 dalv oyida 1264-nchi yilda yozildi. (A.Qodiriy)

Tagiga chizilgan so'zning ma'nodoshini aniqlang.

- A) tugatuvchi
 B) duo qiluvchi
 C) davom etuvchi
 D) yo'llovchi

1. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti. (A. Qahhor)

Mazkur gapda qo'llangan **ko'y** so'zining ma'nodoshini aniqlang.

- A) yo'l B) ohang
 C) holat D) tus

2. Nadomat komida qolganlar, ayting. (A. Oripov)

Ushbu misradagi tagiga chizilgan so'zning ma'nodoshini aniqlang.

- A) huzurida B) ichida
 C) ta'sirida D) istagida

3. Seningsiz menga kom yo'qdir,

Asal ichsam, zahar bo'l-g'ay. (E. Vohidov)

Ushbu she'riy parchada qo'llanilgan **kom** so'zining ma'nodoshini aniqlang.

- A) tinchlik B) shodlik
 C) muhabbat D) so'z

4. 1. Nadomat komida qolganlar, ayting. (A. Oripov)

2. Seningsiz menga kom yo'qdir,

Asal ichsam, zahar bo'l-g'ay. (E. Vohidov)

Berilgan gaplardagi **kom** so'zi o'zaro ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar?

- A) ma'nodosh so'zlar
B) shakldosh so'zlar
C) bir so'zning turli ma'no-
lari
D) paronim so'zlar

5. *"Mahbub ul-qulub"* dunyoning achchiq-chuchigini totgan, goho "komronlig", goho "notovonlig'" topgan buyuk shoir Navoiyning 60 yillik hayotiga yakun bo'ldi. Ushbu gapda qo'llangan **komronlig'** so'zining ma'nosini aniqlang.

- A) kamtarlik B) maqtov
C) buyuklik D) baxtlilik

6. «*So'zing Shirin, o'zung Xisravdin afzun,*

Bo'lur Layli sening husnunnga Majnun» baytidagi afzun so'zining lug'aviy ma'no-si qaysi javobda ko'satilgan?

- A) go'zal B) aqlli
C) ortiq D) jasur

7. Qaysi qatordagi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud emas?

- A) Olisdagi qarindoshdan yaqindagi yot yaxshi.
B) Mashhur bog'bon Darveshhoji shaftoli, olhirot ko'-chatlarini o'tkazdi.
C) Salimning gapi borgan sari unga ko'proq nasha qilar edi.

D) Davraga dutor, tambur, g'ijjak, nay doira ko'tarib mashshoqlar kirib keldi.

8. Qaysi gapda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq uslubiy xato mavjud?

1. *Besh asirkim nazmiy saroyni*

Titratadi zanjirband bir she'r.

2. *Ukish, noming o'chsin jahonda!*

3. *Sanat saroyiga konsert tomosha qilgani bordik.*

4. *Og'zi kuygan qattiqni ham puflab ichadi.*

- A) 1, 3 B) 2, 3
C) 1, 2, 3
D) 1, 2, 3, 4

9. Qaysi qatorda berilgan so'zlarning uchalasi ham shakldosh (omonim)iga ega?

- A) mushak, kadr, chang
B) karam, kuy, et
C) davlat, oz, qil
D) berilganlarning barchasi shakldosh so'zlar

10. *Yana bir istagim shuki, falakiyat, riyoziyot, handasas, tibbiyat, jug'rofija, adabiyot ilmidan xabar topsagina alloma deb tan olinsa.* (Tohir Malik) Ushbu gapda qo'llangan ***handasas*** so'zining ma'nodoshini aniqlang.

- A) psixologiya
- B) geodeziya
- C) geometriya
- D) hadisshunoslik

11. ***Intiboh*** so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) biror narsaning mazmu-ni, mohiyatini ochib berish, izohlash
- B) nizo, kelishmovchilik
- C) ogohlilik, ogohlantirish
- D) oxiriga yetkazish, tuga-tish

12. Qaysi gapda ***yomon*** so'zi ***gattiq*, *juda*, *nihoyat-da*** so'zlariga sinonim bo'la oladi?

- A) Bugun Ahmad yomon uxladi.
- B) Ishqilib yomon xabar kelmasin-da!
- C) Inoyat oqsoqol uni ko'p-chilik o'tasida yomon haqorat qilgan edi. (S.Ahmad, "Ufq")
- D) Eng yomoni – xona g'o-yatda sovuq edi. (Mirmuhsin)

13. ***Alisher qalamga qil-ganda xitob,***

Dovoti yodidan ko'tari-ladimu? baytidagi ***dovot*** so'zining ma'nosi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) qalamdon
- B) siyohdon
- C) qog'oz
- D) qalam

14. ***Kengash qilgan el oz-mas, keng bichilgan to'n to'zmas.***

Berilgan maqoldagi ***ozmoq*** fe'lining lug'aviy ma'nosi qay-si javobda keltirilgan?

- A) toyib ketmoq, yiqilmoq
- B) to'g'ri yo'lidan adashmoq
- C) kamaymoq
- D) ozg'in tortmoq, oriqlamoq

15. Shakldosh so'zlar qaysi javobda berilgan?

- A) omil, chap, qir, past
- B) ravon, yoz, ranj, sog'moq
- C) oz, nor, palla, nota
- D) soch, pilla, otash, rusum

16. Shakldosh so'ziar qaysi javobda berilgan?

- A) ravon, soz, dunyo
- B) palata, oqibat, rasta
- C) oq, savdo, ravish
- D) soch, palla, otash

17. **"Devonu lug'otit turk"-da sayrar sanduloch.** (X.Davron)

Berilgan misradagi ***sandu-loch*** so'zi qanday so'z?

- A) tarixiy so'z
- B) arxaik so'z
- C) ramziy so'z
- D) badiiy so'z

18. Qaysi javobda shakldosh iboralar qayd etilgan?

A) Shu kunlarda sevinchimni ichimga sig'dira olmayapman: ishlarim besh! Davronov shodligi ichiga sig'may, atrofga zavq bilan qarab o'tirardi.

B) Tashabbus – katta gap! Men o'z aravamni tortsam ham, katta gap.

C) Shabada ham, toza havo ham uning ko'nglini ocholmasdi. Ko'nglini ochmasa, uning dardi nimaligini qayerdan bilay?

D) Qo'rqqanimidan nafasim ichimga tushib ketdi. Sultanning nomini eshitishi bilan Bozorovning dami ichiga tushdi.

19. *Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina.*

Muhammad Rizo Ogahining ushbu baytidagi **bod** so'zining ma'nodoshi qaysi javobda ko'satilgan?

- A) bo'ron B) shamol
C) suv D) koinot

20. *Kezib dasht-u biyobon bahru barlar yig'lasam tong yo'q,*

To'kib yosh o'rniga gumarlar yig'lasam, tong yo'q. Furqat qalamiga mansub

ushbu baytdagi **bahru bar** so'zining ma'nodoshi qaysi?

- A) yer-u osmon
B) zamin va gardun
C) butun dunyo
D) okean va dengiz

21. *Menga sen bo'Imasang, jon hojat ermas,*

Bihisht-u hur-u rizvon hojat ermas. Atoyining mazkur baytida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llangan?

- A) ko'p ma'noli so'ziar
B) ma'nodosh so'ziar
C) takroriy so'zlar
D) zid so'ziar

22. *Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.*

Navoiyning ushbu baytidagi **arjumand** so'zining ma'nodoshi qaysi javobda berilgan?

- A) munosib, tanlangan
B) ixtiyoriy
C) aziz, loyiq
D) orzu qilingan

23. *Visoli lazzatidin zavq topmoqlig' erur dushvor,*

Firoqi shiddatinda yo'qsa jon bermaklik osondur.

Bobur qalamiga mansub

ushbu baytda so'zlaming shaki va ma'nno munosabatiga ko'ra qaysi turi qo'llangan?

- A) ma'nodosh so'zlar
- B) zid so'zlar
- C) shakldosh so'zlar
- D) paronim so'zlar

24. Chokar hazilga, zaro-fatga o'ch yigit edi. (S.Siyoyev)

Berilgan gapdagagi zarofat so'zining ma'nodoshini aniqlang.

- A) hozirjavoblik
- B) fahm-farosat
- C) chirolyi gaplar
- D) maqol

25. Olam hodis, qo'lga tushib qolsang, so'roq kezida aybni faqat o'z bo'yningga olib, oraga meni qotishtirmaysan! (A.Qodiriy)
Berilgan gapdagagi olam hodis birikmasining ma'nodoshi qaysi javobda keltirilgan?

- A) masalan
- B) ehtimol
- C) avvalo
- D) xullas

5-variant

1. Atrof tumonat oppoq edi. Bu oqlik jamiki puchmoqlar-u xilvat go'shalarga ham allanechuk g'ayritabiyy kuch orqali tarqalgan. (Sh.

Bo'tayev) Berilgan matndagi puchmoq so'zining ma'nodoshi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) qorong'ilik, zulmat
- B) ovloq, burchak
- C) qo'rqinchli, vahimali
- D) chuqurlik, tubsizlik

2. Muhabbat dardidan bemor qalblarmiz,

O'gay bo'lsak, netong, sog'lar orasida.

(A.Oripov) Ushbu parchadagi netong so'zining ma'nosini aniqlang.

- A) ne baxt
- B) ne ajab
- C) shubhasiz
- D) ilojsiz

3. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazdik.

B) Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashladi.

C) Yo'lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo'lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o'tqazdi.

D) Quyosh hamal yulduzlar burjiga o'tishi bilan kunlar isiy boshladi.

- 4. 1. Do'sting uchun zahar yut.**
- 2. Huvullab qolgan uyda yolg'iz yashash qiyin. Hovli yutaman deydi. (S.Ahmad)**
- 3. Arslon degan bir yig't kurashda tengqurlarini yutdi.**

Ushbu gaplarda qo'llangan **yutmoq** fe'llari ma'no munosabatiga ko'ra o'zaro qanday so'ziar hisoblanadi?

A) birinchi va ikkinchi gaplarda bir so'zning ikki ma'nosi, uchinchi gapdagagi **yutmoq** fe'li birinchi va ikkinchi gaplardagi **yutmoq** fe'liga nisbatan shakldosh so'z

B) uchala gapdagagi **yutmoq** so'zlari o'zaro shakldosh so'ziar

C) birinchi gapdagagi **yutmoq** so'zi ikkinchi va uchinchi gapdagagi **yutmoq** so'zlariga nisbatan shakldosh so'z, ikkinchi va uchinchi gapdagagi **yutmoq** so'zi o'zaro bir so'zning ikki ma'nosi

D) uchala gapdagagi **yutmoq** so'zi bir so'zning, ya'ni ko'p ma'noli so'zning uch xil ma'nosi

- 5. 1. Yurtim, senga she'r bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim aslo. (A.Oripov)**

- 2. Mana shu daryodan Mirzacho'l suv ichadi, ekin bitad.**

- 3. Katta Farg'ona kanali qirq besh kunda bitdi.** Ushbu gaplarda qo'llanilgan **bitmoq** so'zining o'zaro ma'no munosabati qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) har uchala gapda bir so'zning turli ma'nolari, ya'ni polisemantik so'z

B) har uchala gapda mustaqil uchta so'z, ya'ni o'zaro shakldosh so'z

C) birinchi gapdagagi **bitmoq** so'zi ikkinchi va uchinchi gapdagagi **bitmoq** so'zlari bilan o'zaro shakldosh, ikkinchi va uchinchi gapdagagi **bitmoq** so'zi o'zaro bir so'zning turli ma'nolari

D) uchinchi gapdagagi **bitmoq** so'zi birinchi va ikkinchi gapdagagi **bitmoq** so'zlari bilan o'zaro shakldosh, birinchi va ikkinchi gapdagagi **bitmoq** so'zi o'zaro bir so'zning turli ma'nolari

- 6. Andalib bir savt ila bo'l-di giriftori qafas.** (Hamza)

Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nodoshini aniqlang.

- A) to'ti B) qumri
C) sa'va D) bulbul

- 7. 1. Doka ro'molin dol qo'ygan, O'ng betiga xol qo'ygan.**

- 2. Ertasiga haligi she'r**

gazetaning ikkinchi beti boshida bosilib chiqdi.

3. Yer ketmonning betini qayiradigan darajada toshmetin bo'lib muzladi.

Ushbu gaplarda qo'llangan ***bet*** so'zi haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

A) Barcha gaplarda bir so'zning turli ma'nolari qo'llangan.

B) Barcha gaplarda shakldosh so'zlar qo'llangan.

C) Birinchi va uchinchi gapda shakldosh so'zlar qo'llangan

D) Birinchi va ikkinchi gapda shakldosh so'z qo'llangan

8. Ma'lumingiz, ulardan Azizbek bilan Yusufbek

Toshkentda bilfe'l isyon chiqarib yotadirlar. (A.Qodiriy)

Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosи qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) muntazam

B) bamaslahat

C) o'zicha D) kutilmaganda

9. Quyidagi so'zlarning qaysilari shakldosh so'zlar hisoblanadi?

**1) bas; 2) band; 3) banda;
4) bal; 5) bog'**

A) 1, 2, 5

B) 1, 2, 3, 5

C) 1, 2, 3, 4, 5

D) 2, 5

10. O'ng qo'lidagi dastro'mol bilan diydasini artdi.

Ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nodoshi qaysi javobda berilgan?

A) yosh B) bosh

C) peshona D) ko'z

11. Quyidagi uyadosh so'z-larning o'sib borish ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

A) qulun, toy, do'non

B) qulun, do'non, toy

C) toy, qulun, do'non

D) toy, do'non, qulun

12. Zaynab lappos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradigan edi. (A.Qodiriy)

Lappos so'zining ma'nodoshi qaysi javobda keltirilgan?

A) xotirjam

B) ozg'in

C) to'ladan kelgan

D) uyatchan

13. Sahn yuzida uchto'rt yuz musallah yigitlarni birovni kutgan holda ko'rdim. (A.Qodiriy)

"O'tkan kunlar" romanidan olingan ushbu gapda ajratib

ko'rsatilgan so'z qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) otliq
- B) qurollangan
- C) xizmatkor
- D) isyonchi

14. *To'g'risi, zahar olud maktubingizga odamlarcha tushuna olmadim.* (A.Qodiriy) Ushbu parchadagi *olud* so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) qorishgan
- B) yanglig'
- C) achchiq
- D) alamli

15. I ustunda berilgan so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda II ustundagi qaysi so'zga sinonim bo'la oladi?

I

- 1) *yugurmoq*
- 2) *o'ymoq*
- 3) *bahor*

II

- a) *paydo bo'immoq*
- b) *muddat; davr*
- c) *azob bermoq*

A) 1-b; 2-c; 3-b
B) 1-c; 2-a; 3-c
C) 1-a; 2-c; 3-b
D) bu so'zlar o'zaro sinonim bo'la olmaydi

16. *E'timod* so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A) ishonch yorlig'i
- B) ishonch
- C) hurmat
- D) samimiyat

17. Qaysi gapda ko'chma ma'noli so'z qo'llangan?

- A) Elyorning vujudiga orombaxsh shabada yugurdi.
- B) U ko'l yoqasiga kelib qolganini ham sezmadni.
- C) Choyxonachi yoshi el-liklardan oshib qolgan bo'lsa ham, xuddi o'smirlarday yengil qadam tashlardi.
- D) Berilgan barcha gaplarda

18. *O'z jigariga ham rahm-shafqat qilmaydilar!*

Ushbu gapda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

- A) metafora
- B) metonimiya
- C) sinekdoxa
- D) vazifadoshlik

19. Gapning ko'chma – tagma'nosи ifodalangan qatorni aniqlang.

- A) Bizni "homiy"lardan himoya qilg'il, degan sharq xalqida piching – duo bor. Xo'sh, janobi oliylari, qaysi sho'rtlik xalq Sizning "himo-yangizga" qolmish intizor.

- B) Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan tuyog'imiz ... faqat shul Otabekdir.

C) – Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo'lmasmi-di?

– Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilin-gan.

D) Barcha gaplarda tagma'no ifodalangan.

20. Zid so'zlar qo'llangan gapni aniqlang.

A) Sovuq shamol o'qtin-o'qtin esib, to'qayni allaqanday vahimaga to'ldirdi.

B) Bir no'noqni bir epchil eplaydi.

C) Sherali qo'rmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola edi.

D) Yolg'onchining so'zi rost bo'limas.

A) ko'z-ko'z qilmoq – maqtanmoq, ko'z ostiga olish – mo'ljallash

B) ovi yurgan – baxtli, dili pora – xafa bo'lmoq

C) kavushini to'g'rilab qo'y-moq – haydamoq, yo'q yerdagi – bo'limg'ur

D) o'rniga qo'yimoq – bajarmoq, qo'l urmoq – tegmoq

23. Qaysi qatorda ot turkumiga mansub ma'nodosh so'zlar berilgan?

A) qiyinchilik, mashaqqat, zahmat

B) kasallik, xastalik, bemor

C) oydin, ravshan, ochiq

D) keksa, mo'ysafid, qari

24. Qaysi qatorda ma'nodosh so'zlar sifat turkumiga mansub?

A) vazifa, topshiriq, majburiyat

B) do'st, o'rtoq, birodar

C) shamol, to'fon, yel

D) ulug', buyuk, ulkan

25. Ko'chma ma'noli so'z qaysi gap tarkibida qo'llangan?

A) Bekorchidan bemaza gap chiqadi.

B) Qora kunda qil Tarlon qizga qayg'udosh keldi.

C) Qaddi rost shamning tilidan O'rtanur parvona ham.

22. Qaysi qatorda iboralarining ma'nosи noto'g'ri berilgan?

D) Barcha gaplarda ko'chma ma'noli so'z qo'llangan.

6-variant

1. Sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chgan gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Dunyoda tashvishlarni ko'p chekdi boshim.

B) Umrini ilmga bag'ishlagan odam abadiy umrga erishadi.

C) El ogziga elak tutib bo'lmaydi.

D) Mehmonlar uchun meva-cheva, quyuq-suyuq tortildi.

2. *Ne bir buyuk zotlar bosh egdi nochor Tomuq'-dan yo'l topmay nurli hayotga ...* (A.Oripov)

Ostiga chizilgan so'zning ma'nodoshi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) haqiqat B) jannat

C) do'zax D) razolat

3. Durdona so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llamagan?

A) Gullar ko'pdir bu xilqat aro Durdonalar yanglig' so-chilgan. (A.Istroil)

B) Mana, shundoq bitta afsona, Afsonalar ichra durdona. (Oybek)

C) "Jahon adabiyoti" jurnali dunyo adabiyoti durdonalarini nashr etishda jonbozlik ko'rsatmoqda.

D) barcha gaplarda ko'chma ma'noda qo'llangan

4. Dog' so'zi qaysi gapda ko'chma ma'noda qo'llanmagan?

A) Qo'rqoqlik dog'ini o'llim ham yuvolmaydi. (A.Muxtor)

B) Yaxshi so'z – yurak yog'i, yomon so'z – yurak dog'i. (Maqol)

C) Oyda ham dog' bor. (Maqol)

D) Bu gap bizning sha'nimizga dog' bo'lishi mumkin.

5. *Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek.*

Furqatning ushbu misrasidagi sayyora so'zining manosi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) osmon jismi

B) quyosh atrofida aylanuvchi

C) muqim, doimiy

D) kezib yuruvchi, darbandar

6. Sinekdoxa yo'li bilan ma'nosи ko'chgan so'z qaysi gapda mavjud?

A) – Xudovando! Bu na ko'rgilik. Endi netaman?

To'qqiz og'izni qanday boqaman? (S.Siyoyev)

B) Yurt bu kun ohuday xo'p ishvakordir, Sir kabi sermavjdir, Pomirday poydor. (A.Oripov)

C) Alining buvasi oppoq soqolli, har bir so'zini salmoqlab aytadigan odam edi.

D) Momom ko'zini yumib yotgan bo'lsa-da, butun vujudi sergak.

7. *Yulduzni benarvon uradigan* iborasining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

- A) o'taketgan sho'x
- B) o'taketgan qaysar
- C) o'taketgan olg'ir
- D) o'taketgan maqtanchoq

8. *Tanimasman, ko'rmasman, yot u men uchun, Bas-ki biror do'zaxidir, shilqim, besubut. Besubut* so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) ko'p gapiradigan
- B) yolg'on gapiradigan
- C) uyalmaydigan
- D) va'dasida turmaydigan

9. *O'rtog'im birdan kulib yubordi, o'zi juda serzavq, dali-q'uli, sho'x bola, – deydi Musavoy.* (Oybek) Ajratib ko'rsatilgan so'zga ma'nodosh iborani aniqlang.

A) yulduzni benarvon uradigan

B) ko'nglida kiri yo'q

C) do'ppisi yarimta

D) og'zi qulog'ida

10. *Agar yaxshililing seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen mo'min ekansan.*

Ushbu gapdag'i antonim so'zlar qaysi so'z turkum(lar)iga tegishli?

- A) sifat, fe'l
- B) ot, sifat
- C) ot, fe'l
- D) fe'l

11. *Anvar yosh bo'lsa ham, jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushgan baxtsizlikdan ham mutaassir bo'luvchi edi.*

"Mehrobdan chayon" romanida keltirilgan ushbu ta'rifdagi "mutaassir" so'zining ma'nosi qaysi qatorda berilgan?

A) talabchan, zehnli

B) ta'sirlanuvchan, ko'ngliga oluvchan

C) yig'lovchi, alam chekuvchi

D) baxtni topuvchi

12. *Aql-u, fahm-u, hush-u idrokim sazovor o'Idikim, Mijmari bardosh ichinda nordurman ishqida.*

Ushbu baytdagi tagiga chi-

zilgan so'zlar qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) mijmar – tana, nor – tuya
- B) mijmar – tana, nor – bandagi dog'
- C) mijmar – sorbon, nor – tuya
- D) mijmar – cho'g'don, nor – olov

13. Badiiy uslubning ekspressiv vazifasi deganda nima tushuniladi?

- A) o'quvchiga ta'sir qilish
- B) muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik
- C) ilmiy atamalarni qo'llash
- D) ma'lum voqeа-hodisa haqida axborot berish

14. Berilgan gapdagи **bot** so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?

Tez yongan bot soviydi.

- A) ot
- B) sifat
- C) fe'l
- D) ravish

15. Berilgan so'zlar tarqidagi jarangli tovushni jarangsiz jufti bilan almashtirganda paronimlik hodisasi kuzatiladigan qatorni aniqlang.

- 1) mard;
 - 2) sut;
 - 3) zot;
 - 4) xoli;
 - 5) tog';
 - 6) tub;
 - 7) bosh;
 - 8) abzal;
 - 9) dod
- A) 1, 2, 4, 8, 9

B) 1, 3, 5, 6, 9

C) 2, 5, 6, 7, 8

D) 1, 5, 7, 8, 9

16. Bir umumiylar ma'noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so'zlarga ... so'zlar deyiladi.

- A) ma'nodosh
- B) shakldosh
- C) zid ma'noli
- D) ko'p ma'noli

17. **Birinchi** so'zi berilgan so'zlarning qaysilari bilan ma'nodoshlik hosil qiladi?

- 1) *bosh*;
 - 2) *to'ng'ich*;
 - 3) *muhim*;
 - 4) *dastlabki*;
 - 5) *dolzarb*;
 - 6) *katta*;
 - 7) *ilk*
- A) 2, 4, 7
 - B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
 - C) 1, 2, 3, 4, 6
 - D) 1, 3, 6, 7

18. Eski turkiy tildagi **«art»** so'zi qanday ma'noni ifodaiydi?

- A) san'at
- B) ko'p, cheksiz
- C) tepa, dovon
- D) urug', zot

19. Eski o'zbek tiliga xos **o'ko'sh**, **talim** so'zlarining ma'nosini aniqlang.

- A) o'ko'sh – nihoyatda, talim – kam
- B) o'ko'sh – o'qish, talim – ta'lim

C) o'ko'sh – ko'p, talim – bir qancha

D) o'ko'sh – maktab, talim – bilim

20. Eski o'zbek adabiy tiliga xos "aopunnda" so'zining ma'nosi to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang.

A) keksalikda

B) eshigingda

C) yoshligingda

D) qopingda

21. "Hayratlanmoq" so'ziga ma'nodosh bo'lgan iborani aniqlang.

A) yoqasini ushlamoq

B) dili siyoh bo'lmoq

C) yuragi chiqmoq

D) kapalagi uchmoq

22. Ibora qatnashgan gapni aniqlang.

A) U ko'zlarini katta-katta ochib qaradi.

B) Tilshunoslikning morfologiya bo'limiga katta hissa qo'shgan olim edi.

C) Hoji xola ko'zi ilinib, endi xurrak ota boshlagan edi.

D) Shirin xayollarga berilib, bir zum ko'zini yumdi.

23. Ikkita ibora qo'llangan gap qaysi qatorda berilgan?

A) O'g'lidan ko'ngli to'q bo'lgach, yana nimanidir qidir-

moqqa, tevaragiga alanglab qaramoqqa boshladи.

B) Pilla xususida ko'nglim to'q, tili qisiqlik joyim yo'q.

C) Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqargan edik.

D) Qizga o'zbek qishlog'i-ning bag'ri keng odamlari juda yoqdi.

24. Ifor so'zining ma'nodoshi qaysi javobda berilgan?

A) chiroy

B) ko'rinish

C) tuzilish

D) hid

25. Ishqingda gora boshim oqardi,

Bir boqmadi ko'z qarog'i birla.

Ajratib ko'rsatilgan so'zda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

A) sinekdoxa

B) metafora

C) metonimiya

D) vazifadoshlik

7-variant

1. Javoblarning qaysi bida takrori qo'llanganda "g'iybat" ma'nosi yuzaga chiqadigan so'z berilgan?

A) dedi

B) yo'q

C) bor

D) ochiq

2. Lekin san'atimiz hozir

o'smirlik chog'idayoq qudratli qanot paydo qilyapti.

Ushbu gapda ma'no ko'chish hodisasi turini aniqlang.

- A) kinoya
- B) metonimiya
- C) metafora
- D) sinekdoxa

3. Metonimiya yo'li bilan ma'nosi ko'chgan so'z qatorini aniqlang.

- A) Bulbulning ishqisi – gulda.
- B) Egarning qoshi naqsh-dor edi.
- C) Hademay suruvda tuyqlar ko'payadi.
- D) Qabr ustida butun Hirot yig'ladi.

4. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan **bosh tortmoq** fe'lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) bosh olmoq, o'ldirmoq
- B) ulug' martaba hosil qilmoq
- C) korina boshlamoq
- D) ko'tarilmoq, yuqorilashmoq

5. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan **boshidin quymoq** fe'lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) ulug' martaba hosil qilmoq
- B) esidan chiqarmoq

- C) ko'rina boshlamoq
- D) bosh olmoq, o'ldirmoq

6. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan **boshdin quymoq** fe'lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) ko'rina boshlamoq
- B) bahridan o'tmoq, kechmoq, tark qilmoq
- C) esidan chiqarmoq
- D) bosh olmoq, o'ldirmoq

7. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan **bosh chiqarmoq** fe'lining izohi to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- A) o'zini tortmoq, o'zini ayamoq
- B) o'yinda boshini tikmoq, qurbon bo'lmoq
- C) ko'tarilmoq, yuqorilashmoq
- D) ko'rina boshlamoq

8. Navoiy asarlari lug'atidan keltirilgan **bosh uchurmak** (*o'ldirmoq, boshini kesmoq*) feliga ma'nodosh bo'la oladigan javobni belgilang.

- A) bosh ura kirishmoq
- B) bosh olib chiqmoq
- C) bosh tushirmoq
- D) bosh tortmoq

9. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud gapni aniqlang.

A) Adl teraklar qishloqning husniga husn qo'shadi.

B) Amringizga muvofiq keldim.

C) Yaxshiga yondash, yomon dan qoch.

D) Asl maqsadingizni ayting

10. Paronim so'z noto'g'ri qo'llangan gapni aniqlang.

A) Bir asrga tatigulik yillarni bosib o'tdik.

B) Ularning hayoti shunchaki bir ro'zg'or tebratish taxlitida o'tdi.

C) Qadr bilmas qarindosh dan qadr qilgan yod yaxshi.

D) Yoriq joyni yamash uchun rosa harakat qildi.

11. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud gapni aniqlang.

A) Yaxshiga yondash, yomon don qoch.

B) Amringizga muvofiq keldim.

C) Asl maqsadingizni ayting.

D) Adl terakar qishloqning husniga husn qo'shadi.

12. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud bo'lman gapni belgilang.

A) Salimning gapi borgan sari unga ko'proq nasha qilar edi.

B) Davraga dutor, tambur, g'ijjak, nay, doira ko'tarib mashshoqlar kirib keldi.

C) Olisdagi qarindoshdan yaqindagi yod yaxshi.

D) Mashhur bog'bon Darvesh hoji shaftoli, olxo'ri ko'chatlarini o'tqazdi.

13. "*Qalandar*" muvaffaqiyat qozondi, hatto alohida yozuvchilar, tanqidchilar orasida babs-munozaralarga sabab bo'ldi.

Gapda ostiga chizilgan so'zda ma'no ko'chishining qaysi turi mavjud?

A) metonimiya

B) ma'no ko'chishi kuzatilmagan

C) sinekdoxa

D) metafora

